<b>1. O'quv mashg'ulotiga kirish bosqichi (10 daqiqa)</b>	<p>1.1. Mashg'ulot mavzusni, uning maqsadi va kutilayotgan natijalarini e'lon qiladi, ularning ahamiyatliligi va dolzarbligini asoslaydi.</p> <p>1.2. Mavzu bo'yicha asosiy tushunchalarga ta'rif berishni taklif qiladi va shu asosda tezkor-so'rov (<i>4-ilova</i>) o'tkazib, talabalarning bilimlarini faollashtiradi.</p> <p>1.3. Dars mashg`uloti guruhlarda ishslash texnologiyasidan foydalangan holda amalga oshirilishini e`lon qiladi. Guruhda ishslash qoidalarini eslatadi. Ish tartibi va reglamentni aniqlashtiradi (<i>5-ilova</i>).</p>	Eshitadilar, mavzuni yozadilar, savollarga javob beradilar va aniqlashtiradilar.
<b>2. Asosiy bosqich (60 daqiqa)</b>	<p>2.1. Talabalarни 4-ta kichik guruhga ajratadi. Guruhlarga o'quv topshiriqlarini topshiradi (<i>6-ilova</i>). Baholash mezonlari va ko`rsatkichlari bilan tanishtiradi (<i>7-ilova</i>). Guruhlarda ishslash boshlanganligini e`lon qiladi.</p> <p>2.2. Guruhlar ishini kuzatadi, yo'naltiradi, maslahatlar beradi. Taqdimot materiallari mazmunan va mantiqan to'lqidir yoritilishini kuzatadi.</p> <p>2.3. Taqdimot boshlanishini e`lon qiladi. Guruhlarda sardorlar taqdimotini tashkillashtiradi, savollar beradi, mavzu muhokamasini jamoaga havola etadi.</p> <p>2.4. Har bir guruh ishi bo'yicha umumiylar xulosalar chiqaradi. Guruhlarning o'zaro bir-birining faoliyatini baholashini tashkil qiladi.</p>	<p>2.1. O'quv topshiriqlari, baholash mezonlari bilan tanishadi, topshiriqni guruhga taqsimlaydi.</p> <p>2.2. Topshiriq bo'yicha faoliyat boshlaydi. Muhibbama qiladi, fikrlarini umumlash-tirib, taqdimot uchun materiallar tayyorlaydi.</p> <p>2.3. Faoliyat natijasini taqdim qiladi.</p> <p>2.4. Tinglaydi. Guruhlar ish natijasini o'zaro baholaydi.</p>
<b>3-Yakuniy bosqich (10 daqiqa)</b>	<p>3.1. O'quv faoliyatini yakunlaydi. Talabalar diqqatini asosiy jihatlarga qaratadi. Qo'yilgan vazifani bajarish jarayonida g`olib bo`lgan guruhnini aniqlaydi va baholaydi.</p> <p>3.2. Mustaqil ish uchun “Konlarda qo'llaniladigan quvurlar” mavzusida referat tayyorlashni vazifa qilib beradi.</p>	Tinglaydilar, aniqlashtiradilar. Mustaqil ish uchun vazifalarini yozib oladilar.

## 1- ilova

**Guruhlarda ishlash qoidasi**

**Sherigingizni diqqat bilan tinglang.**

**Guruhlar ishida o'zaro faol ishtirok eting, berilgan topshiriqlarga mas'uliyat bilan yondashing.**

**Agar yordam kerak bo'lsa, albatta murojaat qiling.**

**Agar sizdan yordam so'rashsa, albatta yordam bering.**

**Guruhlar faoliyatining natijalarini baholashda hamma ishtirok etishi shart.**

**Aniq tushunmog'imiz lozim:**

**boshqalarga o'rgatish orqali o'zimiz o'rganamiz;**

**biz bitta kemadamiz – yoki birgalikda suzib chiqamiz, yoki birgalikda cho'kib ketamiz.**

## 2- ilova

### **Amaliy mashg'ulotda ishlash tartibi va reglament**

- Guruhdha ishlash va prezentsiya yozish -20 min.**
- Ishning natijalarini taqdimot qilish – 5 min.**
- Jamoa bo`lib muhokama qilish va guruhni baholash -5 min.**

## 3- ilova

### **Guruhlar faoliyatini baholash mezonlari**

<i>Guruhlar</i>	<i>Ma'lumotning to'liqligi</i> <i>(1,0)</i>	<i>Ma'lumot mazmunining aniq tushuntirilishi (0,5)</i>	<i>Taqdimotning ko'rgazmali tarzda berilishi</i> <i>(0,5)</i>	<i>Umumiy ball</i>
1-guruh				
2-guruh				
3-guruh				
4-guruh				

### **Guruhlar faoliyati natijalarining umumiy bahosi**

Guruh	O'zaro baholash natijalari				Jami
	1	2	3	4	
1	*				
2		*			
3			*		
4				*	

## 4- ilova

### **Muammoli savollar**

- Tindirgich qanday apparat?**
- Neft va gaz qazib oluvchi korxonalarda qanday tindirgichlar qo'llaniladi?**
- Tindirgichlarning samaradorligi nimalarga bog`liq?**

## 5- ilova

Test.

**1. Tindirgichlarning zarur soni quyidagi formuladan aniqlanadi:**

$$A) n = \frac{\tau}{Q_0}$$

$$B) n = \frac{\tau \cdot Q}{Q_0} = \frac{4 \cdot \tau}{\pi \cdot D^2 L}$$

$$V) n = \frac{\tau \cdot Q}{Q_0} = \frac{4 \cdot \tau \cdot Q}{\pi \cdot D}$$

$$*G) n = \frac{\tau \cdot Q}{Q_0} = \frac{4 \cdot \tau \cdot Q}{\pi \cdot D^2 L}$$

**2. Tindirgichlarning samaradorligi.....bog'liq.**

A) geometrik shakliga; fazoviy joylashishiga ( gorizontal, vertikal );

B) isitilgan mahsulotni kiritish usuliga;

V) isitilgan mahsulotni tindirgichga uzatishdan oldin tayyorlash.

\*G) A,B,V

**3. Hozirgi vaqtda neft qazib oluvchi korxonalarda tindirgichlarning qanday geometrik shaklini uchratish mumkin?**

A) gorizontal,

B) vertikal

V) sferik

\*G) A,B,V

## 6- ilova

### Guruhlarga o'quv topshiriqlari

#### 1-guruh

**1-topshiriq.** Test.

**Tindirgichlarning zarur soni quyidagi formuladan aniqlanadi:**

$$A) n = \frac{\tau}{Q_0}$$

$$B) n = \frac{\tau \cdot Q}{Q_0} = \frac{4 \cdot \tau}{\pi \cdot D^2 L}$$

$$V) n = \frac{\tau \cdot Q}{Q_0} = \frac{4 \cdot \tau \cdot Q}{\pi \cdot D}$$

$$*G) n = \frac{\tau \cdot Q}{Q_0} = \frac{4 \cdot \tau \cdot Q}{\pi \cdot D^2 L}$$

**2- topshiriq.** Muammoli savolga aqliy hujum usulida javob toping (javobni asoslang).

**Tindirgich qanday apparat?**

#### 2- guruh

**1- topshiriq.** Test.

**Tindirgichlarning samaradorligi.....bog'liq.**

A) geometrik shakliga; fazoviy joylashishiga ( gorizontal, vertikal );

B) isitilgan mahsulotni kiritish usuliga;

V) isitilgan mahsulotni tindirgichga uzatishdan oldin tayyorlashga.

\*G) A,B,V

**2- topshiriq.** Muammoli savolga aqliy hujum usulida javob toping (javobni asoslang).

**Neft va gaz qazib oluvchi korxonalarda qanday tindirgichlar qo'llaniladi?**

#### 3- guruh

**1- topshiriq.** Test.

**Hozirgi vaqtida neft qazib oluvchi korxonalarda tindirgichlarning qanday geometrik shaklini uchratish mumkin?**

- A) gorizontal,
- B) vertikal
- V) sferik
- \*G) A,B,V

**2- topshiriq.** Muammoli savolga aqliy hujum usulida javob toping (javobni asoslang).  
**Tindirgichlarning samaradorligi nimalarga bog`liq?**

**7-илюва**

**«QANDAY?» IYERARXIK DIAGRAMMASI**  
**-muammo haqida butunligicha umumiylar taassurot olish imkonini beruvchi mantiqiy bir qator savollar.**  
**Tizimli, ijodiy, tahliliy mushohada qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.**

Diagrammani tuzish qoidalari bilan tanishiladi.  
Yakka (juftlikda) diagramma tuziladi.

Juftlarga birlashadi, o'z diagrammalarini taqqoslaydi va qo'shimchalar kiritadi.

Natijalar taqdimoti

### **«Qanday?» diagrammasini tuzish qoidalari**

1. Ko'p hollarda sizga muammolarni hal etishda «Nima qilish kerak?» degan savol haqida o'ylashga hojat bo'lmaydi. Muammo asosan «Buni qanday qilish kerak?» qabilida bo'ladi. «Qanday?» - muammoni hal etishda asosiy savol hisoblanadi.

«Qanday?» ierarxiya diagrammasi muammo haqida yaxlit umumiylar tasavvurga ega bo'lish uchun imkon beradigan savollar mantiqiy zanjiri ko'rinishida bo'ladi.

Ketma-ket ravishda «Qanday?» savolini qo'yish orqali siz muammoni hal etishning barcha imkoniyatlarini tadqiq etibgina qolmay, balki ularni amalga oshirish usullarini ham o'rGANASIZ.

Diagramma strategik darajadagi savol bilan boshlanadi. Muammoni hal etishning pastki (quyi) darajasi birinchi navbatdagi harakatlar ro'yxatiga mos keladi.

2. O'ylamasdan, baholamasdan va ularni o'zaro solishtirmasdan turib tezlik bilan barcha g'oyalarni yozish lozim bo'ladi.

3. Diagramma hech qachon tugallanmaydi: unga yangi g'oyalarni kiritish mumkin bo'ladi.

4. Agarda savol sxemada bir qancha «shoxlar»da qaytarilsa, demak, u nisbatan muhimdir. U muammoni hal etishda muhim qadami bo'lishi mumkin.

5. Yangi g'oyalarni grafik ko'rinishda qayd etishni o'zingiz hal eting: daraxt yoki kaskad ko'rinishida, yuqorida pastga yoki chapdan o'ngga. Eng muhim – shuni esda tuting: nisbatan ko'p miqdordagi foydali g'oyalari va muammoy echimlarini topishga imkon beradigan usul eng maqbul usul hisoblanadi.

6. Agarda siz to'g'ri savol bersangiz va optimist bo'lsangiz, u holda diagramma (texnika) har qanday muammo yechimini topib berishni kafolatlaydi.

### 14.1. Ta'lim berish texnologiyasining modeli

<b>Mashg'ulot vaqtি-2 soat</b>	<b>Talabalar soni: 18-21 nafargacha</b>
<b>Mashg'ulot shakli</b>	<b>Bilimlarni kengaytirish va chuqurlashlash bo'yicha amaliy mashguloti</b>
<b>Amaliy mashg'ulot rejasи</b>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Issiqlik almashishi turlari va jarayoni.</li> <li>2. O`xshashlik omili.</li> <li>3. Yonma-yon oqimlarning aralashish sxemasi</li> </ol>
<b>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</b> Issiqlik almashinish uskunalari bo'yicha bilim va ko'nikmalar hosil qilish.	
<b>Pedagogik vazifalar:</b> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Issiqlik almashishi turlari va jarayonini tushuntirish;</li> <li>• O`xshashlik omilini tushuntirish;</li> <li>• Yonma-yon oqimlarning aralashish sxemasini tushuntirish;</li> <li>- Talabalarning mavzu bo'yicha olgan bilimlarini baholash.</li> </ul>	<b>O'quv faoliyati natijalari:</b> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Issiqlik almashishi turlari va jarayonini tushunadi;</li> <li>• O`xshashlik omilini tushuntira oladi;</li> <li>• Yonma-yon oqimlarning aralashish sxemasini tushuntira oladi;</li> </ul>
<b>Ta'lim berish usullari</b>	Tushuntirish, suhbat, munozara, savol-javob texnikasi, test, grafikli organayzerlar.
<b>Ta'lim berish shakllari</b>	guruhiy, individual, jamoaviy ishslash
<b>Ta'lim berish vositalari</b>	Ma`ruza matni, uslubiy ko`rsatma, proektor, flipchart, markerlar, o'quv topshiriqlari
<b>Ta'lim berish sharoiti</b>	Kompyuter texnologiyalari bilan ta'minlangan, guruhlarda ishslash uchun mo'ljallangan auditoriya

**14.2. “Issiqlik almashinish uskunalarining hisobi” amaliy mashg’ulotining texnologik xaritasi**

Ish bosqichlari va vaqtি	Faoliyat mazmuni	
	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchilar
<b>Tayyorlov bosqichi</b>	<p>Mavzuni aniqlaydi, ta'limiy maqsadni belgilaydi va kutilayotgan natijalarni shakllanadiradi.</p> <p>Belgilangan ta'limiy maqsadlarga erishishni ta'minlovchi o'quv topshirqlarini ishlab chiqadi.</p> <p>Kichik guruhlarda samarali faoliyatni ta'minlash uchun yozma yo'rinqomalarini tayyorlaydi (<i>1-ilova</i>).</p> <p>Ish tartibi va reglamentni hamda ekspert guruhlar ish natijalarini o'zaro baholash mezonlarini ishlab chiqadi (<i>2, 3-ilovalar</i>).</p>	
<b>1. O'quv mashg'ulotiga kirish bosqichi (10 daqiqa)</b>	<p>1.1. Mashg'ulot mavzusi, uning maqsadi va kutilayotgan natijalarini e'lon qiladi, ularning ahamiyatliligi va dolzarbligini asoslaydi.</p> <p>1.2. Mavzu bo'yicha asosiy tushunchalarga ta'rif berishni taklif qiladi va shu asosda tezkor-so'rov (<i>4-ilova</i>) o'tkazib, talabalarning bilimlarini faollashtiradi.</p> <p>1.3. Dars mashg`uloti guruhlarda ishslash texnologiyasidan foydalangan holda amalga oshirilishini e`lon qiladi. Guruhda ishslash qoidalarini eslatadi. Ish tartibi va reglamentni aniqlashtiradi (<i>5-ilova</i>).</p>	Eshitadilar, mavzuni yozadilar, savollarga javob beradilar va aniqlashtiradilar.
<b>2. Asosiy bosqich (60 daqiqa)</b>	<p>2.1. Talabalarни 4-ta kichik guruhga ajratadi. Guruhlarga o'quv topshiriqlarini topshiradi (<i>6-ilova</i>). Baholash mezonlari va ko`rsatkichlari bilan tanishtiradi (<i>7-ilova</i>). Guruhlarda ishslash boshlanganligini e`lon qiladi.</p> <p>2.2. Guruhlar ishini kuzatadi, yo'naltiradi, maslahatlar beradi. Taqdimot materiallari mazmunan va mantiqan to'liq yoritilishini kuzatadi.</p> <p>2.3. Taqdimot boshlanishini e`lon qiladi. Guruhlarda sardorlar taqdimotini tashkillashtiradi, savollar beradi, mavzu muhokamasini jamoaga havola etadi.</p> <p>2.4. Har bir guruh ishi bo'yicha umumiyl xulosalar chiqaradi. Guruhlarning o'zaro bir-birining faoliyatini baholashini tashkil qiladi.</p>	<p>2.1. O'quv topshiriqlari, baholash mezonlari bilan tanishadi, topshiriqni guruhga taqsimlaydi.</p> <p>2.2. Topshiriq bo'yicha faoliyat boshlaydi. Muhojama qiladi, fikrlarini umumlash-tirib, taqdimot uchun materiallar tayyorlaydi.</p> <p>2.3. Faoliyat natijasini taqdim qiladi.</p> <p>2.4. Tinglaydi. Guruhlar ish natijasini o'zaro baholaydi.</p>
<b>3-Yakuniy bosqich (10 daqiqa)</b>	<p>3.1.O'quv faoliyatini yakunlaydi. Talabalar diqqatini asosiy jihatlarga qaratadi. Qo'yilgan vazifani bajarish jarayonida g`olib bo`lgan guruhnani aniqlaydi va baholaydi.</p> <p>3.2. Mustaqil ish uchun “Konlarda qo'llaniladigan quvurlar” mavzusida referat tayyorlashni vazifa qilib beradi.</p>	Tinglaydilar, aniqlashtiradilar. Mustaqil ish uchun vazifalarni yozib oladilar.

## 1- ilova

### Guruhlarda ishlash qoidasi

Sheringizni diqqat bilan tinglang.

Guruhlar ishida o'zaro faol ishtirok eting, berilgan topshiriqlarga mas'uliyat bilan yondashing.

Agar yordam kerak bo'lsa, albatta murojaat qiling.

Agar sizdan yordam so'rashsa, albatta yordam bering.

Guruhlar faoliyatining natijalarini baholashda hamma ishtirok etishi shart.

Aniq tushunmog'imiz lozim:

boshqalarga o'rgatish orqali o'zimiz o'rganamiz;

biz bitta kemadamiz – yoki birgalikda suzib chiqamiz, yoki birgalikda cho'kib ketamiz.

## 2- ilova

### Amaliy mashg'ulotda ishlash tartibi va reglament

- Guruhdha ishlash va prezentatsiya yozish -20 min.**
- Ishning natijalarini taqdimot qilish – 5 min.**
- Jamoa bo`lib muhokama qilish va guruhni baholash - 5 min.**

## 3- ilova

### Guruhlar faoliyatini baholash mezonlari

Guruhlar	Ma'lumotning to'liqligi (1,0)	Ma'lumot mazmunining aniq tushuntirilishi (0,5)	Taqdimotning ko'rgazmali tarzda berilishi (0,5)	Umumiyl ball
1-guruh				
2-guruh				
3-guruh				
4-guruh				

### Guruhlar faoliyati natijalarining umumiyl bahosi

Guruh	O'zaro baholash natijalari				Jami
	1	2	3	4	
1	*				
2		*			
3			*		
4				*	

## 4- ilova

### Muammoli savollar

- Issiqlik almashishi necha turga bo`linadi?
- Issiqlik o`tkazish qanday sodir bo`ladi?
- Konveksiya qanday sodir bo`ladi?
- Radiatsiya (nurlanish qanday sodir bo`ladi?)

## 5- ilova

### Test.

**1. Gidrodinamik va issiqlik hisoblashlarda ko`p qo`llaniladigan Prandtl omilini ko`rsating:**

$$*A) \Pr = \frac{c\nu\rho}{\lambda} = \frac{cM}{\lambda};$$

$$V) \fr = \frac{ql}{W^2};$$

$$B) \Nu = \frac{dl}{\lambda}$$

$$G) \Ga = Fr * Re^2 = \frac{gl^2}{v^2}$$

**2. Gidrodinamik va issiqlik hisoblashlarda ko`p qo`llaniladigan Nusselt omilini ko`rsating:**

$$A) \Pr = \frac{c\nu\rho}{\lambda} = \frac{cM}{\lambda};$$

$$V) \fr = \frac{ql}{W^2};$$

$$*B) \Nu = \frac{dl}{\lambda}$$

$$G) \Ga = Fr * Re^2 = \frac{gl^2}{v^2}$$

**3. Gidrodinamik va issiqlik hisoblashlarda ko`p qo`llaniladigan Frud omilini ko`rsating:**

$$A) \Pr = \frac{c\nu\rho}{\lambda} = \frac{cM}{\lambda};$$

$$*V) \fr = \frac{ql}{W^2};$$

$$B) \Nu = \frac{dl}{\lambda}$$

$$G) \Ga = Fr * Re^2 = \frac{gl^2}{v^2}$$

## 6- ilova

### Guruhlarga o'quv topshiriqlari 1-guruh

**1-topshiriq.** Test.

**Gidrodinamik va issiqlik hisoblashlarda ko`p qo`llaniladigan Prandtl omilini ko`rsating:**

$$*A) \Pr = \frac{c\nu\rho}{\lambda} = \frac{cM}{\lambda};$$

$$V) \fr = \frac{ql}{W^2};$$

$$B) \Nu = \frac{dl}{\lambda}$$

$$G) \Ga = Fr * Re^2 = \frac{gl^2}{v^2}$$

**2- topshiriq.** Muammoli savolga aqliy hujum usulida javob toping (javobni asoslang).

**Issiqlik almashishi necha turga bo`linadi?**

**3- topshiriq.** Muammoli savolga “Qanday usuli” da javob toping.

**Issiqlik o`tkazish qanday sodir bo`ladi?**

### 2- guruh

**1- topshiriq.** Test.

**Gidrodinamik va issiqlik hisoblashlarda ko`p qo`llaniladigan Nusselt omilini ko`rsating:**

$$A) \Pr = \frac{c\nu\rho}{\lambda} = \frac{cM}{\lambda};$$

$$V) \fr = \frac{ql}{W^2};$$

$$*B) \Nu = \frac{dl}{\lambda}$$

$$G) \Ga = Fr * Re^2 = \frac{gl^2}{v^2}$$

**2- topshiriq.** Muammoli savolga aqliy hujum usulida javob toping (javobni asoslang).

**Bir xil boshlang'ich va oxirgi haroratlarda to`g`ri tok nimani ta'minlaydi?**

**3- topshiriq.** Muammoli savolga “Qanday usuli” da javob toping.

**Konveksiya qanday sodir bo`ladi?**

### 3- guruh

**1- topshiriq.** Test.

**Gidrodinamik va issiqlik hisoblashlarda ko`p qo`llaniladigan Frud omilini ko`rsating:**

$$A) \ Pr = \frac{cV\rho}{\lambda} = \frac{cM}{\lambda};$$

$$*V) \ Fr = \frac{ql}{W^2};$$

$$B) \ Nu = \frac{dl}{\lambda}$$

$$G) \ Ga = Fr * Re^2 = \frac{gl^2}{V^2}$$

**2- topshiriq.** Muammoli savolga aqliy hujum usulida javob toping (javobni asoslang). Konlarda qo'llaniladigan ko`plab issiqlik almashish qurilmalarida qaysi tokdan foydalaniadi?

**3- topshiriq.** Muammoli savolga “Qanday usuli” da javob toping. Radiatsiya (nurlanish qanday sodir bo'ladi?)

## 7-ицова

### «QANDAY?» IYERARXIK DIAGRAMMASI

-muammo haqida butunligicha umumiylar taassurot olish imkonini beruvchi mantiqiy bir qator savollar.  
Tizimli, ijodiy, tahliliy mushohada qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Diagrammani tuzish qoidalari bilan tanishiladi. Yakka (juftlikda) diagramma tuziladi.

Juftlarga birlashadi, o'z diagrammalarini taqqoslaydi va qo'shimchalar kiritadi.

Natijalar taqdimoti

### «Qanday?» diagrammasini tuzish qoidalari

1. Ko'p hollarda sizga muammolarni hal etishda «Nima qilish kerak?» degan savol haqida o'ylashga hojat bo'lmaydi. Muammo asosan «Buni qanday qilish kerak?» qabilida bo'ladi. «Qanday?» - muammoni hal etishda asosiy savol hisoblanadi.

«Qanday?» iyerarxiya diagrammasi muammo haqida yaxlit umumiylar tasavvurga ega bo'lish uchun imkon beradigan savollar mantiqiy zanjiri ko'rinishida bo'ladi.

Ketma-ket ravishda «Qanday?» savolini qo'yish orqali siz muammoni hal etishning barcha imkoniyatlarini tadqiq etibgina qolmay, balki ularni amalga oshirish usullarini ham o'rganasiz.

Diagramma strategik darajadagi savol bilan boshlanadi. Muammoni hal etishning pastki (quyi) darajasi birinchi navbatdagi harakatlar ro'yxatiga mos keladi.

2. O'yamasdan, baholamasdan va ularni o'zaro solishtirmasdan turib tezlik bilan barcha g'oyalarni yozish lozim bo'ladi.

3. Diagramma hech qachon tugallanmaydi: unga yangi g'oyalarni kiritish mumkin bo'ladi.

4. Agarda savol sxemada bir qancha «shoxlar»da qaytarilsa, demak, u nisbatan muhimdir. U muammoni hal etishda muhim qadami bo'lishi mumkin.

5. Yangi g'oyalarni grafik ko'rinishda qayd etishni o'zingiz hal eting: daraxt yoki kaskad ko'rinishida, yuqorida pastga yoki chapdan o'ngga. Eng muhimi – shuni esda tuting: nisbatan ko'p miqdordagi foydali g'oyalalar va muammo echimlarini topishga imkon beradigan usul eng maqbul usul hisoblanadi.

6. Agarda siz to'g'ri savol bersangiz va optimist bo'lsangiz, u holda diagramma (texnika) har qanday muammo yechimini topib berishni kafolatlaydi.

### 15.1. Ta'lim berish texnologiyasining modeli

<b>Mashg'ulot vaqtি-2 soat</b>	<b>Talabalar soni: 18-21 nafargacha</b>
<b>Mashg'ulot shakli</b>	<b>Bilimlarni kengaytirish va chuqurlashlash bo'yicha amaliy mashguloti</b>
<b>Amaliy mashg'ulot rejasи</b>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Issiqlik almashish qurilmalarining texnologik hisobi</li> <li>2. Jarayon issiqlik balansining tuzilishi</li> <li>3. <math>110^{\circ}\text{C}</math> dan <math>40^{\circ}\text{C}</math> ga quritilganda suvsiz neftdan ajraluvchi issiqlik miqdori</li> </ol>
<b>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</b> Issiqlik almashish qurilmalari bo'yicha bilim va ko'nikmalar hosil qilish.	
<b>Pedagogik vazifalar:</b> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Issiqlik almashish qurilmalarining texnologik hisobini tushuntirish;</li> <li>2. Jarayon issiqlik balansining tuzilishini ko'rsatish va tushuntirish;</li> <li>3. <math>110^{\circ}\text{C}</math> dan <math>40^{\circ}\text{C}</math> ga quritilganda suvsiz neftdan ajraluvchi issiqlik miqdorini tushuntirish;</li> <li>- Talabalarning mavzu bo'yicha olgan bilimlarini baholash.</li> </ol>	<b>O'quv faoliyati natijalari:</b> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Issiqlik almashish qurilmalarining texnologik hisobini tushunadi;</li> <li>2. Jarayon issiqlik balansining tuzilishini ko'rsata oladi;</li> <li>3.. <math>110^{\circ}\text{C}</math> dan <math>40^{\circ}\text{C}</math> ga quritilganda suvsiz neftdan ajraluvchi issiqlik miqdorini tushuntira oladi;</li> </ol>
<b>Ta'lim berish usullari</b>	Tushuntirish, suhbat, munozara, savol-javob texnikasi, test, grafikli organayzerlar.
<b>Ta'lim berish shakllari</b>	guruhiy, individual, jamoaviy ishslash
<b>Ta'lim berish vositalari</b>	Ma'ruba matni, uslubiy ko'rsatma, proektor, flipchart, markerlar, o'quv topshiriqlari
<b>Ta'lim berish sharoiti</b>	Kompyuter texnologiyalari bilan ta'minlangan, guruhlarda ishslash uchun mo'ljallangan auditoriya

**15.2. “Issiqlik almashinish qurilmalarini hisoblash usuli” amaliy mashg’ulotining texnologik xaritasi**

Ish bosqichlari va vaqtি	Faoliyat mazmuni	
	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchilar
<b>Tayyorlov bosqichi</b>	<p>Mavzuni aniqlaydi, ta'limiy maqsadni belgilaydi va kutilayotgan natijalarni shakllaniradi.</p> <p>Belgilangan ta'limiy maqsadlarga erishishni ta'minlovchi o'quv topshirqlarini ishlab chiqadi.</p> <p>Kichik guruhlarda samarali faoliyatni ta'minlash uchun yozma yo'rinqomalarini tayyorlaydi (<i>1-ilova</i>).</p> <p>Ish tartibi va reglamentni hamda ekspert guruhlar ish natijalarini o'zaro baholash mezonlarini ishlab chiqadi (<i>2, 3-ilovalar</i>).</p>	
<b>1. O'quv mashg'ulotiga kirish bosqichi (10 daqiqa)</b>	<p>1.1. Mashg'ulot mavzusi, uning maqsadi va kutilayotgan natijalarini e'lon qiladi, ularning ahamiyatliligi va dolzarbligini asoslaydi.</p> <p>1.2. Mavzu bo'yicha asosiy tushunchalarga ta'rif berishni taklif qiladi va shu asosda tezkor-so'rov (<i>4-ilova</i>) o'tkazib, talabalarning bilimlarini faollashtiradi.</p> <p>1.3. Dars mashg'uloti guruhlarda ishslash texnologiyasidan foydalangan holda amalga oshirilishini e'lon qiladi. Guruhda ishslash qoidalarini eslatadi. Ish tartibi va reglamentni aniqlashtiradi (<i>5-ilova</i>).</p>	Eshitadilar, mavzuni yozadilar, savollarga javob beradilar va aniqlashtiradilar.
<b>2. Asosiy bosqich (60 daqiqa)</b>	<p>2.1. Talabalarни 4-ta kichik guruhga ajratadi. Guruhlarga o'quv topshiriqlarini topshiradi (<i>6-ilova</i>). Baholash mezonlari va ko`rsatkichlari bilan tanishtiradi (<i>7-ilova</i>). Guruhlarda ishslash boshlanganligini e'lon qiladi.</p> <p>2.2. Guruhlar ishini kuzatadi, yo'naltiradi, maslahatlar beradi. Taqdimot materiallari mazmunan va mantiqan to'liq yoritilishini kuzatadi.</p> <p>2.3. Taqdimot boshlanishini e'lon qiladi. Guruhlarda sardorlar taqdimotini tashkillashtiradi, savollar beradi, mavzu muhokamasini jamoaga havola etadi.</p> <p>2.4. Har bir guruh ishi bo'yicha umumiyl xulosalar chiqaradi. Guruhlarning o'zaro bir-birining faoliyatini baholashini tashkil qiladi.</p>	<p>2.1. O'quv topshiriqlari, baholash mezonlari bilan tanishadi, topshiriqni guruhga taqsimlaydi.</p> <p>2.2. Topshiriq bo'yicha faoliyat boshlaydi. Muhibbama qiladi, fikrlarini umumlash-tirib, taqdimot uchun materiallar tayyorlaydi.</p> <p>2.3. Faoliyat natijasini taqdim qiladi.</p> <p>2.4. Tinglaydi. Guruhlar ish natijasini o'zaro baholaydi.</p>
<b>3-Yakuniy bosqich (10 daqiqa)</b>	<p>3.1. O'quv faoliyatini yakunlaydi. Talabalar diqqatini asosiy jihatlarga qaratadi. Qo'yilgan vazifani bajarish jarayonida g`olib bo`lgan guruhnani aniqlaydi va baholaydi.</p> <p>3.2. Mustaqil ish uchun “Konlarda qo'llaniladigan quvurlar” mavzusida referat tayyorlashni vazifa qilib beradi.</p>	Tinglaydilar, aniqlashtiradilar. Mustaqil ish uchun vazifalarini yozib oladilar.

## 1- ilova

**Guruhlarda ishlash qoidasi**

**Sheringizni diqqat bilan tinglang.**

**Guruhlar ishida o'zaro faol ishtirok eting, berilgan topshiriqlarga mas'uliyat bilan yondashing.**

**Agar yordam kerak bo'lsa, albatta murojaat qiling.**


**Agar sizdan yordam so'rashsa, albatta yordam bering.**

**Guruhlar faoliyatining natijalarini baholashda hamma ishtirok etishi shart.**

**Aniq tushunmog'imiz lozim:**

**boshqalarga o'rgatish orqali o'zimiz o'rganamiz;**

**biz bitta kemadamiz – yoki birgalikda suzib chiqamiz, yoki birgalikda cho'kib ketamiz.**



## 2- ilova

**Amaliy mashg'ulotda ishlash tartibi va reglament**

- Guruhdha ishlash va prezentatsiya yozish -20 min.**
- Ishning natijalarini taqdimot qilish – 5 min.**
- Jamoa bo`lib muhokama qilish va guruhni baholash -5 min.**

## 3- ilova

**Guruhlar faoliyatini baholash mezonlari**

<i>Guruhlar</i>	<i>Ma'lumotning to'liqligi</i> <i>(1,0)</i>	<i>Ma'lumot mazmunining aniq tushuntirilishi (0,5)</i>	<i>Taqdimotning ko'rgazmali tarzda berilishi</i> <i>(0,5)</i>	<i>Umumiy ball</i>
1-guruh				
2-guruh				
3-guruh				
4-guruh				

**Guruhlar faoliyati natijalarining umumiyl bahosi**

Guruh	O'zaro baholash natijalari				Jami
	1	2	3	4	
1	*				
2		*			
3			*		
4				*	

## 4- ilova

**Muammoli savollar**

- Issiqlik almashish qurilmalarining texnologik hisobi qanday tartibda olib boriladi?
- Jarayon issiqlik balansining tuzilishini tushuntiring.
- Issiqlik balansi qanday tuziladi?

**Test.**

**1. Issiqlik balansini ko'rsating:**

A)  $G_1(t_2-t_3)=G_2(t_x-t_1)+G_3(t_x-t_1)$

V)  $G_1S_1(t_2-t_3)=G_2S_2(t_x-t_1)$

B)  $S_1(t_2-t_3)=S_2(t_x-t_1)+S_3(t_x-t_1)$

G)  $G_1S_1(t_2-t_3)=G_2S_2(t_x-t_1)+G_3S_3(t_x-t_1)$

**2. Issiqlik almashish jarayonida suvsiz neftning o`rtacha harorati:**

\*A)  $\Delta t_{yp.H} = \frac{t_2 - t_3}{2,3 \lg \frac{t_2}{t_3}}$

V)  $\Delta t_{yp.ch} = \frac{t_x - t_1}{2,3 \lg \frac{t_x}{t_1}}$

B)  $\Delta t_{yp} = \Delta t'_{yp} \cdot K_r$

G)  $\Delta t_{yp} = \Delta t'_{yp}$

**3. Issiqlik almashish jarayonida suvlangan neftning o`rtacha harorati:**

A)  $\Delta t_{yp.H} = \frac{t_2 - t_3}{2,3 \lg \frac{t_2}{t_3}}$

\*V)  $\Delta t_{yp.ch} = \frac{t_x - t_1}{2,3 \lg \frac{t_x}{t_1}}$

B)  $\Delta t_{yp} = \Delta t'_{yp} \cdot K_r$

G)  $\Delta t_{yp} = \Delta t'_{yp}$

**6- ilova****Guruhlarga o'quv topshiriqlari****1-guruh****1-topshiriq. Test.****Issiqlik balansini ko'rsating:**

A)  $G_1(t_2-t_3)=G_2(t_x-t_1)+G_3(t_x-t_1)$

V)  $G_1S_1(t_2-t_3)=G_2S_2(t_x-t_1)$

B)  $S_1(t_2-t_3)=S_2(t_x-t_1)+S_3(t_x-t_1)$

G)  $G_1S_1(t_2-t_3)=G_2S_2(t_x-t_1)+G_3S_3(t_x-t_1)$

**2- topshiriq. Muammoli savolga aqliy hujum usulida javob toping (javobni asoslang).****Issiqlik almashish qurilmalarining texnologik hisobi qanday tartibda olib boriladi?****2- guruh****1- topshiriq. Test.****Issiqlik almashish jarayonida suvsiz neftning o`rtacha harorati:**

\*A)  $\Delta t_{yp.H} = \frac{t_2 - t_3}{2,3 \lg \frac{t_2}{t_3}}$

V)  $\Delta t_{yp.ch} = \frac{t_x - t_1}{2,3 \lg \frac{t_x}{t_1}}$

B)  $\Delta t_{yp} = \Delta t'_{yp} \cdot K_r$

G)  $\Delta t_{yp} = \Delta t'_{yp}$

**2- topshiriq. Muammoli savolga aqliy hujum usulida javob toping (javobni asoslang).****Jarayon issiqlik balansining tuzilishini tushuntiring****3- guruh****1- topshiriq. Test.****Issiqlik almashish jarayonida suvlangan neftning o`rtacha harorati:**

$$A) \Delta t_{yp.u} = \frac{t_2 - t_3}{2,3 \lg \frac{t_2}{t_3}}$$

$$*V) \Delta t_{yp.ch} = \frac{t_x - t_1}{2,3 \lg \frac{t_x}{t_1}}$$

$$B) \Delta t_{yp} = \Delta t'_{yp} \cdot K_r$$

$$G) \Delta t_{yp} = \Delta t'_{yp}$$

**2- topshiriq.** Muammoli savolga aqliy hujum usulida javob toping (javobni asoslang).  
Issiqlik balansi qanday tuziladi?

## 7-илова

### «QANDAY?» IYERARXIK DIAGRAMMASI

-muammo haqida butunligicha umumiyl taassurot olish imkonini beruvchi mantiqiy bir qator savollar.

Tizimli, ijodiy, tahliliy mushohada qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Diagrammani tuzish qoidalari bilan tanishiladi.  
Yakka (juftlikda) diagramma tuziladi.

Juftlarga birlashadi, o'z diagrammalarini taqqoslaydi va qo'shimchalar kiritadi.

Natijalar taqdimoti

### «Qanday?» diagrammasini tuzish qoidalari

1. Ko'p hollarda sizga muammolarni hal etishda «Nima qilish kerak?» degan savol haqida o'ylashga hojat bo'lmaydi. Muammo asosan «Buni qanday qilish kerak?» qabilida bo'ladi. «Qanday?» - muammoni hal etishda asosiy savol hisoblanadi.

«Qanday?» ierarxiya diagrammasi muammo haqida yaxlit umumiyl tasavvurga ega bo'lish uchun imkon beradigan savollar mantiqiy zanjiri ko'rinishida bo'ladi.

Ketma-ket ravishda «Qanday?» savolini qo'yish orqali siz muammoni hal etishning barcha imkoniyatlarini tadqiq etibgina qolmay, balki ularni amalga oshirish usullarini ham o'rghanasiz.

Diagramma strategik darajadagi savol bilan boshlanadi. Muammoni hal etishning pastki (quyi) darajasi birinchi navbatdagi harakatlar ro'yxatiga mos keladi.

2. O'ylamasdan, baholamasdan va ularni o'zaro solishtirmasdan turib tezlik bilan barcha g'oyalarni yozish lozim bo'ladi.

3. Diagramma hech qachon tugallanmaydi: unga yangi g'oyalarni kiritish mumkin bo'ladi.

4. Agarda savol sxemada bir qancha «shoxlar»da qaytarilsa, demak, u nisbatan muhimdir. U muammoni hal etishda muhim qadami bo'lishi mumkin.

5. Yangi g'oyalarni grafik ko'rinishda qayd etishni o'zingiz hal eting: daraxt yoki kaskad ko'rinishida, yuqorida pastga yoki chapdan o'ngga. Eng muhimi – shuni esda tuting: nisbatan ko'p miqdordagi foydali g'oyalalar va muammo echimlarini topishga imkon beradigan usul eng maqbul usul hisoblanadi.

6. Agarda siz to'g'ri savol bersangiz va optimist bo'lsangiz, u holda diagramma (texnika) har qanday muammo yechimini topib berishni kafolatlaydi.



**O`ZBYEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI**

***QARSHI MUXANDICLIK IQTISODIYOT INSTITUTI***

***NEFT VA GAZ FAKULTYETI***

***“NEFT VA GAZ KONLARINI ISHGA TUSHIRISH VA  
ULARDAN FOYDALANISH” KAFYEDRASI***

***“Quduq mahsulotlarini yig`ish va uzatish”  
fanidan***

***M A ‘ R U Z A***

***M A T N L A R I***

***T O` P L A M I***



***Qarshi – 2011 yil***

*Tuzuvshi:*

*“Neft va gaz konlarini ishga tushirish va  
ulardan foydalanish” kafedrasi  
katta o`qituvshisi Avlayarov N.M..*

*Taqrizshi:*

*“Neft va gaz konlarini ishga tushirish va  
ulardan foydalanish” kafedrasi  
Dotsenti Eshqobilov X.Q.*

*Uslubiy ko`rsatma “Neft va gaz konlarini ishga tushirish va ulardan foydalanish”  
kafedrasi “ ” 2011 yildagi kafedra yig`ilishida muhokama qilingan ( N\_\_  
bayonnom ) .*

*Uslubiy ko`rsatma QMII Neft va gaz fakulteti uslubiy kengashining “ ”  
2011 yildagi yig`ilishida muhokama qilingan( N\_\_bayonnom ) .*

*“Quduq mahsulotlarini yig`ish va uzatish” fanidan ma`ruza matnlari to`plami  
neft va gaz yo`nalishi soxasida taxsil olayotgan talabalar uchun mo`ljallangan. To`plamda  
konni ishlash va jixozlash loyihasi, neft va gaz konlarida quduq mahsulotini yig`ish  
tizimlari, neft quduqlari mahsuloti miqdori va sifatini o`lchash, konlarda qo`llaniladigan  
quvur uzatkichlar tasnifi, quvur uzatkichlarning o`tkazish qobiliyatining pasayishi  
sabablari, neftni gazsizlantirish, neft emulsiyalari, konda neftni tayyorlash, kondagi neft  
saqlagichlari, tovar neftining sifati va miqdorini o`lchash usullari, neft konlarida oqova  
suvlarni tayyorlash, mahsuldor qatlamlarga suvni haydash uchun tayyorlash to`g`risida  
ma`lumotlar berilgan.*

*Ushbu ma`ruza matnlari to`plami Bakalavr B. 5542000 –“Neft va gaz konlarini  
ishga tushirish va ulardan foydalanish” ta`lim yo`nalishida ta`lim olayotgan talabalar  
uchun mo`ljallangan.*

## Kirish

Neft va gazni konda yig`ish, tayyorlash va uzatish uzlusiz jarayon bo`lib, bunda quduqdan chiqqan mahsulotni iste`molshiga jo`natishdan oldin davlat standartlari talablariga mos holga keltirish kerak bo`ladi.

Neft yer ostidan chiqayotganida o`z tarkibida har xil tuzlar, tog` jinsining mayda zarrachalari, tabiiy gazlar va suvni birga olib chiqadi. Shuning uchun neft quduqdan chiqqanidan keyin konning o`zida maxsus tayyorgarlikdan o`tkazilib tayyor mahsulot holiga keltirilishi kerak.

Hozirgi kunda O`zbekiston Respublikasida ishlatilayotgan neft konlarining aksariyat qismida suv haydash usuli qo`llanilmoqda. Shu sababli ko`p xollarda koni ishlatishning dastlabki davridan boshlab neft bilan birga yo`ldosh suv xam qazib olinadi. Neft, gaz va suvning kondagi kommunikatsiyalarda harakati jarayonida emulsiya paydo bo`ladi.

Neft bilan birga olinadigan yo`ldosh suvlar va ularda erigan tuzlar (ayniqsa, xloridli tuzlar) quvur – uzatkichlar, rezervuarlar va neftni qayta ishlash zavodlari uskunalarini zanglatib yemirilishiga sabab bo`ladi. Shuning uchun ham konda neftni tayyorlash tizimi neft konlarini ishlatish texnologiyasining asosiy elementi bo`lib hisoblanadi. Konda neft va gazni tayyorlash jarayoni quduq mahsulotini o`lchash, yig`ish, ajratish, neftni suvsizlantirish, tuzsizlantirish, stabillashtirish va mexanik zarrachalardan ajratish bilan bog`liq.

Konda neftni tayyorlash masalasini hal qilish maqsadida konda murakkab muxandiClik inshootlari ko`riladi. Neft, gaz va suvni yig`ish va tayyorlash tizimi neft, gaz va suvning fizikaviy xossalari, texnologik jarayonlarni hisoblash, jixozlarni tanlashni asoslash va ularni ishlatish maromini belgilash bo`yicha bilimga ega bo`lishni talab qiladi.

Ushbu o`quv qo`llanmada konlarda neft, gaz va suvni yig`ish, gazni tayyorlash asbob uskunalarini, neft va gaz quvurlarini hisoblash usullari, neft emulsiyalari va ularni parchalash usullari, kondagi neft saqlagichlar, neft konlaridagi oqova suvlarni tayyorlash hamda neft va gaz sanoati muammolari to`g`risida batafsил bayon qilingan.

## Ma`ruza №1

### Mavzu: Konni ishlash va jixozlash loyihasi.

#### Reja

##### 1. Asosiy tushunchalar.

##### 2. Neft konlarida neft, gaz va suvni yig`ish tizimini loyihalashga quyiladigan asosiy talablar.

**Tayanch so`zlar:** ishlash loyihasi, jihozlash loyihasi, AGO`Q ( avtomatik guruxiy o`lchov qurilmasi), tazyiqli yig`ish tizimi.

**Adabiyotlar:** 1, 2

#### 1.1. Asosiy tushunchalar.

Har bir yangi oshilgan kon uchun ikkita loyiha tuziladi:

1. ishlash loyihasi;
2. jixozlash loyihasi.

Neft va gaz konlarini ishga tushirishdan oldin ularning ishlash loyihasini tuzib chiqish kerak bo`ladi.Ishlash loyihasi konni ishlash va ishlatish usullarini, Shu konni jixozlash loyihasi uchun kerak bo`ladigan hamma asosiy ma`lumotlarni va asosiy texnologik ko`rsatkichlarni o`z ishiga olgan bo`lishi kerak.

Konni ishlash loyihasi:

2. ishlatish ob`ektlarini ajratish, ularni ishlash tizimini va tartibini belgilab berish;
3. yillar davomida neft olish sur`atini;
4. neft beraolishlik koeffitsienti va uni oshirish usullarini;
5. konda ishlovch va haydovchi quduqlar soni, ularni kon maydonidagi o`rni, teshish oraliqlarini hisoblash;

6. quduqlar debitini, qatlam bosimini, gaz omili va suv bosimini yillar davomida o`zgarishini;
7. qatlamga ta`sir etish usullari va ta`sir etish omillarini tanlash;
8. ob`ektlarning ishslash tartibini aniqlash;
8. konni ishlatalishning turli variantlarini texnik – iqtisodiy solishtirish kabi vazifalarni o`z ishiga oladi.

Loyihalash tashkilotlari ishslash loyihasiga muvofiq ravishda konni jixozlash loyihasi xam tuziladi.

Jixozlash loyihasi neft, gaz va qatlam suvini yig`ishni, neftni transport qilishga tayyorlaydigan turli xil texnologik uskunalarini oqilona joylashtirishni, loyiha bo`yicha qatlamga suv haydash nazarda tutilgan hollarda suvni tayyorlash tizimini o`z ishiga oladi.

Konlarda neft, gaz va suvni yig`ishni tashkillashtirish deganda neft – gaz – suv uzatkichlari orqali mahsulotni quduqdan markazlashgan texnologik qurilmalarga uzatish tizimi tushuniladi.

Neft yer ostidan chiqayotganida o`z tarkibida turli xil tuzlar, mexanik zarrachalar, tabiiy gazlar va yo`ldosh suvlarni olib chiqadi. Shuning uchun neft quduqdan chiqqanidan keyin konning o`zida maxsus tayyorgarlikdan o`tkazilib tayyor mahsulot holiga keltirilishi lozim.

Tayyor neft mahsuloti davlat standarti bo`yicha ma`lum talablarga javob berishi kerak. Neftni konda tayyorgarlik darajasiga ko`ra ush guruxga bo`lish mumkin. Ana shu guruxlarning tayyorgarlik darajasiga qo`yiladigan talablar 1.1-jadvalda keltirilgan.

### **Tayyor neft mahsulotining fizik ko`rsatkichlari**

**1.1-jadval**

Ko`rsatkichlar	Guruxlar		
	1	2	3
<b>1.Xlor tuzlarining miqdori mg/dm<sup>3</sup> dan oshmasligi kerak</b>	<b>100</b>	<b>300</b>	<b>900</b>
<b>2.Suvning massa miqdori % dan oshmasligi kerak</b>	<b>0,5</b>	<b>1,0</b>	<b>1,0</b>
<b>3.Tog` jinsi zarrachalari % dan oshmasligi kerak</b>	<b>0,05</b>	<b>0,05</b>	<b>0,05</b>
<b>4.Bug`ning to`yinganlik bosimi kPa (mm.simob ust.) dan oshmasligi kerak</b>	<b>66,7</b>	<b>66,7</b>	<b>66,7</b>
	<b>(500)</b>	<b>(500)</b>	<b>(500)</b>

Tayyor neft tarkibidagi oltingugurtning massa miqdori bo`yicha quyidagi sinflarga bo`linadi:

1. kam oltingugurtli – 0,60 % gacha;
2. oltingugurtli – 0,61 dan 1,80 % gacha;
3. yuqori oltingugurtli – 1,80 % dan yuqori

Shuningdek tayyor neft 20°C dagi zichligi bo`yicha ham quyidagi uch sinfga bo`linadi:

1. engil – 850 kg/m<sup>3</sup> gacha;
2. o`rtacha – 851 dan 885 kg/m<sup>3</sup> gacha;
3. og`ir – 885 kg/m<sup>3</sup> dan yuqori.

### **1.2. Neft konlarida neft, gaz va suvni yig`ish tizimini loyihalashga qo`yiladigan asosiy talablar.**

Har bir yangi oshilgan kon uchun neft, gaz va suvni yig`ish tizimlari loyihasi tuziladi. Konlarda neft, gaz va suvni yig`ish tizimlarini loyihalashda quyidagi talablar bajarilishi lozim:

1. Neft, gaz va suvni har bir quduqda aniq o`lchash;
2. Quduqdan magistral neft uzatkichgacha bo`lgan yo`lning germetikligini ta`minlash;
3. Texnologik qurilmalarda neft, gaz va suvni tovar mahsuloti darajasiga yetkazish;

4. Kapital harajatlarning yuksak iqtisodiy ko`rsatkichiga erishish, metalltalabshanlikni va ishlatish harajatlarini kamaytirish;
5. Texnologik qurilmalarni ishlatishni ishonchliligi va ularni zarur bo`lganda avtomatlashtirish;
6. Neft, gaz va suvni yig`ish tizimining va texnologik qurilmalarning har xil iqlim sharoitlarida qo`llash mumkinligi.

Konlarda neft va gazni yig`ish va tayyorlash tizimi quduqdan to neft yoki gazni tayyorlash qurilmalarigacha bo`lgan quvurlar, o`lchov asboblari, yig`ish punktlari, tayyorlash qurilmalarini o`z ichiga oladi.

Neft, gaz qazib olish korxonalarida neft, gaz va suvni yig`ish va tayyorlash texnologiyasi beshta jarayonni o`z ichiga qamrab oladi:

1. Har bir quduqdan kelayotgan neft, gaz va qatlam suvi tazyiqli tashlama quvur orqali avtomatlashtirilgan guruxiy o`lchov qurilmasiga uzatiladi.
2. AGO`Qda joylashtirilgan ajratgich quduq mahsulotini gaz va suyuqlikka (neft+suv) ajratib beradi.
3. Neft, gaz va suvni AGO`Q dan shu maydonning o`zida joylashgan bir bosqichli ajratgichga uzatiladi.
4. Bir bosqichli ajratgichdan ajratib olingen neft gazi o`z bosimi ostida kon ehtiyojlari uchun yoki uzoqdagi iste`molchilarga uzatiladi, neft bilan suv esa neftda erigan gaz bilan birlashtirilgan guruxiy o`lchov qurilmasiga uzatiladi. Bu yerda neft past haroratda gatsizlantiriladi va qatlam suvidan birlamchi tozalanadi.
5. Ikki bosqichli ajratkichdan neft o`zidan ajratilgan suv bilan tovar holiga yetishishi uchun ajratgich-deemulgatorga uzatiladi .

Bu yerdan gaz ajratgich – deemulgatordan o`zining bosimi ostida GQIZ ga uzatiladi.

Shunday qilib, neft va gazni yig`ish va uzoqqa uzatishga tayyorlash quduq og`zidan boshlanib, neft, gaz, suvni tayyorlash qurilmalarida tugaydigan yagona texnologik jarayondir.

### **Nazorat savollari:**

- 1.Yangi oshilgan kon uchun nechta loyiha tuziladi?
- 2.Ishlash loyihasi o`z ichiga nimalarni oladi?
- 3.Jixozlash loyihasi o`z ichiga nimalarni oladi?
- 4.Konlarda neft, gaz va suvni yig`ish tizimlarini loyihalashda qanday talablar bajarilmog`i lozim?
- 5.Neft, gaz, suvni yig`ish va tayyorlash texnologiyasi neshta jarayonni o`z ichiga oladi?

### **Ma`ruza №2**

**Mavzu: Neft va gaz konlarida quduq mahsulotini yig`ish tizimlari.**

**Reja:**

1. **Neft konlarida quduq mahsulotini yig`ish tizimlari.**
2. **Gaz konlarida gazni yig`ish tizimlari.**

**Tayanch so`zlar:** Tazyiqli Baronyan-Vezirov yig`ish tizimi, Grozniy neft institutining yig`ish tizimi, yig`ishning tazyiqli Giprovostok tizimi, to`g`ri chiziqli yig`ish tizimi, nurli yig`ish tizimi, xalqali yig`ish tizimi.

**Adabiyotlar:** 2, 3, 5.

#### **2.1. Neft konlarida quduq mahsulotini yig`ish tizimlari.**


Neft quduqlari mahsuloti neft, gaz va minerallashgan qatlam suvlarining aralashmasini namoyon qiladi.Ko`pinsha neft va suv tabiiy aralashish natijasida emulsiyani hosil qiladi.Bundan tashqari gaz quduqlari mahsuloti tarkibida gazdan tashqari suyuk fazalar tomchi ko`rinishida va suv bug`lari bo`lishi mumkin. Shuningdek quduq mahsuloti tarkibida

gaz va suyuqlikdan tashqari turli xil mexanik aralashmalar: qum va gil zarralari hamda neft tarkibidan ajraladigan qattiq uglevodorodlar – parafinlar bo`ladi. Shu sababli neft va gazni yig`ish va jo`natishga tayyorlash hamda quduqdan chiqayotgan mahsulotni o`lchash uchun kon xududida quvurlar, apparatlar va qurilmalar sistemasi quriladi.

Konda neft va gazni yig`ish tizimi quduqdan to neft yoki gazni tayyorlash qurilmalariga bo`lgan quvurlar, o`lchov asboblari va yig`ish punktlarini o`z ichiga oladi.

Quduqlardan kelayotgan neftni yig`ish va tayyorlashning bir necha tizimlari mavjud.

**Tazyiqli Baronyan–Vezirov yig`ish tizimi.** 1946 yilda bakulik muxandislar tomonidan yaratilgan bu tizim birinchi yopiq holda ishlagan neft yig`ish va tayyorlash tizimi bo`lib xisoblanadi (1-rasm).



1-rasm. Tazyiqli Baronyan-Vezirov yig`ish tizimi.

Bu tizimda neftni yig`ish uchun quduqlar (1,12,13) ustidagi bosim 0,5-0,6 MPa atrofida saqlanib to`rilishi kerak. Bunday bosim neftni boshlang`ish yig`ish va o`lchash punktlaridagi ulshov asbobiga va undan keyin esa neftni tayyorlash uskunalarigacha yetib borishini ta`minlaydi.

Agar quduqlar ustidagi bosim 0,6 MPa dan ochiq bo`lgan xollarda quduq oldida mahsus gaz ajratgichlar (2) o`rnataladi va neftdagi erigan gaz ajratib olinib va yig`ish tizimiga yo`naltiriladi.

Neft quduqlardan chiqib yo`naltiruvshi quvurlar orqali o`lchash asbobiga (3) yetib keladi. Bu yerda har bir quduq mahsulot miqdori navbatli bilan o`lchanadi. Bir ulshov asbobiga yettitagacha quduq o`lanishi mumkin. O`lchov asbobidan keyin ajratilgan gaz maxsus ajratgichga (5) yuborilib, u yerdan 0,1 MPa bosimgacha gazdan neft tomchilari ajratib olinadi va gaz quritgishga yo`naltiriladi. Bu yerda gaz quritilib, tozalangandan sung yuqori bosimli kompressorlar(11)ga uzatiladi. Kompressorlarda gaz yuqori bosimgacha siqiladi va gazdagi kondensatni ajratib olish uchun yana bir gaz-ajratgich(10)ga yo`naltiriladi. Bu yerdan chiqqan tuliqtozalangan gaz GKIZ (gazni qayta ishlash zavodi)ga yoki gazlift usulida ishlovch quduqlar(13)ga yuboriladi.

O`lchov asboblaridan chiqqan neft tindirgichlar(6)ga uynaltiriladi. Bu tindirgichlarda neftdan suv va qattiq moddalar (qum zarrachalari) ajratib olinadi. Tozalangan neft katta hajmdagi maxsus saqlagichlar(7)ga yuboriladi. Tayyor mahsulot xolidagi neft saqlagichlardan neftni qayta ishlash zavodiga yoki temir yuldagisi neft quyish estakadalariga neft quvurlari orqali nasos stantsiyasi yordamida haydaladi.

Tindirgichlardan ajratib olingan suv va qum birgalikda qum ajratgich(8)ga kelib tushadi. Bu yerda qum suvdan ajratib olinadi, suvni maxsus suv yig`iladigan xovuzlarga jo`natiladi. U yerda suv yuzida yig`ilgan neft nasoslar orqali tortib olinib tindirgichlarga yuboriladi.


Tazyiqli Baronyan-Vezirov yig`ish tizimi Ozarbayjon, Turkmaniston kabi davlatlardagi konlarda hozirgi kungacha saqlanib qolgan.

**Grozniy neft institutining yig`ish tizimi.** Bu tizim o`z ishiga jamlangan to`rtta yirik tizimlarni biriktirgan bo`lib, Baronyan-Vezirov yig`ish tizimidan zamonaviylici, qulayligi va mahsulot yo`qotilishini minimumgacha kamaytirilganligi bilan farq qiladi (2-rasm).

Jamlangan to`rtta yirik tizimga guruxiy o`lchov qurilmasi, birinchi bosqich gazsizlantirish qurilmasi (kerak bo`lgan hollarda), markaziy gazsizlantirish qurilmalari va neftni mukammal tayyorlash qurilmalari kiradi.

Bu yig`ish tizimida yuqori bosimda favvora usuli bilan ishlayotgan quduqlar (1) boshida 6-7 MPa bosim saqlanib turiladi, buning natijasida neft guruxiy o`lchov qurilmasi(2)gacha va undan keyin birinchi bosqich gazsizlantirish qurilmasi(3)ga, hamda neftni tayyorlash tizimlarigacha o`z bosimi bilan yetib borishi ta`minlanadi. Quduqlar boshida 6-7 MPa bosimning saqlanib turilishi neftni tayyorlash tizimini 100km masofagacha uzoqlikda o`rnatish imkoniyatini beradi.

Guruxiy o`lchov qurilmasida 14 tagacha quduqning mahsulot miqdori o`lchanishi mumkin. Agar erigan gaz miqdori juda katta bo`lsa, guruxiy o`lchov qurilmasidan neft birinchi bosqich gazsizlantirish qurilmasiga yo`naltiriladi.Bu yerda dastlabki ajratib olingan gaz to`g`ri GQIZ (4)ga yoki boshqa bir iste`molshiga yuboriladi. Neft birinchi bosqich gazsizlantirish qurilmasidan o`tgandan so`ng markaziy gazsizlantirish qurilmalari(5)ga yo`naltiriladi. Bu yerda neft ush bosqichli gazsizlantirish jarayonidan o`tadi. Ajratib olingan gazning o`zi ham kondensat va neft tomchilaridan tozalanadi, quritiladi va gazni qayta ishslash zavodiga yoki iste`molshiga yuboriladi. Gazsizlantirilgan neft esa neftni tayyorlash qurilmalari (6) ga yetib keladi. Bu yerda neft suv va qum zarrachalaridan tozalanib tayyor mahsulot holiga keltiriladi va neftni qayta ishslash zavodlariga yoki temir yo`l va neft quyish estakadalariga quvur orqali jo`natiladi.




2-rasm. Grozniy neft institutining yig`ish tizimi.

Grozniy neft institutining yig`ish tizimida quduqdan chiqayotgan neft, gaz va suvli suyuqlik bitta katta quvur orqali uzoq masofaga (100km gacha) uzatilib, unda quvurdagi oqimning uzlusizligiga, oqimni haydash tarziga katta ahamiyat beriladi.

Grozniy neft institutining yig`ish tizimidagi neft yig`ish, uzatish va tayyorlash Shimoliy Kavkaz va Ukraina konlarida ko`proq qo`llaniladi.

Bu tizimning yana bir afzalligi 100km radiusda joylashgan bir necha konlar uchun tayyorlash tizimlarini bir joyda jamlangan holda qurishning mumkinligidir.

**Yig`ishning tazyiqqli Giprovestok tizimi** neft yig`ish va tayyorlash jarayonlarini yanada yiriklashtirish, bir yerda mujassamlashtirish va mahsulotlarni (neft, gaz, kondensat) bosim yetarli bo`lmagan holda aloxida jo`natish uchun yaratilgan (3-rasm).



3-rasm. Yig`ishning tazyiqqli Giprovostok tizimi.

Bu yig`ish tizimi qo`llanilganda quduqlar ustida 1-1,2 MPa atrofida bosim saqlanib turiladi. Quduqlarning (1) mahsuloti guruxiy o`lchov qurilmasidan (2) o`tganidan so`ng birinchi bosqich gazsizlantirish qurilmasiga (3) yetib keladi. Bu yerda ajratib olingan gaz o`z bosimi bilan 60-80km masofagacha uzoqlikda bo`lgan gazni qayta ishlash zavodiga (5) yuboriladi, neftni nasos stantsiyasi (4) orqali markaziy neft yig`ish punktida (5) hisobdan o`tkazilib, neftni tayyorlash qurilmalarida (6) tayyor mahsulot holiga keltirilib iste`molshilarga jo`natiladi. Giprovostok tizimi ko`proq Rossiyaning Volga bo`yi (Saratov, Volgograd tumanlari), Ural oldi konlarida hamda Tatariston, Boshqirdiston konlarida keng qo`llaniladi.

Yuqorida ko`rib chiqilgan neft yig`ish, tayyorlash va uzatish tizimlari ma`lum bir shart – sharoitlarga (quduqlarni ishlatish usuli va quduq usti bosimi), Shuningdek geografik xududlarga, bu xududlarning geografik muxitning tabiiy sharoitlari (o`rmonzorlar, botqoqliklar, doimiy muzlik va h.k.) ga mo`ljallanib yaratilgan.

Bulardan tashqari, har qanday shart-sharoitlarga mo`ljallangan neft yig`ish, tayyorlash va uzatish universal tizimining kondan olinayotgan mahsulotni (neft, gaz kondensat) to`liq bir-biridan ajratib olish, tayyorlashning texnologik jarayonidagi yo`qotishlarni minimumga olib kelish va tayyorlash jarayonlarini to`liq avtomatlashtirish yoki kompyuter orqali boshqarishgacha imkoniyati mavjud.

## 2.2. Gaz konlarida gazni yig`ish tizimlari.


Gaz konlarini ishlatish amaliyotida gazni yig`ishning quyidagi asosiy tizimlari qo`llaniladi:

- chiziqli;
- nurli;
- xalqali.

Chiziqli yig`ish tizimida asosiy gazni yig`ish kollektorlari, ya`ni quduqdan gazni yig`ish punktigacha bo`lgan yo`lni tashkil etuvchi quvurlar to`g`ri shiziq shaklida bo`ladi. Bu tizim kon kichik va quduqlar soni oz bo`lganda qo`llaniladi (4a-rasm). Quduqlardan GSP ga boruvshi quvurlar shleyflar deyiladi. Ularning uzunligi 600m dan 5km gacha bo`ladi, diametri 200mm.

Gazni yig`uvchi kollektorlar gaz yig`ish punktiga nursimon shaklda birlashgan bo`lsa, bunday yig`ish tizimi nurli gaz yig`ish tizimi deb ataladi (4b-rasm). Bu tizim bir munsha murakkab, biroq to`g`ri chiziqli tizimdan ko`ra afzalliliklarga ega. Nurli gaz yig`ish tizimi boshlang`ish qatlama bosimi va gaz tarkibi har xil bo`lgan bir necha qatlamlarni alohida ishlatish imkonini beradi.

Xalqali yig`ish tizimida gaz yig`ish kollektorlari xalqali ko`rinishda bo`lib, bu tizimning afzalligi shundaki, qaysidir uchastkada avariya yuz bersa, butun bir tizimni to`xtatmasdan o`sha yerni ta`mirlash mumkin (4v-rasm).



4-rasm. Gazni yig`ish tizimlari.

a - to`g`ri chiziqli; b - nurli; v - xalqali; 1 - ajratgich; 2 – kompressor stantsiyasi yoki gaz yig`ish punkti; 3 – magistral gaz quvuri.

Gaz koni juda katta maydonni egallagan va quduqlar soni ko`p bo`lgan holatlarda yuqorida sanab o`tilgan gazni yig`ish tizimlari aralash holatda qo`llanilishi mumkin, masalan to`g`ri chiziqli va nurli yoki xalqali va to`g`ri chiziqli. Barcha yig`ish tizimlarida gaz yig`ish kollektoriga nafaqat aloxida quduqlar, balki quduqlar guruxi guruxiy yig`uv qurilmalari orqali ulanishi mumkin. Guruxiy yig`ish tizimining ustunligi Shundaki, gaz yig`uv kollektorlariga bir emas, bir gurux quduqlarni uyush mumkinligi, gazni o`lchash va nazorat qilish va gaz yig`ish uchun kam quvur sarflash imkonini beradi. Gaz yig`ish tizimining asosiy elementi bo`lib, shleyflar, yig`uvchi kollektorlar, gaz yig`uv va o`lchov punktlari kiradi. Gaz yig`ish tarmoqlarining elementlari barcha gaz yig`ish tizimlari uchun umumiy hisoblanadi. Agar konda bir neshta qatlam va har xil bosimli quduqlar mavjud bo`lsa, bunday holatlarda bir neshta gaz yig`ish tarmog`i orqali gazni aloxida yig`ish usulidan foydalaniladi.

Quduqdan chiqayotgan gaz yig`ish tarmoqlari va kollektorlar orqali gaz yig`ish punkti (GSP) va nazorat-taqsimlash punkti (KRP) ga yig`iladi. Bu yerda gazning bosimini o`zgartirish va nazorat qilish ishlari ham amalga oshiriladi. Bir qator gaz bosimi past hollarda gaz kompressor stantsiyasiga uzatiladi, u yerda kerakli bosimgacha siqilib katta bosimli tizimga o`tkaziladi. Ko`p hollarda quvurlarni tejash va ortiqsha bosimlardan foydalanish uchun gaz ejektorlaridan foydalaniladi (5-rasm).

Gaz ejektori baland va past bosimli gazlar uchun mo`ljallangan kameralardan, soplordan, aralashish kamerasidan va diffuzordan tashkil topgan.


Ejektor quyidagisha ishlaydi: baland bosimli gaz tashqi kameraga kiradi va undagi soplidan o`tib, aralashish kamerasiga boradi. Past bosimli gaz xalqasimon bo`shliqqa, undan yuqori bosimli gaz markaziy soplidan o`tayotganida bosim tushadi va past bosimli gaz bilan qo`shiladi. Aralashish kamerasida qo`shilgan gazlarning tezligi diffuzor oldida tenglashadi. Diffuzorda gaz tezligi tushadi. Gazning kinetik energiyasining anshasi bosim energiyasiga aylanadi, bosim tiklanadi.

Gaz ejektori bir vaqtida turli bosimli gaz qatlamlarini aloxida-aloxida ishlatishda ham qo`l keladi.

Kon gazlari GSP va KRP larda yig`iladi.

GSP va KRP larda quyidagi jixozlar o`rnataladi:

1. Ajratgichlar – qattiq yoki suyuq qismlardan tozalash uchun. Ajratgichlar soni hisob-kitoblar orqali aniqlanadi, biroq ular kamida ikkita bo`lishi lozim, biri buzilganda ikinshisi ishlashi kerak. Har qaysi ajratgich suv, kondensat va turli zarrachalarni chiqarib tashlovshi qurilmalar, Shuningdek ishchi bosimdan 10-15% katta bo`lgan ehtiyyot klapanlar bilan ta'minlangan bo`lishi kerak.



5-rasm. Ejektor qurilmasi.

1 - soplo; 2 - konfuzor; 3 - aralashish kamerasi; 4 - diffuzor; 5 - konfuzor teshigi o`lchovini rostlagish; 6 - manometr.

2. Nazorat o`lchov asboblari. Bu asboblarga termometrlar, manometrlar, sarf o`lchagichlar (rasxodomerlar) kiradi.

3. «O`zidan oldin» va «o`zidan keyin» printsiplarida ishlaydigan bosim boshqargichlari (regulyatorlari).

4. Metanolli qurilmalar - gaz quvurlarida gidrat hosil bo`lishini oldini olish va hosil bo`lgan gidrat tiqinlarini bartaraf qilish uchun o`rnataladi.

5. Maxsus hid beruvshi moslamalar - qurilma va quvurlarda utechka yuz berganda darhol bilish uchun qo`llaniladi.

#### **Nazorat savollari:**

1. Tazyiqli Baronyan-Vezirov yig`ish tizimi.
2. Grozniy neft institutining yig`ish tizimi.
3. Yig`ishning tazyiqli Giprovostok tizimi.
4. Gazni yig`ishning chiziqli tizimi.
5. Nurli gaz yig`ish tizimi.
6. Kon gazini yig`ishning xalqasimon tizimi.
7. Gaz ejektori nima va uning ishlash printsipli qanday?

### Ma‘ruza №3

**Mavzu: Neft quduqlari mahsuloti miqdori va sifatini o`lchash.**

**Reja:**

1. Quduq mahsulotini o`lchash.
2. Neft tarkibidagi suv miqdorini o`lchash.

**Tayanch so`zlar:** germetizatsiyalashgan yig`uv tizimi, diafragmalar, sarf o`lchagichlar

**Adabiyotlar:** 3, 4, 5.

#### 3.1. Quduq mahsulotini o`lchash.

Konni ishlashini nazorat qilish va tartiblashtirishda quduq mahsulotini o`lchash katta ahamiyatga ega. Konni ishlashini nazorat qilish va tartiblashtirish asosan suv – neft va gaz-neft kontakti harakatini o`rganish orqali amalgalashadi. Shuning uchun quduq mahsulotini o`lchashda neftning suvlanganligining o`zgarishiga va quduqda gaz omilining oshishiga alohida e`tibor berish lozim. Konni ishlashini nazorat qilish va tartiblashtirishda quduq mahsulotini o`lchash har xil neft qazib chiqarish korxonalarida turli xil olib boriladi.

1. Neftni yig`ishning o`zioqar tartibida quduq mahsulotini o`lchashni operatorlar bajaradi. Quduqdan kelayotgan neft va suv miqdori ajratish -o`lchash qurilmasiga tushadi hamda o`lchagich - ajratkichda yoki ochiq silindrik o`lchov idishida o`lchanadi. O`lchov idishidagi mahsulot miqdori operator bo`linmalarida mavjud bo`lgan reyka yordamida o`lchanadi. Gaz miqdori guruxiy o`lchov – ajratgich qurilmalarda standart diafragmalar va DP-430 sarf o`lchagichlar yordamida o`lchanadi, ular ajratgichdan keyingi gaz tarmog`iga o`rnataladi. Quduqlar bo`yicha neft va suv miqdori davriy ravishda quduqning ishslash tarziga bog`liq holda kuniga bir marta yoki 3-5 kunda bir marta o`lchov ishlari olib boriladi.

O`lchov idishidagi neft va suv satxining o`zgarishi bo`yicha quduq maxsulorligini o`lchash uchun quyidagi formulalardan foydalilaniladi.

O`lchov idishining 1sm balandlikdagi hajmi:

$$V = \frac{\pi \cdot D^2}{4} \cdot 0,01 = 0,00785 \cdot D^2; \quad \text{m}^3$$

Bu yerda: D - o`lchov idishining ichki diametri.

O`lchov idishidagi neft hajmi:

$$V_n = \frac{\pi \cdot D^2}{4} \cdot 0,01 \cdot h_n$$

O`lchov idishidagi suv hajmi:

$$V_s = \frac{\pi \cdot D^2}{4} \cdot 0,01 \cdot h_s$$

Agar o`lchov idishining to`lishi t vaqtga to`g`ri kelsa, u holda quduqning kunlik maxsulorligi quyidagisha aniqlanadi:

$$\text{Neft uchun: } V_n = \frac{\pi \cdot D^2}{4} \cdot 0,01 \cdot h_n \cdot \frac{1440}{t} = 11,3 \cdot \frac{h_n \cdot D^2}{t}$$

$$\text{Suv uchun: } V_s = \frac{\pi \cdot D^2}{4} \cdot 0,01 \cdot h_s \cdot \frac{1440}{t} = 11,3 \cdot \frac{h_s \cdot D^2}{t}$$

Bu yerda 1440 – sutkadagi minutlar soni.

2. Germetizatsiyalashgan yig`ish tizimida mahsulot miqdori avtomatik qurilmalar yordamida o`lchanadi. Quduq mahsuloti Sputnik turidagi o`lchash qurilmalariga uzatiladi. Bu qurilmada quduqdan uzatilayotgan suyuqlik hajmini davriy o`lchash ishlari o`tkaziladi, suv va suyuqlikni foiz miqdori va erkin gaz miqdori aniqlanadi.

Neft konlarida Sputnik-A, Sputnik-B, Sputnik-V, AGZU, AGU turidagi blokli avtomatlashtirilgan guruxiy o`lchov qurilmalari keng tarqalgan (6 va 7-rasm).

Sputnik-A blokli avtomatlashtirilgan o`lchov qurilmalari seriyasini Tayanch tuzilmasi va tarkibida oltingugurtsuvchil va boshqa tajovuzkor komponentlari bo`lmagan quduq mahsulotlarini yig`ish tizimlarida qo`llash tavsiya qilinadi.

Sputnik - A quyidagi maqsadlar uchun mo`ljallangan:


- quduqning mahsulot miqdorini o`lchash uchun avtomatik ravishda qo`shish;
- quduq debitini avtomatik ravishda o`lchash;
- quduq ishini nazorat qilish;
- avariya holatida quduqni avtomatik ravishda yopish.

Sputnik-A ikkita blokdan iborat: o`lchash-almashtirib ulash va (MAB) maxalliy avtomatika bloki, ular yordamida quduqlar o`lchashga avtomatik ravishda qo`shiladi va o`lchangan quduq mahsulot miqdori registratsiya qilinadi. Sputnik-A berilgan programma asosida ishlaydi, quduqlarni o`lchashga qo`shish navbatli aniq vaqtda amalga oshiriladi. Bitta quduqni o`lchash davomiyligi MAB da o`rnatilgan rele yordamida aniqlanadi.

Sputnik-A  $15,7 \cdot 10^3$  Pa va  $39,3 \cdot 10^5$  Pa ishchi bosimlarda ishlab chiqariladi, bunda quduqning maksimal maxsulorligi  $400 \text{ m}^3/\text{kun}$  va suyuqlik qovushqoqligi 80 sSt dan oshmasligi kerak. Bu ko`rsatkichlarda Sputnik-A ning suyuqlik mahsulot miqdorini o`lchash xatoligi  $\pm 2,5$  ni tashkil etadi.

Sputnik -B, Sputnik-V va Sputnik-B40 qurilmalari yordamida ham aloxida suvlangan va suvlanmagan quduqlarni sarfini o`lchash mumkin.

Sputnik-V VNIIKA neft gaz institutining Grozniy filiali tomonidan ishlab chiqilgan, u ham Sputnik-A kabi quduqlarni avtomatik ravishda berilgan programma asosida o`lchashga qo`shish va erkin gaz debitini avtomatik o`lchash uchun mo`ljallangan. Bu qurilmaning kamshiligi Shundaki, parafinli neftni o`lchash jarayonida darajalash (tarirovka) idishidagi parafin cho`kindilari suyuqlik miqdorini o`lchash aniqligini pasaytiradi




6-rasm. Sputnik-A

Sputnik-B40 VNIKA neft gaz institutining Oktyabr filiali tomonidan ishlab chiqilgan. Uning ishlash tartibi quyidagisha:

Masalan, agarda Sputnikka biriktirilgan 2 ta quduq suvlanib, qolgan 12 ta toza neft berayotgan bo`lsa, unda qo`l bilan maxsus teskari to`sqishlarni berkitiladi va suvlangan quduqlarning mahsulotlarini surilma yordamida suvlanish shizig`i bo`ylab yig'uvchi kollektorga yo`naltiriladi.

Toza neft berayotgan quduqlarning mahsuloti quduqlarning ko`p harakatli o`zgartiruvshisini idishiga yo`naltiriladi, u yerdan yig'uvchi kollektorga kelib tushadi, so`ngra suvsiz neft kollektoriga kelib tushadi.



7-rasm. Sputnik-V

O`lchash uchun keltirilgan har bir quduqning suyuqligi quduqlarning rotor o`zgartiruvshisi orqali gidrotsiklon ajratgichga yo`naltiriladi. Ajratgichdan gaz chiqish yerida, ajratgich va gaz sarflagish orasida bosimlar farqini doimiy ta'minlovshi bosimlar farqini tartiblagish o`rnataladi.

Sputnikda neftni suvlanganlik foizini aniqlash uchun nam o`lchagich o`rnatalgan va u orqali quduq mahsulotining hammasi o`tkaziladi. Yana shu qurilmaga o`xshash Sputnik-B40-24 ham ishlab chiqilgan, uni Sputnik-B40 dan farqi shuki, unga 14 ta emas, balki 24 ta quduqni ulash mumkin, qolgan ko`rsatkichlari xuddi Sputnik-B40 niki kabitidir.

### 3.2. Neft tarkibidagi suv miqdorini o`lchash.

Yaqin - yaqingacha neft tarkibidagi suv miqdorini aniqlash uchun Dina – Stark apparatidan foydalanilgan. Bunda 100 gr suvlangan neftni  $100 \text{ sm}^3$  erituvshi bilan aralashtirib kolbaga quyamiz va qizitamiz. Erituvshi bug`lanib, o`zi bilan birlgilikda neft tarkibidagi suvni olib ketadi (8- rasm).

Suv va erituvshining bug`laridan so`ng, qolgan suv qopqon-qabulqilgishda yig`iladi. Bu yerda yig`ilgan suv miqdori bo`yicha uning neftdagi protsent miqdorini aniqlash mumkin. Bunda quyidagi formuladan foydalaniladi:


$$W = \frac{100 \cdot V}{G}$$

V - qopqon - qabulqilgishdagi suvning hajmi, ml;

G – olingan namunani hajmi, ml;

Dina-Stark asbobi bilan neft tarkibidagi suvni o`lhash aniqligi ancha yuqori, lekin bu usul bilan suyuqlik oqimidagi suv miqdorini tinimsiz nazorat qilish imkoniy yo`q. Shuning uchun bu borada bir qator izlanishlar olib borildi.

Sobiq ittifoqda va chet ellarda neftning suvlanganligini aniqlashning suyuqlikni elektr o`tkazuvchanligiga asoslangan usuli keng tarqalgan. Bizga ma'lumki, suvsiz neft yaxshi dielektrik hisoblanadi va uning elektr o`tkazuvchanligi  $\epsilon = 2,1 \div 2,5$  ga teng. U holda minerallashgan suvning dielektrik o`tkazuvchanligi 80 gacha yetishi mumkin. Neft va suvning dielektrik o`tkazuvchanligi orasidagi bunday katta farq yuqori sezuvchanlikka ega vlagomer yaratishga imkon berdi. Bunday vlagomerning ishlash printsipi kondensator idishi sig`imini o`lhashdan iborat. Kondensator idishi tekshiriladigan suyuqlikka tushirilgan ikkita elektroddan tashkil topgan.



8 – rasm. Dina – Stark apparati

1 – shisha kolba; 2 – ulagich naysha; 3 – muzlatgich; 4 – qopqon-qabulqilgich;

Kondensator sig`imi quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$C = \frac{F \cdot \varepsilon}{L}$$

Bu yerda  $F$  – kondensator yuzasi;  
 $\varepsilon$  – dielektrik  
o`tkazuvchanlik;

$L$  – elektrodlar orasidagi masofa.

Agar  $F$  va  $L$  o`zgarmas bo`lsa, u holda kondensat sig`imi  $S$  neftdagи suvni miqdonini o`zgarishiga bog`liq bo`lib qoladi.

Bundan tashqari neft oqimidagi suv miqdonini tinimsiz nazorat qilish va o`lchab borish imkonini beruvshi UVN (unifitsirovanny vlagomer dlya nefti) asbobi ishlab chiqarilgan, u neft oqimidagi suv miqdonini 2,5%dan 4% gacha aniqlikda o`lchaydi.

Hozirgi vaqtida neft tarkibidagi suvni tinimsiz nazorat qilish va aniqlash uchun maxsus neftning bir xillashtirilgan namo`lchagichi ishlatiladi.

### Nazorat savollari:

1. Quduqdan olinayotgan mahsulot qanday qilib o`lchanadi?
2. Gaz miqdori qanday qurilmalar yordamida o`lchanadi?
3. Mahsulot miqdonini o`lchashda qo`llaniladigan qanday avtomatik qurilmalarni bilasiz?
4. Dina – Stark apparati yordamida nima aniqlanadi?

### Ma`ruza № 4

**Mavzu: Konlarda qo`llaniladigan quvur uzatkichlar tasnifi. Quvur uzatkichlarning o`tkazish qobiliyatining pasayishi sabablari.**

#### Reja:

1. Konlarda qo`llaniladigan quvur uzatkichlar tasnifi.
2. Neft uzatkichlarning ifloslanishi va ularning oldini olish usullari.
3. Konda qazib olinayotgan gazlar tarkibi va ularning salbiy ta`sirlari.
4. Gaz uzatkichlardagi suyuq va gidratli tinqinlar, ularni oldini olish va bartaraf qilish usullari.

**Tayanch so`zlar:** quvurlar, yo`naltiruvshi quvurlar, yig`uvchi quvurlar, oddiy quvurlar, murakkab quvurlar, tazyiqli quvurlar, tazyiqsiz quvurlar, gidratlar, adsorbsiya, absorbsiya, sorbent.

**Adabiyotlar:** 3, 4, 5.

#### 4.1. Konlarda qo`llaniladigan quvur uzatkichlar tasnifi.

Har qanday neft va gaz konida quduqlardan chiqqan mahsulotni tayyorlash qurilmalarigacha yetkazish uchun har xil turdagи quvurlar ishlatiladi. Bu quvurlar o`zidan o`tkazayotgan mahsuloti, bosimi, vazifasi, gidravlik tarxi, qurilishi kabi omillarga qarab turli tuman bo`ladi.

Neft va gaz konlarida qo`llaniladigan quvur uzatkichlarning quyidagi umumiy tasnifi mavjud:

A) o`tkazayotgan mahsuloti bo`yicha:

- neft quvurlari;
- gaz quvurlari;
- neft-gaz quvurlari;
- kondensat quvurlari;
- suv quvurlari;
- reagent quvurlari.

B) bajaradigan vazifasiga qarab:

- yo`naltiruvshi quvurlar;
- yig`uvchi quvurlar.

Yo`naltiruvshi quvurlar quduqdan birinchi gurux o`lchagich qurilmalarigacha bo`lgan masofada ishlatiladi. Birinchi gurux o`lchagich qurilmalaridan neftni yig`ish va tayyorlash qurilmalarigacha bo`lgan masofada yig`uvchi quvurlar ishlatiladi.

V) ishchi bosimiga qarab:

- kushli bosimli quvurlar, bosimi 6 MPa dan yuqori;
- yuqori bosimli quvurlar, bosimi 2,5 – 6,0 MPa;
- o`rta bosimli quvurlar, bosimi 1,6 – 2,5 MPa;
- past bosimli quvurlar, bosimi 1,6 MPa dan past.

Odatda o`rta, yuqori va kushli bosimli quvurlar tazyiqli, past bosimli quvurlar tazyiqsiz quvurlar deb ataladi. Tazyiqli quvurlarda mahsulot quvurni to`liq to`ldirib oqadi, tazyiqsiz quvurlarda quvur ishi to`liq bo`lmagan holda oqishi mumkin.

G) gidravlik tarxi bo`yicha:

- oddiy quvurlar;
- murakkab quvurlar.

Oddiy quvurlar bir xil diametrga ega bo`lib, unga boshqa quvurlar ulanmagan bo`ladi. Murakkab quvurlarning diametri har xil bo`lishi hamda quvurlarga boshqa quvurlar ulangan bo`lishi mumkin.

D) qurilishi bo`yicha:

- yer osti quvurlari;
- yer usti quvurlari;
- havodan o`tkazilgan quvurlar;
- suv osti quvurlari.

Bu tasnif konlarda ishlatiladigan neft va gaz yig`ish, tayyorlash tizimidagi quvurlarga ta`lluqli bo`lib, uzoqqa uzatuvchi quvurlarga tegishli emas.

#### **4.2. Neft uzatkichlarining ifloslanishi va ularning oldini olish usullari.**

Neft koni xududidan o`tgan tashlama quvur va neft yig`uvchi kollektorlarning ifloslanishi quyidagi sabablar natijasida sodir bo`ladi:

1. neft bilan quduq ustiga chiqadigan qattiq zarrachalar oqimining tezligi yetarli darajada bo`lmagan taqdirda neft uzatkich quvurlarga cho`kadi va ularning o`tkazuvchanligini pasaytiradi;

2. ba`zi bir termodynamik sharoitlarda neft, gaz va suvning birlgilikda oqishida ulardan turli tuzlar va parafin cho`kishi mumkin;

3. quvur uzatkichlarning korroziyasi natijasida ularning ichki devorlarining buzilishidan hosil bo`lgan zarralar oqimning tezligi pasaygan vaqt cho`kishi mumkin.

Neft – gaz oluvchi tashkilotlar quvur devorlarida parafin cho`kishini oldini olish va hosil bo`lgan paraffinni yo`qotish uchun turli usullarni qo`llashadi. Bularning eng asosiyлари quyidagilar:

1. neft – gaz yig`ishning germetizatsiyalashgan tazyiqli (0,981 – 1,47 MPA) tizimini qo`llash;

2. bug` haydovchi qurilmalar (PPU) yordamida parafinlashgan quvurlarga bug haydaladi va bu bug` paraffinni eritadi.

3. parafinning quvur devorlariga yotishini oldini olish maqsadida quvur uzatkichlarning ichki devorlaridagi g`adir – budirliklarni kamaytirish maqsadida lakkler, epoksid yelimlar va shisha plastiklar bilan qoplanadi;

4. sirt faol moddalarni qo`llash. Bunda SFM larning sarfi 10 – 12 g/t ni tashkil etadi;

5. issiqlikni ushlab turuvshi qoplamlar (teploizolyatsiya) dan foydalanish;

6. rezina sharlardan (torpedo) foydalanish. Bular quduq ustidan tashlama quvurlar orqali yuborilib, guruxiy o`lchagich qurilmalardan (GUK) olinadi.

Mana shu oltita usuldan ko`proq birinchi va ikkinchisi qo`llaniladi.

#### **4.3. Kondan qazib olinayotgan gazlar tarkibi va ularning salbiy ta'sirlari.**

Kondan qazib olinayotgan tabiiy gazlar tarkibida qattiq zarrachalar (qum, korroziya mahsulotlari), og`ir uglevodorodlar (kondensatlar), suv bug`i, vodorodsulfid, is gazi va inert gazlar uchraydi.

Gaz tarkibida mexanik qo`shimshalarning bo`lishi gaz bilan o`zaro ta`sirda bo`lgan quvurni, kompressorning metall qismlarini va boshqa jihozlarni errozik yemirilishiga olib keladi.

Bundan tashqari, mexanik qo`shimshalar quvurga o`rnatilgan armaturalarni, o`lchash asboblarini ifloslanadirishdan chiqaradi, hamda quvurni ma`lum qismlarda yig`ilib qolib, uni qirqim yuzasini kamaytiradi. Bu o`z navbatida gazning o`tkazuvchanlik qobiliyatini kamaytiradi.

Gaz tarkibida og`ir uglevodorod (kondensatlar) ning bo`lishi quvurning past joylarida suyuq holatga o`tib yig`iladi va quvurning o`tkazuvchanligini yomonlashtiradi, hamda quvurni zanglashiga olib keladi.

Gaz tarkibidagi namliklar, ma`lum sharoitda gaz aralashmasi bilan qorsimon ko`rinishdagi gaz gidratlarini hosil qiladi, quvurning o`tkazuvchanligini yomonlashtiradi, hatto butunlay o`tkazmaydigan qilib qo`yib avariya holatlarini sodir qilishi mumkin. Masalan:



Gaz tarkibidagi vodorodsulfid zararli qo`shimsha bo`lib, uning havodagi miqdori 0,01 ml.gr/l dan ortiq bo`lganda ish zonalari uchun juda xavfli hisoblanadi. Gaz tarkibida uning bo`lishi metall va jihozlarni zanglashini tezlashtiradi va avariya holatlarini ko`paytiradi.

Olinayotgan gaz tarkibida ic gazini bo`lishi yonish issiqligini kamaytiradi.

#### **4.4. Gaz uzatkichlardagi suyuq va gidratli tiqinlar, ularning oldini olish va bartaraf qilish usullari.**

Neftli va tabiiy gazning gaz yig`ish quvurlarida harakati vaqtida harorati va bosimi tushadi, natijada karbonsuvchil va suvli kondensat ajraladi. Gaz uzatkichlarning pasaygan joylarida karbonsuvchil va suvli kondensatlar suyuqlik tiqinlarini hosil qilishi mumkin.

Bundan tashqari, ma`lum bir termodinamik sharoitlarda gazlar suv kondensati bilan tutashib gidratlar hosil qilishi mumkin. Gidratlarning rangi sarg`ish bo`lib, ko`rinishidan qorga o`xshaydi. Gidratlar gaz yig`ish quvurlarida ham yuqori, ham past haroratlarda hosil bo`lishi mumkin.

Ba`zi karbonsuvchillar uchun gidratlar quyidagi kimyoviy formulalar ko`rinishida bo`ladi:



Gaz uzatkichdagagi gazning bosimi qancha baland bo`lsa, haroratining pasayishi shuncha tezlashadi.

Gidrat hosil bo`lishini oldini olish maqsadida neftli va tabiiy gaz suv bug`laridan quritiladi. Quritish maxsus qurilmalarda qattiq (kaltsiy xlor, silikagel) va suyuq (dietilenglikol DEG va trietylenglikol TEG) moddalar yordamida, hamda sovituvshi mashinalardan uzatiladigan sovuq yordamida amalga oshiriladi.

Gazlarni quritishda ishlatiladigan qattiq moddalar – adsorbentlar, suyuq moddalar – absorbentlar va hammasi birgalikda sorbentlar deyiladi.

Adsorbsiya deganda – biz gazlar tarkibidan bir yoki bir necha qo`shimsha komponentlarni qattiq yutuvchi, ya`ni adsorbentlar yordamida tozalash jarayonini tushunamiz. Yutuvchi modda adsorbent yutiluvchi muddani adsorbat yoki adsorbtiv deb ataymiz. Adsorbsiya jarayonini mexanizmi adsorbsiya mexanizmidan farqli o`larq, undan suyuq yutuvchi yordamida emas, balki qattiq yutuvchilar yordamida amalga oshiriladi. Bu usullarning o`zini qo`llash me`yorlari mavjud bo`lib, qo`llanganda yuqori texnik iqtisodiy samara berishi hisobga olinadi. Adsorbsiya usuli asosan yutiluvchi suyuqliklar kontsentratsiyasi yuqori bo`lmagan holda qo`llaniladi. Agar yutiluvchi suyuqlik kontsentratsiyasi yuqori bo`lsa, adsorbsiya usulidan foydalanish yaxshi samara beradi. Adsorbsiyaning fizik va kimyoviy turlari mavjud bo`lib, fizik adsorbsiya jarayonida adsorbent va adsorbat molekulalari Van – Der – Vals kushi ta`sirida o`zaro tortishish kushi ta`sirida amalga oshadi.

Adsorbentlarga xlorli kaltsiy, aktivlashgan temir oksidi, selikagellar ishlatiladi. Ushbu komponentlar mexanik va termik jihatdan mustahkam, zanglashni kamaytiruvshi defitsit (taqshil) bo`lmagan mahsulot bo`lib, faqat tezlikda almashtirilib turilishi kerak.

Absorbsiya usulida asosan suyuq sorbentlar (yutuvchi) qo`shilib absorbsiyalanuvshi mahsulot tarkibidan turli xil komponentlar ajratishga mo`ljallangan. Absorbsiya usulida gazni quritish texnologiyasi gaz tarkibidan namlikni yo`qotish ham amalga oshiriladi.

Absorbentlar tariqasida gazlarni quritishda Shunday moddalar qo`shilishi kerakki, u `ziga zanglashni kamaytiruvshi, kam qovushqoq, namligi katta, barqarorlashtiruvshi karbonsuvchillar bilan qiyin aralashadigan tomonlarini jam qilishi kerak. Absorbentlar asosan glikol birikmalaridan etilenglikol ( $C_2H_6O_2$ ), dietilenglikol ( $C_4H_{10}O_3$ ), trietilenglikol ( $C_6H_4O_4$ ) ishlatiladi.

Bular eng kichik qaynash haroratiga ega bo`lib, ularni tiklash davrini kamaytiradi.

Quritish davrida harorat pasayishi bilan glikollarning qovushqoqligi oshadi. Shuning uchun 283K dan pastga tushirmaslik kerak yoki ko`pinsha qovushqoqlikni kamaytirishda butil karbinol, benzin spirti qo`shiladi. Rejimda haroratni kolonnalarda DEG uchun 437K (164°C), TEG uchun 473K (200°C) ushlab turiladi.

Hosil bo`lgan gidratlarni yo`qotish uchun ingibitorlar qo`llaniladi. Bularga metanol  $CH_3OH$ , suv bilan aralashtirilgan etilenglikol, dietilenglikol, trietilenglikol, kaltsiy xloring 30% li eritmasi va boshqalar kiradi.

Bundan tashqari gidratlarni yo`q qilish uchun gaz uzatkichdagi gazning bosimini pasaytirish mumkin.

«Sho`rtanneftgaz» USHK sida gazlarni tozalashda seolitlardan foydalanilmoqda.

Gazlarni mexanik qo`shimchalardan tozalash chang ushlagichlarda amalga oshiriladi. Bu ajratgichlar asosan gazni kompressor stantsiyasigacha va gazni taqsimlash stantsiyasigacha kirish oldidan o`rnatalidi. Ular tuzilishi bilan farq qilib, xo`l yoki quruq filtrlash printsipi bilan ishlaydilar (siklon yoki chang ushlagichlar).

Yuqorida ko`rsatilgan barcha qo`shimchalardan tozalangan gaz hidrantiriladi. Hidlantiruvshi modda sifatida etilmekaptan  $C_2H_5SN$  ishlatiladi. Hidlantirish jarayoni «barbotash» apparatida sodir etilib,  $1000m^3$  gazga 16 gr etilmekaptan qo`shiladi. Tozalangan gaz bosh inshootda joylashgan bosh kompressor yordamida magistral gaz quvuriga haydaladi.

Jo`natishga tayyorlangan gazning tarkibi quyidagi davlat standarti talablariga javob berishi kerak (GOST 5140-83)

1.  $1m^3$  gazdagi mexanik qo`shimchalarni og`irligi 0,003 gr ( $0,3m^2$ ) dan ortiq bo`lmaCligi;
2.  $1m^3$  gazdagi vodorod sulfidning og`irligi  $0,2m^2$  dan ortiq bo`lmasligi;
3. hajm bo`yicha kislорodining hajmiy ulushi 1% dan ortiq bo`lmasligi;
4. namlik bo`yicha, gazning shudring nuqtasi yozda  $0^{\circ}C$ , qishda  $-5^{\circ}C$ dan katta bo`lmasligi kerak (o`rtacha iqlimli joylarda). Sovuq joylarda: yozda  $-10^{\circ}C$ , qishda  $-20^{\circ}C$  dan katta bo`lmasligi kerak.

### **Nazorat savollari:**

1. Quvur uzatkichlar va neft yig`uvchi kollektchlarning ifloslanish sabablari nimada?
2. Quvurlarda parafin hosil bo`lishi va hosil bo`lgan parafinni bartaraf qilish uchun qanday choralar ko`riladi?
3. Gidratlar nima va ular qanday sharoitda hosil bo`ladilar?
4. Gidratlar hosil bo`lishini oldini olish uchun qanday shoralar ko`riladi?
5. Hosil bo`lgan gidratlarni bartaraf qilish uchun qanday reagentlar qo`llaniladi?
6. Adsorbsiya jarayoni deganda qanday jarayonni tushunasiz?
7. Absorbsiya jarayoni qanday jarayon?
8. Adsorbent sifatida nimalardan foydalaniladi?

### **Ma`ruza № 5**

#### **Mavzu: Quvur uzatkichlarning ichki va tashqi korroziyasi**

#### **REJA:**

- 1. Korroziya turlari va tasnifi.**
- 2. Neft-gaz-suv muxitida korroziyaning o`ziga xos xususiyatlari.**
- 3. Neftgaz qazib olishda kimyoviy reagentlarning qo`llanilishi.**
- 4. Quvur uzatkichlarning ichki va tashqi korroziyasi**
- 5. Korroziyaga qarshi himoyadagi muammolar**

**Tayanch so`zlar:** Korroziya, korrozion muhit, bevosita korroziyadan yo`qotish, bilvosita korroziyadan yo`qotish, korroziyabardoshlik, kimyoviy korroziya, eletrokimyoviy korroziya, ichki korroziya, tashqi korroziya, kimyoviy reagentlar.

**Adabiyotlar:** 1, 3, 5.

#### **5.1. Korroziya turlari va tasnifi.**

Respublikamiz mustaqilligidan keyin sanoat tarmoqlarining keng miqyosda rivojlanishi natijasida ishlab chiqarishda zamonaviy texnologik usullar, jihozlar va uskunalardan keng foydalanilmoqda.

Jihoz va uskunalardan foydalanish davomida ularning ish qobiliyatini saqlash, ishonchli ishlashini ta`minlash uchun ularni korroziyadan himoya qilish dolzarb vazifalardan biridir. Ayniqsa atmosferaning har xil korrozion-faol moddalar bilan umumiy ifloslanishi, hamda neft va gaz mahsulotlarini qazib olish, saqlash va transport qilishda ishlov beriladigan mahsulotlarning o`ziga xos xususiyatlari Shu soxada qo`llaniladigan jihozlarning korroziya bardoshliligini oshirishni talab qiladi.

**Korroziya** - metallarning korrozion muhitlar bilan kimyoviy yoki elektrokimyoviy o`zaro ta`siri natijasida yemirilish jarayonidir.

**Korrozion muhit** - metallarning korrozion jarayonlar sodir bo`lishiga olib keladigan aggressiv atmosfera, kislotali eritmalar, ishqorlar, tuzlar va boshqa muhitlardir. Ko`pgina metallar aggressiv muhitlar ta`sirida termodinamik noturg`un bo`lganligi uchun oksidlangan holatga o`tadi va yemiriladi. Metallarning korrozion jarayonlar keshishi natijasida massalari kamayadi, zaruriy texnologik xossalari, mexanik mustahkamligi; plastikligi; qattiqligi kabi xossalari o`zgaradi.

Korroziya detallarning va mexanizmlarning ish qobiliyatining pasayishi va ishdan chiqishiga olib keluvshi asosiy yemiruvshi omillardan biri hisoblanadi.

Korroziya natijasida yo`qotishlarni **bevosita** va **bilvosita** usullarga bo`lish mumkin. **Bevosita korroziyadan yo`qotishga** buyumlarni himoyalash uchun qilinadigan sarf-harajatlar va metallning ish qobiliyatini yo`qotish natijasida to`liq ishdan chiqishi kiradi. Mutaxassislar

hisob-kitobiga ko`ra metallarning to`liq ishdan chiqishi hozirgi vaqtida yiliga 10-15% ini tashkil etadi.

■ **Bilvosita korroziyadan yo`qotishga** jihozlarning ish unumdorligi kamayishi natijasida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifati va hajmi kamayishi, hamda metallar sarfining oshishi kiradi.

Neft va gaz sanoatida korroziya natijasida ko`pgina jihozlarning ish unumdorligi kamayishi va ishdan chiqishi kuzatiladi. Ayniqa quvurlar, jo`mraklar va rezervuarlar Shular jumlasidandir.

Metallarning korroziyaga qarshilik ko`rsatish qobiliyati **korroziyabardoshlik** deyiladi. Metall va ularning qotishmalari har xil haroratli sharoitlarda va har xil tashqi muhitlarda turlisha korroziyabardoshlilikka ega bo`ladi.

Korroziyaga qarshi himoya usullari konstruksion, texnologik va foydalanish davridagi tadbirdarga bo`linadi va uning usullari korrozion eksperimental tadqiqotlar asosida ishlab chiqiladi.

Metall materiallar ularni qurshab turgan muhit ta`sirida har xil tezlikda yemiriladn. Bu yemirilishning asosiy sababi metall sirtining tashqi muhit bilan kimyoviy o`zaro ta`siri natijasida bo`ladi.

Metall (material)larning atrof muhit bilan kimyoviy ta`siri natijasida o`z-o`zidan yemirilish **korroziya** deyiladi. (lot. **Soggodege** – o`z-o`zidan yemirilish).

Korrozion jarayonlar metall sirtida sodir bo`ladigan reaksiyalar mexanizmiga ko`ra kimyoviy va elektrokimyoviy korroziyalarga bo`linadi.

**Kimyoviy korroziya** metallning agressiv muhit bilan o`zaro kimyoviy ta`sirida sodir bo`ladigan jarayonlar orqali keshadi. Kimyoviy korroziyada metall sirti bilan suyuq yoki gazli muhitlarning kimyoviy geterogen reaksiyalarini sodir bo`lib, natijaviy elektr toki hosil bo`lishi kuzatilmaydi. Korroziya metall sirtiga quruq gazlar va bug`lar, suyuq eletrolitmaslar (neft va uning mahsulotlari, spirtlar, mineral yog`lar, organik birikmalar) ta`sirida kuzatiladi.

**Eletrokimyoviy korroziya** geterogen elektrokimyoviy reaksiyalar bo`lib, unga suvli eritmalarda, nam gazlarda, tuz va ishqorli eritmalarda sodir bo`ladigan jarayonlar kiradi va metallning muhit bilan o`zaro ta`sirin natijasida elektr toki hosil bo`lishi kuzatiladi. Elektrokimyoviy korroziyaning sodir bo`lish sharoti, muhitning xossalariiga va boshka turlarga ko`ra tasniflash mumkin.

**Agressiv muhitlarning turlariga ko`ra** korrozion jarayonlar atmosferaviy, gazda, suyuqliklarda, tuproqda, adashgan toklar ta`sirida, biologik korroziyalarga bo`linadi.

## 5.2. Neft-gaz-suv muhitida korroziyaning o`ziga xos xususiyatlari.

Qazib olinayotgan neft odatda o`zining tarkibida qatlam suvi (erkin va emul`sya bilan qoplangan holda), har xil mineral tuzlar - NaCl, CaCl<sub>2</sub>, MgCl<sub>2</sub> va boshqalar, hamda mexanik qo`shimshalardan iborat bo`ladi. Shuningdek neft tarkibida har xil organik (CH<sub>4</sub>, C<sub>2</sub>H<sub>6</sub>, C<sub>3</sub>H<sub>8</sub>, C<sub>4</sub>H<sub>10</sub>, C<sub>5</sub>H<sub>12</sub>) va noorganik (H<sub>2</sub>S, CO<sub>2</sub>) gazlar mavjuddir. Neft tarkibidagi turli tumanlik uni qazib olish, tozalash, saqlash, transport qilish va ishlov berishda qo`llaniladigan jihozlarning korroziyalarga ushrashiga sabab bo`ladi. Ayniqa bu soxada ishlatiladigan quvurlar va po`lat rezervuarlar korroziysi bir vaqtning o`zida kimyoviy va elektrokimyoviy korroziyalarga ushraydi.

Qazib olinayotgan tabiiy uglevodorod gaz CH<sub>4</sub>, C<sub>2</sub>H<sub>6</sub>, C<sub>3</sub>H<sub>8</sub>, va h.k. parafin qatoridagi (C<sub>n</sub>H<sub>2n</sub>) uglevodorodlardan va boshqa og`ir uglevodorodlardan tarkib topgan. Gazlar tarkibida H<sub>2</sub>S, CO<sub>2</sub>, organik birikmalar va suvlar bo`ladn. Shuningdek qazib olinayotgan mahsulot tarkibida minerallashgan suvlar, hamda agressiv komponentlarning bo`lishi elektrolit muhitini yaratadi. Neft va gazni qazib olish va tayyor mahsulot ko`rinishiga keltirgunga qadar har xil korroziya muhitlari va korroziya turlari vujudga keladi. Neft va gazni qazib olishda smola-parafinlar, emul`siyalar, H<sub>2</sub>S, CO<sub>2</sub> larning bo`lishi quvur, rezervuarlar va boshqa jihozlarda, kimyoviy va elektrokimyoviy ichki va tashqi korroziya jarayonlarining kechishi zaruriy himoya usullarini qo`llashini talab qiladi.

Jihozlarning ichki korroziyasi ishchi muhit bilan kontakt natijasida sodir bo`lib, tashqi korroziyasi esa tashqi muhit - atmosfera sharoiti, tuproq tarkibi, adashgan toklar ta`siri kabilalar bilan bog`liqdir.

Tashqi korroziyaga qarshi elektrokimyoviy usullar, izolyatsion qoplamlalar bilan qoplash kabi usullar qo`llaniladi.

Ichki korroziyaga qarshi himoya izolyatsion qoplamlalar qoplash, ishchi muhitga kimyoviy reagentlar, ingibitorlar, bakteritsidlar kiritish, Shuningdek texnologik uslublar – aggressiv muhitni normal muhitga aylantiruvshi emul`sya hosil qilish, jihozni sovitish, metall jihozning aggressiv muhitda ishslash vaqtini kamaytirish kabi yo`llar bilan erishiladi.

Neftgaz qazib olishda kon muhitida yuqori miqdorda oltingugurt birikmalarini va kislorodning bo`lishi muhit korrozion faolligini oshiradi.

### **5.3. Neftgaz qazib olishda kimyoviy reagentlarning qo`llanilishi.**

Neftgaz qazib olish, yig`ish va tayyorlashda organik yoki noorganik kimyoviy reagentlar qo`llaniladi.

Kimyoviy reagentlarning qo`llanilishi quduq ion qatlami tarkibi, texnologik jarayonni tashkil etish ketma-ketligi va shu kabilarga bog`liqdir.

Kimyoviy reagentlar turli maqsadlarda qo`llaniladi. Biz quyida korroziyaga qarshi himoya qiladigan va korroziya jarayonining sekinlaShuviga sabab bo`ladigan kimyoviy reagentlarni ko`rib chiqamnz.

Korroziyaga qarshi himoya uchun qo`llaniladigan kimyoviy reagentlarni korroziya ingibitorlari, korroziya jarayonini sekinlashtiruvshi kimyoviy reagentlarni passivatorlar deb ataymiz.

Smola parafin chiqindilarini hosil bo`lishiga qarshi kurash uchun qo`llaniladigan ingibitorlar yoki smola-parafinni ketgizuvchi kimyoviy reagentlar neft quduqlarida ishlatiladi.

Deemul`gatorlar neft quduqlari va neftni tayyorlash qurilmalarida ishlatiladi. Deemul`gatorlar qatlam suvlari va neft bilan emul`sya hosil qilib, ularning korrozion faolligini kamaytiradi.

Har xil tuzlar chiqindilari hosil bo`lishining oldini olish uchun neft kuduklari va kon katlamiga iigibitorlar yoki tuzlar cho`kindilarni haydovchi kimyoviy reagentlar qo`llaniladi.

Korroziya tezligini kamaytirish uchun neft qudug`i, suvni tayyorlash qurilmasi, nasos stantsiyasi, suv haydovchi quduq va kon qatlamiga ingibitorlar (yoki bakteritsidlar) kiritiladi. Shuni nazarda tutish kerakki ingibitor yoki passivator kiritilishi faqat Shu kiritilgan qurilmanigina emas, undan keyingi joylashgan qurilmalar uchun ham ta`sir qiladi.

### **5.4. Quvur uzatkichlarning ichki va tashqi korroziyasi.**

Metallning atrof – muhit ta`sirida emirilishi korroziya deyiladi. Kon xududidan o`tgan quvur uzatkichlar ush xil, ya`ni atmosfera korroziyasi, tuproq korroziyasi va ichki korroziya ta`sirida emirilishi mumkin. Atmosfera korroziyasi – yer yuzasida joylashgan quvurlarning ob-havo ta`sirida zanglashi. Buni bartaraf qilish qiyin emas. Buning uchun quvurlar bo`yoqlar yordamida bo`yaladi. Tuproq korroziyasi murakkabroq. Bunda tuproq tagida yotgan quvurlar tuproqning kimyoviy tarkibi, namligi natijasida zanglab ishdan chiqadi. Masalan, sho`ri yo`q, quruq, qumli tuproqda yotgan quvurlar, nam, sho`r tuproqda yotgan quvurlarga nisbatan ko`proq xizmat qiladi.

Quvur devorlarining ichidan oqayotgan nordon va ishqorli asosga ega bo`lgan suyuqliklar bilan ta`siri natijasida hosil bo`ladigan korroziya ichki korroziya deyiladi.

Kon xududidagi quvur uzatkichlar ichki va tashqi tarafdan korroziyaga ushrab emirilishi mumkinligini hisobga olib, ularni ham ichidan, ham tashqarisidan himoya qilish lozim. Quvurlarning korroziyaga qarshi qoplamasini quyidagi talablarga javob berishi lozim: suv o`tkazmasligi, metall bilan mustahkam jipslashishi, elektr tokini o`tkazmasligi, kam harajatliligi va boshqalar.

## **5.5. Korroziyaga qarshi himoyadagi muammolar**

Hozirgi paytda korroziyaga qarshi himoya metallga, muhitga va har ikkalasiga birgalikda ta'sirlar orqali amalga oshiriladi.

Respublikamizda neft va gaz konlarini qazish va ulardan foydalanish uchun mo'ljallangan jihozlar va qurilmalar yillar o'tishi bilan korroziya natijasida eskirib bormoqda. Ularni almashtirish va boshqa turdag'i himoya vositalarining qo'llanilishi ko'plab iqtisodiy harajatlarni talab qiladn. Shuning uchun respublikamizda mavjud imkoniyatlardan foydalanilgan holda, asosan korroziyaga qarshi himoya vositalarini ishlab chiqishi, sinash va qo'llash zaruriyat tug'ilmokda.

Bu borada tezkorlikda amalga oshiriladigan tadbirlar quyidagilar hisoblanadi:

- zaruriy talablarga javob beruvshi aniq xossali lak bo'yoq materiallari, mastikalar, ingibitorlar ishlab chiqish;
- jihozlar va ularning detallarini germetizatsiyalash, kiritish;
- muhitni kislorodsizlantirish; inert muhitlar hosil qilish, tindirgichlar qo'llanilishiga erishish;
- zaruriy bakteritsidlar, fungitsidlar kabilarni ishlab chiqish va boshqalar.

Shuningdek jihoz va uskunalarini ishlash texnologik rejimlarini neftgaz mahsuloti tarkibi ta'siriga bog'liq ravishda o'rGANilib, ularning ishlash davriyligi va davomiyligini ishlab chiqish orqali ham korroziya tezligini kamaytirish imkoniyatlari mavjud.

### **Nazorat savollari:**

1. Korroziya deb nimaga aytildi?
2. Korroziyaning qanday ko'rinishlari mavjud?
3. Quvurlarning korroziyaga qarshi qoplamasini qanday talablarga javob berishi lozim?
4. Korroziyabardoshlilik nima?
5. Tashqi korroziya qachon sodir bo'ladi?
6. Ichki korroziyaga qarshi himoya vositalari.

## **Ma'ruza № 6**

### **Mavzu: Neft va gaz separatsiyasi.**

#### **Reja:**

- 1. Neft va gazni tayyorlash asbob-uskunalarini.**
- 2. Neftni gaza sizlantirishning optimal bosqichlar sonini tanlash.**

**Tayanch so'zlar:** ajratgich, tindirgich, qizdirgich,sovutgich, aralashtirgich.

**Adabiyotlar:** 1, 3, 5.

### **6.1. Neft va gazni tayyorlash asbob-uskunalarini.**

Neftni yig'ish va tayyorlash tizimi ulushiga konni jihozlash harajatlarining 50% ga yaqinrog'i to'g'ri keladi. Bu tizimlar ulkan va metall talabshandir.

Neft va gazni konlarda tayyorlash uchun har xil turdag'i asbob – uskunalar ishlataladi. Bu asbob – uskunalar neftdan erigan gazni to'liq ajratib olish, neftni qatlam suvlaridan to'liq tozalash, neft tarkibidagi tuzlarni yuvish va kum zarrachalarini ajratib olish uchun xizmat qiladi.

Bu asbob – uskunalarga ajratgich, tindirgich, qizdirgich,sovutgich, aralashtirgich, elektrodegidrator, saqlagich va boshqalar kiradi.

**Ajratgichlar** turli ko'rinishda ishlab chiqiladi va quyidagi ishlarni bajaradi:

1. neftda erigan gazni ajratib oladi;
2. neft – gaz oqimining aralashishini kamaytiradi va Shu bilan gidravlik qarshiliklarni pasaytiradi;
3. neft – gaz aralashmasi harakatidan hosil bo'lgan ko'piklarni yo'qotadi;
4. neftdan suvni ajratib oladi;

5. oqim harakatining nomuntazamligini yo`qotadi;

6. mahsulotni o`lchaydi;

Ajratgichlarning quyidagi tasnifi mavjud:

**A) ishlatalish maqsadi bo`yicha:**

- o`lchovshi – ajratuvshi

- ajratuvshi;

**B) geometrik shakli bo`yicha:**

- tsilindrik;

- sharsimon;

**V) o`rnatilishiga qarab;**

- tik, - qiya, - yotiq;

**G) ajratish uchun asosiy ta`sir etuvchi kushlar bo`yicha:**

- gravitatsiya,

- markazdan koShuvshi;

- inertsiya kushlari;

**D) ishlatalish bosimi bo`yicha:**

- yuqori bosimli (6.4–2.5 MPa),

- o`rta bosimli (2,5–0,6 MPa),

- past bosimli (0,6–0,1 MPa),

- vakuumli;

**E) ulangan quduqlar soni bo`yicha:**

- bitta quduq uchun;

- quduqlar guruxi uchun;

**J) ajratadigan fazalar bo`yicha:**

- ikki fazali (gaz - neft);

- ush fazali (gaz – neft - suv).

9 - rasmda tik neft – gaz ajratgichi va 10 – rasmda yotiq neft – gaz ajratgichi shizmalari keltirilgan.

Emulsiyani muvozanat holatida yoki laminar oqimda neft va suvgaga ajratuvshi qurilma **tindirgich** deyiladi.

Neftgaz qazib oluvchi korxonalarda ko`pinsha gorizontal tindirgichlar qo`llaniladi. Aralashmani tindirish natijasida ikki qavat tindirilgan fazalar hosil bo`ladi. Hali tindirilib ulgurilmagan aralashma ularning orasida joylashadi.

Tindirgichlarning asosiy vazifasi neft emulsiyalarini qizdirgichdan chiqqan oqimini qabul qilib, undan suvni ajralib chiqishini ta`minlashdir.

Neftdan suvning ajralib chiqishi har ikkala suyuqliklar zinchliklari orasidagi tafovut hisobiga bo`ladi. Tindirgichning ostki qismida suv yig`iladi va suv yuzasiga neft ajralib chiqadi. Tindirgichning ostiga qum zarrachalari ham o`tirib qoladi. Tindirgichdan suv chiqarib yuborilayotganda qum zarrachalari ham suv bilan birga chiqib ketadi va maxsus tozalagishda suvdan ajratib olinadi.

Hozirgi vaqtida neft va gaz qazib oluvchi korxonalarda tindirgichlarning har xil geometrik shaklini ushratish mumkin: gorizontal, vertikal va sferik. Bu qurilmalarning samaradorligi quyidagilarga bog`liq:

- 1) geometrik shakliga;
- 2) fazoviy joylashishiga (gorizontal, vertikal);
- 3) isitilgan mahsulotni kiritish usuliga;
- 4) isitilgan mahsulotni tindirgichga uzatishdan oldin tayyorlashga.

**Qizdirgichlar va sovutgichlar** ko`proq gaz tayyorlashda ishlataliladi. Ular gazdag'i kondensatni ajratib olish va gazni me'yoriy holatga keltirish uchun xizmat qiladi.


**Aralashtirgich**da neft chuchuk suv bilan aralashtirilib, uning tarkibidagi tuzlar yuviladi.

**Elektrodegidratorlar** neft bilan birga emulsiya holida chiqqan qatlama suvlarini ajratib olish uchun xizmat qiladi. Emulsiyani parchalash (yoki suvni ajratib olish) maxsus elektrodlarga elektr quvvati yuborilishi natijasida suv tomchilarini bir – biri bilan birlashib ketadi va sekin – asta elektrodegidrator tagiga ajralib chiqadi.


Emulsiya holatidagi neft – suv aralashmasini parchalash uchun **deemulsatsiya** apparatlaridan ham foydalaniladi. Bu apparatlarda maxsus reagentlar – deemulgatorlardan foydalanilgan holda emulsiyalar parshalanadi.

**Saqlagichlar** tayyor neft mahsulotini vaqtinshalik yig`ish uchun omborxonada sifatida qo`llaniladi.

Neft konlarida odatda 100, 200, 300, 400, 700, 1000, 2000, 3000, 5000m<sup>3</sup> hajmdagi saqlagichlar ishlataladi. Temir yo`l neft quyish estakadasiga qarashli omborxonalarda 7500 va 10000m<sup>3</sup> li saqlagichlar ham qurilishi mumkin.



9 – rasm. Tik neft – gaz ajratgichi



10 – rasm. Yotiq neft – gaz ajratgichi.

## 6.2. Neftni gazsizlantirishning optimal bosqichlar sonini tanlash.

Neft, gaz va gazokondensat konlariidan qazib olinayotgan quduq mahsuloti gaz aralashmali, to`yingan suv bug`lari, og`ir uglevodorodlar, suyuq uglevodorodlar (neft yoki kondensat), suv, tog` jins larining qattiq zarrachalari va boshqa komponentlardan tashkil topgan murakkab geterogen sistemani namoyon qiladi. Shuning uchun gaz quvurlariga gaz uzatishdan oldin uni suyuq va qattiq fazalardan, hamda bug`lar va og`ir uglevodorodlardan ajratib olish kerak, negaki bosim va haroratning gaz quvurida o`zgarishi natijasida kondensatsiya hodisasi yuz bermasligi lozim. Quduq mahsulotini gaz va suyuq fazalarga ajratish jarayoni separatsiya deb ataladi.

Ishlab chiqarish amaliyotida quduq mahsulotini ajratishning turli xil texnologik sistemalari qo`llaniladi. Ajratish sistemasini tanlashda gazsuyuqlik oqimining tarkibi va fizik xossalari, quduqning texnologik ish rejimi, transprot qilinayotgan gazga qo`yiladigan talablar va boshqa faktorlar e`tiborga olinadi.


Neft va gazokondensat konlariida gazni ajratishning bosqichli sistemasi keng tarqalgan. Bosqichli ajratish sistemasida eng kamida ikkita bosqich bo`ladi: biri - separator, ikkinchisi - rezervuar.

11-rasmda neft va gazni bosqichli ajratishning printsiplial tarxi keltirilgan.

Neft konlariida neftdan gazni ajratishda va gazkondensat konlarda kondensatdan gazni ajratishda ko`p bosqichli ajratish qulaymi yoki ush bosqichli?

Neftni yig`ish va tashishda ko`p bosqichli ajratishni ham, ush bosqichli ajratishni ham qo`llash mumkin. Lekin agar gazni qayta ishlash zavodi konga yaqin joylashgan bo`lsa, ush bosqichli ajratishni qo`llagan ma`qul.

Ajratishning birinchi bosqichida ajralgan gaz o`zining bosimi ostida mahalliy extiyojlarga (isitish qozonxonalariga) yuboriladi. Ajratishning ikkinshi va ushinshi bosqichlarida ajratilgan gaz yog`li gaz (ko`p miqdorli og`ir karbonsuvchillardan tashkil topgan) bo`ladi. Bu gaz oldin kompressor stantsiyalarida siqiladi, so`ng gazni qayta ishlash zavodiga yuboriladi.



11-rasm. Neft va gazni bosqichli ajratishning printsiplial tarxi.

Ajratish: a) ikki bosqichli; b) ush bosqichli; v) to`rt bosqichli.

- 1 - quduq mahsuloti; 2 - separator; 3 - gazning chiqish joyi; 4 - neftning chiqish joyi; 5 - tovar neft rezervuari; 6 - neftni uzatish uchun nasos.

#### **Nazorat savollari:**

1. Neft va gazni konlarda tayyorlash uchun qanday asbob-uskunalaridan foydalaniladi va bu asbob – uskunalar nima vazifalarni bajaradi?
2. Ajratgichlar qanday vazifani bajaradilar?
3. Ajratgichlarning tasnifi.
4. Tindirgichlar nima uchun qo`llaniladi?
5. Qizdirgich va sovutgichlarning vazifalari nimalardan iborat?
6. Araliashtirgich qanday vazifani bajaradi?
7. Elektrodegridorlardan nima maqsadda foydalaniladi?
8. Saqlagichlar nima va ularning qanday hajmlari mavjud?
9. Neft konlarida neftni gazdan ajratish uchun qanday ajratgichlardan foydalaniladi?
10. Ajratgichlardan ajratilgan gazlar qaerlarga yuboriladi?

#### **Ma‘ruza № 7**

**Mavzu:** Neft emulsiyalarining hosil bo`lishi, ularning tasnifi va fizik – kimyoviy xossalari.

**Reja:**

1. Emulsiyalar to`g`risida umumiy tushunchalar.
2. Neft emulsiyalarining fizik – kimyoviy xossalari.
3. Neft emulsiyalarining mustahkamligi va eskirishi.

**Tayanch so`zlar:** emulsiyalar, dispers fazasi, dispers muhit, emulgator.

**Adabiyotlar:** 3, 4, 5.

## **7.1. Emulsiyalar to`g`risida umumiy tushunchalar.**

Neft emulsiyalari deganda mayda dispers holatidagi neft va qatlam suvlarining mexanik aralashmasi tushuniladi. Konni ishlatish jarayonida neft va suvning o`zaro miqdoriy nisbati o`zgarib turganligi sababli, neft emulsiyalarining xususiyatlari ham keng miqyosda o`zgarib turishi mumkin.

Qatlamda va quduq tubida neft emulsiyalari bo`lmaydi. Emulsiyalar quduq tanasida hosil bo`lib, ularning hosil bo`lishi tezligi nasolsi, kompressorli va favvora quduqlarida har xil bo`ladi.

Neftni Chuqurlik nasoslari yordamida qazib olishda, emulsiyaning hosil bo`lishiga quyidagi omillar ta`sir qiladi: plunjerning harakat uzunligi; qabul qiluvshi va tashlama klapanlarning o`lchamlari; nasosda gazning mavjudligi.

Favvora va kompressor quduqlarida bosimning pasayishi va neftdan gazning tez ajralishi natijasida suyuqliklarning tez aralashishi kuzatiladi. Eng mustahkam emulsiyalar neft olishning kompressorli usulida, ishchi agent sifatida havo ishlatilganda hosil bo`ladi. Buning sababi neft tarkibidagi naften kislotalar havo kislorodilari bilan oksidlanib, samarali emulgatorlarga aylanadilar.


Neft emulsiyalarida 2 xil faza mavjud: ichki va tashqi. Bir suyuqlik ikkinshi suyuqlik ishida tomchilar ko`rinishida joylashadi. Tomchilar ko`rinishidagi suyuqlik dispers faza (ichki) deyiladi. Tomchilarni o`rab turuvshi muhit dispersion muhit (tashqi) deb yuritiladi. (12 - rasm).

Dispers faza va dispersion muhitning xarakteriga qarab to`g`ri ko`rinishdagi va teskari ko`rinishdagi emulsiyalar turlanadi.

To`g`ri ko`rinishdagi emulsiyalarda neft suvda tomchilar sifatida mavjud bo`ladi va bu emulsiyalar neft – suv emulsiyalarini (NS) deb ataladi.

Teskari ko`rinishdagi emulsiyalarda suv neftda tomchilar sifatida mavjud bo`ladi va bu emulsiyalar suv – neft emulsiyalarini (SN) deb ataladi.

Konlarda emulsiyalar tarkibida qancha suv borligi to`g`risida ularning rangiga qarab baho beriladi. Masalan: emulsiya tarkibida 10% suv bo`lsa, uning rangi toza suvsiz neft rangida bo`ladi; 15 – 20 % suv bo`lsa – emulsiyaning rangi jigar rangidan sariq ranggacha o`zgaradi; 25 % suv bo`lsa – emulsiya sariq rangda bo`ladi va x.k.



13 – rasm

## **7.2. Neft emulsiyalarining fizik – kimyoviy xossalari.**

Neft emulsiyalari quyidagi asosiy fizik – kimyoviy xossalari bilan harakterlanadilar: dispersliligi, qovushqoqligi, zichligi, elektr xususiyatlari.

### Emulsiyalar dispersliligi.

Disperslilik emulsiyalarning xossalari belgilovshi asosiy tavsifdir. Dispers faza tomchilari kattaligi 0,1 – 100 mk gacha bo`ladi. Bir xil diametrli tomchilardan tashkil topgan dispers tizimlar – monodispers, har xil diametrli tomchilardan tashkil topgan dispers tizimlar – polidispers tizimlar deyiladi. Neft emulsiyalarini har xil o`lchamdagiga zarrachalardan tashkil topganligi uchun polidispers tizimlar turiga kiradi.

Dispers tizimning solishtirma yuzasi  $S_{sol}$  quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$S_{sol} = \frac{S}{V} = \frac{\pi \cdot d^2}{\pi \cdot d^3} = \frac{6}{d}$$

$S$  - jami fazalar orasidagi yuza;  
 $V$  - jami dispers fazalar hajmi;

### Emulsiyalarning qovushqoqligi

Emulsiyalarning qovushqoqligi neft va suv qovushqoqliklarning yig`indisiga teng emas:

$$\mu_e \neq \mu_n + \mu_s$$

Shu bilan birga u quyidagi asosiy omillarga bog`liq: neftning qovushqoqligiga; emulsiyani hosil qiladigan haroratga; neft tarkibidagi suvning miqdoriga; dispersion muhitdagi dispers faza tomchilarining diametriga.

Neft emulsiyalarining qovushqoqligini faqat laboratoriya sharoitida turli viskozimetrlar yordamida aniqlash mumkin.

### Emulsiyalarning zichligi.

Emulsiyani tashkil qiluvchi neft va qatlama suvini zichligini va ularning foiz tarkibini bilgan holda emulsiyaning zichligini hisoblash mumkin.

$$\rho_e = \frac{1}{\frac{0,01q}{\rho_s} + \frac{1-0,01q}{\rho_n}}$$

Bu yerda:  $\rho_e$ ,  $\rho_s$ ,  $\rho_n$  - emulsiya, suv, neftning zichliklari;

$q$  - emulsiyadagi suv va erigan tuzlarning tortilgan foizi;  
 $q$  - quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$q = \frac{q_0}{1-0,01x}$$

$q_0$  - emulsiya tarkibidagi toza suv miqdori;

$x$  - suv tarkibidagi erigan tuzlar miqdori, %;

### Emulsiyaning elektrik xossalari.

Toza holda olingan neft va suv yaxshi dielektriklar hisoblanadilar. Shuning uchun suv tarkibida oz miqdorda bo`lsa ham erigan tuzlar yoki kislotalar ushrasa, uning elektr o`tkazuvchanligi bir necha o`n marta oshadi. Bundan Shuni xulosa qilish mumkinki,

emulsiyalar elektr o`tkazuvchanligiga ularning tarkibidagi suvning miqdori bilan birgalikda Shu suvda erigan tuz va kislotalar miqdori ham ta`sir ko`rsatadi.

NS emulsiyalarida tashqi faz - suv hisoblanadi va ular xohlagan vaqt suv bilan birikishi mumkin, hamda yuqori elektr o`tkazuvchanligiga ega bo`ladi.

SN emulsiyalarida neft-tashqi faz hisoblanadi va ular uglevodorodli suyuqliklar bilan birikishi mumkin va kichik o`tkazuvchanlikka ega bo`ladi.

Toza neft va suv yaxshi dielektrik hisoblanadi. Neftning o`tkazuvchanligi –  $10^{-10}$  dan  $10^{-15}$  ga, suvniki  $10^{-7}$  dan  $10^{-8}$  gacha o`zgarishi mumkin.

Tajribalardan ma'lumki, elektr maydoniga joylashtirilgan neft emulsiyalarida suv tomchilari uning kush shizig`i bo`ylab joylashadi, bu esa emulsiyalarning elektr o`tkazuvchanligini tez ochib ketishiga olib keladi. Shunki suv tomchilari neft tomchilariga nisbatan 40 marta yuqori elektr o`tkazuvchanlikka ega.

### **7.3. Neft emulsiyalarining mustahkamligi va eskirishi.**

Neft emulsiyalarining eng asosiy ko`rsatkichlaridan biri ularning mustahkamligidir, ya`ni ma'lum bir vaqt ishida neft va suvga parshalanib ketmaCligi.

Neft emulsiyalarining mustahkamligiga quyidagi omillar katta ta`sir o`tkazadi:

1. tizimning dispersliligi;
2. fazalar tutash yuzasida himoya qobig`ini hosil qiluvshi emulgatorlarning fizik – kimyoviy xossalari;
3. aralashayotgan suyuqliklarning harorati va x.k.

Mana shu omillarga qisqasha to`xtab o`tamiz:

#### **1. Dispersliligi bo`yicha neft emulsiyaları:**

- mayda disperslik – suv tomchilari o`lchami 0.2 – 20 mk;
- o`rta disperslik – suv tomchilari o`lchami 20 – 50 mk;
- dag`al disperslik – suv tomchilari o`lchami 50 – 100 mk.

Emulsiyaning dispersliligi qancha baland bo`lsa, ya`ni ichki fazaning tomchilari qancha kichkina bo`lsa, emulsiya Shunsha mustahkam bo`ladi.

2. Emulsiyaning mustahkamligiga tomchilar yuzasida adsorbsion himoya qobig`ini hosil qiluvshi emulgator deb nomlanuvshi, barqarorlashtiruvshi moddalar katta ta`sir o`tkazadi. Adsorbsion qobiqlarni hosil qilishda sirt faolligi katta bo`lgan moddalar (asfalten, naften, parafin, vanadiy, nikel, litiy, temir, titan kabi metallar kompleksi) va mayda disperslik neorganik moddalar (loy, qum va tog` jinClaridan tashkil topgan) ishtirot etadi.

Neft emulsiyalarining mustahkamligi (SN) aralashayotgan suyuqliklarning haroratiga bog`liq. Bu harorat qancha past bo`lsa, emulsiya Shunsha mustahkam bo`ladi. Emulsiyaning temperaturasi ko`tarilsa, adsorbsion qobiqning mustaxkamligi 0 gacha pasayadi, natijada suv tomchilarining qo`shilib ketishi sodir bo`ladi va emulsiya parshalanib ketadi.

#### **Nazorat savollari:**

1. Neft emulsiyaları deganda nima tushuniladi?
2. Chuqurlik nasoslari yordamida qazib olishda emulsiyaning hosil bo`lishiga qanday omillar ta`sir qiladi?
3. Neft emulsiyalarida necha xil fazalar mavjud?
4. To`g`ri va teskari ko`rinishdagi emulsiyalar deganda nima tushuniladi?
5. Emulsiyalarning rangi nimaga bog`liq?
6. Neft emulsiyalarining asosiy fizik – kimyoviy xossalari bilan xarakterlanishi.
7. Monodispers va polidispers tizimlar deb nimaga aytildi?
8. Emulsiyalarning elektr o`tkazuvchanligiga nimalar ta`sir qiladi?
9. Neft emulsiyalarining mustahkamligiga qanday omillar ta`sir ko`rsatadi?
10. Emulgatorlar nima?

## Ma‘ruza № 8

### Mavzu: Konda neftni tayyorlash.

Reja:

1. Neftni transport qilishga tayyorlash qurilmalarining vazifalari.
2. Neftni turg`unlashtirish (gazsizlantirish).
3. Neft emulsiyalarini parchalash uchun ishlatiladigan deemulgatorlar.
4. Deemulgatorlarning tasnifi va ularga ko`rsatiladigan talablar.
5. Neft emulsiyalarini parchalashning asosiy usullari.

**Tayanch so`zlar:** suvsizlantirish, tuzsizlantirish, ionogen, noionogen deemulgatorlar, sentrifugalash, elektrodegidratorlar.

**Adabiyotlar:** 4, 5.

#### 8.1. Neftni transport qilishga tayyorlash qurilmalarining vazifalari.

Quduqdan olinadigan neftning tarkibida qatlama suvi bilan birlashtiriladi. Bundan tashqari neft tarkibida organik (metan, etan, propan, butan, pentan) va neorganik (oltingugurtuvchil karbonat angidrid gazi va geliy) gazlar ham mavjud bo`lishi mumkin.

Quduqdan olingan neftning tarkibida qatlama suvi va mineral tuzlar eritmasi bo`lishi bu neftni transport qilishga katta harajatlar talab qiladi. Bundan tashqari neftni qayta ishlash vaqtida jihozlarni korroziyaga ushrashida yangi muammolar tug`diradi. Shu sababdan quduqlardan olingan neft konning o`zida suvsizlantiriladi va tuzsizlantiriladi. Neftni suvdan tozalash 2 qayta amalgalash oshiriladi:

- 1 chi marta – neft koni maydonida;
- 2 chi marta – neftni qayta ishlash zavodida.

#### 8.2. Neftni turg`unlashtirish (gazsizlantirish).

Neftni gazsizlantirish deganda normal sharoitda gaz holatida bo`lgan neft tarkibidagi yengil uglevodorodlarni ajratib olish va ularni neft – kimyo sanoatiga ishlatish uchun yuborish tushuniladi. Neft tarkibidagi yengil uglevodorodlarni ajratish (separatsiya) va rektifikatsiya usullari yordamida amalgalash oshiriladi. Ajratish usulida neft aralashmalarini bir yoki bir necha bor bug`latish va bosimini kamaytirish natijasida undan yengil uglevodorodlarni va ular bilan birga boshqa gazlarni ajratiladi.

Rektifikatsiya usulida neftni bir yoki bir necha bor qizdirish va sovutish (kondensatsiyalash) natijasida undan aniq uglevodorod fraktsiyasi olinadi. Kon maydonida neftni turg`unlashtirish ajratish usulida amalgalash oshiriladi.

Yuqori bosimdagagi neft oqimi ajratgichga tushganda uning bosimi kamayadi. Natijada yuqori bosimda suyuq holatda bo`lgan yengil uglevodorodlar gaz holatiga o`tib suyuq neftdan ajraladi.

Ajratish usuli yordamida gazsizlantirilgan neftni tarkibida yengil uglevodorodlarning ( $C_1 - C_4$ ) miqdori 1,5 – 2 % atrofida bo`ladi. Ular neftni qayta ishlash zavodida rektifikatsiya kolonnalarida ajratib olinadi.

#### 8.3. Neft emulsiyalarini parchalash uchun ishlatiladigan deemulgatorlar.

Neft emulsiyalarini hosil bo`lishini oldini olish va hosil bo`lgan neft emulsiyalarini parchalash uchun deemulgatorlar – sirt faol moddalar ishlatiladi. Deemulgatorlarning vazifasi suv tomchilarining yuzasidagi emulgatorlarni, ya`ni neft va qatlama suvi tarkibidagi tabiiy sirt faol moddalarni (asfalten, naften, qatron (smola), parafin) siqb chiqarishdir.

Deemulgatorlarning samaradorligi deganda deemulgatorlarning sarfi, tayyorlangan neftning sifati (uning tarkibidagi xlor tuzlarining, suvning va mexanik aralashmalarning qoldig`i), eng past harorati va neftni tindirish vaqtini nazarda tutiladi.

Deemulgatorlarning samaradorligi ma'lum bir konning suvsiz neftidan va qatlam suvidan tayyorlangan, hamda bir xil muddatda tindirilgan emulsiya namunalarida sinaladi.

#### **8.4. Deemulgatorlarning tasnifi va ularga ko`rsatiladigan talablar.**

Emulsiyalarni parchalash uchun ishlatiladigan deemulgatorlar ikki guruxga bo`linadi:

- ionogen (suv eritmalarida ion hosil qiluvchi);
- noionogen (suv eritmalarida ion hosil qilmaydigan).

Birinchi guruxga kam samarador deemulgatorlar kiradi. Bular neytrallangan kora kontakt (NKK) va neytrallangan nordon gudron (NNG).

Ikkinci guruxga diproksamin – 157, proksamin – 385; dissolvan – 4411, siparol, poliakrilamid kiradi.

Noionogen deemulgatorlar ionogen deemulgatorlarga nisbatan qator afzalliklarga ega. Bular quyidagilar:

1) solishtirma og`irligi kichik ( diproksamin – 157 va dissolvan - 4411 60 – 70 °C haroratdagи emulsiyaning bir tonnasiga – 20 – 30g ketadi, bunda neftning suvlanganligi 1 % bo`ladi).

2) suvda yaxshi eriydi, qatlam suvi va neftdagi tuz va kislotalar bilan ta`sirlashmaydi, quvur va apparatlarda cho`kindi hosil qilmaydi.

3) NKK dan 4 – 6 marta qimmat, lekin sarfi NKK ga nisbatan yuz marta kam.

Deemulgatorlar quyidagi talablarga javob berishi lozim:

- Emulsiya fazalaridan (neft yoki suv) birida yaxshi erishi lozim;
- «neft - suv» tutash yuzasidagi tabiiy emulgatorlarni siqib chiqarish uchun yetarlicha sirt faollikka ega bo`lishi lozim;
- «neft - suv» chegarasida eng kam reagent sarfi bilan fazalararo taranglikni kamaytirish;
- qatlam suvida koagulyatsiya qilmasligi;
- metallarga nisbatan inert (muqarrar) bo`lishi (zanglamasligi).

Shu bilan birga deemulgatorlar arzon, transport qilinishi oson bo`lishi, harorat o`zgarishi bilan o`z xususiyatlarini o`zgartirmasligi, ishlov berilgandan so`ng neftning sifati yomonlashmasligi va turli neft – suv emulsiyalarini parchalash qobiliyatiga ega bo`lmogi lozim.

Noionogen deemulgatorlar o`zlarining kimyoviy xususiyatlari bilan mana Shu talablarga javob beradi.

#### **8.5. Neft emulsiyalarini parchalashning asosiy usullari.**

Hozirgi zamonda S/N ko`rinishidagi neft emulsiyalarini parchalashning quyidagi usullari qo`llaniladi: gravitatsion sovuq ajratish, tsentrifugalash, sizdirish (filtratsiya), issiq kimyoviy ta`sir etish. Bu usullarning bir yoki bir neshtasi birgalikda ham qo`llanilishi mumkin.


Shu usullarni qisqasha ko`rib chiqamiz.

##### **1. Gravitatsion sovuq ajratish.**

Bu usul saqlagichlarda neft va suv juda ham aralashmaganda neftdagi qatlam suvi 50 % va undan yuqori bo`lganda qo`llaniladi. Emulsiyalarning sovuq gravitatsion parshalanishi uchun deemulgatorlar ishlatiladi. Neftni yig`ish tizimiga deemulgatorlarni haydash emulsiyalarining quvuruzatkichlarda hosil bo`lishini oldini oladi va mavjud emulsiyalarni parchalashga yordam beradi. Bu bilan neft va suvni neftni tayyorlash qurilmalariga birgalikda uzatish imkonini beradi.

##### **2. Sentrifugalash.**

Sentrifugada hosil bo`luvshi inertsiyaning katta kushi turli zichlikka ega bo`lgan suyuqliklarni ajratish uchun ishlatalishi mumkin. (13 - rasm).



13– rasm. Sentrifuganing sxemasi.

### 3. Sizdirish (filtratsiya).

Mustahkam bo`lmagan emulsiyalarni ajratish uchun sizdirish qatlidan o`tkazish mumkin. Sizdirish qatlami sifatida shag`al, maydalangan shisha, yog`osh va metall qirindilari, shishasimon tuzilma va boshqalardan foydalanish mumkin. Filtrlar kolonnalar ko`rinishida bo`lib, ularning o`lchamlari haydalayotgan emulsiya hajmiga, qovushqoqligiga va harakat tezligiga bog`liq. Neft emulsiyasi kolonnaga pastdan yuboriladi va filtrdan o`tadi. Bu yerda suv ushlab qolinadi, neft esa kolonnaning ustti bilan erkin o`tib ketadi.

### 4. Issiq kimyoviy qurilmalar (IKO).

Hozirgi zamonda suvli neftlarning 80 % i IKQ larda ishlanyapti. IKQlarni ishlatishning qulay tomonlari quyidagilar: qurilmani o`rnatishning soddaligi (issiqlik almashtirgich, tindirgich va nasos); suv va neft tarkibini keng o`zgarishi qurilma ish rejimiga sezilmaydigan darajada ta`sir qilishi; emulsiyalarning tasnifi o`zgarishi bilan uskuna va apparatlarni o`zgartirmagan holda, deemulgatorlarni almashtirib turish imkonini beradi.

Neftni deemulsatsiya qilish issiq – kimyoviy qurilmalaridan birini isitish bloki BN – M ni ko`rib chiqamiz. Bu qurilma neft emulsiyasini isitish yo`li bilan tezlik bilan suvsizlantirishga xizmat qiladi. (14– rasm)

Isitish bloki o`zaro ulangan to`rtta alangali isitgichdan, nazorat – o`lchov asboblari blokidan NUA, boshqaruv va signalizatsiya blokidan BSB va himoya tusig`idan iborat.

Issiqlikka shidamli alangali isitgich korpus (4), issiqlik quvuri (2), burama spiral (3), varaqasimon kompensator (5), yonish bo`limii (6) va turbina ko`rinishidagi gaz yondirgishi (7) dan iborat.


Isitish bloki quyidagisha ishlaydi. Ajratgichdan so`ng neft emulsiyasi nasos yordamida alangali isitgichning quvur orti bo`shlig`iga haydaladi. Bu yerda yonish bo`limida (6) yondirilgan gazning issig`i bilan emulsiya qizdiriladi. Issiqlik o`tish yo`lini uzaytirish uchun quvur ortiga burama spiral joylashtirilgan. Birinchi alangali isitgichda qizdirilgan emulsiya ikkinshi isitgichga yuboriladi. Undan emulsiya taqsimlovshi kollektor (8) orqali germetiklangan tindirgich (9)ga borib tushadi. Bu yerda emulsiya neft va suvgaga ajraladi. Agar tindirgichdan (9) olingan neft tarkibidagi tuz 40 mg/l ni tashkil qilsa, u maxsus aralashtirgichda issiq chuchuk suv bilan aralashtiriladi va tuzsizlantiriladi.

### 5. Elektrodegidratorlar.

S/N ko`rinishidagi neft emulsiyalari elektr maydoni ta`sirida yaxshi parshalanadilar.

Elektrodegidratorlar neftni tayyorlash qurilmasidan so`ng ishlatiladilar. Elektrodegidratorlarning eng samaradori gorizontal elektrodegidratorlardir. (15-rasm). Bunda elektrodlar bir-biriga nisbatan gorizontal holda joylashtirilgan.


Emulsiya elektrodegidratorlarga taqsimlovshi kollektor (3) orqali uzatiladi. Gorizontal elektrodegidratorlarda neft emulsiyasi ishlov berishning 3 ta zonasidan o`tadi.



14-rasm. Neft emulsiyasini isitish bloki BN-M ning sxemasi.

Birinchi zona – balandligi 20-30sm turib qolgan suv zonasi bo`lib, bu yerda emulsiya yuvilib, ko`p miqdorda qatlama suvini yo`qotadi.

So`ng emulsiya ikkinshi zona – turib qolgan suv bilan ikkinshi elektrod orasidagi masofaga ko`tariladi. Undan keyin ushinshi zonaga – ikkala elektrod orasidagi kushli kushlanishli zonaga chiqadi.



15– rasm. Gorizontal elektrodegidrator sxemasi.  
1-2 – elektrodlar; 3 – taksimlovshi kollektor.

#### Nazorat savollari:

1. Quduqdan olinadigan neftning tarkibida qanday moddalar ushraydi?
2. Nima sababdan neft konning o`zida suvsizlantiriladi va tuzsizlantiriladi?
3. Deemulgatorlar va ularning vazifalari.
4. Deemulgatorlar neshta guruxga bo`linadi?
5. Ionogen deemulgatorlarga misol keltiring.

6. Noionogen deemulgatorlarga nimalar kiradi?
7. Noionogen deemulgatorlarning afzalliklari.
8. Deemulgatorlarga qanday talablar qo`yiladi?
9. Neft emulsiyalarini parchalashning neshta usuli bor?
10. Sizdirish neft emulsiyalarini parchalashning qaysi usuli bilan birgalikda amalga oshiriladi?

### **Ma‘ruza № 9**

**Mavzu: Kondagi neft saqlagichlar(rezervuarlar).**

**Reja:**

- 1. Neft saqlagichlarning vazifasi.**
- 2. Po`lat saqlagichlarning jihozlari.**

**Tayanch so`zlar:** saqlagichlar, tovar parklari, lyuk, o`lchagich lyuk, yorug`lik lyuki, qabul qiluvshi va tarqatuvschi (patrubok), qoplagish (xlopushka), o`tkazuvshi qurilma , ko`taruvshi quvur, nafas oluvchi to`sqish, olovdan saqlagich.

**Adabiyotlar:** 2, 3, 5.

#### **9.1. Neft saqlagichlarning vazifasi.**

Kon xududida joylashtirilgan neft saqlagichlar har xil sig`imli idishlar bo`lib, ular neftni yig`ish, qisqa vaqt saqlash, xom va tovar neftni hisobini olish uchun xizmat qiladilar. Bir joyda joylashgan saqlagichlar guruxi – saqlagichlar parki deb yuritiladi. Kon maydonida joylashgan bunday saqlagichlar guruxi yig`uv punkti deb ataladi. Suvsizlantirish va tuzsizlantirish qurilmalaridan o`tgan neftni saqlash uchun xizmat qiladigan saqlagich parklari tovar parklari deb ham yuritiladi.

Neft saqlagichlarning konning o`zida joyida quriladi. Ular metalldan yoki temir betondan qurilib, yerning ustki qismida, yerning ostki qismida, hamda yarmi yerning ostki va yarmi yerning ustki qismida joylashishi mumkin. Keyingi ikkitasi faqat temir betondan quriladi.

Saqlagichlar bo`yi iva hajmiga qarab qalinligi 4 – 10mm li po`latdan yasaladi. Saqlagichlarning tubi 5mm qalinlikdagi po`latdan ishlanadi. Saqlagichlarning sig`imi 100 – 10 000m<sup>3</sup> gacha bo`ladi. Saqlagichlarning «tomi» qalinligi 2,5mm li po`latdan ishlanadi.

#### **9.2. Po`lat saqlagichlarning jihozlari.**


Saqlagichlarning jihozlari saqlagichlarni to`ldirish va bo`shatish, neft satxini o`lchash, neftdan namuna olish, saqlagichni tozalash va ta`mirlash, neftni tindirib, tovarosti suvini yo`qotish, saqlagichda bosimni ushlab turish uchun xizmat qiladi.

Neft saqlagichlarga quyidagi jihozlar o`rnataladi: (16-rasm) saqlagichning eng pastki qismida **lyuk** (7) o`rnataladi. Bu lyuk ta`mir ishlari vaqtida va saqlagichning tubini tozalash uchun xizmat qiladi.

**O`lchagich lyuk** (5) saqlagichdagi neftning satxini o`lchash uchun, namunalar olish uchun ishlatiladi.

Saqlagichning tomida **yorug`lik lyuki** o`rnatalgan bo`lib, u ta`mirdan yoki tozalashdan oldin saqlagichning havosini almashtirishga mo`ljallangan.

**Oabul qiluvshi va tarqatuvschi (patrubok)** (10) tashqaridan kelayotgan qabul qiluvshi va tarqatuvschi quvur uzatkichlarni ularsha foydalaniadi.



16 – rasm. Saqlagichlarga jihozlarni o`rnatish sxemasi.

1-yorug`lik lyuki; 2-shamollatuvschi patrubka; 3-olovdan saqlagich;

4-nafas oluvchi to`sqish; 5-o`chagich lyuk; 6-sathni ko`rsatuvshii; 7-saqlagich tubini tozalash uchun lyuk; 8-sifonli kran; 9-qoplagish(xlopushka); 10-qabul qiluvshii va tarqatuvshii patrubka; 11-o`tkazuvshii qurilma;

12-qoplagish(xlopushka)ni boshqargish; 13-shig`ir(lebedka); 14-ko`taruvshii quvur; 15-ko`taruvshii quvur sharniri; 16-rolikli blok.

**Oplagish (xlopushka)** (9) surilma (zadvijka) va quvur uzatkichlarning nosozligi vaqtida neftni oqib ketishidan asraydi.

**O`tkazuvshii qurilma** (11) qoplagishning ikkala tomonidagi neftning bosimini to`g`rilab turish uchun xizmat qiladi.

**Ko`taruvshii quvur** (14) saqlagichning ishiga joylashtirilgan bo`lib, u neftni xohlagan balandlikdan olish uchun o`rnatilgan.

**Nafas oluvchi to`sqish** (4) saqlagichda harorat o`zgarishi natijasida vakuum hosil bo`lganda, saqlagichdagi bosim ortganda avtomatik ravishda oshilib – yopiladi.

**Olovdan saqlagich** (3) nafas oluvchi to`sqish bilan birgalikda o`rnataladi va uning vazifikasi nafas oluvchi to`sqishdan saqlagichdagi gaz bo`shlig`iga olovni kirishini oldini olishdan iboratdir.

Olov olovdan saqlagichga kirib, kichkina kesimli kanallar tizimidan o`tib, bo`lak – bo`lak kichkina oqimshalarga bo`linadi va ushadi.

#### **Nazorat savollari:**

1. Saqlagichlar nima? Ular nima uchun xizmat qiladilar?
2. Saqlagichlar nimadan quriladi?

3. Saqlagichlarning jihozlari qanday vazifalarni bajaradi?
4. Saqlagichlar qanday jihozlar bilan jihozlanadi?
5. Saqlagichlar tomidagi yorug`lik lyuki nima uchun xizmat qiladi?
6. Saqlagichlarning eng pastki qismidagi lyuk qanday vazifani bajaradi?

### Ma‘ruza № 10

**Mavzu: Saqlagichlardagi neftni «nafas oluvchi» to`sqishlar orqali yo`qolishini oldini olish.**

**Reja:**

- 1. Saqlagichlardagi neftni «nafas oluvchi» to`sqishlar orqali yo`qolishini oldini olish.**
- 2. Po`lat saqlagichlarni korroziyadan himoya qilish.**

**Tayanch so`zlar:** «nafas olishi», katta «nafas olish», kichkina «nafas olish», suzuvchi qopqoqlar(pantonlar), ichki korroziya , tashqi korroziya

**Adabiyotlar:** 2, 3, 5.

#### **10.1. Saqlagichlardagi neftni «nafas oluvchi» to`sqichlar orqali yo`qolishini oldini olish.**

Saqlagichlarning «nafas olishi» natijasida neftning yengil fraktsiyalari yo`qola boshlaydi. Tashqaridagi harorat va bosimning o`zgarishi natijasida saqlagichlarning «nafas olishi» - kichkina «nafas olish» deyiladi.

Kunduz kuni saqlagichlar quyosh nuri ta`sirida qiziydi, natijada neftdan ajralgan bug`lar miqdori ko`payadi va «nafas oluvchi» to`sqishlar orqali atmosferaga tashlanadi. Keshki payt harorat tushishi bilan bug`larning bir qismi kondensatsiyalanishi natijasida saqlagichda vakuum hosil bo`ladi. Bu vakuum hisoblangan me`yordan oshgandan so`ng saqlagichga tashqaridan havo kira boshlaydi.

Saqlagichlarni bo`schatish va to`ldirish vaqtida havoni saqlagichga kirdirib, bug`lar aralashmasini yuzaga chiqarish – katta «nafas olish» deyiladi.


Saqlagichlardagi neftning bug`lanishi natijasida karbonsuvchillarning yo`qolishini oldini olishning 3 xil usuli mavjud:

1. neftning bug`lanishini oldini oluvchi usullar;
2. bug`lanishni kamaytiruvchi usullar;
3. neftning bug`lanishidan hosil bo`lgan mahsulotni yig`ishga asoslangan usullar.

Neft fraktsiyalarining bug`lanishini oldini olish maqsadida suzuvchi qopqoqlar (pantonlar)dan foydalilanildi.. Ular gaz bo`shtihi hosil bo`lishini oldini oladi. (17 - rasm)

Neftni bug`lanishini oldini oluvchi usullarning 2-chi guruxiga saqlagichlarni quyosh nurlaridan himoya qilish kiradi. Buning uchun saqlagichlar nur qaytaruvshi bo`yoqlar bilan bo`yaladi. Bunday bo`yoqlarga oq va alyumin bo`yoqlar kiradi.

Saqlagichlarda neftni yo`qolishini kamaytiruvshi usullarning 3-guruxi saqlagichlarda gaztenglashtiruvshi tizimlarni qo`llashga asoslangan. Bu tizimlarning ish printsipi quyidagicha: saqlagichlardagi gaz bo`shliqlar o`zaro gazuzatkichlar tizimi bilan bog`liq bo`ladi.






17 – rasm. Suzuvchi qopqoqlar (pantonlar).

### 10.2. Po`lat saqlagichlarni korroziyadan himoya qilish.

Po`lat saqlagichlar ichki va tashqi korroziyaga ushraydi. Tashqi korroziyada atmosferaning agressiv omillari va tuproq omillari asosiy rol o`ynaydi. Tuproq omillari saqlagichlarning tubini ishdan chiqaradi. Atmosfera omillari esa uning devorlari va tomiga ta`sir qiladi.

Atmosfera omillari bilan kurash, saqlagichlarni turli suv o`tkazmaydigan lak va bo`yoqlar bilan bo`yash orqali olib boriladi. Saqlagichlarning tuproqda joylashgan qismining korroziyasi bilan quyidagisha kurashiladi: saqlagichlarning tuproq ishida yotishi kerak bo`lgan tagi bitumlanadi.

Ichki korroziya neftlar tarkibida bo`ladigan oltingugurtli birikmalar va nam havo ta`sirida sodir bo`ladi. Bunday hollarda birinchi bo`lib, saqlagichlarning tomi ishdan chiqadi, Shunki gaz – havo aralashmasi tomning tagida joylashadi va u bilan ta`sirlanadi. Bu holatni kengroq ko`rib chiqsak, saqlagichlarning katta «nafas olishida» gaz bo`shlig`iga atmosferaning nam havosi kiradi. Keshasi saqlagichchning sovuq devorida suv bug`larining kondensatsiyasi sodir bo`ladi va tomchilar hosil qiladi. Bu tomchilarda neftdan ajralgan oltingugurt eriydi va quyidagi reaksiyalar sodir bo`ladi:



Ko`rib turganimizdek, natijada temir sulfidlar va sulfat kislotasi hosil bo`ladi. Bular neft mahsulotlarining yonib ketishiga sabab bo`lishi mumkin. Shuning uchun saqlagichlarning ichki tomoni neft va yengil karbonsuvchillarning ta`siriga shidamli bo`lgan turli metall va plastmassalar bilan qoplanadi. Bundan tashqari po`lat saqlagichlarning ichki korroziyasini oldini olish maqsadida ulardagi neftlarga kislotalarini neytrallashtiruvshi ishqorlar qo`shib turiladi.

#### Nazorat savollari:

1. Saqlagichlarning kichkina va katta «nafas olishi» deganda nimani tushunasiz?
2. Neft fraktsiyalarini bug`lanishini oldii olish uchun qanday shoralar ko`riladi?
3. Saqlagichlarning tashqi korroziyasi nima va uning oldini olish uchun nimalar qilinadi?
4. Ichki korroziya va unga qarshi kurash.

**Ma‘ruza № 11**  
**Mavzu: Tovar neftining sifati va va miqdorini**  
**o`lhash usullari.**  
**Reja:**

**1. Tovar neftining hisobi.**

**2. Tovar neftini hisobga olish jarayonini avtomatlashtirish.**

**Tayanch so`zlar:** tovar nefti, kalibrlangan saqlagich sig`imlar, Rubin – 2 qurilmasi.

**Adabiyotlar:** 3, 4, 5.

**11.1. Tovar neftining hisobi.**

Issiq – kimyoviy qurilmalardan o`tgan neft tovar parklariga yo`naltiriladi. U yerda uning hajmi qayta o`lchanib tovar transport tashkilotlariga uzatiladi.

Tovar neftini hisobga olishning 3 ta usuli qo`llaniladi: hajm, massa va hajm – massa.

Tovar neftining ko`p qismi hajm usuli bilan o`lchanadi. Bunda har bir bo`lagi 1sm ga teng qilib kalibrlangan saqlagich sig`imlardan foydalilanadi. Har bir saqlagich uchun kalibr jadvali tuziladi va uning asosida tovar nefti hisobga olinadi.

Neftni hajm usuli bilan hisobga olishda quyidagi jarayonlar bajariladi:

- Neft va tovar osti suvining balandligi o`lchanadi;
- Kalibr jadvalidan berilgan balandliklar bo`yicha neft hajmi hisoblanadi;
- Harorat o`zgarishiga tuzatmalar kiritiladi.

Qabul qilish va tarqatish jarayonida neftni hisobga olishning quyidagi tartibi keng tarqalgan:

1. saqlagichdan olingan namunaning harorati o`lchanadi;
2. neftning o`rtacha zichligi aniqlanadi va +20 0S haroratga keltiriladi;
3. olingan namuna tarkibidagi suvning miqdori Dina – Stark apparati yordamida aniqlanadi.

Mana Shu o`lchovlar amalga oshirilgandan so`ng suvlangan neftning o`lchangan hajmi uning o`rtacha zichligiga ko`paytiriladi va brutto massasi kelib chiqadi.

Bu massadan suv massasi olib tashlansa, netto massasi kelib chiqadi.

**11.2.Tovar neftini hisobga olish jarayonini**  
**avtomatlashtirish.**

Tovar neftini hisobga olishning ko`rib chiqilgan turlari ba`zi kamchiliklarga ega.

Bular:

1. saqlagichlardan namuna olish va analiz qilish uchun ko`p sonli operator va laborantlar ishga jalganadi;
2. namuna olish va analiz qilish ma`lum vaqt oralig`ida o`tkaziladi. Shu vaqt ishida neftni tuzsizlantirish va suvsizlantirish qurilmalarining ish tartibi o`zgarib turishi mumkin;
3. shu ishlarni olib boruvchi operator va laborantlar tomonidan sub`ektiv omillarning ta`siri.

Mana shu kamchiliklardan qutilib, neftni tinimsiz o`lhash uchun Rossiya konlarida Rubin – 2 avtomatlashtirilgan qurilmasi qo`llanila boshlagan. (18-rasm). Bu qurilma tovar neftini miqdor va sifat o`zgarishlarini avtomatik tarzda o`lhashga mo`ljallangan bo`lib, nokonditsion neftni qayta tayyorlashga yuboriladi.

Rubin – 2 qurilmasi quyidagisha ishlaydi:


Neftni tayyorlash qurilmasidan (NTQ) neft germetiklangan saqlagichlarga (1) uzatiladi. Nasos (2) neftni haydab avtomatik namo`lchagich (3) va tuz o`lchagichdan (4) o`tkazib yuboradi. Agar neft tarkibidagi tuz va suvlarning miqdori belgilangan me`yordan ochiq bo`lsa, namo`lchagichning (3) zondi joydagisi avtomatika bo`lmasiga JAB halokat belgisini yuboradi va gidroharakatlantirgish (8) tusqish (5) yordamida tovar neftining yo`lini to`sadi.

Shu vaqtning o`zida to`sqish (6) nokondentsion neftning yo`lini ohib yuboradi va bu neft uzatkich (7) orqali ayirboshlagish ajratgichga boradi. So`ngra bu neft NTQ da qayta tayyorlanadi. Tuzo`lchagich (4) va suvo`lchagichdan (3) halokat belgisi kelishi to`xtashi bilan to`sqish (5) oshiladi, to`sqish (6) esa yopiladi.

Tovar neftning oqimi filtdan (9), zichlik o`lchagichdan (10) o`tib turbinali sarf o`lchagichga (11) boradi. Turbinali sarf o`lchagichning (11) ishida turbinasha aylanib turadi va uning aylanishi elektr impulsga aylanib tovar neftini hajm miqdorini hisobga oluvchi qurilma – joydagi avtomatika bo`lmasiga (JAB) ga uzatiladi. So`ngra tovar neftining hajm kattaliklari avtomatik ravishda haroratning o`zgartmalarini hisobga olgan holda zichlik o`lchagichning ko`rsatkichlariga ko`paytiriladi. Blokning ustki qismida sarf o`lchagichga (11) ko`paytirishdan hosil bo`lgan kattalik yoziladi.

#### Rubin – 2 ning asosiy ko`rsatkichlari:

Maksimal o`tkazuvchanlik qobiliyati, t/kun	10.000
Ishchi bosim, MPa	2,45
Tarkibidagi suv, %	10
Neft harorati, °C	+5 dan + 60 gacha
Neftning qovushqoqligi, cCt	100
Tovar neftini o`lchashdagi yo`l qo`yilishi mumkin bo`lgan nisbiy xatolik, %	0,5



18 – rasm. Rubin – 2 qurilmasi.

#### Nazorat savollari:

1. Tovar nefti hisobini olishning neshta usuli bor?
2. Tovar neftining ko`p qismi qanday usulda o`lchanadi?
3. Neftni hajm usuli bilan hisobga olishda qanday jarayonlar bajariladi?
4. Qabul qilish va tarqatish jarayonida neftni hisobini olish qanday tartibda olib boriladi?
5. Tovar nefti hisobini olishning avtomatlashtrilmagan usullari qanday kamchiliklarga ega?
6. Rubin – 2 qurilmasi qanday vazifani bajaradi?
7. Rubin – 2 qurilmasining ishlash tartibi qanday?

## Ma‘ruza № 12

**Mavzu: Neft konlarida oqova suvlarni tayyorlash.**

**Reja:**

- 1. Qatlam suvlari.**
- 2. Neft konlaridagi oqova suvlarga ko`rsatiladigan talablar.**
- 3. Oqova suvlarning kanalizatsiyasi.**

**Tayanch so`zlar:** oqova suvlari, umumiy minerallanish, chuchuk suvlari, oqova suvlari kanalizatsiyasi.

**Adabiyotlar:** 3, 4, 5.

### **12.1.Qatlam suvlari.**

Neft tarkibidagi suv va suvdagi erigan mineral tuzlar mustahkam emulsiyalar hosil qiladi. Bu emulsiyalar korroziyalarga sabab bo`lib, neftni qayta ishlashda qiyinshiliklar tug`diradi. Bundan tashqari suvli neftni transport qilish ham katta harajatlar talab qiladi. Shuning uchun ham quduqdan olinadigan neft tuzsizlantiriladi va suvsizlantiriladi.

Hozirgi vaqtida qatlam suvlarning taxliliga katta ahamiyat berilmoqda, shunki bu suvlari mahsuldor qatlamga qayta haydash uchun ishlatilmokda.

Qatlamdan olinadigan suvlari bir - biridan mineral tuzlar kontsentratsiyasi, gazlar va mikroorganizmlar mavjudligi bilan farqlanadi.

Qatlam suvlari turli kimyoviy tarkibdan iborat bo`lib, 2 ta asosiy guruxga bo`linadi:

1. qattiq suvlari – xlor kaltsiyli yoki xlor kaltsiy-magniyli;
2. ishqorli yoki gidrokarbonat natriyli.

Qatlam suvlarning asosiy tarkibiy qismini natriy xlor NaCl, kaltsiy xlor CaCl<sub>2</sub> va magniy xlor MgCl<sub>2</sub> lar tashkil qiladi.

Ba`zi suvlarda magniy Mg, kaltsiy Ca, temir bikarbanat FeHSO<sub>3</sub> tuzlari ham bo`ladi.

Qatlam suvlarida anion va kationlarga ajraladigan oddiy tuzlar ham mavjud. Anionlarga – gidroksid – ON ion, xlor – CL ion, sulfat – SO<sub>4</sub> ion, bikarbonat – HSO<sub>3</sub> ion, karbonat – SO<sub>2</sub> ion, brom – Br ion va boshqalar kiradi.

Bundan tashqari qatlam suvlarida kolloidlar (temir oksidi FeO, alyumin oksidi Al<sub>2</sub>O<sub>3</sub>); gaz ko`rinishidagi moddalar (karbonat angidrid CO<sub>3</sub>, oltingugurtsuvchil, azot N<sub>2</sub>, vodorod H<sub>2</sub>); nodir gazlar (geliy, argon, neon) va organik moddalar (naften kislotalar) mavjud bo`ladi.

Qatlam suvlarida erigan muddalarning uning hajmiga bo`lgan nisbati – umumiy minerallanish deyiladi.

Qatlam suvlarning minerallanish darajasi 1 kg/m<sup>3</sup> dan 200 kg/m<sup>3</sup> gacha. Suvni asosiy tavsiflaridan biri suvchil ionlar kontsentratsiyasi ko`rsatkichi pH.

Bu ko`rsatkichdan suv eritmalarining kislotali va ishqorli muhitlari aniqlanadi.

Suvlar pH kattaligi bo`yicha 5 guruxga bo`linadi:

1. nordon rN = 3 gacha;
2. nimnordon rN = 4 - 6 gacha;
3. neytral rN = 7;
4. kam ishqorli rN = 8 – 10 gacha
5. ishqorli rN = 11 – 14 gacha

### **12.2. Neft konlaridagi oqova suvlarga ko`rsatiladigan talablar.**

Oqova suvlari deb, qatlam suvlari, chuchuk suvlari va atmosfera suvlarning aralashmasiga aytildi. Chuchuk suvlari neftni tuzsizlantirish, deemulgatorlarni tayyorlash, kompressorlarni sovutish va boshqalarga xizmat qiladi.

Oqova suvlarni 82 - 84% qatlam suvlari, 15% chuchuk suvlari, 1,5 - 3% atmosfera suvlari tashkil qiladi.

Konni ishlatish jarayonida juda ko`p miqdorda qatlam suvi yer yuzasiga olib chiqiladi.

Mahsuldor qatlamlarni qatlamdan olingen suvlar bilan bostirish juda muxim masalalardan biridir. Qatlamdan olingen suvlarni qayta haydash quyidagi muammolarni hal qilishga yordam beradi:

1. chuchuk suv sarfini kamaytiradi;
2. suv xavzalarini ifloslanishini, xavzalardagi baliqlarni o`lishini oldini oladi;
3. mahsuldor qatlamlarni o`tkazuvchanligini saqlab qoladi, Shunki gil va alevrolitlar tuzli suv ta`sirida shishmaydi;
4. qatlamning neft beraolishlik koeffitsienti ko`tariladi. Bunga sabab deemulgatorli suvlar yaxshi yuvish qobiliyatga ega.

Oqova suvlardan foydalanishda bir qator qiyinshiliklar ham vujudga keladi. Bular:

- tozalash qurilmalarining murakkab va qimmatliliqi;
- suv bostirish tizimidagi suvo`tkazgishlar va qurilmalarning korroziyasi va boshqalar.

Hozirgi vaqtida bu masalalar konlarda o`z yeshimini topayapti.

Masalan, suv o`tkazgishlarning ishi va qurilmalar maxsus lak – bo`yoqlar bilan qoplanib, korroziyadan himoya qilinmokda. 6 - 8 oy xizmat qilgan o`tkazgishlar 3 - 4 yil davomida ishlataliyapti.

### **12.3. Oqova suvlarning kanalizatsiyasi.**

Oqova suvlarning kanalizatsiyasi deganda, kondagi oqova va yomg`ir suvlarining zovur va latoklar tizimi orqali maxsus tozalash inshoatlariga yig`ilishiga aytildi. Bu tizimlarni qurish va ishlatish oson bo`lishi bilan birga bir qator kamchiliklarga ham ega. Bular quyidagilar:

1. oqova zovurlarning ko`p shoxchali turini qurish;
2. oqova suvlarning o`zi oqishi uchun to`g`ri keladigan relf sharoitlarini tanlash;
3. oqova zovurlarning zish turi kon xududida transportlarning harakatiga halaqit beradi;
4. xudud qoramoy (mazut) bilan ifloslanadi;
5. sovuq iqlimli xududlarda qish faslida va lotoklarning muzlashi kuzatiladi.

Hozirda neftni yig`ishni germetiklashgan usullarida neft suv bilan birga neftni tayyorlashning markazlashgan qurilmasiga boradi. Mana Shu yerda ular ajratiladilar.

#### **Nazorat savollari:**

1. Qanday maksadda neft suvsizlantiriladi va tuzsizlantiriladi?
2. Qatlam suvlari kimyoviy tarkibiga qarab neshta guruxga bo`linadi?
3. Qatlam suvlari tarkibida qanday kolloidlar, gaz ko`rinishidagi moddalar, gazlar va organik moddalar ushrashi mumkin?
4. Minerallanish deb nimaga aytildi?
5. Oqova suvlar nima?
6. Oqova suvlar tarkibi.
7. Qatlamdan olingen suvlarni qayta haydash qanday muammolarni hal qiladi?
8. Oqova suvlardan foydalanish qanday qiyinshiliklarni tug`diradi?
9. Oqova suvlarning kanalizatsiyasi deganda nima tushuniladi?
10. Oqova suvlarning kanalizatsiya qilish qanday kamchiliklarga ega?

## Ma‘ruza № 13

**Mavzu: Mahsuldor qatlamlarga suvni haydash uchun tayyorlash.**

**Reja:**

- 1. Qatlamga suvni haydash.**
- 2. Suvni qatlamga haydashga yaroqlilagini aniqlash.**
- 3. Oqova suvlarni tayyorlash qurilmalari.**
- 4. Chuchuk suvlarni tayyorlash qurilmalari.**

**Tayanch so`zlar:** chuchuk suvlari, oqova suvlari, deemulgator, deemulsator, filtrlar, tindirgich.

**Adabiyotlar:** 4, 5.

### **13.1. Qatlamga suvni haydash.**

Qatlamdan neftni to`liq olish uchun qatlamning tabiiy energiyasi har doim ham yetarli bo`lmaydi. Neftberaolishlik koeffitsientini va neft olish sur`atlarini ko`tarish maqsadida hozirgi vaqtida konlarda qatlam bosimini saqlash usullari qo`llanilmoqda. Kon maydoniga qarab qatlam bosimini saqlash ikki usulda olib boriladi:

1. kichkina konlar uchun – neftlik chegarasi ortida joylashtirilgan maxsus haydovchi quduqlarga suv haydash yo`li bilan;
2. katta konlarda uyum haydovchi quduqlar yordamida bo`laklarga bo`linadi.

Qatlam bosimini saqlash uchun qatlamga tabiiy suv bilan birgalikda oqova suvlari ham haydaladi. Tabiiy chuchuk suvlari tarkibida kam miqdorda tuzlar (1 g/l), turli gazlar, mexanik aralashmalar, temir oksidlari, mikroorganizmlar bo`lishi mumkin. Haydalayotgan suv tarkibidagi mexanik aralashma va mikroorganizmlar mahsuldor qatlamning g`ovak kanallarini yopib qoladi. Natijada haydovchi quduqlarning qabul qiluvchanligi pasayadi.

Oqova suvlari tarkibida esa neft tomchilari, ko`p miqdorda tuzlar (300 g/l) bo`lishi mumkin.

Mavjud qoida va ko`rsatmalarga asosan, haydalayotgan suv tvrkibidagi qattiq zarrachalar miqdori 2 mg/m dan, temir 0,3 mg/l dan oshmasligi kerak. Suv tarkibidagi mikroorganizmlar va suvo`tlar 100 mg/l gacha, oltingugurtsuvchillar H<sub>2</sub>S hosil qilishi mumkin. Bu oltingugurtsuvchillar konni ishlashning oxirgi davrlarida neft bilan birga yer yuzasiga chiqadi va mustahkamlovshi favvoraviy quvurlarni, neftgaz yig`ish tizimini ishdan chiqara boshlaydi. Shuning uchun qatlamga haydaladigan suvni tozalab haydash uchun kon xududida suvni tozalash qurilmalari quriladi.

### **13.2. Suvni qatlamga haydashga yaroqlilagini aniqlash.**

Suvlarni qatlamga haydashga yaroqliligi laboratoriya sharoitida, tabiiy kernlar orqali filtratsiya qilish yo`li bilan aniqlanadi. Bunda tabiiy kerning o`tkazuvchanligi o`zgarmasa, suv qatlamga haydash uchun yaroqli deb hisoblanadi. Lekin bu usul har doim ham samara bermaydi, Shunki bitta kern misolida mahsuldor qatlamning butun qalinligiga baho berib bo`lmaydi. Shuning uchun qatlamga haydalayotgan suvning sifati to`g`risida ma`lumot olish uchun Chuqurlik sarf o`lchagichidan foydalanib sinov haydashlar o`tkazish lozim. Chuqurlik sarf o`lchagichlari mahsuldor qatlamshalarning yutuvshanlik qobiliyatini qayd qilib boradi.

Shunday savol tug`ilishi mumkin – mahsuldor qatlamga chuchuk suvlarni haydash ko`proq samara beradimi yoki oqova suvlarni?

Qatlamga suv haydashning katta tajribasidan kelib chiqqan holda, bu savolga javob berish qiyin emas: oqova suvlarni qatlamga haydash chuchuk suvlarni qatlamga haydashga nisbatan katta samara beradi. Oqova suvlari asosan qatlam suvlaridan tashkil topgan bo`lib, ularning tarkibidagi deemulgator suv bilan birgalikda qatlamga singib, neftni tog` jinClaridan jadallik bilan yuvib olishga yordam beradi. Bundan tashqari oqova suvlarning kimyoviy tarkibi qatlam suvlarining kimyoviy tarkibiga yaqin, Shuning uchun ham ular o`zar ta`sirlashganda kelib chiqishiga ko`ra kimyoviy bo`lgan cho`kmalar hosil qilmaydi va haydovchi quduqlarning qabul qilaolishlik qobiliyatini pasaytirmaydi.


### 13.3.Oqova suvlarni tayyorlash qurilmalari.

Oqova suvlari tindirgichdan suv bilan chiqadigan neft tomchilaridan va mexanik aralashmalardan (qum, temir oksidi va boshqalar) tozalanadi. 19– rasmida oqova suvlarni tozalash qurilmasining ochiq sxemasi ko`rsatilgan.

Uning ishlash tartibi quyidagicha: tindirgich va deemulsator ajratgichlarida neftdan ajratilgan suv avtomatik ravishda neft qopqoniga (1) tushadi. So`ng tindirgich «ko`l»larga (3) oqib boradi. Tindirgich «ko`l»lardagi suv nasoslar (4) yordamida qumli filtrlardan (5) o`tib tozalangan suv sig`imlariga (6) o`tadi. Bu sig`imlardan oqova suvlari suv nasos qabuliga (7) boradi va ko`pqatorli nasos stantsiyalariga (KNS) uzatiladi. Bu yerda oqova suvlarni qatlamga haydash uchun katta bosimlar (14,7-19,62 MPa) hosil qilinadi.

Neft qopqonlaridan diametri 80 mkm dan katta bo`lgan neft tomchilari yig`ilib, nasos (2) yordamida yana qaytadan tindirgich va deemulsator – tindirgichlarga uzatiladi.

Suv tezligining tez pasayishi natijasida tindirgich - «ko`l»larda (3) neftning 30-40 mkm li tomchilari yig`iladi va mexanik aralashmalar cho`kadi. Oqova suvlarni tozalashning oxirgi bosqichi qum filtrlardir (5). Qum filtrlarida ma`lum vaqt oraliq ida cho`kib qolgan mikrozarrachchalarni yuvib turish kerak. Buning uchun tozalangan suv sig`imi (6) dagi suv nasos (8) yordamida qum filtrlariga uzatiladi. Filtrli tozalanishda hosil bo`lgan iflos suv omborlarga (9) tushadi.



19 – rasm. Oqova suvlarni tozalash qurilmasining ochiq sxemasi


Bu ko`rib chiqilgan qurilmaning kamchiliklari quyidagilar:

1. neft qopqonlari va «ko`l» - tindirgichlar temir-betondan quriladi, bu esa katta harajatlar talab qiladi;
2. bunday qurilma katta maydonda qurilishi lozim;
3. neft konini ishlash davri mobaynida neftni suvlanishi oshishi bilan bir qatorda bu qurilmaning mahsulдорligi ham ochib borishi zarur;
4. bu qurilmadagi oqova suvlari havodagi kislорodi bilan ta`sirlashib turadi. Natijada bu kislорodi oqova suvlarda erib, suv uzatkichlar va nasoslarning korroziyasiga sabab bo`ladi.

Hozirgi vaqtida oqova suvlarni tozalashning yopiq usuli qo`llanilmoqda, bunda suv havo bilan ta`sirlashmaydi. Mana Shunday qurilmalarning biri 20 – rasmida ko`rsatilgan.

Suvlangan neft yig`ish kollektori (1) dan aralashtirgich (2) ga boradi. Bu yerda u neftni tayyorlash qurilmasi (12) dan quvvatuzatkich (13) orqali keluvshi deemulgatorli issiq suv bilan aralashadi. Aralashtirgichdan suvlangan neft taqsimlovshi kollektor (3) ga boradi va juda sekin tezlik bilan suvli yostiqdan yuviladi. Suvning asosiy massasi taqsimlovshi

kollektorning pastki qismida neftdan ajralib toza holda (6) shiziq bo`ylab germetiklangan sig`imlarga (22) boradi. U yerdan nasos (23) bilan qo`shimsha tozalanmay KNS ga (ko`p qatorli nasos stantsiyalariga ) uzatiladi.



20 – rasm. Oqova suvlarni tozalashning yopiq usuli.

Qisman suvlangan neft (5 % gacha) qalqiq (poplavok) mexanizm (5) orqali (7) shiziq bo`ylab issiqlik almashtirgichga (10), so`ngra taqsimlovshi ajratgichga (11), issitgish – ajratgichga (12) boradi. Bu yerda neft to`liq suvsizlantiriladi va tuzsizlantiriladi. Isitgich – ajratgich (12) dan yuqorida aytib o`tilganidek issiq suv qisman aralashtirgich (2) ga, so`ngra (14) shiziq bo`ylab tindirgichlarning (21) taqsimlab beruvshi kollektorlariga (20) boradi.

Tindirgich (21) larda neft tomchilaridan tozalangan suv nasos (23) ga borib, undan ko`pqatorli nasos stantsiyalariga (KNS) uzatiladi.

### 13.4. Chuchuk suvlarni tayyorlash qurilmalari.


Yuqorida aytib o`tilganidek, neft konlarida qatlama bosimini ushlab turish uchun qatlamlanga daryo, ko`l va suv omorlaridagi chuchuk suvlarni haydash mumkin. Ba`zan artezian quduqlaridan olingan yer osti suvlaridan ham Shu maqsadda foydalanish mumkin. Yer osti suvlarining tarkibi yil fasllari o`zgarishi bilan ham o`zgarmaydi va ularni qatlamga tozalamay turib ham haydash mumkin.

Yer osti suvlaridan farqli ravishda daryo va ko`l suvlarining sifati past bo`ladi. Bular suv tozalash stantsiyalarida qayta ishlanishi mumkin.

Amaliyotda mahsuldor qatamlarni suv bostirishda o`zanostisuvvolgish va suv tozalash stantsiyalarini keng tarqalgan.

O`zanosti suvvolgichlari uchun daryoning qirg`oq qismidan 20-30m Chuqurlikda quduqlar kovlanadi va 300mm diametrli quvurlar bilan mustahkamlanadi. Bu quvurlarga suv ko`targish quvurlar (2) tuShuriladi. Daryoning suvi qumli qatlamdan filtrlanib quduqka tushadi.

Quduqdan toza suv daryo bilan rezervuar sathlari farqi ta`sirida va vakuum – kompressor yordamida hosil qilingan vakuum ta`sirida vakuum-havzaga (4) boradi. Undan nasos (6) yordamida toza suv rezervuariga (8) uzatiladi. Nasos (9) lar yordamida toza suv rezervuar (8) dan olinib magistral suvuzatkichga haydaladi. Magistral suvuzatkichlardan suv ko`pqatorli nasos stantsiyalariga (KNS), ulardan esa haydovchi quduqlarga boradi.



21 – rasm. O`zanosti suvolgichlar va ochiq suvolgichlar sxemalari keltirilgan.

Ochiq suvolgichlar sxemasida ifloslangan daryo suvi quvur (2) orqali birinchi ko`tarish nasos stantsiyalariga boradi. Birinchi ko`tarish nasos stantsiyalaridan ifloslangan suv aralashtirgichga (3) ga boradi. Bu yerda me`yorlagish (2) yordamida tinimsiz ravishda koagulyant yetkazib berib turiladi (oltingugurtsuvchilli alyuminiy  $\text{Al}_2(\text{SO}_4)_3 \times 18\text{H}_2\text{O}$  yoki temir kuporasi  $\text{FeSO}_4$  ). Aralashtirgich (3) dan ifloslangan suv koagulyant bilan birgalikda tiniqlantirgish (tindirgichga) (4)ga boradi. Bu yerda reaktsiya natijasida alyumin gidrooksidi  $\text{Al}(\text{OH})_3$  va temir gidrooksidi  $\text{Fe}(\text{OH})_3$  hosil bo`ladi va cho`kadi. Tiniqlashtirgish (tindirgich) (4) dan tozalangan suv qum filtrlariga (5) boradi, ulardan esa toza suv rezervuarlariga (6) o`zi oqib tushadi. Rezervuarlardan (6) suv ikkinshi ko`tarish nasos stantsiyalarining (7) qabuliga boradi. Bu yerdan suv magistral suvuzatkichga transport qilinadi, so`ngra esa ko`pqatorli nasos stantsiyalari (KNS) yordamida haydovchi quduqlarga haydaladi.

### Nazorat savollari:

1. Qatlamdagi bosimni saqlash uchun qanday choralar ko`riladi?
2. Qatlamdagi bosimni saqlash usullari
3. Qatlamga qanday suvlar haydaladi?
4. Ularning qaysi birini haydash ko`proq samara beradi?
5. Haydalayotgan suv tarkibi qanday talablarga javob berishi lozim?
6. Oqova suvlarni tozalash tartibi.
7. Oqova suvlarni tozalash qurilmasining kamchiliklari.
8. Oqova suvlarni tozalashning yopiq usuli.
9. Chuchuk suvlarga qanday suvlar kiradi?
10. O`zanosti suvolgichlarning tuzilishi.
11. Chuchuk suvni tozalash stantsiyalari ishi.

**Ma‘ruza № 14**  
**Mavzu: Neft va gazni uzatish**

**Reja:**

1. Neft va gazni va gazni uzoqqa uzatish usullari.
2. Neft va gaz uzatuvchi quvurlarni hisoblash usullari
3. Suyuqlik uzatuvchi magistral quvurlardagi nasos stansiyalari
4. Tabiiy gaz uzatuvchi magistral quvurlardagi kompressor stansiyalari

**Tayanch so`zlar:** Suv yo`li orqali tashish, tanker, port, saqlagich, temir yo`l orqali tashish, avtomobil bilan tashish, quvurlar orqali uzatish, suyultirilgan gaz, boshlang`ish nasos stansiyasi, gaz haydovchi kompressor stansiyalari, gazomotokompressorlar, gaz haydakishlar, ventilyatorlar, rotatsion kompressorlar, vintli kompressorlar.

**Adabiyotlar:** 4, 5.

**14.1. Neft va gazni va gazni uzoqqa uzatish usullari**

Odatda neft va gaz konlari ularni qayta ishslash zavodlaridan yoki boshqa turdag'i iste'molshilardan uzoqda joylashgan bo'ladi. Shuning uchun neft va gazni iste'molshiga etkazib berish katta kush va mablag' talab qiladi. Neft va neft mahsulotlarini tashishni quyidagi to`rt usuli mavjud.

Suv yo`li orqali tashish, asosan katta hajmdagi tankerlar<sup>\*)</sup> orqali tashkil qilinadi. Suv yo`li orqali neft mahsulotlarini tashish uchun neftni qabul qilib oladigan va topshiradigan joylarida katta hajmdagi kemalarni qabul qilish uchun mo'Clashgan portlar, nasos stansiyalari, mahsulotni saqlash uchun katta hajmdagi saqlagichlar kerak bo'ladi. Odatda suv yo`li bilan neft mahsulotlarini tashish materiklararo miqyosda yoki boshqa usullar bilan etkazilish iloji bo`limganda tashkil qilinadi. Masalan, arab davlatlaridai (Saudiya Arabiston, Quvayt, Birlashgan Arab Amirliklari) Evropaga, Amerikaga, Yaponiyaga neft va neft mahsulotlarini tashish suv yo`li orqali tashkil qilingan. Bu usul bilan neft tashish ansha qimmat deb hisoblanadi.

*\*) Tanker-hajmi 50000 dan 1000000 m<sup>3</sup> gacha bo`lgan neft va neft mahsulotlarini tashish uchun mo'ljallangan dengiz va okeanlarda yura oladigan kema.*

**Temir yo`l orqali tashish**

Temir yo`l orqali neft va neft mahsulotlarini tashish keng tarkalgan usul bo`lib, ayniqsa moylar, mazutning hamma navlari, bitum, parafin kabilarni tashish uchun asosiy usul bo`lib hisoblanadi. Temir yo`l orqali neft tashish ham qimmat bo`lib, juda katta va doimiy miqdorda bu usul bilan tashish maqsadga muvofiq emas. Shuni ham aytish kerakki, temir yo`li bilan neftni tashish suv yo`li bilan tashishga nisbatan bir maromda uzlucksiz neft bilan ta'minlab turish imkoniyatini beradi. Respublikamizda ana Shu usul bilan Qashqadaryo, Buxoro viloyatlaridan Farg`ona neftni qayta ishslash zavodiga neft tashiladi.



## Avtomobil bilan tashish

Avtomobil bilan neft va neft mahsulotlarni tashishni odatda unsha uzoq bo`lmagan masofaga tashkil qilish mumkin. Odatda bu usul kon bilan neftni qayta ishlash zavodi orasida temir yo`li yoki quvurlar yotqizish mumkin bo`lmagan holda uyushtiriladi. Masalan, kon bilan zavod orasida toqli o`lka mavjud bo`lsa, bunday holda avtomobil bilan tashishni yo`lga qo`yish mumkin. Lekin bu usul bilan katta hajmdagi neftni tashishga tashkil qilish katta kush va mablag`ni talab qiladi, va neft mahsulotlari tannarxini sezilarli darajada oshirib yuboradi.



## Neft quvurlari orqali tashish

Neft quvurlari orqali neftni uzatish eng keng tarqalgan usul bo`lib, boshqa hamma usullardan eng arzonligi, uzlusizligi bilan ajralib turadi. Bu usul bilan katta hajmdagi neft va neft mahsulotlarini (benzin, kerosin, dizel yoqilqisi va h.k.) yil davomida hesh qanday qiyinshiliklarsiz uyushtirish mumkin. Bu usul bilan neft tashilganda asosiy xarajatlar neftni haydovchi nasos stansiyalari faoliyatiga va neft quvurini texnik holatini tekshirib turishga sarf bo`ladi.



Barcha usullardan quvur orqali tashishni afzalliklari quyidagilardan ko`rinib turibdi:

1. Katta hajmdagi neft va neft mahsulotlarini uzlusiz holda yetkazib beriladi.
2. Bir quvurdan neft va uning mahsulotlarini etkazib berish imkoniyati bor.
3. Quvurlarni har qanday geografik sharoitda va xohlagan masofaga qurish mumkin.
4. Bu usul bilan neft tashilganda texnologik yo`qotishlar eng kam miqdorni tashkil qiladi.
5. Bu usul eng ishonchli, ishlatish uchun qulay va sodda, avtomatlashtirishga moyil bo`lganligi bilan ajralib turadi.

Gazni uzatish faqat quvurlar orqali tashkil qilinadi. Shuni aytib o`tish kerakki, oxirgi paytda quvurlar orqali suyultirilgan gazni tashish ham samarali ekanligi tasdiqlandi.

Neft quvurlar orqali uzoqqa uzatilganida ular magistral quvurlar deb yuritiladi. Magistral neft quvurlari boshlang`ish nasos stansiyasidan (odatda kondagi yoki bir nesha konlarning umumiy tayyor mahsulot omboridan) neftni qayta ishlash zavodigacha yoki temir yo`l neft quyish estakadasi omborigacha bo`lgan masofada quriladi. Bular orasidagi masofaga qarab neftni haydovchi bir yoki bir nesha stansiyalar bo`lishi mumkin. Magistral neft (gaz) quvurlari katta diametrdagi (500-1200mm) quvurlardan qurilib, boshlang`ish nasos stantsiyasidagi haydash ishchi bosimi 5,0-6,5 MPa atrofida saqlanadi.

O`zbekistonda Farg`ona vodiysisidagi konlardan Farg`ona hamda Oltiariq neftni qayta ishlash zavodlariga, Ko`kdumaloq konidan Buxoro neftni kayta ishlash zavodiga neft va kondensatni etkazib berish quvurlar orqali tashkil qilingan.

## **14.2. Neft va gaz uzatuvchi quvurlarni hisoblash usullari**

Neft uzatuvchi quvurlardagi oqim bir fazali (faqat neft), ikki fazali (neft va gaz yoki neft va suv) hamda ko`p fazali (neft, gaz va suv) bo`lishi mumkin. Har qanday fazali oqimda ikki xil ko`rinishdagi harakat bo`lishi mumkin: laminar va turbulent oqim.

Oqimlarning qaysi xildagi bo`lishi o`lchov birligisiz Reynolds ko`rsatkichiga bog`liq.

$$R = (V \cdot d) / v, \quad (14.1.)$$

bu yerda V - quvurdagi suyuqlikning o`rtacha tezligi;

d - quvurning ichki diametri;

v - suyuqlikning kinematik qovushqoqligi.

O`tkazilgan ko`plab tajribalar shuui ko`rsatdiki,  $Re > 2320$  bo`lsa laminar oqim, agar  $Re < 2800$  bo`lsa turbulent oqim va  $2320 < Re < 2800$  bo`lgan taqdirda har ikki xil oqimlar orasidagi o`tish qolatdagi oqim mavjud ekan. Quvurlardan suyuqlik harakat qilganda quvurni uzunligi bo`yicha suyuqliki haydalayotgan bosimning sekin - asta pasayib borishi kuzatiladi. Bunday holat asosan suyuqlik harakati vaqtida quvur ishidagi kadir - budirliliklarda ishqalanishga sarf bo`ladigan qarshiliklar natijasida hosil bo`ladi. Shuningdek, bosimni pasayishi quvur diametriga, haydalayotgan suyuqliklarni fizikaviy xususiyatlari va miqdoriga, quvurni ichki devorlari holatiga, hamda kuvurni boshlang`ish va oxirgi nuqtalarini bir-biridan qanchaga farq (balandligi bo`yicha) qilishiga bog`liq. Haydalayotgan bosimning yuqorida ko`rsatib o`tilgam omillarga bog`liqligi quvur tavsifi deb yuritiladi.

Odatda quvurlarni gidravlik hisoblashlar quvur diametrini, boshlang`ish haydash bosimini yoki suyuqlik o`tkazuvchanlik qobiliyatini hisoblashlardan iborat bo`ladi.

Bu hisoblashlarni bajarish umumiy gidravlikaning asosiy qonuni - Bernulli tenglamasi asosida olib boriladi. Ya`ni:

$$(Z_1 + P_1/\rho g + V_1^2/2g) - (Z_2 + R_2/\rho g + V_2^2/2g) = h_{sq} + h_{mq}, \quad (14.2.)$$

Bu yerda:

$Z_1, Z_2$  - quvurning boshlang`ich va oxirgi nuqtalarining tik bo`yicha joylashish holati;

$R_1, R_2$  - quvurning boshlang`ich va oxirgi nuqtalardagi bosim;

$V_1, V_2$  - quvurning boshlang`ish va oxirgi nuqtalardagi suyuqlikning tezligi;

$\rho$  - suyuqlik zichligi;

$g$  - erkin tushish tezlanishi;

$h_{sq}$  - quvurdagi sirpanish qarshiliklari;

$h_{mq}$  - mahalliy qarshiliklar.

Bernulli tenglamasidagi qavs ishidagi yig`indilarni har biri ma`lum bir fizik kattaliklarni bildiradi.

Birinchi yig`indi ( $Z$ ) geometrik tazyiqni, ikkinshi yig`indi ( $R/\rho g$ ) p`ezometrik tazyiqni va ushinshi yig`indi ( $V^2/2g$ ) tezlik tazyiqini bildiradi.

Bu tazyiqlar sirpanish va mahalliy qarshiliklarni engib o`tishga sarf bo`ladi.

Sirpanish qarshiliklarni hisoblash uchun Darsi - Veysbax tenglamasidan foydalilaniladi.

Ya`ni

$$h_{sq} = \lambda \cdot 1/d \cdot V^2 / 2g \text{ yoki } h_{sq} = \lambda \cdot 1/d \cdot \rho x V^2 / 2 \quad (14.3.)$$

bu yerda  $\lambda$  - Reynolds ko`rsatkichiga bog`liq bo`lgan gidravlik qarshilik koeffisienti;  
 $1$  - quvur uzunligi;  
 $d$  - quvurning ichki diametri.

Tenglamadagi gidravlik qarshilik koeffisienti ( $\lambda$ ) laminar oqim uchun

$$\lambda = 64/Re = 64v/V \cdot d, \quad (14.4.)$$

turbulent oqim uchun

$$\lambda = 0,3164/Re^{0,25} \quad (14.5.)$$

ko`rinishdagi tenglamalar orqali aniqlanadi. Bu yerda  $v$  - suyuqlikni kinematik qovushqoqligi.

Gidravlik nishablik (i) sirpanishga sarf bo`ladigan tazyiqni quvur uzunligiga bo`lgan nisbatini bildiradi:

$$i = hsq/1 = \lambda/d \cdot V^2 / 2g, \quad (14.6.)$$

Agar (14.6.) - tenglamaga  $\lambda$  ni (14.5.) va (14.5.) tenglamalardagi qiymatini qo`yib, soddalashtirsak, laminar va turbulent oqimlar uchun gidravlik nishab aniqlanadi:

$$a) \text{laminar oqim uchun } i = a \cdot vQ / d^4, \quad (14.7.)$$

$$b) \text{turbulent oqim uchun } i = v \cdot v^{0,25} \cdot Q^{1,75} / d^{4,75}, \quad (14.8.)$$

Maxalliy qarshiliklarni hisoblashda quvurlarda o`rnatilgan surilmalar, teskari to`sqishlar, burilishlar kabi qismlarni nazarda tutish kerak bo`ladi, Shunki aynan ana Shunday qismlarda mahalliy qarshiliklar hosil bo`ladi.

Mahalliy qarshiliklar:

$$h_{mq} = \xi \cdot V^2 / 2g, \text{ yoki } h_{mq} = \lambda \cdot 1_M / d \cdot V^2 / 2g \quad (14.9.)$$

tenglamalari orqali aniqlanadi.

Bu yerda  $\xi$  - mahalliy qarshiliklarni hisobga oluvchi koeffisient;

$1_M$  - quvurda mahalliy qarshiliklar hosil bo`lgan bo`lagi uzunligi.

### 14.3. Suyuqlik uzatuvchi magistral quvurlardagi nasos stansiyalari

Quvurlardan suyuqlikni haydovchi nasos stansiyalari eng murakkab inshootlar turiga kiradi. Nasos stansiya tarkibiga nasoslar, saqlagich ombori, mexanik ustaxona, elektr energiya podstansiyasi, qozonxona, suv ta`minoti tizimi, kanalizasiya tizimi, har xil turdagи binolar kiradi.

Neft va neft mahsulotlarini quvurlardan haydash uchun porshenli va markazdan qochma nasoslar ishatiladi.

Porshenli nasoslar yuqori foydali ish koeffisientiga ega bo`lib, u yukori qovushqoqlik suyuqliklarni haydganda ham o`zgarmaydi. Bunday nasoslardagi hosil bo`ladigan tazyiq sarfga bog`liq emas. Shu bilan birga porshenli nasoslarning bir nesha kamchiliklari ham mavjud. Bulardan asosiyilari - yuqori bosimli, katta sarfga ega bo`lgan nasoslarning gabarit o`lchamlari juda katta bo`ladi, buning natijasida nasosning massasi ham keskin ochib ketadi.

Bunday katta gabaritdagi va o`ta og`ir bo`lgan nasoslar uchun quriladigan nasos stansiyasi binosi ham juda katta bo`lishi kerak. Shuningdek, porshenli nasoslarda haydalayotgan suyuqlik oqimi bir maromda bo`lmaydi, agar suyuqliklarda mexanik moddalar bo`lsa nasosni ishdan chiqishiga olib keladi.

Markazdan qochma nasoslar porshenli nasoslarga nisbatan bir qancha afzallikkarga ega. Nisbatan kichik qobiqda katta tazyik va sarfli nasoslar yaratish mumkin, yo`naltiruvshi quvur yopiqligida ham ishga tushirib yuborish mumkin, nasos o`qini to`g`ridan-to`g`ri elektryuritkish o`kiga ularash mumkin, ya`ni qo`shimsha uzatkichlarni hojati yo`k. Yo`naltirilayotgan suyuqlik miqdorini sekin-asta o`zgartirib borish mumkinligi, gabaritlari unsha katta bo`lmasligi hamda suyuqlik tarkibida mexanik moddalar bo`lsa ham haydash mumkinligi markazdan qochma nasoslarni keng qo`llanilishiga sabab bo`lmoqda.

Magistral neft quvurlaridagi nasos stansiyalari juda katta murakkab inshoot bo`lganligi tufayli bunday stansiyalarni boshqarish va xizmat ko`rsatish uchun qo`shimsha ustaxona, omborxona, suv va kanalizasiya ta`minoti tizimlari ham qurilishi kerak bo`ladi.

Asosiy inshootlardan hisoblangan omborxona odatda bir nesha (4-6 ta) 5000-10000 m<sup>3</sup> li saqlagichlardan iborat bo`ladi. Shuningdek, nasos stansiyalar yong`indan saqlanish uchun maxsus ochiq hovuzlar va boshqa kerakli asbob-uskunalar bilan ta`minlangan bo`lishi kerak.

#### **14.4. Tabiiy gaz uzatuvchi magistral quvurlardagi kompressor stansiyalari**

Neft va gaz sanoatida kompressorlar juda keng qo`llaniladi. Masalan, gaz sanoatida magistral gaz quvurlarida, konlarda quduqlardan chiqayotgan gazni yig`ish, yer osti gaz omborlariga gaz haydash, uzok masofaga uzatuvchi quvurlarni sinash uchun va boshqa maqsadlarda ishlatilsa, neft sanoatida qatlamga gaz haydash, quduqlarni gaz ko`tarkish usuli bilan ishlatish, quduqlarni ishga tushirish uchun ishlatiladi.

Kompressorlarni xalq xo`jaligida juda keng ishlatilishiga ko`ra porshenli va markazdan qochma kompressorlar tuzilishiga, ishlash tarziga, quvvatiga va boshqa omillariga qarab bir qancha turlari mavjud.

Gazomotokompressorlar, gaz haydagichlar, ventilyatorlar, rotasion va vintli kompressorlar ham mavjud bo`lib, ular gaz haydashni har xil sharoitlarida ishlatiladi. Shuningdek, kompressorlarning ko`chma (ya`ni katta yuk avtomobilarga o`rnatilgani) va muhim (ya`ni bir erga o`rnatilgan) holda ishlatiladigan turlari ham mavjud.

Kompressor stansiyalari qanday maqsadlarda qurilishidan qat`iy nazar quyidagi inshootlardan tashkil topgan bo`ladi:

- 1) mashina zali - bu erda kompressorlar maxsus poydevorlarga o`rnatilgan bo`lib, kerakli o`lchov asboblari, ko`tarish kranlari va boshqa qo`shimsha mexanizmlar bilan butlangan bo`ladi;
- 2) sovutish uchui suv haydaydigan nasos stansiyasi;
- 3) issiq suvni sovutadigan kurilma (gradirnya), issiq suv to`planishi uchun maxsus saqlagich va sovuq suv yig`ib qo`iladigan qovuz;
- 4) gaztozalagish, moyajratkich va boshqa maxsus asbob-uskunalar o`rnatilgan alohida maydoncha;
- 5) elektrtransformator va elektrtaqsimgish o`rnatilgan maxsus maydoncha;
- 6) mexanik ustaxona, omborxona, ishchi xodimlar uchun dam olish, kiyinish va yuvining xonalari kabi qo`shimsha binolar.

Tabiiy gaz uzatuvchi magistral quvurlarida maxsus hisoblashlar orqali gaz haydovchi kompressor stansiyalarini soni va joylashish nuqtalari aniqlanadi. Kompressor stansiyalarini qurishdan asosiy maqsad tabiiy gazni uzoqqa uzatish bo`lib, ular qurilishi bo`yicha murakkab inshoot hisoblanadi. Odatda kompressor stansiyalari orasidagi masofa loyiha ishlari bo`yicha aniqlanadi, lekin gaz magistral quvuri o`tkaziladigan geografik sharoitlari, haydalayotgan

gazning quvur boshlanishi va oxiridagi bosimi, elektr va suv ta'minoti kabi omillarni hisobga olgan holda har 100-150 km. da qurilishi mumkin.

Kompressorlar ham xuddi nasoslar kabi porshenli va markazdan qochma turda ishlab chiqarilmoqda.

Porshenli kompressorlar markazdan qochma kompressorga nisbatan yuqori foydali ish koeffisientiga ega, juda katta bosimlargacha (100MPa. dan yuqori) siqib, ta'mirlash ishlari orasi uzoq bo'lishi, atrof muhit sharoiti o'zgarishi (harorat, bosim) kompressor quvvatiga ta'sir ko`rsatmasligi va boshqa shu kabi omillar bo'yicha afzalliklarga ega.

Marqazdan qochma kompressor konstruktiv tuzilishi bo'yicha juda turli ko'rinishlar ega. Bunday kompressorlrda haydalishi kerak bo'lgan gazning kinetik energiyasi potensial energiyaga aylantirib, yuqori bosim hosil qilinadi.

### **Nazorat savollari:**

1. Neft va gazni va gazni uzoqqa uzatish usullari.
2. Neft va gaz uzatuvchi quvurlarni hisoblash usullari
3. Suyuqlik uzatuvchi magistral quvurlardagi nasos stansiyalari
4. Tabiiy gaz uzatuvchi magistral quvurlardagi kompressor stansiyalari
5. Suv yo`li orqali tashish
6. Temir yo`l orqali tashish
7. Avtomobil bilan tashish
8. Quvurlar orqali uzatish

### **DARSLIKLAR VA O`QUV QO`LLANMALAR RO`YXATI**

1. Lutoshkin G.S. Sbor i podgotovka nefti, gaza i vod k transportu. - M.: Nedra, 1972
2. Akramov B.Sh., Hayitov O.G' Neft va gaz mahsulotlarini yigish va tayyorlash. O'quv qo'llanma. Toshkent, 2003.
3. A.S. Smirnov Sbor i podgotovka neftyanogo gaza na promslax. M.:Nedra, 1971
4. K.S. Kasparyants. Promslovaya podgotovka nefti i gaza.- M.:Nedra, 1973
5. V.A. Yeronin i dr. Podderjanie plastovogo davleniya na neftyanax mestorojdeniyax. M.:Nedra, 1973
6. Z.S. Ibragimov, B.SH. Akramov va b. «Neft va gaz sohalarining russsha-o`zbeksha atamalar lug`ati» Toshkent. Nur. 1992. .

## **Mundarija**

Kirish .....	.....
1-mavzu. Konni ishlash va jihozlash loyixasi.....	
2-mavzu. Neft va gaz konlarida mahsulotni yig`ish tizimlari.....	
3-mavzu. Neft quduqlari mahsuloti miqdori va sifatini o`lchash.....	
4-mavzu. Konlarda qo`llaniladigan quvur uzatkichlar tasnifi. Quvur uzatkichlarning o`tkazish qobiliyatining pasayishi sabablari.....	
5-mavzu. Quvur uzatkichlarning ichki va tashqi korroziysi.....	
6-mavzu. Neftni gamsizlantirish.....	
7-mavzu. Neft emulsiyalari.....	
8-mavzu. Konda neftni tayyorlash.....	
9-mavzu. Kondagi neft saqlagichlari.....	
10-mavzu. Saqlagichlardagi neftni «nafas oluvchi» to`sqishlar orqali yo`qolishini oldini olish.....	
11-mavzu. Tovar neftining sifati va miqdorini o`lchash usullari.....	
12-mavzu. Neft konlarida oqova suvlarni tayyorlash.....	
13-mavzu. Mahsuldor qatlamlarga suvni haydash uchun tayyorlash.....	
14-mavzu. Neft va gazni uzatish.....	
Darsliklar va o`quv qo`llanmalar ro`yxati.....	


**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI**

***QARSHI MUXANDICLIK IQTISODIYOT INSTITUTI***

***NEFT VA GAZ FAKULTETI***

**"NEFT VA GAZ KONLARINI ISHGA TUSHIRISH VA  
ULARDAN FOYDALANISH" KAFEDRASI**

***"Quduq mahsulotlarini yig`ish va uzatish" fanidan amaliy  
mashg`ulotlarni bajarish bo`yicha***



***U S L U B I Y  
K O` R S A T M A***



***QARSHI – 2011 yil***

*Tuzuvshi:*

*“Neft va gaz konlarini ishga tushirish  
va ulardan foydalanish” kafedrasi  
o`qituvshisi Avlayarova N.M.*

*Taqrizshi:*

*“Neft va gaz konlarini ishga tushirish  
va ulardan foydalanish” kafedrasi  
Dotsenti X.Q.Eshqobilov*

*Uslubiy ko`rsatma “Neft va gaz konlarini ishga tushirish va ulardan foydalanish”  
kafedrasi “\_\_\_” 2011 yildagi kafedra yig`ilishida muhokama qilingan ( N\_\_  
bayonnomma ).*

*Uslubiy ko`rsatma QMII Neft va gaz fakulteti uslubiy kengashining “\_\_\_”  
2011 yildagi yig`ilishida muhokama qilingan ( N\_\_ bayonnomma ).*

*“Quduq mahsulotlarini yig`ish va uzatish” fanidan amaliy mashg`ulotlarni bajarish  
uchun uslubiy ko`rsatma neft va gaz konlarini ishga tushirish va ulardan foydalanish  
yo`nalishi soxasida taxsil olayotgan talabalar uchun mo`ljallangan. Amaliy  
mashg`ulotlarda konlarda qo`llaniladigan quvurlar, ajratgichlar va tindirgichlarni  
hisoblash usullari berilgan.*

*Ushbu amaliy mashg`ulotlar Bakalavr V. 55420000-“Neft va gaz konlarini ishga  
tushirish va ulardan foydalanish” ta`limy yo`nalishida taxsil olayotgan talabalar uchun  
mo`ljallangan.*

*Ushbu uslubiy ko`rsatma talabalarning fan bo`yicha olayotgan nazariy bilimlarini  
amaliy mashg`ulotlar bilan boyitish va ularga konlarda neft, gaz va suvlarni yig`isi va  
tayyorlashda qo`llaniladigan quvurlar, ajratgichlar va tindirgichlarni hisoblash usullarini  
o`rganish uchun yo`l – yo`riqlar ko`rsatilgan.*

**Amaliy mashg`ulot №1**  
**Neft va yo`ldosh gazning fizik xossalarini hisoblash**

Neft va gazning asosiy fizik-kimyoviy xossalarini bevosita o`lchash orqali ham aniqlash mumkin. Ulardan ba`zilarini berilgan aralashma tarkibini hisoblash orqali muhandislik hisoblari uchun etarli aniqlikda bilish mumkin.

**Aralashmaning o`rtacha molekulyar massasini hisoblash**

Aralashmaning o`rtacha molekulyar massasini hisoblash tenglamasi keltirib chiqarish uchun quyidagi tenglamalardan foydalanish mumkin:

$$G = G_1 + G_2 + \dots + G_n = \sum_1^n Gi; \quad (1)$$

$$\sum_1^n Vi = 1 \quad (2)$$

a) hajmiy molyar tarkibga ko`ra:

$$M_{yp} = \frac{V_1 M_1 + V_2 M_2 + \dots + V_n M_n}{100}, \quad (3)$$

bu erda  $V_1, V_2, \dots, V_n$ - komponentlarning foizlardagi hajmiy kontsentratsiyasi.

Agar hajmiy kontsentratsiya ulushlarda olinsa, u holda:

$$M_{or} = V_1 M_1 + V_2 M_2 + \dots + V_n M_n; \quad (4)$$

b) berilgan massa tarkibiga ko`ra:

$$M_{or} = \frac{100}{\frac{g_1}{M_1} + \frac{g_2}{M_2} + \dots + \frac{g_n}{M_n}} \quad (5)$$

**Uglevodorodlar (suyuq va gazsimon) aralashmasining o`rtacha zichligini hisoblash**

Uglevodorodlar aralashmasining o`rtacha zichligini aniqlash

$$N = N_1 + N_2 + \dots + N_n = \sum_1^n Ni;$$

$$Vi = 100 \frac{Vi}{V}$$

va zichlik tenglamasidan foydalanib hosil qilinadi:

a) molyar tarkibiga ko`ra

$$Q_{yp} = \frac{\sum_1^n \alpha_i \cdot M_i}{\sum_1^n \frac{\alpha_i \cdot M_i}{Q_i}} \quad (6)$$

b) hajm tarkibiga ko`ra:

$$Q_{yp} = \sum_1^n V_i \cdot Q_i \quad (7)$$

v) massa tarkibiga ko`ra

$$Q_{yp} = \frac{1}{\sum_1^n \frac{g_i}{Q_i}} \quad (8)$$

Gazlar aralashmasining o`rtacha zichligini hisoblash uchun quyidagi tenglamalardan ham foydalanish mumkin.

O`rtacha molekulyar massasiga ko`ra:

$$Q_{\dot{y}p} = \frac{M_{yp}}{22,41} \cdot \frac{\kappa \sigma}{M^3}; \quad (9)$$

hajm tarkibiga ko`ra:

$$Q_{\dot{y}p} = \frac{V_1 M_1 + V_2 M_2 + \dots + V_n M_n}{100 \cdot 22,41}; \quad (10)$$

massaviy tarkibiga ko`ra:

$$Q_{\dot{y}p} = \frac{100}{\left( \frac{g_1}{M_1} + \frac{g_2}{M_2} + \dots + \frac{g_n}{M_n} \right) 22,41} \quad (11)$$

### Amaliy mashg`ulot №2

#### **Bir fazali suyuqlikni uzatuvchi oddiy va murakkab quvurlarni hisoblash.**

Neft uzatuvchi quvurlardagi oqim bir fazali ( faqat neft ), ikki fazali ( neft va gaz yoki neft va suv ) hamda ko`p fazali ( neft, gaz va suv ) bo`lishi mumkin. Har qanday fazali oqimda ikki xil ko`rinishdagi harakat bo`lishi mumkin : laminar va turbulent oqim.

Oqimlarning qaysi holda bo`lishi o`lshov birligisiz Reynolds ko`rsatkishiga bog`liq:

$$Re = \frac{\vartheta \cdot d}{\nu} \quad (2.1.)$$

Bu yerda :  $\vartheta$  - quvurdagi suyuqlikning o`rtacha tezligi;

$d$  - quvurning ichki diametri;

$\nu$  - suyuqlikning kinematik qovushqoqligi.

O`tkazilgan ko`plab tajribalar Shuni ko`rsatdiki,  $Re > 2320$  bo`lsa laminar oqim, agar  $Re < 2800$  bo`lsa turbulent oqim va  $2320 < Re < 2800$  bo`lgan taqdirda har ikki oqim orasida o`tish holatidagi oqim mavjud ekan. Quvurlarda suyuqlik harakat qilganda quvurning uzunligi bo`yicha suyuqlik harakatlanayotgan bosimning asta-sekin pasayib borishi kuzatiladi. Bunday holat, asosan, suyuqlik harakati vaqtida quvur ishidagi g`adir-budirliklarda ishqalanishga sarf bo`ladigan qarshiliklar natijasida hosil bo`ladi. Shuningdek, bosimning pasayishi quvur diametriga, haydalayotgan suyuqliklarning fizik xususiyatlariga va miqdoriga, quvurning ichki devorlari holatiga hamda quvurning boshlang`ish va oxirgi nuqtalarini bir-biridan qanchaga farq ( balandligi bo`yicha ) qilishiga bog`liq. Haydalayotgan bosimning yuqorida ko`rsatib o`tilgan omillarga bog`liqligi quvur tavsifi deb yuritiladi.

Odatda, quvurlarni gidravlik hisoblash quvur diametrini, boshlang`ish haydash bosimini yoki suyuqlik o`tkazuvshanlik qobiliyatini hisoblashdan iborat bo`ladi.

Bu hisoblashlarni bajarish gidravlikaning asosiy qonuni – Bernulli tenglamasi asosida olib boriladi, ya`ni

$$\left( Z_1 + \frac{P_1}{\rho \cdot g} + \frac{\vartheta_1^2}{2g} \right) - \left( Z_2 + \frac{P_2}{\rho \cdot g} + \frac{\vartheta_2^2}{2g} \right) = h_{c,q} + h_{v,q} \quad (2.2.)$$

Bu yerda:  $Z_1, Z_2$  - quvurning boshlang`ish va oxirgi nuqtalarining vertikal bo`yicha joylashish holati;

$P_1, P_2$  - quvurning boshlang`ish va oxirgi nuqtalaridagi bosim;

$\vartheta_1, \vartheta_2$  - quvurlarning boshlang`ish va oxirgi nuqtalarida suyuqlikning tezligi;

- $\rho$  - suyuqlikning zichligi;  
 $g$  - erkin tushish tezlanishi;  
 $h_{sq}$  - quvurdagi sirpanish qarshiliklari;  
 $h_{mq}$  - maxalliy qarshiliklar.

Birinchi yig`indi ( $Z$ ) geometrik tazyiqni, ikkinshi yig`indi  $\left(\frac{P}{\rho \cdot g}\right)$  pezometrik tazyiqni va ushinshi yig`indi  $\left(\frac{g^2}{2g}\right)$  tezlik tazyiqini bildiradi.

Bu tazyiqlar sirpanish va maxalliy qarshiliklarni yengib o`tishga sarf bo`ladi.

Sirpanish qarshiliklarini hisoblash uchun Darsi – Veysbax tenglamasidan foydalilaniladi, ya`ni:

$$h_{sq} = \lambda \frac{\ell}{d} \frac{g^2}{2g} \quad \text{yoki} \quad h_{sq} = \lambda \frac{\ell}{d} \frac{pxg^2}{2} \quad (2.3.)$$

Bu yerda:  $\lambda$  - Reynolds ko`rsatkishiga bog`liq bo`lgan gidravlik qarshilik koeffitsienti;

- $\ell$  - quvur uzunligi;  
 $d$  - quvurning ichki diametri.

Tenglamadagi gidravlik qarshilik koeffitsienti:  
laminar oqim uchun

$$\lambda = \frac{64}{Re} = \frac{64\nu}{g \cdot d} \quad (2.4.)$$

turbulent oqim uchun

$$\lambda = \frac{0,3164}{Re^{0,25}} \quad (2.5.)$$

ko`rinishdagi tenglamalar orqali aniqlanadi.

Bu yerda:  $\nu$  - suyuqlikning kinematik qovushqoqligi.

Gidravlik nishablik ( $i$ ) sirpanishga sarf bo`ladigan tazyiqning quvur uzunligiga bo`lgan nisbatini bildiradi:

$$i = \frac{h_{sq}}{\ell} = \frac{\lambda}{d} \cdot \frac{g^2}{2g} \quad (2.6.)$$

Agar (2.6.) tenglamaga  $\lambda$  ning (2.4.) va (2.5.) tenglamalardagi qiymatini qo`yib, soddalashtirsak, laminar va turbulent oqimlar uchun gidravlik nishablik aniqlanadi:

a) laminar oqim uchun :

$$i = a \frac{\nu \cdot Q}{d^4} \quad (2.7.)$$

b) turbulent oqim uchun:

$$i = b \cdot \frac{\nu^{0,25} \cdot Q^{1,75}}{d^{4,75}} \quad (2.8.)$$

Yuqoridagi tenglamalarni undagi har bir kattalik uchun yeshganimizda quyidagilarga ega bo`lamiz:

a) laminar oqim uchun :

$$Q = \frac{i \cdot D^4}{a \cdot \nu}; \quad D = \sqrt[4]{a \cdot \frac{Q \cdot \nu}{i}} \text{ sm; } \quad (2.9.)$$

b) turbulent oqim uchun:

$$Q = \left( \frac{i \cdot D^{4,75}}{b \cdot v^{0,25}} \right)^{\frac{1}{1,75}} ; \quad D = \left( b \cdot \frac{Q^{1,75} \cdot v^{0,25}}{i} \right)^{\frac{1}{4,75}} \text{ sm} ; \quad (2.10.)$$

Bu yerda  $D$  - sm,  $v$  -  $\text{sm}^2/\text{s}$  va suyuqlik sarfi  $Q$  -  $\text{l/sek}$ ,  $\text{m}^3/\text{soat}$ ,  $\text{m}^3/\text{kun}$  deb qabul qilingan.  $a$  va  $b$  ning qiymatlari quyidagisha:

$Q$	l/sek	$\text{m}^3/\text{soat}$	$\text{m}^3/\text{kun}$
$a$	41,53	11,54	0,480
$b$	43,76	4,65	0,018

Quvurning butun uzunligi bo`ylab sirpanishga sarf bo`ladigan tazyiqni (2.6.) tenglamadan gidravlik nishablik orqali aniqlash mumkin:

$$h_{sq} = i \cdot \ell \quad \text{yoki} \quad i = \frac{h_{sq}}{\ell} = \operatorname{tg} \alpha$$

Quvurdagi umumiy tazyiq 1 m suyuqlik ustuni uchun quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$H = h_s + h_{sq} + \sum (h_b - h_o) \quad (2.11.)$$

Bu yerda  $h_s$  - so`ruvshi quvurdagi tazyiq sarfi m da;

$h_{sq}$  - haydovchi quvurdagi tazyiq sarfi m da;

$h_b$  va  $h_o$  - quvurning boshlang`ish va oxirgi nuqtalari balandligi m da.

Maxalliy qarshiliklarni hisoblashda quvurlarda o`rnatilgan surilmalar, teskari to`sqishlar, burilishlar kabi qismlarni nazarda tutish kerak bo`ladi, Shunki aynan ana Shunday qismlarda maxalliy qarshiliklar hosil bo`ladi.

Maxalliy qarshiliklar uchun tazyiq sarfi quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$h_m = \zeta \cdot \frac{\vartheta^2}{2 \cdot g} \quad (2.12.)$$

Bu yerda  $\vartheta$  - suyuqlikning o`rtacha tezligi;

$\zeta$  - Reynolds soniga bog`liq bo`lgan maxalliy qarshilik koeffitsienti.

Ko`pgina hollarda maxalliy qarshilikni ekvivalent uzunlik orqali aniqlash qulay.

Ekvivalent uzunlik  $\ell_e$  qiymati Darsi – Veysbax formulasi

$$h_{mq} = \lambda \frac{\ell_e}{d} \cdot \frac{\vartheta^2}{2g} \quad (2.13.)$$

va maxalliy qarshiliklar uchun tazyiq sarfi formulasi (2.12.) orqali aniqlanadi.

Bu yerda:  $\lambda$  - maxalliy qarshiliklarni hisobga oluvchi koeffitsient;

$\ell_m$  - maxalliy qarshiliklar hosil bo`lgan quvur bo`lagi uzunligi

(2.12.) va (2.13.) tenglamalarning o`ng qismini tenglashtiramiz :

$$\zeta \cdot \frac{\vartheta^2}{2g} = \lambda \cdot \frac{\ell_e}{d} \cdot \frac{\vartheta^2}{2g}$$

va quyidagi tenglikni hosil qilamiz:

$$\ell_e = \frac{\zeta}{\lambda} \cdot d \quad (2.14.)$$


### Amaliy mashg`ulot №3

#### Gaz – suyuqlik aralashmasini uzatuvchi quvurlarni gidravlik hisoblash.

Kon maydonlarida yotqizilgan ko`pgina neft quvurlari neft bilan to`liq bo`lmagan oqim bilan ishlaydi, ya`ni quvurlarning bir qismi neft bilan birga chiqadigan gaz bilan band bo`ladi.

Vertikal quvurlarda bo`lgani kabi gorizontal quvurlardagi ikki fazali oqimni o`rganish va hisoblash ansha murakkab. Murakkabligi shundaki, gaz-suyuqlik aralashmasi oqimida har xil zichlik va qovushqoqlikdagi fazalarning nisbiy harakati kuzatiladi.

Vertikal va gorizontal quvurlardagi ikki fazali oqimlar juda ko`p tadqiqotlarda o`rganilgan. Asosiy tadqiqotlar oqim strukturasini o`rganishga bag`ishlangan. Quyidagi rasmda gorizontal quvurda havo-suv aralashmasi harakatlanganda oqimning ba`zi bir strukturalari keltirilgan.



**1-rasm. Gorizontal quvurlarda gaz-suyuqlik oqimi strukturalari.**

- 1- yuqorida hosil bo`ladigan gaz pufakshali oqim ko`rinishi;
- 2- gaz tiqini hosil bo`lishi boshlanadigan oqim ko`rinishi;
- 3- yoyilgan oqim;
- 4- to`lqinli oqim;
- 5- tiqinli oqim;
- 6- emulsiyalı oqim;
- 7- plyonkali oqim.

Gaz-suyuqlik aralashmasini transport qiluvshi quvurlarni gidravlik hisoblashda asosiy vazifa bosimlar pasayishini aniqlashdan iborat.

Neft quvurlari uchun asosiy hisob tenglamasining soddalashtirilgan ko`rinishi quyidagisha:

$$\Delta P = \Delta P_s + \Delta P_{aral} \quad (3.1.)$$

Gaz-suyuqlik oqimining gidravlik qarshiligiga asoslangan bosimning pasayishini Darsi-Veysbaxning

$$P = \lambda \cdot \frac{\ell}{d} \cdot \frac{\rho \cdot g^2}{2}$$

tenglamasiga o`xshash quyidagi formula orqali aniqlash mumkin:

$$\Delta P_s = \lambda_{aral} \cdot \frac{\ell}{d} \cdot \frac{\rho_{aral} \cdot g_{aral}^2}{2} \quad (3.2.)$$

Bu yerda  $\lambda_{aral}$  - gidravlik qarshilik koeffitsienti bo`lib, u quyidagisha aniqlanadi:

$$\text{Re}_{aral} < 2300 \text{ bo`lganda} \quad \lambda_{aral} = \frac{64}{\text{Re}_{aral}} ; \quad (3.3.)$$

$$\text{Re}_{aral} > 2300 \text{ bo`lganda} \quad \lambda_{aral} = \frac{1}{(1,8 \lg \text{Re}_{aral} - 1,5)^2} ; \quad (3.4.)$$

Aralashma uchun Reynolds soni quyidagisha aniqlanadi:

$$\text{Re}_{aral} = \frac{\vartheta_{aral} \cdot d}{v_{aral}} \quad (3.5.)$$

Ikki fazali oqimning kinematik qovushqoqligi  $V_{aral}$  Mann formulasi orqali aniqlanadi:

$$\frac{1}{v_{\text{a}d\text{a}e}} = \frac{\beta}{v} + \frac{1-\beta}{v_{suyuq}} \quad (3.6.)$$

Bu yerda  $\beta$  - ikki fazali oqimning hajmiy gaz miqdori, u quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$\beta = \frac{V_g}{V_g + V_{suyuq}} \quad (3.7.)$$

Bu yerda  $V_g$  va  $V_{suyuq}$  - quvurda o`rtacha bosim va haroratda gaz va suyuqlikning hajmiy sarfi.

$\rho_{aral}$  quyidagi formula orqali topiladi:

$$\rho_{aral} = \rho_g \cdot (1 - \varphi) + \varphi \cdot \rho_{suyuq} \quad (3.8.)$$

Bu yerda  $\rho_{suyuq}$  va  $\rho_g$  - quvurdagi o`rtacha bosim va xaroratdagi aralashmadagi suyuqlik va gazning zichligi;

$\varphi$  - haqiqiy gaz miqdori kattaligi, u quyidagisha aniqlanadi :

$$\varphi = \frac{F_g}{F} = \frac{F_g}{F_g + F_{suyuq}} \quad (3.9.)$$

Bu yerda  $F$  - oqimning to`liq ko`ndalang kesim yuzasi;

$F_g$  - oqimning gaz bilan band qismi ko`ndalang kesimi yuzasi.

Ikki fazali oqimdagagi haqiqiy gaz miqdori murakkab funksiya hisoblanib, u suyuqlik va gazning fizikaviy xossalariiga, quvurning diametriga, suyuqlik va gaz sarfiga bog`liq. Uni tajribalar orqali aniqlash mumkin.

Oqimning suyuq faza bilan band qismi quyidagisha aniqlanadi:

$$1 - \varphi = \frac{F_{suyuq}}{F} = \frac{F_{suyuq}}{F_g + F_{suyuq}} \quad (3.10.)$$

( 3.2. ) tenglamadagi gaz-suyuqlik aralashmasining o`rtacha tezligi quyidagi tenglikdan aniqlanadi:

$$\vartheta_{aral} = \frac{V_g + V_{suyuq}}{F} \quad (3.11.)$$

Quvurdagi umumiy bosim pasayishi ( Pa da ) quyidagi tenglamadan topiladi:

$$\Delta P_{aral} = \sum_1^n h_k \cdot g \cdot \rho_k - \sum_1^n h_{ch} \cdot g \cdot \rho_{ch} \quad (3.12.)$$

Bu yerda  $h_k$  va  $h_{ch}$  - quvurning kirish va chiqishdagi ushastkalari balandligi m da;

$\rho_k$  va  $\rho_{ch}$  - quvurning kirish va chiqishdagi ushastkalarida aralashmaning zichligi; ular quyidagisha aniqlanadi:

$$\left. \begin{aligned} \rho_k &= \rho_{suyuq} \cdot (1 - \varphi_k) + \varphi_k \cdot \rho_g; \\ \rho_{ch} &= \rho_{suyuq} \cdot (1 - \varphi_{ch}) + \varphi_{ch} \cdot \rho_g \end{aligned} \right\} \quad (3.13.)$$

Bu yerda kirishdagi oqimda haqiqiy gaz miqdori:

$$\varphi_k = \frac{\beta}{1 + \frac{1}{g_{aral}}}$$

Chiqishdagi oqimda haqiqiy gaz miqdori:

$$\varphi_{ch} = 1 - \frac{1 - \beta}{1 + \frac{1}{g_{aral}}}$$

( 3.1. ) tenglamaga ( 3.2. ) va ( 3.12. ) tengliklarni qo`yib quyidagi tenglikni hosil qilamiz:

$$\Delta P = \lambda_{aral} \cdot \frac{\ell}{d} \cdot \frac{\rho_{aral} \cdot g_{aral}^2}{2} + \sum_1^n h_k \cdot g \cdot \rho_k - \sum_1^n h_{ch} \cdot g \cdot \rho_{ch} \quad (3.14.)$$

Bu tenglama to`lib oqmaydigan neft quvurlarini loyihalashtirishda asosiy hisob tenglamasi hisoblanadi.

#### Amaliy mashg`ulot №4

##### Nonyuton suyuqliklarni uzatuvchi quvurlarni hisoblash.

O`ta qovushqoq va parafinli suyuqliklar nonyuton suyuqliklar deyiladi. Mang`ishloq yarim oroli va Turkmanistonning ba`zi konlaridan o`ta qovushqoq va parafinli neftlar olinadi. Bu neftlarning tarkibida 25% gacha parafin va 55% gacha qatron (smola) bor. Bunday neftlarni quvur uzatkichlardan uzatish bir munsha qiyinshiliklar tug`diradi.

Nonyuton suyuqliklarni uzatish uchun haydovchi agregatlarning quvvatini oshirish, ularni isitish uchun maxsus isitgishlar qurish, neftuzatkichning diametrini oshirish kerak.

Tazyiqning kamayishi  $h$  Darsi – Veysbaxning tenglamasidan topiladi:

$$h = \lambda \cdot \frac{\ell}{d} \cdot \frac{g^2}{2g} \quad (4.1.)$$

Gidravlik qarshilik koeffitsienti  $\lambda$  Reynoldsning umumlashtirilgan ko`rsatkishidan topiladi:

$$\text{Re} < 2000 \text{ bo`lganda} \quad \lambda = \frac{64}{\text{Re}^*}$$

$$2000 < \text{Re} < 20000 \text{ bo`lganda} \quad \lambda = 0,0064 + \frac{0,6}{(\text{Re}^*)^{0,32}}$$

$$\text{Re}^* = \frac{\vartheta \cdot d \cdot \rho}{\eta_p + \frac{\tau_0 \cdot d}{8\vartheta}} \quad (4.2.)$$

Bu yerda  $\vartheta$  - neft oqimining o`rtacha tezligi;  
 $\rho$  - neft zichligi;

$\eta_p$  - parshalangan tuzilmaning qovushqoqligi;

$\tau_0$  - boshlang`ish dinamik qo`zg`alish kushlanishi.

Parafinni isitgishlar yordamida eritishda parafinning hamma kristallari erishi lozim, Shunki erimay qolgan kristallar neft uzatkichlarni “muzlash”ga olib keluvshi yangi kristallarni hosil qiladi.

Parafinli neftlarni haydashni yengillashtirish maqsadida bu neftlar tarkibiga kerosin, solyarka, SFM lar va boshqalar qo`shib haydaladi.

### Amaliy mashg`ulot №5. Gaz quvurlari hisobi

Tabiiy gazlar yo`ldosh gazzlardan farli ravishda asosan yengil karbonsuvchillar, ya`ni metan  $\text{CH}_4$  ( 95 - 97 % ), etan  $\text{C}_2\text{H}_6$  ( 2 - 3 % ) va propan  $\text{C}_3\text{H}_8$  ( 1 - 2 % ) dan tashkil topgan.

Lekin gazkondensat konlari gazi tarkibida, Shuningdek, butanlar  $\text{C}_4\text{H}_{10}$ , pentanlar  $\text{C}_5\text{H}_{12}$ , ba`zan  $\text{C}_{10}$  va undan yuori karbonsuvchillar xam bo`lishi mumkin. Tabiiy gaz va gazkondensat konlari uchun zamonaviy gaz yig`ish tizimlari neft konlarida o`llaniladigan neft, gaz va suvni yig`ish tizimlaridan deyarli far ilmaydi. Faat tabiiy gazni yig`ish tiziminining alohida elementlarini nomlanishi far iladi. Masalan, tabiiy gazni yig`ish tizimida udu ustidan guruxiy gaz yig`ish punktigacha yotizilgan uvurlar shleyflar deb yuritiladi, neft yig`ish tizimida esa – tashlama uvur deb ataladi. Shleyflarning uzunligi xam tashlama uvurlar kabi 600 metrdan 5 km gacha o`zgaradi, faat shleyflarning diametri 200 mm gacha yetadi, eng yuori maxsuldarlikka ega neft udulari uchun 150 mm dan yuori diametrli tashlama uvurlar ishlatilmaydi.

0,294 MPa dan past bosimlarda ishlaydigan gaz uvurlari parametrlarini anilashda Veymaut formulasidan foydalaniladi:

$$V = 220,48 \cdot D^{\frac{8}{3}} \cdot \sqrt{\frac{H}{\rho \cdot T \cdot L}} \quad (5.1.)$$

Bu yerda  $V$  - gaz uvurining o`tkazuvshanlik koeffitsienti  $\text{m}^3/\text{kun}$  ;

$D$  - uvurning ichki diametri, sm da;

$N$  - uvurning boshlang`ish va oxirgi nutalaridagi bosimlar fari mm.suv ustuni da ( mm.suv ustuni = 9,81 Pa ) ( $\Delta P = P_1 - P_2 = H$ ) ;

$\bar{\rho}$  - gazning havoga nisbatan zichligi;

$T$  - absolyut harorat K da (  $T = t + 273,16$  ) ;

$L$  - gaz uvuri uzunligi m da.

0,294 MPa ( 1,47 MPa = 15 kgs/sm<sup>2</sup> gacha ) bosimdan yuori bosimli uvurlar uchun uyidagi formuladan foydalaniladi:

$$V = 0,0343 \cdot D^{\frac{8}{3}} \cdot \sqrt{\frac{P_1^2 - P_2^2}{\rho \cdot T \cdot L \cdot Z}} \quad (5.2.)$$

Bu yerda  $V$  - standart sharoitdagi ( $P = 760 \text{ mm sim.ust.}$  va  $T = 293K$ ) gazning hajmiy sarfi  $\text{mln..m}^3/\text{kun}$  da;

$P_1$  va  $P_2$  - boshlang`ish va oxirgi absolyut bosim Pa da

$$(1 \text{ kgs/sm}^2 = 9,81 \cdot 10^4 \text{ Pa});$$

$T$  - gazning absolyut harorati K da;

$L$  - gaz uvuri uzunligi m da;

$Z$  - gazning siiluvshanlik koeffitsienti.

(5.1.) va (5.2.) formulalardan har qanday parametrni aniqlash mumkin. Gaz yig`ish tizimlarini hisoblashda gaz quvurining alohida ushastkalari uchun gaz sarfi ko`pinsha aniq bo`ladi; bosimlar farqi guruxiy o`lshov qurilmasi ajratkichidagi aniq bosim sharoitidan kelib chiqib belgilanadi; kerakli bosim qilib kompressorga kirish bosimi qabul qilinadi. Bu holatda noma`lum kattalik gaz quvuri diametri hisoblanadi, u quyidagisha aniqlanadi:

$$D^{8/3} = \frac{V}{0,0343} \cdot \sqrt{\frac{\rho \cdot T \cdot Z}{P_1^2 - P_2^2}} \quad (5.3.)$$

Agar gaz yig`ish kollektoriga bir neshta guruxiy o`lshov qurilmalaridan gaz tarmoqlari ulangan bo`lsa, u holda bu kollektorni o`zgaruvshan diametrali quvurdan yotqizish zarur; alohida ushastkalarning diametri ular orqali o`tadigan gaz miqdoriga asosan tanlanadi. Shunday qilib, murakkab gaz quvurlarini hisoblashda ularni alohida ushastkalarga ajratish zarur. Har bir ushastka oddiy gaz quvuri kabi hisoblanadi. Bosim yo`qotilishi esa barcha ushastkalardagi bosimlar yo`qotilishlari yig`indisiga teng bo`ladi. U holda gaz quvurining oxirgi nuqtasidagi bosim quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$P_{oxirgi} = \sqrt{P_{bosh}^2 - \frac{V_1^2 \cdot l_1 + V_2^2 \cdot l_2 + \dots + V_n^2 \cdot l_n}{K^2 \cdot D^{5,33}}} \quad (5.4.)$$

Bu yerda  $P_{oxirgi}$  va  $P_{bosh}$  - oxirgi va boshlang`ish nuqtalardagi bosim  $\text{N/m}^2$  da;

$V_1, V_2, \dots, V_n$  - alohida ushastkalardagi gaz sarfi  $\text{mln.m}^3/\text{kun}$  da;

$l_1, l_2, \dots, l_n$  - alohida ushastkalarning uzunligi m da;

$K = \frac{0,0343}{\sqrt{\rho \cdot T \cdot Z}}$  ga teng bo`lgan koeffitsient;

$n$  - ushastkalar soni.

### Amaliy mashg`ulot №6 Neftni gazdan ajratish jarayonining hisobi

Xom neftni gazdan ajratish jarayonini ikki usulda o`rganish mumkin:

1) olinayotgan mahsulotlarni birnesha quduqlar guruhi bo`yicha o`lchash uskunalaridagi o`lshov natijalariga ko`ra;

2) fazaviy holat tenglamalaridan foydalanib analistik hisoblashlar asosida.

Ushbu ikkala usul ham o`zaro mos afzallik va kamshiliklarga ega. Birinchi usulning afzalligi Shundaki, bunda quduqning haqiqiy ishslash jarayonida uzluksiz o`lchash olib boriladi. Bu usulning kamshiligi esa neft va gaz miqdorining noaniq o`lchanishi, atrof muhit harorati va separatorordagi bosimning o`zgaruvshanligi, separatorordagi fazaviy o`zgarishlarning beqarorligi tufayli gaz omilini har bir o`lchaganda turli qiymatlarning olinishidir.

Nazariy jihatdan qaraganda neftdan gazni ajratishning analistik hisoblash usuli nisbatan asoslidir. Lekin bunday hisoblashlarning aniqligi ko`pinsha qabul qilingan hisoblash usuli va tanlangan muvozanat doimiysiga bog`liq ekan.

Neftdan gazni ajratishni hisoblashda quyidagi tenglamadan foydalaniladi:

$$\sum_{i=1}^n y_i = \sum_{i=1}^n \frac{Z_i}{N + \frac{L}{K_i}} = 1 \quad (6.1.)$$

$$\sum_{i=1}^n X_i = \sum_{i=1}^n \frac{Z_i}{L + K_i \cdot N} = 1 \quad (6.2.)$$

bu erda:  $y_i$  - gaz fazasidagi i-komponentning mol kontsentratsiyasi;

$X_i$  - suyuq fazadagi i-komponentning mol kontsentratsiyasi;

$Z_i$  - boshlang`ish aralashmadagi i-komponentning mol kontsen tratsiyasi;

$K_i$  - ma`lum harorat va bosimda separatorordagi aralashma i-komponentning muvozanat doimiysi;

L va N mos holda suyuq va gaz fazadagi moddaning mol miqdori.

$$Q_{\dot{y}p} = \frac{\sum_{i=1}^n \alpha_i \cdot M_i}{\sum_{i=1}^n \frac{\alpha_i \cdot M_i}{Q_i}} \quad \text{va} \quad Q_{\dot{y}p} = \sum_{i=1}^n V_i \cdot Q_i \quad \text{tenglamalar bo`yicha hisoblash}$$

quyidagisha olib boriladi:

- 1) laboratoriya taddiqoti natijalariga ko`ra qatlardagi aralashmaning tarkibi haqida ma`lumot yoziladi;
- 2) harorat va bosimga ko`ra ajratish sharoiti tanlanadi;
- 3) shizma yoki jadvallardan muvozanat doimiysi kerakli sistemada tanlanadi;
- 4) berilgan bosim va haroratda har bir komponent uchun  $K_i$  kattalik aniqlanadi;
- 5) N yoki L ( $N+L=1$ ) kattalik beriladi va (6.1) yoki (6.2.) tenglamalar sistemasidan biri hal qilinib,

$$\sum_{i=1}^n X_i \quad \text{yoki} \quad \sum_{i=1}^n y_i$$

topiladi;

$$\text{Agar } \sum_{i=1}^n X_i = 1 \quad \text{yoki} \quad \sum_{i=1}^n y_i = 1 \quad \text{bo`lsa, u holda topshiriq to`g`ri eshilgan bo`ladi va}$$

qabul qilingan N va L kattaliklar to`g`ri bo`ladi;

$$\text{Agar } \sum_{i=1}^n X_i \neq 1 \quad \text{yoki} \quad \sum_{i=1}^n y_i \neq 1 \quad \text{bo`lsa, u holda qabul qilingan N va L qiymat}$$

noto`g`ri bo`ladi va bu kattaliklarga boshqa qiymatlar berilib hisoblash takrorlanadi.

Gaz va suyuq fazaning taqsimlanishi, Shuningdek, alohida faza tarkibini soddalashgan hisobi 6.1-jadvalda keltirilgan.

Ajratilgan neft va gazning zichligini hisoblash uchun 1 mol qo`shilgan aralashmadagi suyuqlik massasini aniqlash lozim. Hisoblash namunasi 16-jadvalda keltirilgan. 6.1-shi va 6.2-jadvallarda C<sub>7+</sub> va undan yuqori fraktsiyalarning zichligi 865 kg/m<sup>3</sup> va molekulayr massasi 267 deb qabul qilingan.

t=30<sup>0</sup>S da sanoat neftining o`rtacha zichligi

$$Q = \frac{G}{V} = \frac{0,104}{0,118 \cdot 10^{-3}} = 885 \text{kg/m}^3.$$

gaz omili

$$\Gamma = \frac{(1-0,420)\text{mol} \cdot 24 \cdot 10^{-3} \text{m}^3 / \text{mol}}{118,39 \cdot 10^{-6} \text{m}^3} = 116 \text{nm}^3 / \text{m}^3.$$

6.1-jadval

komponentlar	Qatlam aralashmasi-ning tahili, $Z_i$	$K_i$	1-urinish	2-urinish	3-urinish	Gaz aralashmasining tarkibi $Y_i=X_i/K_i$	Molekulyar massa	Gaz aralashmasining molekulyar massasida gi umumi
			$N=0,6$ $L=0,4$	$N=0,57$ $L=0,43$	$N=0,579$ $L=0,421$			
$C_1$	0,4241	185	0,0038	0,0040	0,0039	0,7302	16	11,71
$C_2$	0,0533	41	0,0021	0,0022	0,0022	0,0904	30	2,72
$C_3$	0,0467	11	0,0068	0,0071	0,0070	0,0756	44	3,33
$C_4$	0,0155	4,4	0,0051	0,0053	0,0052	0,0229	58	1,33
$C_4$	0,0202	3,5	0,0081	0,0083	0,0082	0,0287	57	1,67
$C_5$	0,0092	1,28	0,0079	0,0079	0,0079	0,0101	72	0,73
$C_5$	0,0086	1,0	0,0086	0,0086	0,0086	0,0086	72	0,62
$C_6$	0,0313	0,34	0,0522	0,0502	0,0506	0,0172	86	1,48
$C_7$	0,3911	0,018	0,9516	0,883	0,9064	0,0163	114,2	1,86
Jami	1,00	-	1,0462	0,9819	1,00	1,00	-	25,45

6.2-jadval

Kompo-nentlar	Suyuq aralashma tarkibi, $X_i$	Suyuqlikning aralashma-dagi mol miqdori, $L \cdot X_i$	Suyuq molyar hajmi $\text{sm}^3/\text{mol}$	1mol aralashma-dagi suyuq xajmi $\text{sm}^3$ (3x4)	Mole-kulyar massa	Suyuq massasi (3x6)
$S_1$	0,0039	0,0164	53,4	0,088	16	0,026
$S_2$	0,0022	0,00093	80,6	0,075	30	0,028
$S_3$	0,0070	0,00295	87,0	0,275	44	0,130
$S_4$	0,0052	0,00219	103,4	0,226	58	0,127
$S_4$	0,0082	0,00345	99,6	0,344	58	0,201
$S_5$	0,0079	0,00333	115,7	0,385	72	0,246
$S_5$	0,0086	0,00362	114,6	0,415	72	0,261
$S_6$	0,0506	0,02130	130,0	2,769	86	1,835
$S_7$	0,9064	0,33159	298,3	113,830	267	101,880
Jami		0,420		118,39		104,73

**Amaliy mashg`ulot №7**  
**Gazneft ajratkichlarining mahsuldorligini hisoblash**  
**Gravitatsion (og`irlik) ajratkichlarini hisoblash**

Neft konlarida neftni gazdan ajratish uchun vertikal (tik), qiya va gorizontal (yotiqlig`i) ajratkichlardan foydalaniladi. Gazneft ajratkichlarining o`tkazuvshanlik qobiliyatlarini aniqlash etarlisha murakkab muhandislik masalalarini o`z ishiga oladi. Ayniqsa ajratkichning ishchi kattaliklariga sezilarli ta`sir "neft-gaz" sistemasining dispersligi ekan. Oxirgi navbatda esa noaniq kattaliklar hisoblanadi.

Shularga muvofiq hozirda gravitatsion ajratkichlarning mahsuldorligini hisoblashning faqat taxminiy usullari mayjud.

Gravitatsion gaz va neft ajratkichlarining o'tkazuvchanlik qobiliyati gaz uchun ham, suyuqlik uchun ham bir xil baholanadi.

Vertikal gravitatsion ajratkichning diametri asosan gaz sarfiga bog'liq bo'lib, u quyidagi tenglama yordamida aniqlanadi:

$$F = \frac{Q_r v_r \rho_r}{3,77 \cdot m d^2 \rho_n}, \quad (7.1.)$$

bu erda:  $F$  - ajratkich yuzasi,  $\text{sm}^2$ ;  $m=0,8:0,9$  - ajratkich yuzasidan foydalanish koeffitsienti, tajribalarda aniqlanadi;  $Q_r$  - ajratkichdagi bosim va haroratda gaz sarfi,  $\text{m}^3/\text{kun}$ ;  $V_r$  - gazning ajratkich sharoitidagi kinematik qovushqoqligi,  $\text{sm}^2/\text{s}$ ;  $S_r$  va  $S_n$  - mos ravishda gaz va nefting ajratkich bosim va haroratidagi zichliklari;  $d$  - neft qismining diametri.

Gaz sarfi ( $Q_r$ ) quyidagi tenglamadan foydalanib hisoblanadi:

$$Q_r = (Q'_r - \alpha Q_n P) \frac{P_o T Z}{P T_o} \frac{m^3}{\text{kun}}, \quad (7.2.)$$

bu erda,  $Q_r$  - neft to'liq gазsizlangan sharoitdagi gaz miqdori,  $\text{m}^3/\text{kun}$ ;  $\alpha$  - gazning neftda eruvshanlik koeffitsienti,  $1/\text{MPa}$ ;  $Q_n$  - neft miqdori,  $\text{m}^3/\text{kun}$ ;  $R$  - ajratkichdagi ishchi bosim,  $\text{MPa}$ ;  $R_o$  - atmosfera bosimi,  $\text{MPa}$ ;  $T$  - gazning ajratkichdagi mutlaq harorati,  $^{\circ}\text{K}$ ;  $T_o=293^{\circ}\text{K}$  - mutloq normal harorat;  $Z=0,8:0,9$  - ajratkichdagi gazning  $1,5$  MPadagi siqiluvshanlik koeffitsienti (ajratkichdagi quyi bosimda  $Z$  ko'rsatkishning qiymatiga yaqin bo'ladi).

Ajratkichdagi sharoitga keltirilgan gazning kinematik qovushqoqlik koeffitsienti:

$$v_r = v_o Z \frac{P_o}{P} \frac{T_o + C}{T_o + C} \left( \frac{T}{T_o} \right)^{0,5} \text{sm}^2 / \text{s}, \quad (7.3.)$$

Bu erda:  $V_o$  - normal sharoitda (metan uchun  $V_o=0,145 \text{ sm}^2/\text{s}$ ; gazning kinematik qovushqoqlik koeffitsienti;  $S=210$  - gaz uchun harorat doimiysi).

Ajratkich sharoitiga keltirilgan gaz zichligi quyidagi tenglamadan topiladi:

$$\rho_r = \rho_o \frac{P T_o}{P_o T Z} g / \text{m}^3 \quad (7.4.)$$

Bu erda,  $\rho_o$  - gazning normal sharoitdagi zichligi (metan uchun  $\rho_o=0,001 \text{ g/sm}^3$ ).

Atratkish yuzasidan uning diametri topiladi:


$$D = 0,01 \sqrt{\frac{F}{0,785}} m$$

Ajratkichning taxminiy diametrini gazning o'rtacha tezligini ajratkichdagi bosimga bog'liqligi orqali aniqlash mumkin

$$D = \sqrt{\frac{Q_r P_o T}{V_{op} \cdot 0,785 \cdot 86400 P T}}, \quad (7.5.)$$

bu erda:  $Q_r$  - normal sharoitda gazning kunlik miqdori ( $0,1 \text{ MPa}$  bosim va  $20^{\circ}\text{S}$  haroratda),  $\text{nm}^3$ ;  $V_{op}$  - ajratkichdagi gazning o'rtacha harakat tezligi,  $\text{m/s}$ ;  $R_o$ ,  $R$ ,  $T_o$ ,  $T$  yuqorida ko'rsatilgan kattaliklar.

Gazning ajratkichdagi ruxsat etilgan o'rtacha harakat tezligining bosimga bog'liqligi shizmadan aniqlanishi mumkin (9-rasm).



7.1.-rasm. Gravitatsion va gidrotsiklon ajratkichlarda gazning ruxsat etilgan harakat tezligi grafigi

### Gazneft ajratkichlarning mexanik hisobi

Gazneft ajratkichlarining mexanik hisobi ajratkichning ostki va tsilindrik qismi devorlarining qalinligini aniqlashdan iborat.

#### Ajratkichni mexanik hisoblash namunasi

Diametri  $D=1,4 \text{ m}^2$ , ishchi bosimi  $R=2,4 \text{ MPa}$ , ishchi harorati  $24^{\circ}\text{C}$ , elliptik taglikka ega bo`lgan, X18N10T korroziyabardosh po`latdan tayyorlangan ajratkichning ostki va tsilindrik qismi devorlarining qalinligini hisoblang.

Topshiriqni bajarishda shidamlilikka sinash bosimi ishchi bosimidan 2 marta katta bo`lganligini hisobga olish kerak. Elliptik qopqoq balandligi  $N$  bilan ajratkich diametri  $D$  ning nisbati 0,25 ga teng.

Ichki bosimga ega bo`lgan tsilindrik yuza devorining qalinligi quyidagi tenglamadan hisoblanadi:

$$\delta = \frac{P\varDelta}{2\delta_{\text{don}}\varphi - p} + C, \quad (7.6.)$$

Elliptik qopqoqning qalinligi esa:

$$\delta = \frac{PR}{2\delta_{\text{don}}\varphi - P} \quad (7.7.)$$

Bu erda:  $R$  - ortiqsha ichki bosim;  $D$  - ajratkichning ichki diametri;  $\delta_{\text{rux}}$  - ruxsat etilgan kushlanish;  $\varphi$  - payvandlangan shiziq mustahkamligi;  $s$  - korroziyani kompensatsiyalash uchun hisoblangan qalinlik ka qo'shimsha;  $R$  - taglik sho'qqisidagi qiyalik radiusi.

$$R = \frac{D^2}{2H} \quad (7.8.)$$

bu erda,  $H$ -ajratkich ostining (tagligining) balandligi.

To`plash uchun ruxsat etilgan me'yoriy kushlanish  $\delta_{\text{rux}}=1460*10^5 \text{ Pa}$ . Ishlash sharoiti koeffitsienti odatdagidek 0,9 - 1,0 shegarada qabul qilinadi.

Payvandlangan shiziqning mustahkamlik koeffitsienti  $\varphi = 0,8$  ga teng deb qabul qilingan (payvandlash bir tomonlama avtomatik).

Ajratishning ishslash sharoitiga bog'liq holda korroziyani kompensatsiyalash uchun qo'shimga qalinlikni bizning topshiriqda  $s=2$  mm deb qabul qilamiz.

Ushbu miqdoriy qiymatlarni (44) tenglamaga qo'ysak:

$$\delta = \frac{PD}{2\delta_{don}\varphi - P} + C = \frac{48 \cdot 140}{2 \cdot 1460 \cdot 0,8 - 48} + 0,2 = 2,8 \text{ см}$$

$\frac{H}{D} = 0,25$  da ajratkich ostki devorining qalinligi yuqoridagi tenglamadan aniqlanadi

va u 2,8 sm ga teng

### Amaliy mashg'ulot №8

#### Vertikal gravitatsion separatorlarning o'tkazish qobiliyatini hisoblash.

Neft konlarida neftni gazdan ajratish uchun vertikal (tik), qiya va gorizontal (yotiqliq) ajratgichlardan foydalilanadi. Gaz – neft ajratgichlarining o'tkazuvshanlik qobiliyatlarini aniqlash yetarlisha murakkab muxandiClik masalalarini o'z ishiga oladi. Ayniqsa ajratgichning ichki kattaliklariga «neft - gaz» sistemasining dispersligi sezilarli ta'sir qiladi. Oxirgi navbatda esa noaniq kattaliklar hisoblanadi.

Separatorda ajraladigan fazalar ( neft, gaz ) tarkibini ajratish ( separatsiya ) bosimi va haroratini o'zgartirish orqali boshqarish mumkin.

Birinchi bosqich ajratgichga keladigan umumiy gaz miqdori ( erkin va neftda erigan gaz ) quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$V = G \cdot Q_H \quad (8.1.)$$

Birinchi bosqich ajratgichdan ikkinshi bosqich ajratgichga keladigan neftda erigan gaz miqdori  $V_y$  quyidagiga teng:

$$V_y = \alpha \cdot P_1 \cdot Q_i \quad (8.2.)$$

Birinchi bosqich separatorda ajratilgan erkin gaz miqdori quyidagiga teng bo'ladi:

$$V_1 = V - V_y = (G - \alpha \cdot P_1) \cdot Q_i \quad (8.3.)$$

Ikkинши bosqich separatorda ajratilgan erkin gaz miqdori quyidagiga teng bo'ladi:

$$V_2 = \alpha \cdot (P_1 - P_2) \cdot Q_i \quad (8.4.)$$

$n$  - bosqich separatorda ajratilgan gaz miqdori quyidagiga teng bo'ladi:

$$V_n = \alpha \cdot (P_{n-1} - P_n) \cdot Q_i \quad (8.5.)$$

Yuqoridagi formulalardagi :

$V$  – quduqdan kelayotgan gaz miqdori  $\text{m}^3/\text{kun da}$ ;

$G$  – quduqning gaz omili  $\text{m}^3/\text{m}^3$  da;

$Q_i$  – neft debiti  $\text{m}^3/\text{kun da}$ ;

$V_1; V_2; \dots; V_n = P_1; P_2; \dots; P_n$  bosimlarda ( $1; 2; \dots; n$  – bosqichlarda) ajratilgan gaz miqdori  $\text{m}^3/\text{kun da}$ ;

$\alpha$  – separatordagi bosim va haroratda neftda gazning eruvshanlik koeffitsienti  $\text{m}^2/\text{N}$  da;

Neftda gazning eruvshanlik koeffitsienti  $\alpha = 9,81 \cdot 10^5 \text{ J} \cdot \text{N}^{-1}$  ( $10 \text{ e} \cdot \text{e} \cdot \text{a} / \text{N}^2$ )

bosimdan yuqori bosimlarda bir tekis o'zgaradi.  $\alpha$  – kattaligi  $10 \text{ e} \cdot \text{e} \cdot \text{a} / \text{N}^2$  bosimdan past ajratish bosimlari uchun har xil bo'ladi.

## 1. Gaz uchun vertikal gravitatsion separator hisobi.

Gazdag suv tomchilari va qattiq zarrachalarning separatororda ajralishi ikki xil sabab bilan ro'y beradi: gaz oqimi tezligining birdan pasayishi va gaz va suyuq ( qattiq ) fazalar zichliklarining har xilligi.

Separatsiyaning samaradorligini oshirish uchun separatordagi gaz oqimi harakat tezligi suyuq va qattiq zarralarning cho'kish tezligidan kichik bo'lishi kerak, ya'ni

$$\vartheta_{\bar{a}} < \dot{e}_{\div} \quad (8.6.)$$

Vertikal separatordaga gazning ko'tarilish tezligi ( m/s ) ishchi sharoitlardan kelib chiqqan holda quyidagi ifodadan topiladi:

$$\vartheta_{\bar{a}} = \frac{V \cdot P_o}{F \cdot 86400 \cdot P} \cdot \frac{T}{T_o} \cdot Z = 5,4 \cdot 10^{-3} \cdot \frac{V \cdot T}{D^2 \cdot P} \cdot Z \quad (8.7.)$$

Bu yerda  $V$  – normal sharoitda, ya'ni  $P_o = 1,033 \times 9,81 \cdot 10^4 \text{ Ia}$  va  $T_o = 273K$  da gaz debiti,  $\text{m}^3/\text{kun da}$ ;

$$F = \frac{\pi \cdot D^2}{4} \text{ – vertikal separatorning ichki kesim yuzasi, } \text{m}^2 \text{ da;}$$

$D$  – separatorning ichki diametri, m da;

$P$  – separatordagi bosim, Pa da;

$T$  – separatordagi absolyut harorat, K da;

$Z$  – separatordagi bosimda real gazlarning ideal gazlardan og'ishini hisobga oluvchi koeffitsient.

$$Re = \frac{\dot{e}_{\div} \cdot d}{\nu_{\bar{a}}} = 1 \quad (\text{bu yerda } \dot{e}_{\div} \text{ – gazdag zarralarning cho'kish tezligi m/s da; } d \text{ – zarralarning diametri, } 10^{-4} \text{ m deb qabul qilinadi; } \nu_{\bar{a}} \text{ – separatordagi sharoitda gazning kinematik qovushqoqligi } \text{m}^2/\text{s da})$$

bo'lganda sharsimon suyuqlik tomchisi ( qattiq zarracha ) ning cho'kish tezligini Stoks formulasi orqali aniqlash mumkin:

$$u_z = \frac{d^2 \cdot (\rho_n - \rho_g) \cdot g}{18 \cdot \mu_g} = \frac{d^2 \cdot (\rho_n - \rho_g)}{18 \cdot \nu_g \cdot \rho_g} \quad (8.8.)$$

Bu yerda  $u_z$  – zarrachalarning cho'kish tezligi m/s da;

$d$  – zarrachalarning hisoblangan diametri m da;

$\rho_n$  va  $\rho_g$  – separatordagi sharoitdagi neft va gazning zichligi  $\text{kg/m}^3$  ;

$g$  – erkin tushish tezlanishi  $\text{m/s}^2$  ;

$\mu_g$  – separatordagi sharoitdagi gazning absolyut ( dinamik ) qovushqoqligi  $\text{Pa} \cdot \text{c}(\text{kg/m} \cdot \text{c})$ .

Gaz oqimidagi zarrachalarning pastga cho'kish tezligi quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$\vartheta_p = u_z - \vartheta_g > 0 \quad (8.9.)$$

Amaliyotda hisob uchun

$$u_z = 1,2 \cdot \vartheta_g \quad (8.10.)$$

qabul qilinadi.

(8.10.) formulaga  $\dot{e}_{\div}$  va  $\vartheta_{\bar{a}}$  ning (8.8.) va (8.7.) formulalardagi qiymatini qo'yib quyidagilarga ega bo'lamiz:

$$\frac{d^2 \cdot (\rho_n - \rho_g)}{18 \cdot \nu_g \cdot \rho_g} = 1,2 \cdot 5,4 \cdot 10^{-3} \cdot \frac{V \cdot T}{D^2 \cdot P} \cdot Z \quad (8.11)$$

$$V = 84 \cdot \frac{D^2 \cdot P \cdot d^2 \cdot (\rho_n - \rho_g)}{Z \cdot T \cdot \nu_g \cdot \rho_g} \quad (8.12)$$

(8.12.) formula orqali, agar suyuqlik tomchilari diametri ( ko`p hollarda  $d = 10^{-4}$  i deb qabul qilinadi ) yoki separator diametri  $D$  berilgan bo`lsa, vertikal separatorning o`tkazuvshanlik qobiliyatini aniqlash mumkin.

## 2. Suyuqlik uchun vertikal gravitatsion separator hisobi.

Suyuqlik uchun vertikal gravitatsion separatorlarni hisoblashda suyuqliknинг ko`tarilish tezligi gaz pufakshalari hosil bo`lish tezligidan kichik bo`lishi kerak, ya`ni

$$\vartheta_{suyuq} < \vartheta_g \quad (8.13.)$$

Gaz pufakshalarining hosil bo`lish tezligi  $\vartheta_{\tilde{a}}$  odatda Stoks tenglamasi

$$\dot{e}_g = \frac{d^2 \cdot (\rho_n - \rho_g) \cdot g}{18 \cdot \mu_g} = \frac{d^2 \cdot (\rho_n - \rho_g)}{18 \cdot \nu_g \cdot \rho_g}$$

orqali aniqlanadi, faqat undagi gazning absolyut qovushqoqligi  $\mu_g$  ni suyuqliknинг absolyut qovushqoqligi  $\mu_{suyuq}$  ga almashtirish kerak.

(8.13.) ni hisobga olganimizda suyuqlik uchun vertikal separatorning o`tkazuvshanlik qibiliyatini quyidagisha yozish mumkin:

$$\vartheta_{suyuq} = \frac{Q_n}{86400 \cdot F} < \vartheta_g = \frac{d^2 (\rho_{suyuq} - \rho_g) \cdot g}{18 \cdot \mu_{suyuq}} \quad (8.14.)$$

yoki

$$Q_n = 86400 \cdot F \cdot \frac{d^2 (\rho_{suyuq} - \rho_g) \cdot g}{18 \cdot \mu_{suyuq}} \quad (8.15.)$$

Bu formulaga  $F = \frac{\pi \cdot D^2}{4}$  va erkin tushish tezlanishi  $g$  ni qiymatini qo`yib

quyidagini hosil qilamiz:

$$Q_n = 36964 \cdot \frac{d^2 (\rho_{suyuq} - \rho_g)}{\mu_{suyuq}} \quad (8.16.)$$

Separatorlarning o`tkazuvshanlik qibiliyatini hisoblash jarayonida separatordagi sharoitda gaz zichligi bilan to`qnash kelamiz. Zichlikni aniqlashda quyidagi formuladan foydalanish zarur:

$$\rho = \rho_o \cdot \frac{P}{P_o} \cdot \frac{T}{T_o} \cdot \frac{1}{Z} \quad (8.17.)$$

Bu yerda  $\rho_o$  - normal sharoitdagи gazning zichligi  $\text{kg/m}^3$ ;

$P$  va  $P_o$  - separatordagi va normal sharoitdagи bosim  $\text{Pa}$  da;

$T$  va  $T_o$  - separatordagi absolyut harorat ( $T = 273 + t$ ) va normal absolyut harorat ( $T = 273$ )  $\text{K}$  da;

$Z$  - real gazlarning ideal gazlardan og`ishini hisobga oluvchi koeffitsient.

**Amaliy mashg`ulot №9**  
**Yig`uvchi neft quvurining uzunligi bo`yicha neft harorati**  
**taqsimoti hisobi**

Ko`pincha quduq mahsulotlarini yig`ishni boshqarish kabi topshiriqni echishda yig`ish kollektordagi haroratning o`zgarishini e`tiborga olish kerak.

Agar neft uzatish tarmog`iga  $t_n$  haroratda kirayotgan bo`lsa, u holda quvur ustidan x masofada o`rtacha harorati qo`yidagisha hisoblanadi:

$$t = t_0 + (t_n - t_0)l - \frac{k\pi dx}{Q\rho C_p}, \quad (9.1.)$$

bu erda:  $t_0$  – quvur-o`tkazkishi joylashgan tuproq harorati;  $k$  - neftdan atrof-muhitga issiqlik o`tishining to`liq koeffitsienti;  $d$  - quvurning ichki diametri;  $Q$ ,  $\rho$ ,  $C_p$  - mos holda hajmiy sarf, zichlik va issiqlik sig`imi.

(9.1.) tenglamaga ko`ra, hisoblashning ishlab chiqarishdagi noaniqligi va nisbatan murakkabligi issiqlik o`tishining to`liq koeffitsienti k ni aniqlash bilan bog`liq.

Umumiy holda quvur-o`tkazkishlarida oqimning 2 ta rejimini kuzatish mumkin: boshlang`ish bo`lakda - turbulent, oxirida esa - laminar. Shunga ko`ra turbulent bo`lakning uzunligi  $l_m$  quyidagi tenglamadan aniqlanadi.

$$l_m = \frac{Q\rho C_p}{K_T \pi d} \ln \frac{t_n - t_o}{t_{kp} - t_o}. \quad (9.2.)$$

bu erda:  $t_{kp}$  - turbulent rejimdan laminarga o`tishdagi kritik harorat.

Kritik kattalik  $Re_{kp}=2000$  orqali kritik qovushqoqligini aniqlash mumkin:

$$\nu_{kp} = \frac{4Q}{\pi d Re_{kp}}. \quad (9.3.)$$

So`ng grafikdan  $t_{kp}$  kattalik aniqlanadi. Uni analitik yo`l bilan ham aniqlash mumkin. (9.2.) va (9.3.) tenglamalar asosida quyidagi tenglamaga ega bo`lamiz:

$$t_{kp} = \frac{\beta}{\ln \frac{4Q}{\pi d Re_{kp} C}} \quad (9.4.)$$

Agar qovushqoqlik Filinov tenglamasiga ko`ra hisoblansa

$$v = v_o l^{-4(t-t_o)}, \quad u = \frac{1}{t_2 - t_1} \ln \frac{v_1}{v_2} \quad (9.5.)$$

bu erda  $v_o$ -to haroratdagi neft qovushqoqligi,  $u$ -neft qovushqoqligining harorat koeffitsienti, harorat ushbu tenglamadan hisoblanadi:

$$t_{kp} = t_o + \frac{1}{u} \ln \frac{v_o \pi d Re_{kp}}{4Q} \quad (9.6.)$$

Ko`rinib turibdiki,  $t_{kp} \geq t_n$  bo`lganda - faqat laminar rejim,  $t_{kp} \leq t_k$  da esa - turbulent rejim,  $t_{kp} \leq t_k$  da ham - turbulent rejim.  $t > t_{kp} > t_k$  bo`lganda quvur-o`tkazkishda 2 ta rejim bo`ladi.

Shuningdek, issiqlik o`tkazuvchanlik koeffitsienti laminar ( $K_l$ ) va turbulent ( $K_t$ ) rejimlar uchun turlisha bo`lib, haroratning qiyalik o`zgarishi quvur-o`tkazkishining uzunligi bo`yicha  $l$  ( $t_{kp}$ ) masofada

Issiqliq o`tkazuvchanlik koeffitsienti ichki ( $\alpha_1$ ) va tashqi ( $\alpha_2$ ) issiqlik o`tkazuvchalik koeffitsientlariga, Shuningdek quvur devorining termik qarshiligiga, izolyatsiyasiga va Shu kabilarga bog`liq:

$$\frac{1}{kd} = \frac{1}{\alpha_1 d} + \sum_1^m \frac{1}{2\lambda_i} \ln \frac{d_{hi}}{d_i} + \frac{1}{\lambda_2 d_H} \quad (9.7.)$$

bu erda:  $\alpha_i, d_{hi}$  va  $d_i$  - mos holda issiqlik o`tkazish koeffitsienti, tashqi va ichki quvur diametri, izolyatsiyasi va sh.k.

$\alpha_1$  kattalikni aniqlash uchun turli tajribaviy bog`liqliklar mavjud. Masalan, Mixeevga ko`ra:

$$N_4 = 0,17 R_{en}^{0,33} P_{rn}^{0,43} G_r^{0,m1} \left( \frac{P_{rn}}{P_{rcm}} \right)^{0,25} \quad (9.8.)$$

$R_{en} \leq 2000$  uchun;

$$N_4 = 0,021 R_{en}^{0,8} P_{rn}^{0,43} \left( \frac{P_{rn}}{P_{rcm}} \right)^{0,625} \quad (9.9.)$$

$R \geq 10^4$  uchun;

Bu erda,  $N_4$ ,  $Re$ ,  $P_r$ ,  $G_r$  - mos holda Nusselt, Reynolds, Prandtel va Grasgoff kattaliklari:

$$N_4 = \frac{\alpha_1 d}{\lambda}; \quad Re = \frac{4Q}{\pi d \nu} : P_r = \frac{\nu C_p \rho}{\lambda}; \quad G_r = \frac{d^3 q \beta (t_n - t_{cn})}{D^2} \quad (9.10.)$$

bu erda:  $\beta$  - neftning hajmiy kengayish koeffitsienti;  $q$  - erkin tushish tezlanishi;  $t_p, t_{st}$  - mos holda neft va quvur ichki devorning harorati.

"P" indeksi barcha kattaliklar oqishning o`rtacha haroratiga hisoblanishini bildiradi.

$$t_n = \frac{1}{2} (t_h + t_k), \quad "st" \text{ indeks esa -quvur devorining o`rtacha haroratini bildiradi.}$$

Yig'uvchi quvur o`tkazgichlar ishlaydigan harorat oralig`ida massaviy issiqlik o`tkazish koeffitsienti va zichlik kichik shegarada o`zgaradi:

$$(S_r = 1,68 + 2,09 \text{ kJ/(kg·K)}; = 0,4 + 0,6 \text{ kJ/(m}^3 \cdot \text{K)})$$

Shuning uchun hisoblashlarda ular o`zgarmas deb qabul qilinadi.

Nisbatan aniq hisoblashlarda esa qo`yidagi bog`liqliklardan foydalilanadi:

$$C_p = \frac{4,1868}{\sqrt{\rho_{15}}} (0,403 + 0,810 \cdot 10^{-3} t) K \quad (9.11.)$$

$$\lambda = \frac{0,42}{\rho_{15}} (1 - 0,00054t) \text{ K} / (\text{M.Ч.К}) \quad (9.12.)$$

bu erda:  $\rho_{15} = 10^3 \text{ kg/m}^3$  - mahsulot zichligi,  $t/\text{m}^3$ ;

$t$  - neft harorati,  $^0\text{C}$  da.

O`tish sohalarida  $2 \cdot 10^3 < Re_n < 10^4$  ichki issiqlik o`tkazuvchanlik koeffitsienti  $\alpha$  ni taxminan interpolyatsion aniqlash mumkin.

Yer osti quvurlarida tashqi issiqlik o`tkazish koeffitsientini aniqlashda Forxgeymervlasov nazariy formulasi ko`p qo`llaniladi:

$$\alpha_1 = \frac{2\lambda_{ep}}{d_h L_h \left[ \frac{2H_0}{d_h} + \sqrt{\left( \frac{2H_0}{d_h} \right)^2 - 1} \right]} \quad (9.13.)$$

bu erda:  $N_0$  - quvurning tuproqda yotish chuqurligi (o`qgacha);

$\lambda_{ep}$  - tuproqning issiqlik o`tkazish koeffitsienti.

$$\frac{2H_0}{d_h} > 2 \text{ da } 1\% \text{ anqlikgacha:}$$

$$\alpha_2 \approx \frac{2\lambda_{ep}}{d_H \ln \frac{4H_0}{d_H}} \quad (9.14.)$$

kichik chuqurliklarda ( $\frac{H_0}{d_H} < 3:4$ ) tuproq-havo chegarasidagi issiqlik qarshiligidagi tuzatish kiritish kerak boladi, qorda esa qorli qoplaming issiqlik qarshiliginini aniqlovshi Arons-Kuttakeladze formulasi quyidagi ko`rinishga ega:

$$\alpha_2 \approx \frac{2\lambda_{ep}}{d_p \ln \left[ 4 \left( \frac{Hn}{d_n} + \frac{1}{Nu\beta} \right) \right]} \quad Nu\beta = \frac{\alpha_{edn}}{\lambda\beta}; \quad (9.15.)$$

bu erda:  $\alpha_v$  - tuproq (qor) sirtidan havoga issiqlik berish koeffitsienti (birinchi hisoblashlarda  $\alpha_v = 40:60 \text{ kJ/m}^3 \cdot \text{k}$ ) qabul qilish mumkin;  $N_p$  - quvur o`tkazgishning keltirilgan joylashish chuqurligi bo`lib, u o`z ishiga haqiqiy chuqurlik  $N_0$  va ekvivalent chuqurlik  $N_e$  ni oladi. Adriashenga ko`ra ekvivalent chuqurlik:

$$H_e = H_{ch} \frac{\lambda_{ep}}{\lambda_{CH}} \quad (9.16.)$$

bu erda:  $N_q$  - qor qoplamasi qalinligi;

$\lambda_q$  - qorning issiqlik o`tkazish koeffitsienti.

Yangi yog`gan qorning issiqlik o`tkazish koeffitsienti  $0,378 \text{ kJ/(m.sh.k)}$  ga teng, zishlashgani esa  $-1.6 \text{ kJ/(m}^3 \cdot \text{k})$ . Izolyatsiyalangan er osti quvur o`tkazgishlari uchun turbulent rejimida  $\alpha_1 > \alpha_2$ . Shuning uchun ham taxminiy hisoblashlarda  $\frac{1}{d_1}$  kattalikni hisobga olmaslik mumkin, bu holda  $t_p = t_{st}$  qabul qilinadi.

Issiqlikdan maxsus izolyatsiyalanmagan, namligi kam tuproq bilan o`ralgan quvur - o`tkazkishlari uchun turbulent oqimida taxminan  $\alpha_2 \approx k$  deb qabul qilish kerak.


Taxminiy hisoblashlarda issiqlik o`tkazish koeffitsientini quruq qumlar uchun -  $4,2 \text{ kJ/(m}^2 \cdot \text{sh.k)}$ , nam loylar uchun -  $5,25 \text{ kJ/(m}^3 \cdot \text{k})$  va ho`l qumlar uchun -  $12 \text{ kJ/(m}^2 \cdot \text{sh.k)}$  qabul qilish mumkin.

Keltirilgan usullardan ko`rinib turibdiki, konlarda quvur-o`tkazkishlarning issiqlik hisobining asosiy qiyinchiligi neftdan atrofmuhitga to`liq issiqlik o`tkazish koeffitsientini aniqlash bilan bog`liq ekan. Shularga bog`liq holda konlardagi quvur-o`tkazkishlarning o`rtacha issiqlik o`tkazish koeffitsienti bevosita o`lchanadi, so`ngra bundan hisoblashlarda foydalaniladi.

9.1. - jadvalda Uzen konidagi sharoit uchun issiqlik o`tkazish koeffitsientini aniqlash bo`yicha hisoblash natijalari keltirilgan (V.I.Timonin va T.T.Deshko).

9.1.-jadval

Haydash tarmog`i			Neft massasi	Harorat, °C			Issiqlik O`tkazishni to`liq koef. kj/(m <sup>2</sup> .sh.k)
Quduq raqami	Uzunligi, m	Diametri, m		Gruntda	Quduq ustida	GZUda	
268	875	0,1	7330	4,5	46,5	33,0	4,86
13	1200	0,1	2020	4,5	62,5	20,5	3,48
261	300	0,1	7420	4,5	45,0	38,5	7,40
262	650	0,1	6650	4,5	44,0	34,5	4,80
26	875	0,1	9780	4,5	65,0	40,5	6,06
26	450	0,1	4600	4,5	42,0	32,5	4,96
269	1500	0,1	7080	4,5	45,0	29,0	3,80



9.1. - rasm. Quduq mahsuloti miqdorining neft haroratiga bog`liqligi.

**Amaliy mashg`ulot №10**  
**Neft va emulsiyani isitish uchun kerak bo`lgan issiqlik**  
**miqdorini aniqlash.**

Neft emulsiyasini parchalashning nisbatan keng tarqalgan usullaridan biri bu issiqlikdan foydalanishdir. Emulsiyani isitish bir necha usullarda amalga oshiriladi: olov yoki bug`ni quvur tanasi orqali, bug`nisuyuqlikka uzlusiz kirib borishi orqali.

Nisbatan samarali maxsus deemulsator – isitkishda olov bilan isitish hisoblanadi. Isitish uchun kerak bo`lgan issiqlik miqdori quyidagi tenglamaga ko`ra aniqlanadi:

$$Q = [(1 - n_{suv})G_{suyuq} \cdot C_n \cdot (t_2 - t_1) + n_{suv} \cdot G_{suyuq} \cdot \tilde{N}_{suv} \cdot (t_2 - t_1)]K \quad (10.1.)$$

Bu yerda:  $Q - G_{suyuq}$  massali neft emulsiyasini isitish uchun zarur bo`lgan issiqlik miqdori;

$G_{suyuq}$  – neft emulsiyasining massasi;

$n_{suv}$  – suvning neft emulsiyasidagi ulushi;

$C_n; \tilde{N}_{suv}$  – neft va suvning issiqlik sig`imi;

$t_1; t_2$  – suyuqlikning boshlang`ish va oxirgi xarorati, grad;

$K$  – atrof muhitda issiqlik yo`qotilishini hisobga oluvchi koeffitsient.

Bu tenglama o`ng qismining birinchi bo`lagi suvsiz neftni isitish uchun kerak bo`lgan issiqlik miqdorini, ikkinshi bo`lagi esa yo`ldosh suvni isitish uchun kerak bo`ladigan issiqlik miqdorini ifodalaydi.

Neftning issiqlik sig`imi uning zinchligi va tarkibiga bog`liq. Uni taxminan quyidagi tenglamaga ko`ra aniqlash mumkin:

$$C_n = \frac{4,1865}{\sqrt{\rho_n}} \cdot (0,403 + 0,0008 \cdot t_{o^r}), \quad \left[ \frac{kj}{(kg \cdot \hat{E})} \right] \quad (10.2.)$$

Bu yerda :  $\rho_n$  -  $15^0C$  dagi neft zichligi;

$t_{o^r}$  - emulsiyani qizdirishning o`rtacha harorati:

$$t_{o^r} = \frac{t_1 + t_2}{2}$$

$0^0S$  dan  $40^0S$  gacha oraliqda suvning issiqlik sig`imini quyidagi tenglamaga ko`ra aniqlash mumkin:

$$C_{suv} = [1,0066 - 0,0005696 \cdot t_s + 0,8742 \cdot 10^{-5} \cdot t_{o^r}^2] \cdot 4,1865 \quad (10.3.)$$

Qatlam suvlarining issiqlik sig`imi uning tarkibiga bog`liq. Uni hisoblashlarda

$$C_v = 4,212 \cdot \frac{kj}{{}^0\tilde{N} \cdot kg \cdot kall}$$

ga teng deb qabul qilish mumkin.

Neftni deemulsatsiyalash harorati oralig`ida suvning issiqlik sig`imi neftning issiqlik sig`imidan ikki marta katta. Shuning uchun issiqliknii tejash maqsadida emulsiyani qizdirishdan avval undan erkin suv iloji borisha yo`qotiladi. Bunda neftni isitadigan issiqlikdan ko`proq foydalaniladi.

Emulsiyani isitish uchun zarur bo`lgan umumiy isiqlik miqdorini bilishda qizdirgich – deemulsatorning sifilgan yo`ldosh gaz hajmini hisoblash qiyin emas.

### Amaliy mashg`ulot №11. Blokli deemulsatorning issiqlik hisobi

Suvlanganligi 20% bo`lgan neft emulsiyasi 3000 t/kun surʼat bilan blokli deemulsatorda isitildi. Yoqilg`i sifatida issiqlik qobiliyati 41865 kJ/kg bo`lgan yo`ldosh gazdan foydalanildi. Emulsiyaning boshlang`ish harorati  $15^0C$  ni, maqbul harorati esa  $70^0C$  ni tashkil etdi. Neftning  $15^0C$  dagi zichligi  $850 \text{ kg/m}^3$ .

Quyidagilarni hisoblash kerak:

- 1) issiqlik sarfi;
- 2) neftni deemulsatsiyalanish haroratigacha isitish uchun kerak bo`ladigan gaz sarfi;
- 3) kerakli isitish sirti.

**Yeshish:** *Emulsiyani*  $t_1$  dan  $t_2$  gacha isitish uchun kerak bo`ladigan issiqlik sarfi quyidagi tenglamadan aniqlaniladi:

$$Q = [G_{\mu c}(1 - h_e)C_h(t_2 - t_1) + h_e G_{\mu c} C_e(t_2 - t_1)] \cdot K \quad (11.1.)$$

bu tenglama xuddi (11.1.) tenglamadek ifodalangan.

O`rtacha xaroratni aniqlaymiz:  $t_{o^r} = \frac{t_1 + t_2}{2} = \frac{10 + 70}{2} = 40^0C$

Neftning issiqlik sig`imi:

$$C_h = \frac{4,1865}{\sqrt{\rho_h}} (0,403 + 0,00081 t_{yp}) = \frac{4,1865}{\sqrt{0,850}} (0,403 + 0,00081 \cdot 40) = 1,980 \text{ kJ/(kg} \cdot \text{K)}$$

Suvning issiqlik sig`imi:

$$C_e = [1,0066 - 0,0005696 t_{yp} + 0,874 \cdot 10^{-5} t_{yp}^2] \cdot 4,1865 = [1,0066 - 0,0005696 \cdot 40 + 0,874 \cdot 10^{-5} \cdot 40^2]$$

$4,1865 = 4,20 \text{ kJ/(kg} \cdot \text{K)}$  "K"ni 1,15 ga teng deb qabul qilamiz.

Issiqlik sarfi:

$$Q = [G_j(1-n_v)S_n(t_2-t_1) + n_v G_j S_v(t_2-t_1)] \cdot K = [3000 \cdot 10^{-3} \cdot 0,8 \cdot 1,980(70-10) + 0,2 \cdot 3000 \cdot 10^3 \cdot 4,20 \\ (70-10)] \cdot 1,15 = 50,2 \cdot 10^7 \text{ kJ.}$$

Issiqlik quvvati:

$$q = \frac{Q}{24 * 3600} = \frac{50,2 * 10^7}{24 * 3600} = 5560 \text{ kVt.}$$

Issiqlik sarfini aniqlaymiz:

$$G = \frac{Q}{C} = \frac{5560}{41865} = 0,133 \text{ kg/s} \quad (11.2.)$$

Tenglamada issiqlik sarfi kJ/s da, C esa kJ/kg berilganda.

Isitish sirti quyidagi formulaga ko`ra aniqlanadi

$$F = \frac{Q}{q_n} \quad (11.3.)$$

$q_n$  - isitish qurilmasi qurvurining o`rtacha issiqlik kushlanishi. Neftni bug`lanishsiz isitishda po`lat qurvurning ruxsat etilgan issiqlik kushlanishi  $q_n = 167460 \text{ kkal}/(\text{m}^2 \cdot \text{K})$ .

Demak, bizning hol uchun isitish sirti

$$F = \frac{Q}{q_n} = \frac{5560 * 3600}{167460} = 112 \text{ m}^2 \text{ ga teng.}$$

### **Amaliy mashg`ulot №12 Neftning bug`lanishi tufayli uglevodorod yo`qotilishini Hisoblash**

Neft va gaz uglevodorodlarining uyumdan iste`molshigacha bo`lgan yo`ldagi barcha yo`qotishlarni ikki toifaga ajratish mumkin: yer bag`ridagi yo`qotilish va yer ustidagi yo`qotilish.

Har bir holatdagi yo`qotish alohida mustaqil hal qilinadi. Hozirda qayta ishslash va realizatsiya qilishdagi yo`qotishlar to`liq o`rganilgan. Neft konlari va yer bag`ri uchun bu masalalar quyisi darajada hal etilgan.

Neft konlarida uglevodorodlarning yo`qotilishiga ularni qazib olishda qudukdan to neftgaz va suvni yig`ish hamda tayyorlash markazi shaxobshalarigacha harakatlanishiga, Shuningdek, qurilmalardagi yo`qotishlar kiradi. Bu yo`qotishlarni ikki guruhga ajratish mumkin: uglevodorodlarning quduqdan gazni yig`ish tarmog`igacha va uyumdan chiqishdagi yo`qotilishi.

Birinchi guruh yo`qotishlar manbaiga neft va gazokondensatning bug`lanishi, konda neftni qayta ishslashdagi texnologik chiqindilar kiradi.

Ikkinci guruh yo`qotishlar manbaiga esa ishlatish quduqlarini sinov-qidiruv, o`zlashtirish va tadqiqotlash, quduqdagi baxtsizliklik va ular asoratlari, konstruktsiyalarining germetik emaCligi kiradi.

Bu yerda, biz, uglevodorodlarning faqat bug`lanishdagi yo`qotilishini ko`rib chiqamiz.

Neftning bug`lanishi deganda unda erigan yengil uglevodorod molekulalarini gaz holatiga o`tishi natijasida ajralish jarayoni tushuniladi.

Kinematik nazariyaga muvofiq molekulalarning sirtki qatlidanajralishi va gaz fazasiga o`tishi uchun quyidagi shart bajarilishi kerak, ya`ni:

$$\frac{mV}{2} \geq E_k,$$

bu yerda,  $E_k$  - molekulalarning sirtki qatlidanajralish energiyasi;

$m$  - molekulyar massasi;

$V$  - komponent molekulalarining neft sirtidagi normal tezligi.

Neft sirtidagi qatlamdan molekulalarning ajratilishi neftning qovushqoqligiga va neftgaz shegarasidagi sirt tarangligiga bog`liq.

Neft bug`lanishidagi barcha jarayonlar quyidagilardan iborat: a) neftdan uglevorod molekulalarining ajralishi; b) yengil molekulalarning gaz fazasida tarqalishi (diffuziya, konvektsiya); v) bir qism yengil molekulalarning neftda qayta harakati (sirtga urilish natijasidagi kondensatsiya).

Neft harorati qancha yuqori bo`lsa, molekulalarning o`rtacha harakat tezligi Shunchalik yuqori bo`ladi. Bundan, tabiiyki, haroratning oshirilishi neftning bug`lanishini oshirar ekan.

Kondagi rezervuarlarda neftning bug`lanish jarayoni bilan bir vaqtida gazning ajralishi (separatsiya) jarayoni ham boradi. Bug`lanish va ajralish jarayonining qo`shilishi kondagi rezervuarlarning ishidagi alohida ishlashini talab qiladi.

Neftning bug`lanishi tufayli uni yig`ish va qayta ishlashda neftning hammasi emas, balki unda kam miqdorda yig`ilgan dastlabki qismi (metan, etan, propan) bug`lanadi. Uning yig`ilishi qatlampagi neftda 7 dan 22% gacha va ba`zan yuqori, atmosfera bosimiga yaqin bosimda gaz ajratib olingan neftlarda esa – 5 - 9% ga teng.

### **Neftni rezervuarlarda saqlashda uglevodorodning yo`qotilishini hisoblash**

Xomashyo rezervuarining ishchi tsikli bir necha holattan iborat: a) rezervuarga neftni ortish (quyish); b) neftning rezervuarda saqlanishi; v) rezervuarni bo`shtish (to`kish); g) yukni kutish.

#### **Rezervuarga ortishda uglevodorodning yo`qotilishini aniqlash**

Rezervuarga ortishda «nafas olish» klapanidan chiqadigan uglevodorodlar miqdori rezervuar hajmi  $V_r$  ga, ortish koefitsienti  $K$  ga, neft bug`i sirtidagi harorat sharoitida to`yingan bosimi  $\bar{P}_3$  ga, to`siqining mutlaq sozlash bosimi  $\bar{P}_{\mathcal{D}}$  ga, vakuum to`siqi bosimi  $\bar{P}_e$  ga va boshqa omillarga bog`liq. Uni quyidagi tenglamadan aniqlash mumkin:

$$V_{\mathcal{D}} = 0,0043 \bar{P}_S \frac{\bar{P}_B - \bar{P}_S}{\bar{P}_{\mathcal{D}} - \bar{P}_S} \cdot K \cdot V_p \text{ m}^3 \text{ suyuqlik.} \quad (12.1.)$$

### **Amaliy mashg`ulot №13 Tindirgichlarni hisoblash.**

Emulsiyani muvozanat holatida yoki laminar oqimda neft va suvgaga ajratuvshi apparat tindirgich deyiladi.

Tindirgichga keluvshi emulsiyaning parshalanishi bu apparatga yetgunga qadar, ya`ni yig`uvchi kollektorlarda yoki maxsus turbulizatorlarda tinimsiz aralashish natijasida sodir bo`ladi.

Neft va gaz qazib oluvchi korxonalarda ko`pinsha gorizontal tindirgichlar qo`llaniladi. Aralashmani tindirish natijasida ikki qavat tindirilgan fazalar hosil bo`ladi. Hali tindirilib ulgirilmagan arlashma esa ularning orasida joylashadi.

Tindirgichlarni hisoblashda avvalambor suyuqlik qavatining balandligi  $h$  va zarrachalar cho`kishi uchun ketadigan vaqtini  $\tau$  bilish lozim:

$$W_e = \frac{h}{\tau}, \quad \frac{m}{sek} \quad (13.1.)$$

Agar tindirgichning diametri  $D$ , uzunligi  $L$ , cho`kish vaqtı  $\tau$  ma'lum bo`lsa, tindirgichlarning zarur soni quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$n = \frac{\tau \cdot Q}{Q_0} = \frac{4 \cdot \tau \cdot Q}{\pi \cdot D^2 L}, \quad (13.2.)$$

Bu yerda:  $Q_0$  - bitta tindirgichning hajmi,  $m^3$

Hozirgi vaqtida neft qazib roushni korxonalarda tindirgichlarning har xil geometrik shaklini ushratish mumkin: gorizontal, vertikal va sferik. Bu apparatlarning samaradorligi quyidagilarga bog`liq:

1. geometrik shakliga;
2. fazoviy joylashishiga (gorizontal, vertikal);
3. isitilgan mahsulotni kiritish usuliga;
4. isitilgan mahsulotni tindirgichga uzatishdan oldin tayyorlash.

### Amaliy mashg`ulot №14 Issiqlik almashish uskunalarining hisobi

Issiqlik almashishi ush turga bo`linadi: issiqlik o`tkazish, konvektsiya va radiatsiya (nurlanish).

Issiqlik o`tkazuvchanlikda issiqlik zarrachalarning tebranishi harakati orqali bir-biriga nisbatan aralashishi hisobiga bo`ladi. Bu aralashish alohida zarralar tizimining haroratlar farqi hisobiga yoki bo`lmasa, suyuqlik yoki gaz massasining kichik aralashashini hisobiga bo`lishi mumkin. Konvektsiya, odatda, issiqlik o`tkazish bilan birga sodir bo`ladi.

Nurlanish orqali issiqlik o`tishida energiya bir jismdan boshqasiga elektrmagnit to`lqin ko`rinishida o`tadi.

Umumiy holda issiqlik almashish murakkab jarayon hisoblanadi: odatda issiqlik almashishining bir turi boshqasini himoya kiladi.

Issiqlik almashish jarayoni o`z vaqtida barqaror (turg`un) va beqaror (noturg`un) bo`lishi mumkin.

#### O`xshashlik omili

Issiqlik almashish jarayonini tushuntirish uchun ko`pinsha omilli tenglamalardan foydalaniladi. Bu ma'lum holatni tavsiflovshi kattalik lardan tashkil topgan o`lchamsiz majmualardir. Omillarni mos holda fanning ushbu yo`nalishi bilan Shug`ullanuvshi olimlar nomi bilan nomlash qabul qilingan va ularning familyasi bosh harflari bilan ifodalangan, masalan Re (Reynolds), Nu (Nuselt) va sh.k.

Quyida gidrodinamik va issiqlik hisoblashlarda ko`p qo'llaniladigan omillar keltirilgan:

$$\text{Prandtl} \quad \text{Pr} = \frac{c \nu \rho}{\lambda} = \frac{c M}{\lambda}; \quad (14.1)$$

$$\text{Nusselt} \quad Nu = \frac{dl}{\lambda}; \quad (14.2.)$$

$$\text{Frud} \quad fr = \frac{ql}{W^2}; \quad (14.3.)$$

$$\text{Galiley} \quad Ga = Fr * Re^2 = \frac{gl^2}{\nu^2} \quad (14.4.)$$

$$\text{Grasgof} \quad Gr = Ga \beta \Delta t = \frac{gl^3 \beta \Delta t}{\nu^2} \quad (14.5.)$$

Eyler

$$Eu = \frac{\Delta P}{\rho W^2} = \frac{\Delta P * q}{\gamma * W^2} \quad (14.6.)$$

Peki

$$Pe = Re^* Pr = \frac{Wlc\rho}{\lambda} \quad (14.7.)$$

Bu yerda:  $W$  - oqish tezligi, m/s;  $l$  - aniqlovshi geometrik o`lchash, m;  $\rho$  - zichlik, kg/m<sup>3</sup>;  $\gamma$  - solishtirma og`irlik, N/m<sup>3</sup>;  $q$  - erkin tushish tezligi, m/s<sup>2</sup>;  $\mu$  - dinamik qovushqoqlik, Pa(s);  $\nu = \frac{m}{\rho} = \frac{mq}{\gamma}$  - kinematik qovushqoqlik, m<sup>2</sup>/s;  $\Delta R$  - bosim tushishi, tazyiq yo`qotilishi, Pa;  $\beta$  - hajmiy kengayish koeffitsienti, grad<sup>-1</sup>;  $s$  - solishtirma issiqlik sig`imi, kj/(kg·°C);  $\lambda$  - issiqlik o`tkazish koeffitsienti, kj/(m·s·°C);  $d$  - issiqlik berish koeffitsienti, kj/(m<sup>2</sup>·s·°C).


### Yonma-yon oqimlarning aralashish sxemasi

Uzluksiz issiqlik almashish jarayonida yonma-yon oqimlar orasidagi jarayonning jadalligi qator omillarga, Shuningdek, ushbu oqimlarning birga aralashish sxemasiga bog`liq.

Yonma-yon oqimlarning aralashishib asosiy sxemasi to`g`ri tok va teskari tokdan iborat.

Ba`zan esa boshqa sxemalar qo`llaniladi: kesiShuvshi tok oqimlari bir-biriga perpendikulyar holatda harakatlanadi va aralash toklarning turli ko`rinishlari mavjud. Bu sxemalar kon sharoitida ko`llanilmagan.

Bir xil boshlang`ish va oxirgi haroratlarda to`g`ri tok, odatdagidek, nisbatan yuqori o`rtagacha haroratlar farqini ta`minlaydi, buning natijasida zarur bo`lgan issiqlik o`tkazish sirti kamayadi. Shundan kelib chiqqan xolda konlarda qo`llaniladigan ko`plab issiqlik almashish qurilmalarida teskari tokdan foydalaniлади.



14.1.-rasm. To`g`ri oqimli (a) va teskari oqimli (b) issiqlik almashuvchi sxemasi

### Amaliy mashg`ulot №15. Issiqlik almashish qurilmalarini hisoblash usuli

Issiqlik almashish qurilmalarining texnologik hisobi qo`yidagi tartibda olib boriladi.

Issiqlik almashish sirti, suvlangan va suvlanmagan neft issiqligini almashish uchun qurilmalar sonini aniqlash talab etilsin. Boshlang`ish ma`lumotlar: 35°C dagi suvlangan neft miqdori - 10000 t/kun, uskunaga keluvshi 110°C dagi suvsiz neft miqdori - 7000 t/kun. Sanoat neftining harorati - 40°C.

Biz ko`rayotgan masalada chiqish qismini suvsiz neft, kirish qismini esa - suvlangan neft belgilaydi.

### **Jarayon issiqlik balansining tuzilishi**

Uning kirim va chiqimiga issiqlik almashish uchun kelgan oqim issiqligi va xuddi Shu oqimning issiqlik almashgandan keyingi issiqligi kiradi.

Issiqlik balansi odatda tayyorlangan neft bilan issiqlik almashish uchun neftni qizdirish lozim bo`lgan haroratni aniqlash tenglamasi ko`rinishida tuziladi:

$$G_1 S_1(t_2-t_3) = G_2 S_2(t_x-t_1) + G_3 S_3(t_x-t_1) \quad (15.1.)$$

Bu yerda:  $G_1$   $G_2$  - mos holda tayyorlangan issiqlik va suvlangan neft miqdori, kg/kun;  $G_3$  - neft bilan birga olinadigan sovuq suv miqdori, kg/kun;  $S_1 S_2 S_3$  - issiqlik neft, sovuq neft va sovuq neftning qatlama suvi bilan aralashmasining solishtirma issiqlik o`tkazuvshanligi kj/(kg·k);  $t_1$  - sovuq neft va suvning harorati,  $^{\circ}\text{C}$ ;  $t_2$  - issiqlik neft harorati,  $^{\circ}\text{C}$ ;  $t_x$  - neft va suvning issiqlik neft bilan issiqlik almashganidan keyingi qidiri neft va suv ishi lozim bo`lgan harorati,  $^{\circ}\text{C}$ ;  $t_3$  - issiqlik neftning sovgan harorati,  $^{\circ}\text{C}$ ;  $t_3$  - odatda neft tavsifi va boshqa omillarga bog`liq holda  $30^{\circ}\text{C}$  dan  $45^{\circ}\text{C}$  gacha o`zgaradi.

Ifodalarni o`rniga qo`ysak:

$$5440000 \cdot 2,09(t_x-35) + 1175000 \cdot 4,184(t_x-35) = 5440000 \cdot 2,09(108-40) \quad (15.2.)$$

Zichligi  $800 \text{ kg/m}^3$  bo`lgan neftning issiqlik sig`imini  $K_{\text{reg}}$  tenglamasiga ko`ra aniqlasak:

$$S_1 = \frac{1,686}{\sqrt{\rho_{20}}} (1 + 0.002t) = \frac{1,686}{\sqrt{\rho_{20}}} (1 + 0.002 \cdot 75) = 2,09 \kappa K / (\kappa \sigma \cdot \kappa)$$

Bu yerda:  $t$  - issiqlik oqimning o`rtacha harorati.

Suvning issiqlik sig`imi  $4,184 \text{ kJ/(kg} \cdot \text{k)}$  ga teng.

$$(15.2.) \text{ tenglamani } t_x \text{ ga nisbatan yeshsak } t_x = 77^{\circ}\text{S}$$

Haroratning tarqalish sxemasini tuzamiz:

$110^{\circ}\text{S}$  suvsiz neft  $40^{\circ}\text{C}$

$77^{\circ}\text{S}$  suvlangan neft  $35^{\circ}\text{C}$

$35^{\circ}\text{C}$  farqi  $5^{\circ}\text{C}$

Haroratning o`rtacha logarifmik farqini hisoblaymiz:

$$\Delta t'_{yp} = \frac{\Delta t_1 - \Delta t_2}{2,3 \lg \frac{\Delta t_1}{\Delta t_2}}, \quad \Delta t'_{yp} = \frac{35 - 5}{2,3 \lg \frac{35}{5}} = 15,5^{\circ}\text{C}.$$

Haroratning o`rtacha logarifmik farqini aniqlaganda to`g`ri oqimni to`ldiruvshi tuzatma kiritiladi, ya`ni:

$$\Delta t_{yp} = \Delta t'_{yp} \cdot K_r \quad (15.3.)$$

qoplamlari issiqlik almashish uskunasi uchun  $K$  0,7dan 0,99 gacha o`zgaradi. Bizning hisoblar uchun  $K$  ni 0,75 ga teng deb qabul qilamiz:

$$\Delta t_{yp} = 15,5 \cdot 0,75 = 11,7^{\circ}\text{C}.$$

Issiqlik almashish jarayonida suvsiz neftning o`rtacha harorati:

$$\Delta t_{yp.h} = \frac{t_2 - t_3}{2,3 \lg \frac{t_2}{t_3}} = \frac{110 - 40}{2,3 \lg \frac{110}{40}} = 69^{\circ}\text{C}.$$

Issiqlik almashish jarayonida suvlangan neftning o`rtacha harorati:

$$\Delta t_{yp.ch} = \frac{t_x - t_1}{2,3 \lg \frac{t_x}{t_1}} = \frac{77 - 35}{2,3 \lg \frac{77}{35}} = 53^{\circ}\text{C}.$$

**110°C dan 40°C ga quritilganda suvsiz neftdan ajraluvshi issiqlik miqdori**  
 $Q = G_1 C_1 (t_2 - t_1) = 700000 \cdot 2,09 \cdot (110 - 40) = 1025,08 \text{млн} \mathcal{K}/\text{кун}$

**Oqimning o`rtacha hajmini aniqlaymiz:**

a) suvsiz neft

$$V_h = \frac{G_1}{\rho_h} = \frac{7000}{0,835} = 8430 \text{м}^3 / \text{кун};$$

b) suvlangan neft

$$V_{ch} = \frac{G_2}{\rho_{ch}} = \frac{7000}{0,85} = 8240 \text{м}^3 / \text{кун}$$

Suvsiz va suvlangan neft zichliklari uning tarkibi va haroratiga bog`liq.

Bu issiqlik miqdori issiq neftdan suvlangan neftga beriladi. Zarur bo`lgan issiqlik almashish yuzasi quyidagi tenglamaga qo`ra aniqlanadi:

$$F = \frac{Q}{K \cdot \Delta t}, \quad (15.4.)$$

K - ifloslanishni hisobga olgan holda issiqlik o`tkazishning umumiyl koeffitsienti:

$$K = \frac{1}{\frac{1}{d_1} + \frac{\delta}{\lambda} + \frac{1}{d_2} + f_1}, \quad (15.5.)$$

bu yerda:  $d_1$  - issiq oqimdan metallga issiqlik berish koeffitsienti;

$d_2$  - metalldan sovuq oqimga issiqlik berish koeffitsienti;

$\lambda$  - issiqlik o`tkazuvshanlik koeffitsienti, kj/m.sh.k;

$\delta$  - devor qalinligi, k;

$f_1$  - issiqlik almashish uskunasining ifloslanish koeffitsienti, tajriba ma`lumotlariga ko`ra tanlanadi;

$d_1$  va  $d_2$  ni baholash uchun ba`zi sarf kattaliklarini baholash kerak.

**Issiqlik berish koeffitsienti  $d_1$  ni aniqlaymiz:**

a) qurilma sifatida  $450 \text{ м}^2$  sirtga ega bo`lgan qoplamlali issiqlik almashish uskunasini qabul qilamiz. Uskuna nayshasi qo`yidagi tasnifga ega  $\frac{d_h}{d_{eh}} = \frac{32}{26} \text{мм}$ . Naylar soni 760 dona;

b) uskuna nayga ko`ra to`rt bosqichli, naylararo muhitga ko`ra esa ikki bosqichli. Naydan suvlangan neft, naylararo muhitdan esa suvsiz neft o`tadi;

v) naylararo muhitning kesim yuzasi uskunaning tuzilishiga bog`liq. Bizning holat uchun  $F_{mtr}=0,09 \text{ м}^2$ ;

g) suvsiz neftning harakat tezligi:

$$V_h = \frac{V}{f_{amp}} = \frac{8430}{3600 * 24 * 0,09} = 1,08 \text{м} / \text{с};$$

d) issiq oqimning o`rtacha haroratdagagi qovushqoqligi:

$$\lg \nu_{rx} = \lg \nu_{r1} - a \lg \frac{r_x}{r_1}; \quad r_x = t_{p*} r_1 \quad (15.6.)$$

Neft qovushqoqligi  $5^{\circ}\text{C}$  da  $0,179 \text{ см}^2/\text{s}$ ,  $20^{\circ}\text{C}$  da  $0,08 \text{ см}^2/\text{s}$ . Bundan a ni topamiz:

$$a = \frac{\lg \frac{\nu_{r1}}{\nu_{r2}}}{\lg \frac{r_2}{r_1}} = \frac{\lg \frac{0,179}{0,09}}{\lg \frac{20}{5}} = 0,494.$$

Aniqlangan qiymatni (15.6) tenglamaga qo`ysaq izlanayotgan neft qovushqoqligini topamiz:

$$v_{t o r n} = 0,0469 \text{ sm}^2/\text{s};$$

e) 69 °C haroratdagi neftning issiqlik sig`imi:

$$C = \frac{1,686}{\sqrt{\rho_{15}}} * (1 + 0,002t) = \frac{1,696}{\sqrt{0,86}} * (1 + 0,002 * 69) = 2,075 \text{ kJ/(m.u.K.)},$$

j) 69 °C haroratdagi neftning issiqlik o`tkazuvshanligi:

$$\lambda_x = \frac{0,4217}{\rho_{15}} * (1 - 0,0054t) = \frac{0,4217}{0,860} (1 - 0,00054 * 69) = 12,886 * 10^{-5} \text{ kJ/(m.c.K)}$$

z) Reynolds omili:

$$Re = \frac{V_H d}{\nu} = \frac{108 * 3,18}{0,0489} = 7400;$$

i) Prantl omili:

$$Pr = \frac{\nu C Q}{\lambda c e k} = \frac{0,0469 * 10^{-4} * 2,075 * 835 * 10^{-5}}{12,886} = 63;$$

k) Nusselt omili:

$$N_4 = 0,023 Re^{0,8} \cdot Pr^{0,4} \cdot f = 0,023 \cdot 7400^{0,8} \cdot 63^{0,4} \cdot 0,95 = 140$$

$$f = 1 - 6 \cdot 10^{-5} Re^{-1,8} (\text{Re} = 2200 : 10000 \text{ uchun});$$

l) Issiq oqimdan metallga issiqlik berish koeffitsienti

$$\alpha_1 = \frac{\lambda}{d} = Nu = \frac{0,464}{0,0318} * 140 = 2066 \text{ kJ/(m}^2 \cdot \text{u.K.)}$$

**Issiqlik berish koeffitsienti  $\alpha_2$  ni aniqlaymiz:**

a) suyuqlikning quvurdagi umumiy hajmiy sarfi:

$$V_{H6} = \frac{V_{H6} + V_B}{3600 * 24 * F_{mp}} = \frac{3000 + 8240}{0,101 * 3600 * 24} = \frac{11240}{0,101 * 3600 * 24} = 1,290 \text{ m/c}$$

$$F_{mp} = \frac{\pi d^2}{4} * \frac{n}{4} = \frac{0,785 * 0,026^2 * 760}{4} = 0,101 \text{ m}^2;$$

b) 53 °C dagi suvlangan neft qovushqoqligi xuddi "q" qismida ko`rsatilgandek aniqlanadi:

$$\nu_{H13} = 0,0367 \text{ cm}^2 / \text{s};$$

v) Reynolds omili:

$$\frac{\nu_{H6} \cdot d}{\nu_{H6}} = \frac{129 \cdot 0,0126}{0,0367} = 9140;$$

g) 53°C dagi suvlangan neftning issiqlik sig`imi:

$$C = \frac{1,686}{\sqrt{\rho_{15}}} * (1 + 0,002t) = \frac{1,686}{\sqrt{0,86}} * (1 + 0,002 * 53) = 2,029 \text{ kJ/(kg.K)};$$

d) 53°C dagi neftning issiqlik o`tkazuvchanligi:

$$\lambda_t = \frac{0,4217}{\rho_{15}} * (1 - 0,0054t) = \frac{0,4217}{0,86} * (1 - 0,00054 * 53) = 13,38 * 10^{-5} \text{ kJ/(m.c.K)}$$

e) Prandtl omili:

$$P_r = \frac{\nu c \rho}{\lambda_{cek}} = \frac{0,0367 * 10^{-4} * 2,029 * 850 * 10^3}{13 * 38} = 47,5$$

53°C dagi neft zichligi laboratoriya tadqiqotlariga 850 kg/m³ ni tashkil etadi;

j) Nusselt omili

$$N_4 = 0,023 * \text{Re}^{0,8} * \text{Pr}^{0,4} * f = 0,023 * 9140^{0,8} * 47,5^{0,4} * 0,96 = 205;$$

z) metalldan sovuq smilga issiqlik berish koeffitsienti:

$$\alpha_2 = \frac{\lambda}{d} Nu = \frac{0,464}{0,026} * 205 = 3661 \text{ кж/(м}^2 \cdot \text{ч.к.)}$$

**Issiqlik almashish uskunasining ifloslanganligini hisobga oluvchi koeffitsientni  
0,002ga teng deb qabul qilamiz.**

**Umumiyl issiqlik o`tkazish koeffitsienti**

$$K = \frac{1}{\frac{1}{d_1} + \frac{1}{d_2} + \frac{\delta}{\lambda} + f_1} = \frac{1}{\frac{1}{2066} + \frac{1}{3661} + \frac{0,003}{39} + 0,002} = 290 * 4,184 \text{ кж/(м}^2 \cdot \text{ч.к.)}$$

**Umumiyl issiqlik almashish yuzasini aniqlaymiz:**

$$F = \frac{q}{24 * K * \Delta t} = \frac{245000000 * 4184}{24 * 290 * 11,7 * 4,184} = 3020 \text{ м}^2$$

**Hisoblashlarga ko`ra issiqlik almashish uskunasining talab etilgan miqdori:**

$$h = \frac{F}{450} = \frac{3020}{450} = 6,7 \text{ дона}$$

Issiqlik almashish qurilmasining miqdorini 7 ta deb qabul qilamiz.

## Foydalaniman adabiyotlar

### Asosiy

1. Lutoshkin G.S. Sbor i podgotovka nefti, gaza i vodi k transportu. - M.: Nedra, 1972
2. Akramov B.Sh., Hayitov O.G' Neft va gaz mahsulotlarini yigish va tayyorlash. O'quv qo'llanma. Toshkent, 2003.

### Qo'shimcha

1. A.S. Smirnov Sbor i podgotovka neftyanogo gaza na promslax. M.: Nedra, 1971
2. K.S. Kasparyants. Promslovaya podgotovka nefti i gaza. - M. : Nedra, 1973
3. V.A. Yeronin i dr. Podderjanie plastovogo davleniya na neftyanx mestorojdeniyax. M.: Nedra, 1973
4. Z.S. Ibragimov, B.SH. Akramov va b. «Neft va gaz sohalarining ruscha-o`zbekcha atamalar lug`ati» Toshkent. Nur. 1992. 230 b.

## **Mundarija**

- Amaliy mashg`ulot №1. Neft va yo`ldosh gazning fizik xossalari hisoblash.....
- Amaliy mashg`ulot №2. Bir fazali suyuqlikni uzatuvchi oddiy va murakkab quvurlarni hisoblash.....
- Amaliy mashg`ulot №3. Gaz – suyuqlik aralashmasi uzatuvchi quvurlarni gidravlik hisoblash.....
- Amaliy mashg`ulot №4. Nonyuton suyuqlarlarni uzatuvchi quvurlarni hisoblash.....
- Amaliy mashg`ulot №5. Gaz quvurlari hisobi.....
- Amaliy mashg`ulot №6. Neftni gazdan ajratish jarayonining hisobi.....
- Amaliy mashg`ulot №7. Gazneft ajratkichlarining mahsuldarligini hisoblash. Gravitatsion (og`irlik) ajratkichlarini hisoblash.....
- Amaliy mashg`ulot №8. Vertikal gravitatsion separatorlarning o`tkazish qobiliyatini hisoblash.....
- Amaliy mashg`ulot №9. Yig`uvchi neft quvurining uzunligi bo`yicha neft harorati taqsimoti hisobi.....
- Amaliy mashg`ulot №10. Neft va emulsiyani isitish uchun kerak bo`lgan issiqlik miqdorini aniqlash.....
- Amaliy mashg`ulot №11. Blokli deemulsatorning issiqlik hisobi.....
- Amaliy mashg`ulot №12. Neftning bug`lanishi tufayli uglevodorod yo`qotilishini hisoblash.....
- Amaliy mashg`ulot №13. Tindirgichlarni hisoblash.....
- Amaliy mashg`ulot №14. Issiqlik almashish uskunalarining hisobi.....
- Amaliy mashg`ulot №15. Issiqlik almashish qurilmalarini hisoblash usuli.....
- Foydalanilgan adabiyotlar.....

## Mustaqil ish topshiriqlari

<b>№</b>	<b>Mustaqil ish va topshiriqlarning mavzulari</b>	<b>Ajratilgan soat</b>
1	Neftni yig`ish va tayyorlashning texnologik uskunalarini	2
2	Kon jihozlarini optimal joylashtirish masalasini eshish metodologiyasi	2
3	Quduqlar mahsulotini o`lchash bo`yicha avtomatlashgan uskunalarining ishlash prinsipi.	2
4	Neft – gaz va suvning konda yig`ish va tayyorlash tizimini optimallashtirish usullari	2
5	Neft va gaz quvurlarini ifloslanishini oldini olish va unga qarshi kurashish	2
6	Quvurlarni tashqi va ichki korroziyasi	2
7	Separatorlarda neftdan gaz fazasining ajralishi samaradorligiga ta`sir etuvchi omillar	2
8	Neft emulsiyalarining mustahkamligiga ta`sir etuvchi asosiy omillar	2
9	Kon jihozlarining texnologik ishlash rejimini optimallashtirish	2
10	Tindirgich apparatlarida mustahkam emulsiya paydo bo`lishini oldini olish.	2
11	Rezervuarlarning katta va kichik «nafas olishida» karbonsuvchilar yuqotilishini hisoblash	2
12	Oqova suvlarni ishlatish munosabati bilan atrof-muhit muxofazasi	2
13	Neft konlarida quduq maxsulotini yig`ish tizimlari	2
14	Yig`uvchi neft quvuri uzunligi bo`yicha neft harorati taqsimoti	2
15	Issiqlik almashinish qurilmalarini hisoblash usuli	2
16	Neft tayyorlash va yuldosh gazni utilizatsiyalash bo`yicha avtomatlashgan jixozlar blokini tashkil etish.	2
17	Gaz o`tkazgichlardagi suyuq va gidratli tiqinlar, ularning oldini olish va bartaraf qilish usullari	2
18	Quvurlar zanglashiga qarshi kurashish	2
19	Termokimyoiy ishlov berish	2
20	Emulsiyaga elektr va magnet maydoni bilan ishlov berish	2
21	Rezervuarda saqlanadigan neftning yengil fraksiyalari yo`qotilishini kamaytirish usullari	2
22	Maxsulor qatlamlarga haydaladigan oqova suvlarga qo`yiladigan asosiy talablar	2
23	Suv tayyorlashning printsipial sxemasi	2
24	Suv transporti	2
25	Tabiiy va yo`ldosh gazlarning tarkibi va ularning farqi	2
26	Gazneft ajratkichlarining o`tkazuvchanlik qobiliyatlarini aniqlash	2
27	Neftning issiqlik sig`imini aniqlash	2
28	Neft konlarida uglevodorodlarning yo`qotilishi	2
29	Tindirgichlarning samaradorligi	2
30	Gazni quritish usullari	2
<b>jami</b>		<b>60</b>

## **Fan bo'yicha umumiylar savollar**

1. Konni ishslash va jihozlash loyihasi
2. Neft konlarida neft, gaz va suvni yig'ish tizimini loyihalashga qo'yiladigan asosiy talablar.
3. Neft, gaz qazib olish korxonalarida neft, gaz va suvni yig'ish va tayyorlash texnologiyasi jarayonlari
4. Neft va gaz konlarida quduq mahsulotini yig'ish tizimlari
5. Neft konlarida quduq mahsulotini yig'ish tizimlari.
6. Gaz konlarida gazni yig'ish tizimlari
7. Tazyiqli Baronyan–Vezirov yig'ish tizimi
8. Grozniy neft institutining yig'ish tizimi
9. Yig'ishning tazyiqli Giprovostok tizimi
10. Neft quduqlari mahsuloti miqdori va sifatini o'lchash
11. Neftni yig'ishning o'zioqar tartibida quduq mahsulotini o'lchash
12. Germetizatsiyalashgan yig'ish tizimida mahsulot miqdorini o'lchash.
13. Neft tarkibidagi suv mikdorini o'lchash.
14. Konlarda qo'llaniladigan quvur uzatgichlar tasnifi.
15. Neft uzatgichlarning ifloslanishi va ularning oldini olish usullari.
16. Konda qazib olinayotgan gazlar tarkibi va ularning salbiy ta'sirlari.
17. Gaz uzatgichlardagi suyoq va gidratli tiqinlar, ularni oldini olish va bartaraf qilish usullari.
18. Quvur uzatgichlarning ichki va tashqi korroziyasи.
19. Neft koni xududidan o'tgan tashlama quvur va neft yig'uvchi kollektorlarning ifloslanishi sabablari.
20. Quvur devorlarida parafin cho'kishini oldini olish va hosil bo'lgan bartaraf qilish usullari .
21. Neftni gazzislantirish.
22. Neft va gazni tayyorlash asbob-uskunalar
23. Neftni gazzislantirishning optimal bosqichlar sonini tanlash.
24. Ajratgichlar va ularning tasnifi .
25. Tindirgichlar va ularning tasnifi.
26. Neft emulsiyalari.
27. Emulsiyalar to'g'risida umumiylar tushunchalar
28. Neft emulsiyalarining fizik – kimyoviy xossalari.
29. Neft emulsiyalarining mustahkamligi va eskirishi
30. Konda neftni tayyorlash.
31. Neftni transport qilishga tayyorlash qurilmalarining vazifalari
32. Neftni turg'unlashtirish (gazzislantirish).
33. Neft emulsiyalarini parchalash uchun ishlatiladigan deemulgatorlar.
34. Deemulgatorlarning tasnifi va ularga ko'rsatiladigan talablar
35. Neft emulsiyalarini parchalashning asosiy usullari.
36. Kondagi neft saqlagichlar

37. Neft saqlagichlarning vazifasi.
38. Po'lat saqlagichlarning jihozlari
39. Saqlagichlardagi neftni «nafas oluvchi» to'sqichlar orqali yo'qolishini oldini olish
40. Po'lat saqlagichlarni korroziyadan himoya qilish
41. Tovar neftining sifati va va miqdorini o'lchash usullari.
42. Tovar neftining hisobi
43. Tovar neftini hisobga olish jarayonini avtomatlashtirish
44. Neft konlarida oqova suvlarni tayyorlash
45. Qatlam suvlari
46. Neft konlaridagi oqova suvlarga ko'rsatiladigan talablar
47. Oqova suvlarning kanalizatsiyasi.
48. Mahsuldor qatlamlarga suvni haydash uchun tayyorlash
49. Qatlamga suvni haydash
50. Suvni qatlamga haydashga yaroqliligini aniqlash.
51. Oqova suvlarni tayyorlash qurilmalari.
52. Chuchuk suvlarni tayyorlash qurilmalari.

## Testlar

1. Konda neft va gazni tayyorlash jarayoniga nimalar kiradi?  
A) Bosimni, haroratni, mahsulot zichligini o'lchash;  
B) mahsulotning qovushqoqligini, zichligini o'lchash;  
\*V) mahsulotni yig'ish, o'lchash, ajratish, neftni suvsizlantirish, tuzsizlantirish, stabillashtirish va mexanik zarrachalardan ajratish;  
G) A, B, V.
2. Yangi ochilgan kon uchun nechta loyiha tuziladi?  
\*A) bitta;  
B) ikkita;  
V) uchta;  
G) to'rtta.
3. Neft, gaz va suvni yig'ish va tayyorlash texnologiyasi nechta jarayonni o'z ichiga oladi?  
A) ikkita;  
B) uchta;  
V) to'rtta;  
\*G) beshta.
4. Neft tarkibidagi suv miqdori qanday asbob yordamida o'lchanadi?  
A) Viskozimetrik apparati;  
B) Rubin-2 apparati;  
V) Sputnik-A apparati;  
\*G) Dina-Stark apparati.
5. Yo'naltiruvchi quvurlar qayerda ishlataladi?  
A) birinchi gurux o'lchagich qurilmalaridan neftni yig'ish va tayyorlash qurilmalarigacha;  
\*B) quduqdan birinchi gurux qurilma o'lchagichlarigacha;  
V) quduqdan rezervuarlargacha;  
G) A, B, V.
6. Sirt faol moddalar ko'proq qanday miqdorda qo'llaniladi?  
A) 100 g/tonna;  
B) 50g/tonna;  
V) 15-20 g/tonna;  
\*G) 10-12 g/tonna.
7. Gaz tarkibidagi namliklar nimalarni hosil qiladi?  
A) parafinlarni;  
\*B) gidratlarni;  
V) karbonsuvchillarni;  
G) A, B, V.
8. Gaz tarkibidagi bir yoki bir necha qo'shimcha komponentlarni qattiq yutuvchilar bilan tozalash jarayoni nima deyiladi?  
A) Absorbsiya;  
B) Disorbsiya;  
\*V) Adsorbsiya;  
G) Stabilizatsiya.
9. Gazni hidlantirish jarayonida unga qancha etilmerkaptan qo'shiladi?  
\*A)  $1000 \text{ m}^3$  gazga 16 gr;  
B)  $1000 \text{ m}^3$  gazga 20 gr;  
V)  $1000 \text{ m}^3$  gazga 50 gr;  
G)  $1000 \text{ m}^3$  gazga 32 gr.

10. Geometrik shakliga ko'ra ajratgichlar qanday shaklda bo'ladi?

- A) silindrik;
- B) sharsimon;
- \*V) silindrik, sharsimon;

G) silindrik, sharsimon, to'rtburchak;

11. O'rnatilishiga qarab ajratgichlar necha xil bo'ladi?

- \*A) tik, qiya, yotiq;
- B) tik, qiya;
- V) tik;
- G) yotiq, osma.

12. Tindirgichlarda suv bilan neft qanday joylashadi?

- A) aralash holda;
  - \*B) suv ostki qismida, neft yuqorida;
  - V) neft ostki qismida, suv yuqorida;
  - G) suvlar orasida neft qatlami.
13. Neft konlarida qanday hajmdagi saqlagichlar ishlataladi?
- A) 10-100 m<sup>3</sup>;
  - B) 100-5000 m<sup>3</sup>;
  - \*V) 100- 10000m<sup>3</sup>;
  - G) 10-2000 m<sup>3</sup>.

14. Temir yo'l neft quyish estakadalariga qarashli omborxonalarda qanday sig'imdag'i saqlagichlar quriladi?

- A) 100-1000 m<sup>3</sup>;
- B) 1000-5000 m<sup>3</sup>;
- V) 5000-7500 m<sup>3</sup>;
- \*G) 7500-10000 m<sup>3</sup>.

15. Neft emulsiyasi nima?

- \*A) neft va suvning mexanik aralashmasi;
- B) neft, gaz va suvning mexanik aralashmasi;
- V) gaz suvning mexanik aralashmasi;
- G) kondensat va neftning mexanik aralashmasi.

16. Neft emulsiyalari qaerda paydo bo'ladi?

- \*A) quduqda;
- B) qatlamda;
- V) quvur uzatgichda;
- G) A, B, V.

17. Eng mustahkam emulsiyalar qanday quduqlarda hosil bo'ladi?

- A) fontan quduqlarda;
- \*B) kompressor quduqlarda;
- V) chuqurlik nasosi quduqlarda;
- G) A, B, V.

18. Neft emulsiyalarida necha xil faza bor?

- \*A) 2
- B) 3
- V) 4
- G) 1

19. Tomchilar ko'rinishdagi suyuqlik nima deyiladi?

- A) dispersion muhit;
- \*B) dispers faza;
- V) polidispers;
- G) monodispers.

20. To'g'ri ko'rinishdagi emulsiyalar qanday belgilanadi?

A) S/N

\*B) N/S

V) N/S/N

G) S/N/S.

21. Neft emulsiyalari tarkibida 10% suv bo'lsa, ularning rangi qanday bo'ladi?

A) sariq;

B) jigar rang;

\*V) to'q jigar rang;

G) och jigar rang.

22. Bir xil diametrli tomchilardan tashkil topgan dispers tizimlar nima deyiladi?

\*A) monodispers;

B) polidispers;

V) dispers;

G) nonodispers.

23. Deemulgator deb nimaga aytildi?

A) neft emulsiyalarini isituvchi moddalar;

B) neft emulsiyalarini mustahkamlovchi moddalar;

\*V) neft emulsiyalarini parchalovchi moddalar;

G) neft emulsiyalarini tozalovchi moddalar.

24. Deemulgatorlarga qaysi moddalar kiradi?

A)diproksalin-157, proksalin-385, dissolvan-4411,siparol...;

B) neytrallangan kora kontakt, neytrallangan nordon gudron;

V) etilmekaptan, poliakrilamid;

\*G) A, B.

25. S/N ko'rinishidagi neft emulsiyalarini elektr maydoni ta'sirida parchalash uchun qanday qurilmadan fodalaniladi?

A) isitish bloki;

B) sentrifugalash;

V) A, B;

\*G) elektrodegidrator.

26. Gorizontal elektrodegidratorlarda neft emulsiyalari ishlov berishning nechta zonasidan o'tadi?

A) 1

B) 2

\*V) 3

G) 4

27. Ko'kdumaloq neftgazkondensat konining tayyor nefti qayerga haydaladi?

A) Zevarda koniga;

\*B) Qorovulbozor shahriga;

V) Buxoro neftni qayta ishlash zavodiga;

G) B, V.

28. Saykling jarayon deb nimaga aytildi?

A) gazni tozalash;

B) gazni quritish;

\*V) quritilgan gazni quduqka haydash;

G) tozalangan gazni quduqka haydash.

29. Saqlagichlar qanday vazifalarni bajaradi?

A) yig'ish, saqlash;

B) xom va tovar neftini hisobini olish;

V) neftdan suvni ajratish;

\*G) A, B.

30. Saqlagichlar qaerda quriladi?

- A) er yuzasida;  
 B) er ostida;  
 V) yarmi er yuzasida, yarmi er ostida;  
 \*G) A, B, V.
31. Neft saqlagichlarning yorug'lik lyuki qanday vazifani bajaradi?  
 A) saqlagich ichini yoritish;  
 B) saqlagichni shamollatish;  
 V) alangadan asrash;  
 \*G) A, B.
32. Tashqaridagi harorat va bosimning o'zgarishi natijasida saqlagichlarning «nafas olishi» nima deyiladi?  
 A) katta «nafas olish»;  
 \*B) kichkina «nafas olish»;  
 V) o'rtacha «nafas olish»;  
 G) A, B.
33. Saqlagichlarni bo'shatish va to'ldirish vaqtida bug'larning yuzaga chiqishi nima deyiladi?  
 A) kichik «nafas olish»;  
 \*B) katta «nafas olish»;  
 V) A, B.  
 G) barqarorlash.
34. Saqlagichlardan yengil fraktsiyalarning yo'qolishini oldini oluvchi nechta usul mavjud?  
 A) 1  
 B) 2  
 \*V) 3  
 G) 4
35. Saqlagichlarda yengil fraktsiyalarni yo'qolishini oldini olish uchun qanday qopqoqlar ishlataladi?  
 A) rezina qopqoqlar;  
 B) germetiklangan qopqoqlar;  
 \*V) suzuvchi qopqoqlar;  
 G) po'lat qopqoqlar.
36. Quyosh nurini qaytaruvchi bo'yoqlar qaysilar?  
 A) oq;  
 B) kul rang; havo rang;  
 V) alyumin;  
 \*G) A, V.
37. Po'lat saqlagichlar qanday korroziyaga uchraydi?  
 A) ichki;  
 B) tashqi;  
 V) tuproq osti;  
 \*G) A, B.
38. Saqlagichning ichki korroziyasi nima ta'sirida bo'ladi?  
 A) suv ta'sirida;  
 B) nam havo ta'sirida;  
 V) oltingugurtli birikmalar ta'sirida;  
 \*G) V, B.
39. Saqlagichlarning ichki tomoni nima bilan qoplanadi?  
 A) lak-bo'yoqlar bilan;  
 B) metallar bilan;  
 \*V) plastmassalar va metallar bilan;

G) lak-bo'yoqlar va plastmassalar bilan.

40. Tovar neftni hisobga olishning nechta usuli mavjud?

A) 1

B) 2

\*V) 3

G) 4

41. Saqlagichlardagi neft miqdori qanday birliklarda o'lchanadi?

A) kg;

B) tonna;

\*V) tonna/sutka;

G) m<sup>3</sup>.

42. Tovar neftini o'lhashning avtomatlashtirilgan usulida qanday qurilmadan foydalaniladi?

A) Sputnik-A;

\*B) Rubin-2;

V) Sputnik-V;

G) Elektrodegidrator.

43. Nima uchun quduqdan olingan neft tuzsizlanrladi va suvsizlantiriladi?

A) quvur va qurilmalar korroziyaga uchramasligi uchun;

B) transport qilish katta harajat talab qilmasligi uchun;

V) emulsiyalar hosil bo'lmasligi uchun;

\*G) A, V.

44. Qatlamdan olingan suvlardan qanday maqsadda fodalanilmoqda?

A) kanalizatsiya qilishga;

B) deemulyatorlar hosil qilish uchun;

\*V) qatlamga qayta haydashga;

G) A, V.

45. Qatlam suvlari necha guruhga bo'linadi?

\*A) 2;

B) 3;

V) 4 ;

G) 5.

46. Qatlam suvlarida erigan moddalarning uning hajmiga bo'lgan nisbati nima deyiladi?

A) kristallanish;

\*B) minerallanish;

V) gidratlanish;

G) ishqorlanish.

47. Oqova suvlar deb nimaga aytildi?

A) qatlam suvlari va atmosfera suvlariga;

B) chuchuk suvlar va atmosfera suvlariga;

V) qatlam suvlari va chuchuk suvlarga;

\*G) qatlam, atmosfera va chuchuk suvlarga.

48. Oqova suvlar tarkibida necha foiz qatlam suvlari, necha foiz chuchuk suvlar va necha foiz atmosfera suvlar bor?

A) 85%, 13%, 2%;

B) 80%, 15%, 5%;

\*V) 82-84%, 15%, 1,5-3%;

G) 81-83%, 16%, 1-3%.

49. Oqova suvlarning kanalizatsiyasi deganda nimani tushunasiz?

A) oqova va yomg'ir suvlarini;

B) zovur va lotoklar tizimi orqali tozalash inshoatlariga yig'ilishiga;

\*V) A, B.

G) suvni tozalash.

50. Qatlam bosimini saqlash necha xil usulda olib boriladi?

\*A) 2 xil usulda;

B) 3 xil usulda;

V) 4 xil usulda;

G) 1 xil usulda.

51. Qatlamga haydalayotgan suv tarkibida qattiq zarrachalar qanday miqdorda bo'lishi mumkin?

A) 1 mg/l;

\*B) 2 mg/l;

V) 3 mg/l;

G) 4 mg/l.

52. Qatlamga haydalayotgan suv tarkibida temir qanday miqdorda bo'lishi mumkin?

A) 0,5 mg/l;

B) 0,7 mg/l;

\*V) 0,3 mg/l;

G) 1 mg/l.

53. Qatlamga haydalayotgan suv tarkibidagi mikroorganizmlar va suv o'tlar qanday miqdorda N<sub>2</sub>S hosil qilish mumkin?

A) 50 mg/l;

B) 150 mg/l;

\*V) 100 mg/l;

G) 200 mg/l.

54. Suvlarning qatlamga haydalishga yaroqliligi qayerda aniqlanadi?

A) konda;

\*B) laboratoriya;

V) tayyorlash qurilmasida;

G) A, V.

55. Neft emulsiyalar qanday fizik-kimyoviy xususiyatlarga ega?

A) disperslik;

B) qovushqoqlik;

V) elektrik xususiyatlar;

\*G) A, V.

56. Monodispers tizimlar deb qanday tizimlarga aytildi?

A) xar xil diametrli tomchilardan tashkil topgan dispers tizimlarga;

\*B) bir xil diametrli tomchilardan tashkil topgan dispers tizimlarga;

V) A, B.

G) to'g'ri javob yo'q.

57. Polidispers tizimlar deb qanday tizimlarga aytildi?

\*A) har xil diametrli tomchilardan tashkil topgan dispers tizimlarga;

B) to'g'ri javob yo'q;

V) bir xil dispersli tomchilardan tashkil topgan dispers tizimlarga;

G) A, V.

58. Neft tarkibiga kelib chiqishi organik bo'lган qanday gazlar kiradi?

A) metan, etan;

B) propan;

V) butan;

\*G) A, B, V.

59. Neft tarkibiga kelib chiqish neorganik bo'lган qanday gazlar kiradi?

A) H<sub>2</sub>S;

B) CO<sub>2</sub>, He;

V) Fe;

\*G) A, B.

60. Termik qurilmalarda issiqlik almashtiruvchilarning qanday turlari qo'llaniladi?

- A) «quvur ichida quvur»;
- B) hamma javoblar noto'g'ri;
- V) kojux quvurli;

\*G) A, V.

61. Konvektsiya deb nimaga aytildi?

- A) suyuq yoki gaz holatidagi zarrachalarning issiqliknini olib o'tish yo'li bilan tarqatishi;
- B) bir-biriga nisbatan harakatlanayotgan zarrachalar yordamida;

\*V) to'g'ri javob yo'q;

G) A, B.

62. Neft emulsiyalarini parchalashning asosiy usullarini ko'rsating?

- A) gravitatsion sovuq ajratish;
- B) sentrifugalash;
- V) sizdirish;

\*G) A,B,V.

63. Blokli termokimyoiy qurilmalarning qanday turlari mavjud?

- A) Sputnik-A, Sputnik-V;
- B) Rubin-2, Rubin-1;
- V) «Tayfun», IB, SP-1000, SP-2000;

\*G) To'g'ri javob yo'q.

64. GQIZ nima?

- \*A) Gazni qayta ishlash zavodi;
- B) Gaz qurilmalarning zahiralari;
- V) Geologik qidiruv zonasasi;

G) to'g'ri javob yo'q.

65. Emulsiya isitilgandan keyin qaysi qurilmada neft va suvga ajratiladi?

- A) Issiqlik almashtirgichda;
- B) Sizdirgichda;
- V) Ajratgichda;

\*G) Tindirgichda.

66. Emulsiya tindirgichga qayerdan kiritiladi?

- A) Pastdan;
- B) Tepadan;
- V) Tarqatuvchi kollektor yoki elliptik tagdan;

\*G) A, B, V.

67. Bir joyda qurilgan saqlagichlar nima deyiladi?

- A) Tovar parki;
- \*B) Saqlagichlar parki;
- V) Neft parki;

G) To'g'ri javob yo'q.

68. Suvsizlantirilgan va tuzsizlantirilgan neft parki nima deyiladi?

- A) Saqlagichlar parki;
- \*B) Tovar parki;
- V) Neft parki;

G) A, V.

69. Saqlagichlar nimadan quriladi?

- A) Temirdan, po'latdan;
- B) Temirbetondan, metaldan;
- V) Po'latdan;

\*G) B, V.

70. Tabiiy va yo'ldosh gazlarning tarkibi?

- A) Suyuq holatdagi suv, suv bug'lari;  
B) CO<sub>2</sub>, H<sub>2</sub>S;  
V) N<sub>2</sub>, He;  
\*G) A,B,V.
71. Gaz tarkibida qanday qanday komponentlar bo'lsa, gazuzatgichlar va ajratgichlarning korroziyasiga sabab bo'ladi?
- A) Suv, suvo'tlar;  
\*B) Oltingugurtsuvchil;  
V) Karbonat angidrit;  
G) Kislorod.
72. Gazni quritish qanday qattiq moddalar yordamida amalga oshiriladi?
- A) Magniy xlor;  
\*B) Kal'tsiy xlor;  
V) Natriy xlor;  
G) A, B, V.
73. Gazni quritish qanday suyuq moddalar yordamida amalga oshiriladi?
- A) Etilmerkaptan, diproksamin;  
\*B) Dietilenglikol, trietilenglikol;  
V) Dietilenglikol, etilmerkaptan;  
G) SFM.
74. Neft konidagi qatlama bosimi qanday ushlab turish mumkin?
- \*A) Mahsuldor qatlamga suv bostirish;  
B) Qatlamga chuchuk suvlarni haydash;  
V) Qatlamga oqova suvlarni haydash;  
G) Qatlamga atmosfera suvlarini haydash.
75. AGO'Q nima degani?
- A) Avtomatik suv o'tkazish qurilmasi;  
B) Avtomatik gaz o'tkazgich qurilma;  
\*V) Avtomatlashgan guruhiy o'lchagich qurilma;  
G) To'g'ri javob yo'q.
76. Tazyiqli Baronyan-Vezirov yig'ish tizimi nechanchi yilda yaratilgan?
- \*A) 1946 yilda;  
B) 1949 yilda;  
V) 1950 yilda;  
G) 1952 yilda.
77. Baronyan-Vezirov yig'ish tizimida quduq boshidagi bosim nechaga teng?
- A) 1 MPa;  
B) 0,5-0,8 MPa;  
\*V) 0,5-0,6 MPa;  
G) 0,3-0,5 MPa.
78. Grozniy neft institutining yig'ish tizimi o'z ichiga nechta tizimni biriktirgan?
- A) 2 ta;  
B) 3 ta;  
\*V) 4 ta;  
G) 5 ta.
79. Grozniy neft institutining yig'ish tizimida quduq boshidagi bosim nechaga teng bo'ladi?
- A) 1-3 MPa;  
B) 3-5 MPa;  
\*V) 6-7 MPa;  
G) 0,1-3 MPa.

80. Grozniy neft institutining yig'ish tizimida 6-7 MPa bosimni saqlab turilishi neftni tayyorlash tizimini qanday masofada qurilishiga imkon beradi?

- A) 50 km;
- \*B) 100 km;
- V) 150 km;
- G) 200 km.

81. Giprovostok neftni yig'ish tizimida qatlam boshidagi bosim nechaga teng bo'ladi?

- A) 0,1-1 MPa;
- \*B) 1-1,2 MPa;
- V) 1,2-1,5 MPa;
- G) 1,5-2 MPa.

82. O'zioqar neft yig'ish tizimida suyuqlik qanday oqadi?

- \*A) tazyiqsiz;
- B) tazyiqli;
- V) aralash;
- G) A, B.

83. Bir xil diametrغا ega bo'lib, unga boshqa quvurlar ulanmagan bo'lsa, bunday quvurlar...

- A) murakkab quvurlar deyiladi.
- \*B) oddiy quvurlar deyiladi.
- V) yo'naltiruvchi quvurlar deyiladi.
- G) yig'uvchi quvurlar deyiladi?

84. Kuchli bosimga mo'ljallangan quvurlar bosimi nechaga teng bo'ladi?

- A) 1,5-3 MPa va undan yuqori;
- B) 3-5 MPa va undan yuqori;
- V) 5-7 MPa va undan yuqori;
- \*G) 5-6 MPa va undan yuqori.

85. Quydagilarning qaysinisi laminar oqim deb hisoblanadi?

- A)  $Re = 2800$ ;
- \*B)  $Re < 2320$ ;
- V)  $2320 < Re < 2800$ ;
- G)  $Re < 2800$ .

86. Keltirilgan ifodalarning qaysi biri Reynolds ko'rsatkichi deyiladi?

- A)  $2320 < Re < 2800$ ;
- B)  $2320 < Re$ ;
- \*V)  $Re = (v * d / \nu)$
- G)  $Re < 2800$ .

87. O'ta qovushqoq va parafinli neftlarning tarkibi qanday bo'ladi?

- A) 55% parafin, 25% qatron (smola);
- \*B) 25% parfin, 55% qatron;
- V) 15% parafin, 60% qatron;
- G) 20% parafin, 65% qatron.

88. Parafinlar qanday quvuruzatgichlarda paydo bo'ladi?

- \*A) neft quvuruzatgichlarda;
- B) gaz quvuruzatgichlarda;
- V) kondensat quvuruzatgichlarda;
- G) A, V.

89. Gidratlar qanday quvuruzatgichlarda paydo bo'ladi?

- A) neft quvuruzatgichlarida;
- \*B) gaz quvuruzatgichlarida;
- V) kondensat quvuruzatgichlar;
- G) A, V.

90. Emulsiyalar qanday quvuruzatgichlarda hosil bo'ladi?

- \*A) neft quvuruzatgichlarda;
- B) gaz quvuruzatgichlarda;
- V) kondensat quvuruzatgichlarda;
- G) B, V.

91. Korroziya deb nimaga aytildi?

- A) emulsiyaning parchalanishiga;
- \*B) metalning atrof-muhit ta'sirida emirilishiga;
- V) neft tarkibining taxliliga;
- G) A, V.

92. O'tkazayotgan mahsulotiga qarab quvurlar qanday turlarga bo'linadi?

- A) oddiy va murakkab;
- \*B) neft, gaz, neft-gaz, kondensat, suv, reagent quvurlari;
- V) er osti, er usti, havodan utadigan, suv osti quvurlar;
- G) to'g'ri javob yo'q.

93. Konda neft va gazni tayyorlash jarayoni nimalarga bog'liq?

- A) neft va gazning zichligiga;
- B) neft va gazning qovushqoqligiga;
- V) neft va gazning fizik xossalariiga;
- \*G) quduq mahsulotini o'lchash, yig'ish, ajratish va xokazolar.

94. Quyidagilarning qaysi biri turbulent oqimni bildiradi?

- A) Re < 20;
- B) Re < 3000;
- B) Re < 2320;
- \*G) Re < 2800.

95. Neft, gaz va suvning kondagi kommunikatsiyalardagi harakati jarayonida nima paydo bo'ladi?

- A) mazut;
- B) parafin;
- \*V) emulsiya;
- G) kondensat.

96. Yangi ochilgan kon uchun qanday loyihalar tuziladi?

- A) ishslash loyihasi;
- B) qurilish loyihasi;
- V) jihozlash va qurilish loyihasi;
- \*G) ishslash va jihozlash loyihasi;

97. Konlarda neft, gaz va suvlarni yig'ish va tayyorlash fani nimalarni o'rgatadi?

- A) neftni kazib olish asoslarini;
- B) mahsuldarlikni oshirish usullarini;
- \*V) quduqdan to transport qilishgacha bo'lgan masofadagi jarayonlarni;
- G) A, B, V.

98. Fan qaysi fanlar bilan uzviy bog'liqlikda o'qitiladi?

- A) Fizika, matematika;
- B) Elektronika;
- \*V) Gidravlika, teplotexnika;
- G) A, B.

99. Rubin-2 qurilmasi nima maqsadda ishlatiladi?

- A) neft tarkibidagi suvni o'lchash uchun;
- B) suv takibidagi neftni o'lchash uchun;
- \*V) tovar neftini o'lchash uchun;
- G) kondensatni o'lchash uchun.

100. Sputnik-A,B,V lar nima maqsadda ishlatiladi?

- A) emulsiyani o'lchash uchun;  
 \*B) quduq mahsulotini miqdorini o'lchash uchun;  
 V) neftni o'lchash uchun;  
 G) A, B, V.
101. Saqlagichlardagi qoplagich(xlopushka) qanday vazifani bajaradi?  
 A) neft chiqish yo'lini to'sadi;  
 \*B) zadvijka va quvur uzatgichlarning nosozligi vaqtida neftni oqib ketishidan saqlaydi;  
 V) saqlagichning ustini yopib turadi;  
 G) engil fraktsiyalarning yo'qolishini oldini oladi.
102. Saqlagichning pastki qismida joylashgan lyuk qanday vazifani bajaradi?  
 A) neft quyish uchun;  
 B) neftni olish uchun;  
 \*V) ta'mirlash ishlarini olib borish uchun;  
 G) A, B.
103. Saqlagichdagi ko'taruvchi quvurning vazifasi nima?  
 A) neftni ko'tarish uchun;  
 B) poplavokni ko'tarish uchun;  
 V) suvni xohlagan balandlikdan olish uchun;  
 \*G) neftni xohlagan balandlikdan olish uchun.
104. Saqlagichdagi o'tkazuvchi qurilmaning vazifasi?  
 \*A) qoplagichning ikkala tomonidagi neftning bosimini to'g'rilab turadi;  
 B) neftni u yoqdan bu yoqqa o'tkazib turadi;  
 V) A, B.  
 G) to'g'ri javob yo'q.
105. Neft emulsiyasini sizdirish orqali parchalash usulida sizdirish qatlami sifatida nimadan foydalanishadi?  
 A) qum, gil, shag'al;  
 \*B) shag'al, shisha, yog'och-metal qirindilari;  
 V) mayda ko'zli filtr;  
 G) A, V.
106. Isitish Blokining emulsiya oqadigan yo'li nima uchun spiralsimon?  
 \*A) isitish yo'lini uzaytirish uchun;  
 B) sovitish yo'lini uzaytirish uchun;  
 V) A, B.  
 G) to'g'ri javob yo'q.
107. Qatlam suvlarining mineralanish darajasi qanday?  
 A) 1-10 kg/m<sup>3</sup>  
 B) 10-100 kg/m<sup>3</sup>  
 V) 100-150 kg/m<sup>3</sup>  
 \*G) 1-200 kg/m<sup>3</sup>

## Glossary

**ABSORBSIYA (YUTILISH)** - eritma yoki gaz aralashmasidagi modda (absorbat) larning qattiq yoki suyuq jism (absorbent) larga yutilishi. Gazlarning suyuqliklarida absorblanishidan neftni qayta ishlash, koks-benzol va boshqa sanoat sohalarida foydalilanadi. Absorbsiyaga qarama-qarshi jarayon desorbsiya deyiladi. U eritmaga singigan gazni ajratib olish va absorbentni regeneratsiya qilishda foydalilanadi.

**ADSORBENTLAR** - qattiq yoki suyuq moddalar. Ularning zarrachalari yuzasida absorbsiya hodisasi-moddalar va ular bilan birga bo'lgan gazlar yoki aralashmalarning yutilishi. Silikagenlar aktivlashtirilgan ko'mirlar, ba'zi oksidlar yaxshi adsorbent hisoblanadi.

**ADSORBTSIYA** - eritmadi moddalar va gazlarning qattiq jism yoki suyuqlik sirtiga yutilish (adsorbsiya). Adsorbsiyalanadigan modda adsorbat, adsorbsiyaga o'tadigan jins "adsorbent" deyiladi. Adsorbsiya suv, gazlarni tozalashda qo'llaniladi.

**GAZNI ADSORBTION TOZALASH** - nordon komponent ( $H_2S$ ,  $CO_2$ ) larni, oltingugurt, organik birikma va boshqa aralashmalarni adsorbent orqali singdirib selektiv yo'l bilan surib olish. Bu neft va gaz ishlab chiqarish korxonalarida keng foydalilanadi.

**SUVNING GAZ TARKIBI TAHLILI** - suvda erigan gazlarni tahlil qilish. Ularning miqdori gaz hajmining yig'indisiga nisbatan foizlarda yoki mg/l da ifodalanadi.

**YER OSTI SUVLARI TAHLILI** - suvning kimyoviy va gaz tarkibini, sifatini, fizik, biologik va texnik xossalari aniqlash. Kimyoviy tahlil yo'li bilan vodorod kontsentratsiyasi (rN), suv mineralizatsiyasi, mikroelementlar, kamyob elementlar, shuningdek radioaktiv elementlar miqdori aniqlanadi. Suvda erigan gazlar, og'ir uglerodlar va geliyning miqdori hajmi foizda yoki mg/l da ifodalanadi. Fizik xossalardan suvning solishtirma og'irligi, zichligi, harorati, tiniqligi, rangi, mazasi, xidi aniqlanadi. Suvning biologik xossalari bakteriologik usullar bilan ifodalanadi. Suvning texnik xossalardan suvdagi ionlarning koagulyatsiyasi, zangsizlanish qobiliyat, suvning siziluvchanligi, yemiruvchanligi va yumshatuvchanligi o'r ganiladi.

**ANOMALIYALI QOVUSHQOQ NEFT** - o'zining oqishi bo'yicha N'yutonning qovushqoqlik ishqalanish qonuniga bo'ysinmaydigan neft

**AREOMETR** - suyuqlik zichligini o'lchaydigan asbob. Areometr doimiy og'irlikli va doimiy hajmli bo'ladi. Doimiy og'irlikli oreometribilan o'lchashda zichlik oreometrning suyuqlikda botish darajasiga qarab aniqlanadi. Doimiy og'irlikli areometr bilan zichlikni o'lchashda uni suyuqlik halqasimon tamg'asigacha botiriladi shunda suyuqlik zichligi palladan olingan yoki unda qo'yilgan toshlar bilan aniqlanadi. Areometr uvalanuvchan jinslarni granulometrik tahlil qilishda ham keng qo'llaniladi.

**ASFAL'T, TOSHQATRON** - qattiq bitum. Kimyoviy tarkibi 80% karbon, 10% vodorod, 10% kislород. Solishtirma og'irligi 1-1,2, zichligi  $1000-1200 \text{ kg/m}^3$ . Asosan naftenli neftdan olinadi. Rangi qora, smoladek yaltiraydi, bitumning isi xarekterli,  $70-110^\circ\text{S}$  isiqda yumshaydi. Asfalt suniy usul bilan ham tayyorlanadi. Buning uchun juda mayda to'yingan mineral kukuni neft bitumi bilan qorishtiriladi.

**ATMOSFERA BOSIMI** - bosim o'lchanayotgan sath ustidagi  $1\text{sm}^2$  yuzaga ega bo'lgan havo ustuni og'irligiga teng atmosfera havosining bosimi. Dengiz sathida o'rtacha

atmosfera bosimi 760 mm li simob ustuni balandligining bosimoga teng bo'lib u balandlik ortishi bilan kamayadi.

**BENZIN** - tuzilishi har xil bo'lган uglevodorodlar aralashmasi. U qaynash chegarasi 30-205°C bo'lган rangsiz suyuqlik, zichligi 700-750 kgqm<sup>3</sup> ga teng. Benzinni neft va uning fraktsiyalariga ishlov berib yoki qayta haydab olish mumkin. Shuningdek uni slanets, toshko'mirga, tabiiy va yo'lakay gazlarga ishlov berish yo'li bilan ham olish mumkin. Benzinning engil, og'ir va eruvchan turlari mavjud.

**BOSIM** - biror jism sirtiga tik yo'nalishda ta'sir qiladigan kuchlar shiddatligini ifodalovchi miqdor. Jism sirtiga tik ta'sir qiladigan kuchlar bosim kuchlari hisoblanadi. Masalan, suyuqlik yoki gazning quduq devoriga ta'siri.

**BITUM** - uglevodorod birikmalarining oksidlanmagan qismlardan iborat bo'lib, qora, timqora rangli, engil uchuvchan, yonuvchan. Masalan, neft, asfaltlar, tog' bitumi va shu kabilarning umumiy nomi.

**NEFTLI BITUM** - neftga boy qora yoki to'q kulrang bitum.


**ASL GAZLAR** - bu guruh elementlarga - geliy, neon, argon, kripton, ksenon, radonlar kiradi. Oddiy haroratda molekulalari bir atomdan iborat bo'ladi. Ular boshqa kimyoviy elementlar bilan reaktsiyaga kirishmaydi. Asl gaz valentligi nolga teng.

**KORROZIYAGA QARSHI KURASH** - burg'ilash asbob-uskunalarining havo, chuchuk va tuzli suvlar, neft va gilli suyuqliklar ta'sirida zanglashiga qarshi kurashish jarayoni.

**PO'LATNING CHIRISH VA ZANGLASHIGA QARSHI KURASH** - burg' quduqlarning o'zlashtirilishi yoki ularning turib qolishi natijasida chirish va zanglashining oldini olishga mo'ljallangan tadbirlar (nazorat qilish asboblarni yuvish, yog'lash) ning majmui. Buning uchun burg'ilash nasosining gidravlik qismi bo'laklarga (to'sqich, silindrli vtulka, shtok, sal'nik zichlagichi) ajratiladi. Keyin silindrлar, to'sqich qutichalari gilli eritmaldan tozalanib yog'lanadi.

**NEFT MAHSULOTLARI UCHUN BOCHKA** - neft mahsulotlarni saqlash uchun mo'ljallangan, ust qismi kimyoviy moddalar bilan qoplangan zanglash chirish va olovga barqaror po'lat va temirdan yasalgan har xil sig'imli idish.

**BUTAN** - metan qatoriga kiruvchi gazsimon uglevodorod S<sub>4</sub>N<sub>10</sub>. Butanning ikki xil struktura izomeri mavjud: oddiy SN<sub>3</sub>-SN<sub>2</sub>-SN<sub>2</sub>-SN<sub>3</sub>, qaynash-0,5<sup>0</sup>S ga izobutan;



oddiy suyuq butan solishtirma og'irligi 0,573, izobutanniki 0,551 ikkala izomerlar neftli gazlarda ishtirot etadi

**VAKUUM** - biror idishdagi atmosfera bosimi (700 mm sim. ustuni) dan past bosimgacha siyraklashtirilgan holati. Vakuum bosim birligi bilan o'lchanadi. Gazning vakuumdagi hususiyati gaz to'ldirilgan idish o'lchami bilan gaz malekulalarining erkin o'tishi yo'li (malekulalarning bir to'qnashishidan, ikkinchi to'qnashishigacha bosib o'tgan yo'lning o'rtacha uzunligi) orasidagi munosabatlariga bog'liq. Gazning siyraklashganlik darajasiga qarab, yuqori, o'rta va past vakuumga bo'linadi. yuqori vakuumga  $1 \times 10^3$  mm sim. Ustunidan kichik, o'rta vakuumga  $1 \times 10^3$  dan 1 mm sim. ustunigacha, past vakuum ga 1 mm dan 760 mm

sim. ustunigacha bosim sohasi kiradi. Vakuumdagi gazlar atmosfera bosimidagi gazlarga nisbatan butunlay boshqa xossalarga ega bo'ladi. Vakuum monometr va vakuummetrlar bilan o'lchanadi. Kimyo va tog' metallurgiya va boshqa sohalarda keng tadbiq qilinadi.

**VISKOZIMETR** - har xil, tarkibli burg'ilash suyuqligining yopishqoqlik darajasini aniqlashga mo'ljallangan asbob.

**NAM O'LCHAGICH** - gaz suyuqlik va qattiq jinslarning namligini o'lchovchi asbob. Nam o'lchagichlarning ko'pchiligi moddalarining tarkibida namlik miqdori o'zgarish bilan uning elektr qarshiligi va dielektrik o'tkazuvchanligi o'zgarishini o'lchashga asoslangan. Neft qudug'inining tubidagi neftning namlik miqdori geofizik kabel' orqali quduqga tushiriladigan chuqurlik nam o'lchagichi bilan aniqlanadi. Qattiq jismlarning namligi sig'imi konduktometrik nam o'lchagichlar bilan aniqlanadi.

**GAZLARNING NAM SAQLASHI** - odatda tabiiy gazlar suv bug'lari bilan to'yingan bo'ladi. Ularning miqdori bosimga, haroratga va jins tarkibiga bog'liq. Harorat va gaz molekulyar massanening ko'payishi bilan gazning nam sig'imi oshadi. Bosimning ko'payishi bilan esa gazning nam sig'imi kamayadi.

**NEFTNING NAM SAQLASHI** - neftning suvlanish darajasi u asosan yuzaga neft bilan birga keladigan qatlama suvning hajm sarfiga, neftning zichligiga va yopishqoqligiga bog'liq. Bir xil sharoitda suv sarfi, neftning yopishqoqligi, zichligining kamayishi va suv zichligining ko'payishi bilan neftning nam saqlashi kamayadi.

**NEFTLI SUVLAR** - neft va gaz bilan kuzatiladigan neftli gorizontlardagi yer osti suvlari. Neftli suvlari yuqori darajali mineralanishi bilan farqlanadi va xlorit-kal'tsiy-natriyli, xlorit-kal'tsiy -magniyli gidrokorbanat-natriylitirkumlari taaluqli. Odatda neftli suvning tarkibida yuqori miqdorda Br, B, Ra, Ba, Sr va mikroelementlar, shuningdek organik moddalar, uglevodorodlar, biogen azotlar, serovodorodlar, karbonat angidridlar uchraydi.

**QOVUSHQOQLIK** - zarrachalarning boshqa kuch ta'siriga (aralashishga) bo'lgan qarshiligi. Suyuqliklarga nisbatan dinamik va kinematik qovushqoqliklar ma'lum. Dinamik qovushqoqlik  $1 \text{ sm}^2$  maydonli suyuqlik qatlaminini  $1 \text{ sm}$  ga  $1 \text{ sek.}$  tezlik bilan ko'chirish uchun ko'rsatilgan qarshilik kuchi bo'lib, puazda o'lchanadi. Qovushqoq suyuqliknинг dinamik qovushqoqligi uning solishtirma og'irligiga nisbati bo'lib, stokslarda o'lchanadi.

**MODDA QOVUSHQOQLIGI** - suyuqlik yoki gazsimon holatdagi moddalarining siljish (surilish) deformatsiyasiga qarshilik ko'rsatish xossasi. Suyuqlikdagi har xil zarracha ko'chishi jarayonida ba'zi bir qarshilikka uchraydi. Bu ichki ishqalanish deb ataladi. Ichki ishqalanish eritmalariga xos xususiyat bo'lib, modda qovushqoqligida ifodalanadi.

**SUVNING QOVUSHQOQLIK** - suyuqlik harakat qilayotganda ishqalanish kuchini hosil qilishga olib keladigan xossasi; katta tezlikda harakatlanayotgan suv harakatidan kichik tezlikda siljiyotgan suv qatlama harakat kuchini uzatuvchi faktor hisoblanadi. Suvning qovushqoqligi eritmaning haroratiga va kontsentratsiyasiga bog'liq.

**NEFTNING QOVUSHQOQLIGI** - neft zarrachalarining boshqa kuch ta'siriga ko'rsatgan qarshiligi.

**GAZ** - moddaning agregat holati. Har bir modda harorati va bosim o'zgarishiga qarab qattiq, suyuq va gaz holatda bo'ladi. Masalan, suv qattiq (muz) yoki gaz (bug') holatda bo'lishi mumkin. Gaz molekulalari siqiluvchan, harakatchan, zichligi juda kichik, bir-biri

bilan juda tez aralashadi. Gaz tashqi ta'sir bo'lmaganda idish hajmining hammasini egallaydi. Gaz molekulalari orasidagi tortishish kuchini qattiq va suyuq jism molekulalarinikidan ancha kichikdir. Normal sharoit ( $300^{\circ}\text{C}$  harorati va 1 atm bosim)da gazlar zichligi suyuqliklar zichligiga nisbatan 1000 barobar kam yoki gaz molekulalari orasidagi masofa suyuqliklarnikiga nisbatan 10 barobar katta bo'ladi. Shunday bo'lsa ham normal sharoitda 1  $\text{sm}^2$  gazda  $3 \times 10^{19}$  dona molekula bor. Gaz uchta birlik-bosim, hajim va harorat bilan ifodalanadi.

**NEFT GAZI** - neftda erigan holda yoki neft uyumi ustida gaz qalpog'i ko'rinishidagi neftni kuzatuvchi tibiiy gaz. Og'ir gemolog metan tarkibiga qarab quruq metanli (< 1%), yarim quruq (1-5 %), yarim yog'li (5-25%) va yog'li (> 25%) kabi neftli gazlarga bo'linadi.

**NEFTGA HAMROH GAZLAR** - neft va gaz uyumlaridan neft bilan birga neftga xamroh gazlar olinish jarayoni.

**TABIY GAZLAR** - har xil geologik va geokimyoviy sharoitlarda paydo bo'ladigan turli kimyoviy tarkib va fizik xususiyatlariga ega bo'lgan gazlar. Tarkibi va fizik xossalariqa qarab ular bir necha guruhga bo'linada: a) atmosfera, litosfera gazlari, o'simlik va hayvonotlar dunyosi gazlar; b) namayon bo'ladigan gazning o'choq turlari; v) uglevodorodli gazlar; karbonat angidrid gazi, azot gazlari (ular tabiatda sof va aralashgan holatda uchraydi); g) biokimyoviy gazlar, litokimyoviy gazlar, radioaktiv gazlar, havo gazlari, koinotdagi qoldiq gazlar.

**GAZ SEPARATORI** - gazli va gaz kondensatli quduqlarning mahsulotlarini nam tomchilari uglevodorod kondensatlari shuningdek qum zarrachalari, tuz kristallari va boshqa aralashmalardan tozalaydigan asbob.

**GAZ TERMOMETRI** - ichidagi gazning hajmini yoki bosimini o'lchash yo'li bilan haroratni aniqlaydigan asbob.

**GAZ OMILI** - tabiiy gazning 1 t yoki 1  $\text{m}^3$  neftga to'g'ri keladigan miqdori ( $\text{m}^3$  da). Katta gaz omili 1000-2000  $\text{m}^3/\text{t}$  (1 t neftga 1000-2000  $\text{m}^3$  gaz to'g'ri keladi) va undan ham katta sonlar bilan harakterlanadi. Ko'pchilik vaqlarda gaz omili 100-200  $\text{m}^3/\text{t}$  kattalikka ega. Konlarda gaz miqdori juda kam bo'lgan gaz omili gaz miqdorining suv miqdoriga bo'lgan nisbatiga teng.

**GAZ-NEFT SEPARATORI** - neft va yo'-yo'lakay gaz zichliklari farqi hisobiga ularni ajratadigan asbob. Ish tartibiga qarab gaz-neft separator gravitatsion, markazdan qochma va murakkab; shakliga qarab sferik va silindrik (tik, qiya va gorizontal); ish bosimiga qarab vakuumli, past, o'rtacha va yuqori bosimli xillariga bo'linadi.

**GAZLIFT** - siqiq havo yoki tabiiy gaz yordamida suyuqliknini quduqdan ko'taradigan qurilma. U burg' quduqlaridan suv yoki neftni ko'tarishda, kimyoviy ishlab chiqarishda turli eritma va suyuqliklarni yuqoriga ko'tarishda qo'llaniladi.

**GAZOIL'** - 200-400<sup>0</sup> S haroratlar oraligida qaynaydigan neft fraktsiyalari. U kerosin bilan surkov moy fraktsiyalari orasidagi oraliq vaziyatni egallaydi. U asosan, dizel' yoqilg'isi sifatida foydalilaniladi.

**GAZ O'TKAZUVCHANLIK** - har xil tog' jinslarining gaz o'tkazish qobiliyati. Suvdan, neftdan bo'sh g'ovak, kovak, teshik va yoriqlardan gazning tarqalishi har xil bosimlar bilan belgilanadi. Gaz o'tkazuvchanlik *darsi* birliklarida ifodalanadi. Qum va

qumtoshlarning gaz o'tkazuvchanligi 2-3 darsi, ko'pincha bir necha o'nlab millidarsini tashkil etadi. Lekin ko'p o'tkazuvchan jinslarda gaz o'tkazuvchanlik  $10^{-3}$  dan  $10^{-6}$  gacha darsini tashkil qiladi.

**GERMETIKLANISH** - zichlash, havo kirmaydigan-chiqmaydigan qilish. Burg'ilash qudug'i ichini o'rovchi mustahkamlivchi quvurning zichligini ta'minlash va shuningdek quduq og'zini mukammal zichlash.

**GIDROKIMYOVİY TAHLİL** - tabiiy suvlarning fizik xossalari, kimyoviy tarkibini rN va Eh ni aniqlash usullarining majmuasi. Gidrokimyoviy tahlil maqsadlariga qarab uning to'laligi va aniqligi o'zgarishi mumkin.

**GIDROFIL' KOLLOIDLAR** - dispers muhiti suv hisoblangan liofilli kolloidlar.

**GUDRON** - neftdan benzin, kerosin va moyli fraktsiyalarning asosiy massalarini haydashdan qolgan qora sholasimon qovushqoq massa. Uning zichligi  $950-1000 \text{ kg/m}^3$ . Gudron izolyatsiya materiallari olishda xom ashyo hisoblanadi.

**ATMOSFERA BOSIMI** - bosimi o'lchanayotgan sath ustidagi  $1 \text{ sm}^2$  yuzaga ega bo'lган havo ustuni og'irligiga teng atmosfera havosining bosimi. Dengiz sathida o'rtacha atmosfera bosimi simob ustunining 160 mm teng bo'lib, u balandlik ortishi bilan kamayadi.

**SUYUQLIK ICHIDAGI BOSIM** - suyuqliknинг ayni bir sathda hamma yo'nalishlar bo'yicha bir xil kuch bilan ta'siri. Chuqurlik ortgan sari suyuqliknинг quduq devoriga ta'sir etuvchi bosimi oshib boradi.

**GAZ BOSIMI – GAZ BOSIMI** - gaz molekulalarining issiqlik ta'siridan kengayishidan hosil bo'lган bosim. Bu bosim  $\text{kg/sm}^2$  birlikda yoki atmosferada hisoblanadi (1 atm. qiymati  $1,03 \text{ kg/sm}^2$  teng)

**KRITIK BOSIM** - har bir moddaning xususiy kritik bosimi. Ma'lum kritik bosim moddaning fizik-kimyoviy doimiysi hisoblanadi. Masalan, suvning kritik bosimi 218,3 atm. Kritik bosimdan past bosimdagи sistema ikki muvozanat faza (suyuqlik bug') ga ajraladi. Lekin kritik bosimda suyuqlik bilan bug' orasidagi farq yo'qoladi, ya'ni fazali holatga o'tadi.

**QATLAM BOSIMI** - maxsuldor qatlamlarla saqlanayotgan suyuqlik va gazlarning shu qatlamga ta'sir etayotgan bosimi. Qatlam bosimi neftli, gazli va suvli qatlamlarning energiyasini ifodalaydigan eng muhim belgi hisoblanadi. Boshlang'ich qatlam bosimi neft qatlamining qanchalik chuqurlikda yotishiga bog'liq va odatda gidrostatik bosimga yaqin. Qatlam energiyasi sarfiga ko'ra qatlam bosimi kamayadi. Qatlam bosimini saqlab turish uchun neft qatlamining atrofiga bosimli suvlar rejimida ishlaydigan darajada suv to'ldiriladi yoki neft qatlamining gaz qalpog'iga dam berib gaz qalpog'i rejimida ishlaydigan darajada gaz yuboriladi.

**DARSI** - tog' jinslarining suv, suyuqlik o'tkazuvchanlik o'lchov birligi. U tog' jinslarining dinamik yopishqoqligi 1 santipuaz ( $1/100$  puaz) bo'lган suyuqliknı  $1 \text{ sm}^2$  ko'ndalang kesimli maydon orqali  $1 \text{ sm/sek}$  tezlik bilan suyuqlik bosimining farqi 1 atm. ni tashkil qilganda oqim yo'nalishi bo'yicha sizilish yo'lining  $1 \text{ sm}$  uzunlikka singdirishni ifodalaydi.

**DEBIT** - quduqlar, buloqlar va konlardan ma'lum vaqt birligida chiqadigan suyuqlik (mineral suv, neft) yoki gaz hajmi. Suyuqlik uchun debit sekundiga litr, kecha kunduzga litr yoki saotiga kub metrlarda o'lchanadi. Suyuqlik debeti suv o'lchagichlar yordamida aniqlanadi. Gaz debeti kecha-kunduziga kub metrlarda o'lchanadi va anemometrlar yordamida aniqlanadi.

**NEFT QUDUG'INING DEBITI** - quduqdan vaqt birligida olinayotgan neft hajmi. U litr sekundlarda yoki metr-kub saotlarda kecha-kunduzlarda hisoblanadi.

**QUDUQLARNING DEBITI** - vaqt birligi ichida quduqdan olinadigan suyuqlik miqdori. Quduq debiti quduqning ish unumini ifodalaydi va  $m^3/soat$ ,  $m^3/sutkada$  hisoblanadi.

**GAZSIZLANTIRISH (DEGAZAЦIЯ)** - gilli aralashmadan yoki kollektordan gazni tabiiy yoki sun'iy holda ajratib olish. Neftdagagi gazlar tarkibini aniqlashga neftdan ajralib chiqadigan gazlarning uch xil turi farq qilinadi: a) kontaktli gazzsizlantirishda bosim kamayganda eritmadan ajralib chiqqan gazning hammasi degazatsiyalanish jarayoni tugamaguncha kontaktda qoladi. b) differentsiyal gazzsizlantirishda aralashmadan ajralib chiqqayotgan gaz bosimining pasayishiga qarab sistemadan vaqt-vaqt bilan shunday suyuqlik bilan yangi ajralib chiqqan gazning borgan sari og'irroq fraktsiyalarini qoladi. Gazning yengil fraktsiyalarini chiqarib tashlash darajasiga ko'ra og'ir komponentlarning portsial bosimi uzlusiz oshadi. Bu esa ularning bug'lanishini qiyinlashtiradi. Natijada gazzsizlantirish jarayoni to'la bo'lmaydi, ya'ni aralashma gazdan to'liq tozalanmaydi. v) vakuumli gazzsizlantirish – vakuumli so'rish yo'li bilan barcha gazni neftdan ajratish mumkin.

**NEFTNI GAZSIZLANTIRISH** - qazib olinayotgan neft tarkibidan erigan pastmolekulyarli uglevodorodlar (metan, etan, propan, serovodorod, azot korbonat angidrid gazi)ni chetlashtirish jarayoni.

**DEGIDRATOR (SUV AJRATGICH ASBOB) - SUV AJRATGICH ASBOBI (DEGIDRATOR)** - neft emul'siyasi tarkibidagi suvni yuqori chastota va yuqori kuchlanishli elektr maydoni ta'sirida ajratuvchi asbob.

**SUVSIZLANTIRISH (DEGIDRATOR)** - tog' jinslari va minerallardan suvni ajratib olish jarayoni. Masalan, opal mineralining suvsizlanishidan xaltsedon va kvarts minerallari hosil bo'ladi.

**AJRALISH (DESORBSIYA)** - adsorbentga yutilgan moddaning qayta ajralib chiqishi, adsorbsiyaning aksi. Adsorbent atrofidagi muhitda adsorbsiyanuvchi modda yig'ilishi (to'planishi)ning ko'payishi yoki haroratning ko'tarilishi desorbsiyaning paydo bo'l shiga sabab bo'ladi. Desorbsiya laboratoriya sharoitida adsorbentlardan yutilgan gaz, bug' yoki erigan moddalarni ajratib olish uchun qo'llaniladi.

**GAZNING AJRALISHI (DESORBSIYA)** - qattiq modda tarkibidan gazni qayta ajratib olish.

**DIZEL'**- og'ir yonilg'i (dizel yonilg'isi)da ishlovchi ichki yonuv dvigateli. U nemis olimi Dizel' tomonidan ixtiro etilgan.

**SUYUQLIKNING DINAMIK QOVUSHQOQLIGI** - maydoni  $1\text{ sm}^2$  bo'lgan suyuqlik qatklamining  $1\text{ sm/sek}$  tezlik bilan  $1\text{ sm}$  ga ko'chishi uchun ko'rsatilgan qarshilik kuchi

**DYUIM** - 12 fut yoki 25,4 mm ga teng bo'lgan brilliant uzunlik birligi. Dyuim ulishi mikrodyuim ( $10^{-6}$  dyuim yoki 25,4 hm ga teng) va mil ( $10^{-3}$  dyuim yoki 25,4 mkm ga teng) ham ishlatiladi.

**TABIIY GAZ** - neft bilan birgalikda yer yuzasiga chiqadigan gazlar.

**SUVNING QATTIQLIGI** - chuchuk suvning tarkibida  $\text{Ca}^{2+}\text{Mg}^{2+}$  ko'p bo'lgan xossasi. Suv qattiqligi 1 l suvga nisbatan milligram - ekvivalentlarda ifodalanadi. Suv qattiqligining 1 mg ekv 1 l suvda 20,04 mg/l  $\text{Ca}^{2+}$  yoki 12,16 mg/l  $\text{Mg}^{2+}$  bo'lishiga to'g'ri keladi.

**KIMYOVIY INGIBITORLAR** - turli kimyoviy reaktsiyalarini sekinlatib yoki to'xtatib quyuvchi moddalar. Nomaqlar jarayonlarni, masalan, metallarning korroziyalanib yemirilishini to'xtatmoq uchun keng qo'llaniladi. Foizning mingdan bir necha bo'ladijan tortib bir necha foizgacha keladijan kichik kontsenratsiya (to'planish)da ta'sir ko'rsatish kimyoviy ingibitorning xarakterli xususiyatlaridir. Reaktsianing sekinlashuvi yoki to'xtashi kimyoviy ingibitorning reaktsiya xarakteriga, miqdoriga, reaktsiya muhitiga qo'shilgan vaqtiga, haroratiga va samaradorligiga, ta'sir etuvchi boshqa moddalar birligiga bog'liq.

**ZANGLASH (KORROZIA) INGIBITORLARI** - metallarni zanglashdan saqlash uchun korrozion-aktiv muhitga qo'shiladigan modda. U mashina detallarini saqlashga va tashish vaqtida zanglashdan himoyalashga mo'ljallangan.

**O'LCHASH LYUKI** - rezervuardagi neft mahsulotlari va suvlarning sathini o'lchashga va ulardan namuna olishga mo'ljallangan lyuk.

**METAN ( $\text{CH}_4$ )** - to'yingan uglevodorodlar sinfining eng oddiy vakili. Hidsiz, rangsiz, yengil, yonuvchi gaz, suvda deyarli erimaydi. Suyuqlanish harorati- $182,5^{\circ}\text{S}$ , qaynash harorati- $-164,5^{\circ}\text{S}$ . Tabiatda eng ko'p uchraydi. Botqoqlik, hovuz va ko'lmaq suvlar tubidagi o'simlik qoldiqlarining havosiz parchalanishidan hosil bo'ladi. Tabiiy gazlar, shuningdek neft va ko'mirni qayta ishlashda olinadigan gazlarning asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi

**NASOS** - suyuqliklarni bosim ostida so'rish va haydash uchun ishlatiladigan qurilma (gidravlik mashina, apparat yoki asbob). Gazlarni siqish yoki siyraklashtirish, sochiluvchan jismalarni so'rish va haydashga mo'ljallangan mashina ham nasos deb ataladi. Nasoslar ish bosimiga qarab: past bosimli (20 m gacha), o'rta bosimli (20-60 m), yuqori bosimli (60 m dan yuqori) bo'ladi. Nasosning asosiy parametri ma'lum vaqt birligi ichida haydaladigan suyuqlik miqdori bilan aniqlanadi. Nasosning tebranma, bir, ikki va uch tsilindrli, gorizontal qo'shplunjjerli, markazdan qochirma, yer yuziga o'rnatilgan dvigateli. Markazdan qochirma botirma dvigateli va boshqa ko'pgina turlari mavjud.

**ADSORBSION NASOS** - so'rib olinadigan gazning gaz yutuvchi moddalar (selolit, silikagel, aktiv ko'mir) sirtida adsorbsiyalishiga asoslanib ishlaydigan vakuum nasos.

**NASOS STANTSASI** - suyuqliklarni bosim ostida haydaydigan inshoat, mashina va qurilmalar majmui. Nasos stantsiyasi suv olish qurilmasi, boshqarish apparatlari, so'rish quvurlari, nasoslar, dvigatellar, bosim quvur-yuritma va to'ldiruvchi jihozlardan tashkil topgan. Qishloq xo'jaligida sug'orish uchun ko'chma (o'ziyurar, tirkama, osma) nasosli stantsiyalar ishlatiladi.

**NEFT BAZASI** - neft mahsulotlarini qabul qilish, saqlash, bir transport vositasidan boshqasiga ortish, neft mahsulotlarini taqsimlash va tarqatishga mo‘ljallangan kompleks qurilma.

**NEFT VA GAZ ARALASHMALARI** - ko‘p komponentli uglevodorodlar sistemasi; u asosan parafinli, naftenli, aromatik uglevodorodlardan va shuningdek azod oksidi, vodorod sulfidi, oltingugurt, kislorod, simob va suv parlaridan iborat.

**NEFT IDISHI** - neftni yig‘ish va turboprovodlar orqali taqsimlash uchun xizmat qiladigan katta idish.

**NEFT NASOSI** - neftni kondan quduqlar orqali chiqarib berishga mo‘ljallangan nasos. Bu nasos boshqa nasoslardan elementlarining ancha uzunligi bilan farq qiladi. Eng ko‘p tarqalganlari tebranma dastgohlar bilan harakatlantiriladigan shtangali nasoslar va elektr yuritmalar bilan harakatlantiriladigan ko‘p bosqichli markazdan qochma nasoslardir. Bu nasoslarning barchasi chuqurlikda ishlaydi.

**NEFT OMBOR** - neftni saqlashga mo‘ljallangan yer tagi ombori.

**METAN - NAFTENLI NEFTLAR** - neftning distillat qismi tarkibida yaqin miqdordagi metanli va naftenli uglevodorodlarning bo‘lishi. Bu neftda aromatik uglevodorodlarning miqdori deyarli oz bo‘ladi. Bu neft tarkibida metanli neftga nisbatan qattiq parafinning oz miqdorda bo‘lishi xarakterlidir.

**METANLI NEFTLAR** - neftning distillat qismi tarkibida metanli uglevodorodlarning ko‘proq bo‘lishi. Metanli neft tarkibiga metan uglevodorodlari 50% dan ortiqroq bo‘lgan neftlar kiradi. Metanli neftlar tarkibida asfalt-smolasimon moddalarining oz miqdorda bo‘lishi bilan xarakterlanadi.

**METAN-NAFTENLI AROMATIK NEFTLAR** - neft fraktsiyalarida metanli, naftenli va aromatik uglevodorodlarning bo‘lishi. Bu neft asfalt-smolasimon moddalar bilan boyitilganli (10% va undan ko‘proq)gi va deyarli yuqori solishtirma og‘irligi bilan harakterlanadi.

**NAFTEN - AROMATIK NEFTLAR** - neftning distillat qismi tarkibida naftenli va aromatik uglevodorod miqdorining ko‘proq bo‘lishi. Bunda aromatik uglevodorodlar miqdori yuqori fraktsiyalarga qarab o‘sib boradi. Qattiq parafinning miqdori kam, asfalt-smolasimon moddalar esa 20% va undan ko‘proq bo‘lishi mumkin.

**NEFT** - yonuvchi moysimon suyuqlik. Qora yoki qo‘ng‘ir, ba’zan och malla rang yoki rangsiz, o‘ziga xos hidli kimyoviy xom ashyo. Neft yer yuzasiga chiqqach, quyilib qotadi va asfaltga aylanadi. Neftning zichligi 0,73 dan 1,04 gacha o‘zgarib turadi, qaynash harorati  $+20-100^0 S$  va undan yuqori; qotish harorati ( $+23^0$ )-( $-60^0 S$ ); issiqlik sig‘imi 1,7-2,1 KDJ (kg.j);  $50^0 S$  haroratda neftning yopishqoqligi  $0,002-0,55 \text{ sm}^2/\text{s}$  ga teng. U organik eritgichlarda yaxshi eriydi. Suvda umuman erimaydi. Lekin suv bilan emulsiya (bir-biriga singmaydigan ikki xil suyuqlik qorishmasi)hosil qiladi. Neft tarkibiga kiradigan asosiy kimyoviy elementlardan uglerod (82-87%) va vodorod (11-14%) ga ega. Neftning fizik xossasi uning tarkibiga bog‘liq. Solishtirma og‘irligi  $0,65-\text{g}/\text{sm}^3$  dan  $0,9 \text{ g}/\text{sm}^3$  gcha bo‘lgan neft yengil, undan yuqorisi og‘ir neft hisoblanadi. Neftning tarkibida uglevodorod 87% gacha, vodorod 10-15% gacha, kislorod 0,05-0,5 dan 5% gacha, juda oz miqdorda vanadiy, fosfor, kaliy, nikel, temir uchraydi. Neft yonilg‘i, moylash materiallari hamda sintetik tola,

plastmassa, sun'iy kauchik, spirt, kislota va boshqa neft-kimyoviy mahsulotlar chiqarishda keng foydalinadi.

**NEFT TO'PLASH JOYI** - neft qudug'i mahsulotlarini qayta ishlashga va yig'ishga mo'ljallangan. U neft va gazlarni transport vositasi bilan tashishga, neftni saqlashga, qatlam suvlarini tozalashga xizmat qiladi.

**NEFTNI TUZSIZLANTIRISH** - neft qudug'i mahsulotlaridan xlorli tuzlarni chetlashtirish jarayoni.

**PAST HARORATLI REZERVUAR, IDISH** - atrof muhit haroratidan ( $-4^{\circ}\text{S}$ ) past holatda, suyultirilgan uglevodorod va tabiiy gazlarni saqlash uchun mo'ljallangan idish - rezervuar.

**TINDIRGICH** - suyuqliklarni mexanik aralashmalardan tozalash uchun mo'ljallangan hovuz yoki rezervuar (idish). Tindirgichda suyuqlik oqimining tezligi kamaytiriladi yoki butunlay to'xtatib qo'yiladi. Natijada suyuqlikdagi aralashmalar o'z og'irlik kuchi ta'sirida idish tagiga cho'kadi yoki suyuqlik sirtiga qalqib chiqadi. Idish tubida to'plangan har xil zarrachalar cho'kma hosil qiladi. Cho'kma va qalqib chiqqan qatlamning to'planishi sedimentatsiya (cho'kish) qonuniyati asosida aniqlanadi. Tindirgich suvni tozalash uchun ham qo'llaniladi. Suzgich bilan ta'minlangan burg' quduqlarida suzgich tagiga o'rnatiladigan, burg' qudug'idan suv chiqarishda suv bilan chiqib ketadigan tog' jinsi zarrachalari cho'kadigan tagi berk quvur ham tinitgich deb yuritiladi.

**SUVNI TOZALASH** - suv sifatini sanitariya talabiga yaroqli darajada tozalash. Tozalash tindirish, filtilash, yumshatish, zararsizlantirish, chuchuklashtirish, tuzsizlantirish yo'li bilan amalga oshiriladi.

**GAZNI TOZALASH** - atrof muhitni ifloslantiruvchi zararli moddalardan va gazdan yonilg'i sifatida foydalanishda ajralib chiqadigan har xil komponentlardan tozalash jarayoni. Ayrim hollarda gazni tozalash jarayonida har xil foydali komponentlar ham ajratib olish mumkin.

**OKSIDLANGAN NEFTLAR** - bug'lanish, oksidlanish, polimerizatsiyalanish, aerob va anaerob sharoitdagi bakteriyalar ta'sirida gipergen o'zgargan neftlar.

**OPERATOR** - murakkab dastgohlarni boshqaruvchi ixtisosli ishchi.

**ZICHLIK** - tog' jinslari, moddalar, minerallar zichligi, ya'ni fizik xossalari bo'lib, massini hajmiga bo'lgan nisbatini ifodalaydi;  $\text{g/sm}^3$  da belgilanadi.

**SUVNING ZICHLIGI** - suvning hajm birliklaridagi massasi. Masalan,  $1 \text{ m}^3 (t = 4^{\circ}\text{C})$  suv bir tonnaga teng zichlik og'irlik o'lchoviga ega bo'lganligi bilan solishtirma og'irlikdan farq qiladi. Solishtirma og'irlik umumiy kattalik hisoblanadi.

**NEFT ZICHLIGI** -  $+20^{\circ}\text{S}$  da aniqlanadi va u  $0,730-1,06 \text{ g/sm}^3$  teng.

**NEFTNI ISITISH** - neftning yopishqoqligini pasaytirish va reologik hossalarini oshirish maqsadida neftni isitish jarayoni.

**KORROZIYAGA QARSHI QATLAMLAR** - buyumlarni tashqi muhitning korrozion ta'siridan saqlash, ko'rkamlashtirish uchun ularning sirtiga qoplanadigan yupqa qatlam. Uning metalli (ruxlash, kadmiylash, nikellash, xromlash, qalaylash, qo'rg'oshinlash, tilla suvi yogurtirish); lak-bo'yoqli; shisha emalli, oksid pardali (qoraytirish, anodli ishlov berish), rezina bilan qoplash, plastmassa va bitum bilan moylash xillari mavjud.

**DIN-STARK ASBOBI** - neft yoki tog' jinsi namunasidagi suvning miqdorini o'lchashga mo'ljallangan asbob.

**PUAZ** - dinamik qovushqoqlikning o'lchov birligi; o'zaro 1 sm/sek nisbiy tezlik bilan harakatlanayotgan, bir-biridan 1 sm masofada joylashgan 1 sm<sup>2</sup> yuzaga ega bo'lgan ikki suyuqlik qatlamiga 1 dina kuch bilan ta'sir qilayotgan suyuqlikning qovushqoqlik birligi.

**REAGENTLAR** - eritmalarining struktura-mexanik xossalari tartibga solib turuvchi moddalar.

**NODIR GAZLAR** - argon, kriton, ksenon, geliy, neon va boshqa gazlardan tashkil topgan.

**REZERVUAR** - gaz va suyuqliklar saqlanadigan har xil sig'imli idish (havuz, bak, ballon). Yer ustiga, yerga, yer ostiga o'rnatiladigan xillari mavjud. U metal, yog'och, tosh, beton va temir betonlardan yasaladi. Saqlanadigan materialarning har xilligiga qarab rezervuarga har xil ishlov beriladi. Masalan: kislotalar saqlanadigan rezervuar uchun kislota bardosh materiallar ishlataladi.

**NEFT' VA GAZNING TO'PLANISHI** - neft, gaz va suv sifatini talabga javob beradigan darajada tayyorlash va ularni foydalanuvchiga tashib yetkazib berish jarayoni.

**AJRATGICH (SEPARATOR)**- separatsiyani amalga oshiradigan apparat. Ishlash tartibi suyuqlik yoki qattiq jism komponentlarining fizik xususiyatlari (zarrachalarining shakli, massasi, solishtirma og'irligi, magnit va boshqalar) orasidagi farqqa asoslangan. Markazdan qochma, magnit, tindirma, pnevmatik, ishqalanma, elektr va boshqa xillari bo'ladi.

**SEPARATSIYA (AJRATISH)** - gazlarni suyuq yoki qattiq zarrachalardan holi qilish: qattiq va suyuq aralashmalarni tarkibiy qismlarga ajratish.

**NEFTNI BARQARORLASH** - neft olinayotgan konlarda kimyoviy mahsulot va yonilg'i sifatida foydalanish maqsadida engil uglevodorodlar ( $\text{CH}_4$  dan  $\text{C}_4\text{H}_{10}$  gacha)ni ajratib olish.

**TURBOKOMPRESSOR** -gazni siqib uzatadigan turbinali kompressor.

**UGLEVODORODLI (NEFTLI) GAZ** -yonuvchi (neftli) tabiiy gaz yer po'stida yoki mustaqil gaz uyumi sifatida, neft uyumlari bilan bog'liq holda namoyon bo'ladi. Ayrim hollarda neft konlarining ustida gaz shapkasini hosil qiladi. Neftli gaz tarkibida metan, etan, propan, butanlar bo'ladi. Metan ko'proq gaz uyumlarida uchraydi va miqdori 98% yetadi. Ayrim hollarda gazda og'ir uglevodorod bug'lari-pentan, geksan va geptan bo'ladi. Undan tashqari gazda karbonat angidrid gazi ( $\text{SO}_2$ ), azot ( $\text{N}_2$ ), oz miqdorda geliy, argon, neon va serovodorod ( $\text{H}_2\text{S}$ )lar uchraydi.

**UGLEVODORODLAR** - molekulalari faqat uglerod va vodorod atomlaridan tuzilgan organik birikmalar. Ular molekulyar og'irligi va kimyoviy strukturasiga qarab gazsimon, yengil, og'ir, suyuq va qattiq hollarda bo'ladi. Uglevodorodning to'yingan, to'yinmagan turlari ham mavjud. Tuzilishiga qarab atsiklik va izotsiklik uglevodorodlarga ajratiladi. Uglevodorod ko'pchilik neft va yonuvchi gazlarning asosiy komponenti.

**AROMATIK UGLEVODORODLAR** - molekulasida benzol yadrosi bo'lgan uglevodorodlar. Aromatik uglevorodning eng asosiy vakillari benzol ( $\text{C}_6\text{H}_6$ ) va umumiy

formulasi C<sub>4</sub>H<sub>4</sub>-6 bo‘lgan benzol gomologlaridir (masalan, toluol-C<sub>6</sub>H<sub>5</sub>-CH<sub>3</sub>, stirol-C<sub>5</sub>H<sub>6</sub>-CH=CF<sub>2</sub> va boshqalar). Benzol yadrolaridagi kondensirlangan aromatik uglevodorodlarga naftalin, antrotsen, fenantren va boshqalar kiradi. Aromatik uglevodorodning asosiy manbai toshko‘mirni kokslash natijasida olinadigan mahsulotlardir. Neftdan ham ko‘p miqdorda aromatik uglevodorodlar olinadi. Ba’zan sintetik usullar yordamida aromatik ketonlar, aldegidlar, kislotalar hosil qilish mumkin.

**OG’IR UGLEVODORODLAR** - tabiiy gazda uchraydigan metanning gazsimon gomologeni.

**UGLEVODORODLI GAZLAR** - tarkibida 50% dan ortiqroq har xil uglevodorod birikmalari bo‘lgan gazlar majmui.

**SOLISHTIRMA OG’IRLIK** - 1 sm<sup>3</sup> moddaning gramlarda ifodalangan solishtirma og’irligi. U g/sm ifodalanadi.

**SOLISHTIRMA HAJM** - modda egallagan hajmnинг shu modda massasi nisbatiga teng V kattalik;  $V=dV/dm$ , bunda dm-kichik hajm dv ga to‘ldirilgan moddaning massasi. Solishtirma hajm zichligi p ga teskari kattalik:  $V=1/r$ . solishtirma hajm birligi m<sup>3</sup>/kg da o‘lchanadi.

**SUYUQLIKNING SOLISHTIRMA SARFI** – suyuqlik oqimining 1 m kengligiga to‘g‘ri keladigan o‘rtacha suyuqlik sarfi.

**KONNI ISHLASH LOYIHASI** - konni ishslash va ishlatish usullarini, shu konni jixozlash loyihasi uchun kerak bo`ladigan hamma asosiy ma‘lumotlarni va asosiy texnologik ko`rsatkichlarni o‘z ishiga olgan bo`lishi kerak. Loyihalash tashkilotlari tomonidan ishslash loyihasiga muvofiq ravishda konni jixozlash loyihasi xam tuziladi.

**KONNI JIHOZLASH LOYIHASI** - neft, gaz va qatlam suvini yig`ishni, neftni transport qilishga tayyorlaydigan turli xil texnologik uskunalarini oqilona joylashtirishni, loyiha bo`yicha qatlamga suv haydash nazarda tutilgan hollarda suvni tayyorlash tizimini o‘z ishiga oladi.

**KONDA NEFT VA GAZNI YIG`ISH TIZIMI** - quduqdan to neft yoki gazni tayyorlash qurilmalarigacha bo`lgan quvurlar, o`lchov asboblari va yig`ish punktlarini o‘z ichiga oladi.

**GAZ EJEKTORI** - quvurlarni tejash va ortiqcha bosimlardan foydalanish uchun foydalaniadi. Gaz ejektori baland va past bosimli gazlar uchun mo`ljallangan kameralardan, soplidan, aralashish kamerasidan va diffuzordan tashkil topgan. Gaz ejektori bir vaqtida turli bosimli gaz qatlamlarini aloxida-aloxida ishlatishda ham qo`l keladi.

**METANOLLI QURILMALAR** - gaz quvurlarida gidrat hosil bo`lishini oldini olish va hosil bo`lgan gidrat tiqinlarini bartaraf qilish uchun o`rnataladi.

**MAXSUS HID BERUVCHI MOSLAMALAR** - qurilma va quvurlarda utechka yuz berganda darhol bilish uchun qo`llaniladi.

**GERMETIZATSIYALASHGAN YIG`ISH TIZIMI** – bu tizimda mahsulot miqdori avtomatik qurilmalar yordamida o‘lchanadi. Quduq mahsuloti Sputnik turidagi o`lchash qurilmalariga uzatiladi. Bu qurilmada quduqdan uzatilayotgan suyuqlik hajmini

davriy o`lchash ishlari o`tkaziladi, suv va suyuqlikni foiz miqdori va erkin gaz miqdori aniqlanadi.

**YO`NALTIRUVCHI QUVURLAR** - quduqdan birinchi gurux o`lchagich qurilmalarigacha bo`lgan masofada ishlatiladi.

**YIG`UVCHI QUVURLAR** - birinchi gurux o`lchagich qurilmalaridan neftni yig`ish va tayyorlash qurilmalarigacha bo`lgan masofada ishlatiladi.

**TAZYIQLI QUVURLAR** – unda mahsulot quvurni to`liq to`ldirib oqadi, o`rta, yuqori va kuchli bosimli quvurlar tazyiqli quvurlar deyiladi.

**TAZYIQSIZ QUVURLAR** – unda mahsulot quvur ichi to`liq bo`lmagan holda oqishi mumkin. Past bosimli quvurlar tazyiqsiz quvurlar deb ataladi.

**ODDIY QUVURLAR** - bir xil diametrga ega bo`lib, unga boshqa quvurlar ulanmagan bo`ladi.

**MURAKKAB QUVURLAR** - diametri har xil bo`lishi hamda quvurlarga boshqa quvurlar ulangan bo`lishi mumkin.

**GIDRATLAR** - rangi sarg`ish bo`lib, ko`rinishidan qorga o`xshaydi. Gidratlar gaz yig`ish quvurlarida ham yuqori, ham past haroratlarda hosil bo`lishi mumkin. Ba`zi karbonsuvchillar uchun gidratlar quyidagi kimyoviy formulalar ko`rinishida bo`ladi:



**ETILMERKAPTAN C<sub>2</sub>H<sub>5</sub>SN** - barcha qo`shimchalardan tozalangan gazni hidlantirish uchun ishlatiladi. Hidlantirish jarayoni «barbotash» apparatida sodir etilib, 1000m<sup>3</sup> gazga 16 gr etilmerkaptan qo`shiladi. Tozalangan gaz bosh inshootda joylashgan bosh kompressor yordamida magistral gaz quvuriga haydaladi.

**KORROZIYA** - metallarning korrozion muhitlar bilan kimyoviy yoki elektrokimyoviy o`zaro ta`siri natijasida yemirilish jarayonidir (lot. **Soggodege** – o`z-o`zidan yemirilish).

**KORROZION MUHIT** - metallarning korrozion jarayonlar sodir bo`lishiga olib keladigan agressiv atmosfera, kislotali eritmalar, ishqorlar, tuzlar va boshqa muhitlardir. Ko`pgina metallar agressiv muhitlar ta`sirida termodinamik noturg`un bo`lganligi uchun oksidlangan holatga o`tadi va yemiriladi.

**KORROZIYABARDOSHLIK** - metallarning korroziyaga qarshilik ko`rsatish qobiliyati. Metall va ularning qotishmalari har xil haroratlari sharoitlarda va har xil tashqi muhitlarda turlisha korroziyabardoshlilikka ega bo`ladi.

**KIMYOVIY KORROZIYA** - metallning agressiv muhit bilan o`zaro kimyoviy ta`sirida sodir bo`ladigan jarayonlar orqali kechadi. Kimyoviy korroziyada metall sirti bilan suyuq yoki gazli muhitlarning kimyoviy geterogen reaksiyalari sodir bo`lib, natijaviy elektr toki hosil bo`lishi kuzatilmaydi. Korroziya metall sirtiga quruq gazlar va bug`lar, suyuq

eletrolitmaslar (neft va uning mahsulotlari, spirtlar, mineral yog`lar, organik birikmalar) ta`sirida kuzatiladi.

**ELEKTROKIMYOVIY KORROZIYA** - geterogen elektrokimyoviy reaksiyalar bo`lib, unga suvli eritmalarda, nam gazlarda, tuz va ishqorli eritmalarda sodir bo`ladigan jarayonlar kiradi va metallning muhit bilan o`zaro ta`sirin natijasida elektr toki hosil bo`lishi kuzatiladi. Elektrokimyoviy korroziyani sodir bo`lish sharoiti, muhitning xossalariga va boshka turlarga ko`ra tasniflash mumkin.

**ELEKTRODEGIDRATOR** - neft bilan birga emulsiya holida chiqqan qatlam suvlarini ajratib olish uchun xizmat qiladi. Emulsiyani parchalash (yoki suvni ajratib olish) maxsus elektrodlarga elektr quvvati yuborilishi natijasida suv tomchilari bir – biri bilan birlashib ketadi va sekin – asta elektrodegidrator tagiga ajralib chiqadi.

**SAQLAGICHALAR** - tayyor neft mahsulotini vaqtinshalik yig`ish uchun omborxona sifatida qo`llaniladi. Neft konlarida odatda 100, 200, 300, 400, 700, 1000, 2000, 3000, 5000m<sup>3</sup> hajmdagi saqlagichlar ishlatiladi. Temir yo`l neft quyish estakadasiga qarashli omborxonalarda 7500 va 10000m<sup>3</sup> li saqlagichlar ham qurilishi mumkin.

**NEFT EMULSIYALARI** - deganda mayda dispers holatidagi neft va qatlam suvlarining mexanik aralashmasi tushuniladi. Konni ishlatish jarayonida neft va suvning o`zaro miqdoriy nisbati o`zgarib turganligi sababli, neft emulsiyalarining xususiyatlari ham keng miqyosda o`zgarib turishi mumkin.

**DISPERSLILIK** - emulsiyalarning xossalarini belgilovshi asosiy tavslifdir. Dispers faza tomchilari kattaligi 0,1 – 100 mk gacha bo`ladi. Bir xil diametrlı tomchilardan tashkil topgan dispers tizimlar – monodispers, har xil diametrlı tomchilardan tashkil topgan dispers tizimlar – polidispers tizimlar deyiladi. Neft emulsiyaları har xil o`lchamdagı zarrachalardan tashkil topganligi uchun polidispers tizimlar turiga kiradi.

**DEEMULGATORLAR** – neft emulsiyalarini hosil bo`lishini oldini olish va hosil bo`lgan neft emulsiyalarini parchalash uchun ishlatiladi. Deemulgatorlarning vazifasi suv tomchilarining yuzasidagi emulgatorlarni, ya`ni neft va qatlam suvi tarkibidagi tabiiy sirt faol moddalarni (asfalten, naften, qatron (smola), parafin) siqib chiqarishdir.

**GRAVITATSION SOVUQ AJRATISH** - bu usul saqlagichlarda neft va suv juda ham aralashmaganda neftdagi qatlam suvi 50 % va undan yuqori bo`lganda qo`llaniladi. Emulsiyalarining sovuq gravitatsion parshalanishi uchun deemulgatorlar ishlatiladi.

**LYUK** - ta`mir ishlari vaqtida va saqlagichning tubini tozalash uchun xizmat qiladi. Saqlagichning eng pastki qismida o`rnataladi.

**O`LCHAGICH LYUK** - saqlagichdagi neftning satxini o`lchash uchun, namunalar olish uchun ishlatiladi.

**YORUQLIK LYUKI** - saqlagichning tomida o`rnatilgan bo`lib, u ta`mirdan yoki tozalashdan oldin saqlagichning havosini almashirishga mo`ljallangan.

**QABUL QILUVCHI VA TARQATUVCHI** - tashqaridan kelayotgan qabul qiluvshi va tarqatuvshi quvur uzatkichlarni ularshda foydalilanadi.

**QOPLAGICH** - surilma (zadvijka) va quvur uzatkichlarning nosozligi vaqtida neftni oqib ketishidan asraydi.

**O`TKAZUVCHI QURILMA** - qoplagishning ikkala tomonidagi neftning bosimini to`g`rilab turish uchun xizmat qiladi.

**KO`TARUVCHI QUVUR** - saqlagichning ishiga joylashtirilgan bo`lib, u neftni xohlagan balandlikdan olish uchun o`rnatilgan.

**NAFAS OLUVCHI TO`SQICH** - saqlagichda harorat o`zgarishi natijasida vakuum hosil bo`lganda, saqlagichdagi bosim ortganda avtomatik ravishda oshilib – yopiladi.

**OLOVDAN SAQLAGICH** - nafas oluvshi to`sqish bilan birgalikda o`rnatiladi va uning vazifasi nafas oluvshi to`sqishdan saqlagichdagi gaz bo`shlig`iga olovni kirishini oldini olishdan iboratdir. Olov olovdan saqlagichga kirib, kichkina kesimli kanallar tizimidan o`tib, bo`lak – bo`lak kichkina oqimshalarga bo`linadi va ushadi.

## **Kurs ishini bajarish bo'yich uslubiy ko'rsatma**

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS  
TA`LIM VAZIRLIGI**

**QARSHI MUXANDISLIK IQTISODIYOT INSTITUTI**

**“Quduq mahsulotini yig`ish va uzatish”**  
fanidan kurs ishi yozish bo`yicha



**QARSHI-2011**

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM  
VAZIRLIGI**

**QARSHI MUXANDISLIK - IQTISODIYOT INSTITUTI**

**“Neft va gaz konlarini ishga tushirish va ulardan foydalanish”  
kafedrasi**

**Avlayarova N.M.**

**5542000 – «Neft va gaz konlarini ishga tushirish va ulardan foydalanish»  
bakalavriat ta`lim yo`nalishi talabalar uchun**

**“Quduq mahsulotini yig`ish va uzatish”  
fanidan kurs ishini bajarish uchun**

**USLUBIY KO`RSATMA**

**QARSHI-2011**

**Tuzuvchi:**

**kat. o`qituvshi Avlayarova N.M.**

**Taqrizchi:**

**dotsent Eshqobilov X.Q.**

Bakalavriatning 5542000 – «Neft va gaz konlarini ishga tushirish va ulardan foydalanish» ta`lim yo`nalishi talabalari uchun “Quduq mahsulotini yig`ish va uzatish” fanidan kurs ishini bajarish uchun uslubiy ko`rsatma. Qarshi QMII, 2011 y., \_\_\_\_\_ bet.

Mazkur uslubiy ko`rsatma “Neft va gaz konlarini ishga tushirish va ulardan foydalanish” bakalavriat yo`nalishida ta`lim oluvchi talabalar tomonidan “Quduq mahsulotini yig`ish va uzatish” fanidan kurs ishini tayyorlash va himoya qilish jarayoniga uslubiy jihatdan yordam beradi.

Davlat ta`lim standartlarida bakalavriat bosqichi talabalari “Quduq mahsulotini yig`ish va uzatish” fani bo`yisha qo`llanilishi talab etilgan bilimlarni, kasbiy vazifasini o`zining kurs ishisida amalga oshirishi belgilangan. Uslubiy ko`rsatmada kurs ishi mavzularini tanlash, adabiyotlar bilan tanishish, kurs ishini yozish, ularni rasmiylashtirish, himoya qilish jarayonlari va texnologik hisob – kitoblar bo`yisha kurs ishi mavzulari batafsil bayon etilgan.

Qarshi Muxandislik Iqtisodiyot instituti “Neft va gaz konlarini ishga tushirish va ulardan foydalanish” kafedrasi professor-o`qituvshilarining yig`ilishida muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan (2011 yil “\_\_\_\_\_” -sonli majlis bayoni).

**Kafedra mudiri:**

**dots. M.I.Raxmatov**

Qarshi Muxandislik Iqtisodiyot instituti “Neft va gaz” fakulteti kengashida muhokama qilingan va tasdiqlash uchun tavsiya etilgan (2011 yil “\_\_\_\_\_” -sonli majlis bayoni).

**Fakultet dekani:**

**dots. Z.U.Sunnatov**

## **MUNDARIJA**

Bet	
Kirish.....	
1. Mavzuni tanlash .....	
2. Adabiyotlar bilan tanishish .....	
3. Kurs ishini yozish tartibi .....	
4. Kurs ishini rasmiylashtirishning umumiy talablari .....	
5. Kurs ishini himoya qilish .....	
6. Kurs ishini bajarish uchun 1-namunaviy mavzu.....	
7. Kurs ishini bajarish uchun 2-namunaviy mavzu.....	
Ilovalar.....	

## Kirish

Davlat ta`lim standartlari bo`yisha bakalavriat bosqichi talabalari “Quduq mahsulotini yig`ish va uzatish” fani bo`yisha qo`llanilishi talab etilgan bilimlarni, o`zining kurs ishida amalga oshirishi belgilangan. Jumladan, 3 kurs “Neft va gaz konlarini ishga tushirish va ulardan foydalanish” ta`limi yo`nalishi talabalari ham bakalavriat ta`lim yo`nalishida kurs ishini tayyorlashlari va himoya etishlari ko`zda tutilgan.

Oliy ta`lim muassasalarda “Neft va gaz konlarini ishga tushirish va ulardan foydalanish” ta`lim yo`nalishi bo`yisha kurs ishini bajarish muhim bir tayyorlanish shakllardan biridir. Kurs ishini yozish bu talabalar uchun nazariy va amaliy bilimini oshirish, yangiliklar bilan tanishish, bitiruv malakaviy ishlarni yozishga tayyorgarlik ko`rish uchun asosiy turtki bo`la oladi.

“Neft va gaz konlarini ishga tushirish va ulardan foydalanish” ta`lim yo`nalishi bo`yisha “Quduq mahsulotini yig`ish va uzatish” fanidan kurs ishini yozishdan asosiy maqsad quyidagilardan iborat:

- talabalarni neft va gaz qazib chiqarish korxonalarida quduq mahsulotini yig`ish va uzatish jarayonlarini o`rganishi uchun texnik hujjatlar, ilmiy va o`quv adabiyotlarini izlab topish va ularni o`rganib chiqish hamda ularni jamlab xulosa qilish uchun mustaqil ta`lim olish faoliyatini faollashtiradi;
- kurs ishi uchun to`plangan materiallarni tahlil qilish va ilmiy xulosa berishni o`rganishda malakasini oshiradi;
- faktlar asosida to`g`ri xulosa chiqarishni o`rganadi;
- kerakli materiallar rasmiylashtirish asosida yangiliklardan va adabiyotlardan to`g`ri foydalanishni o`rganadi;
- bitiruv malakaviy ishlarini yozishni birlamshi tayyorgarligidan o`tadi.

Kurs ishini yozish va himoya qilish jarayoni quyidagi bosqichlardan iboratdir:

1.Mavzu tanlash.

2.Foydalanish uchun zarur bo`lgan adabiyotlarni izlab topish va ularni ro`yxatini qilish.

3.Kerakli hujjatlar asosida ma`lumotlarni tayyorlash va yig`ish.

4.Kurs ishi rejasini tuzish.

5.Rejaga mos bo`lgan savollarni batafsil o`rganish va yozish.

6.Kurs ishida keltirilgan ma`lumotlarni keng va tushunarli tahlil qilish.

7.O`qituvchining taklif va ko`rsatgan kamchiliklarini e`tiborga olish va to`g`rilash.

8.Kurs ishini tahrir qilish.

9.Kurs ishini to`g`ri rasmiylashtirish.

## Mavzuni tanlash

Talabalar uchun kurs ishni yozishni boshlashda asosiy jihatlaridan biri bu kurs ishi mavzusini to`g`ri tanlash hisoblanadi. “Neft va gaz konlarini ishga tushirish va ulardan foydalanish” ta`lim yo`nalishi bo`yicha “Quduq mahsulotini yig`ish va uzatish” fani bo`yisha dolzarb muammolarni ochib beruvchi mavzuni kurs ishi uchun tayyorlangan mavzular ro`yxatidan tanlash kerak bo`ladi (1-ilovaga qarang).

Talabalar tanlagan mavzular bir xil bo`lib qolmasligi va talabalar uchun mavzu tanlash imkoniyati keng bo`lishi uchun, tayyorlangan mavzular ro`yxati kurs ishi yozishi ko`zda tutilgan talabalar soniga nisbatan ikki barobar ko`p bo`lishi tavsiya etiladi.

Kurs ishi mavzular ro`yxati har yili kafedra tomonidan yangi va dolzarb muammolarni yoritishga asos bo`ladigan mavzular bilan yangilanib turilishi va 1 martga qadar talabalarga tanishish uchun berilishi kerak.

Talaba mavzuni tanlashda o`qituvchilar bilan maslahatlashishi mumkin. Talaba kurs ishi mavzular ro`yxatidan mavzu tanlayotganida qiziqarli bo`lgan dolzarb muammolarni ochib beradigan mavzuni tanlash huquqiga ega. Bundan tashqari, talaba kurs ishi mavzular

ro`yxatida bo`lмаган iqtisodiy, moliyaviy muammolarni ochishda muhim va qiziqarli bo`lgan mavzularni taklif qilishi mumkin. Mavzu tanlangandan so`ng, albatta ilmiy rahbar bilan maslahatlashib olish kerak. Har bir talaba bitta mavzu tanlash huquqiga ega.

### **Adabiyotlar bilan tanishish**

Kurs ishini bajarishda talabaga darslik, o`quv qo`llanma, ilmiy-amaliy jurnallar, ommaviy ro`znomalar, me`yoriy-huquqiy hujjatlar va internet saytlari bilan tanishish tavsiya qilinadi.

Talaba tanlagan mavzuga mos adabiyotlar bilan tanishib bo`lgandan so`ng, o`rganishni boshlash kerak va ushbu mavzuga adabiyotlarni yig`ib bo`lib, undan foydalanish tavsiya qilinadi.

Kurs ishini yozishda adabiyotlar bilan foydalanishni ikki bosqichga bo`linadi. Birinchi kurs ishi mavzusi tanlashda va rejasini tuzishda adabiyotlarni foydalanish bo`lsa, ikkinchi kurs ishini yozish davomida adabiyotlardan foydalanadi. Umuman olganda, adabiyotlardan foydalanish ikkala bosqichda ham bir-biri bilan o`zaro bog`lanib ketadi. Chunki, mavzuni tanlashda va rejasini tuzishda foydalanilgan adabiyotlardan albatta kurs ishini yozishda ham foydalaniladi.

Kurs ishi mavzusini tanlashda va rejasini tuzishda adabiyotlardan foydalanish juda katta ahamiyat kasb etadi. Chunki talaba kurs ishi mavzusini tanlashda talaba uchun qiziqarli va tushunarli mavzuni tanlaydi. Ushbu tanlangan mavzuni qanchalik dolzarbligi, muammoligini u albatta kerakli kitob, jurnal, internet saytlari va boshqa ommaviy ro`znomalardan bilishi kerak bo`ladi. Shuningdek, ushbu mavzu bo`yicha reja tuzishda, uning ahamiyatliligi, dolzarbliligi, muammoliligi va ularni bartaraf etish mumkinligini ilmiy, nazariy va amaliy adabiyotlardan foydalangan holda o`rganib chiqadi.

Kurs ishini yozishda esa ushbu mavzuga oid mavjud adabiyotlarni chuqurroq o`rganishga va ularni tahlil qilish hamda ulardag`i mavzuga oid farqlarni solishtirish jarayonida, ma`lum fikrlarni qo`llashni va ba`zilarini inkor qilishni hamda mavzuga oid muammolarni bartaraf etishda qaysi adabiyotda keltirilgan fikrlar maqsadga muvofiq ekanligini aniq ta`kidlab o`tishi kerak bo`ladi. Adabiyotlarda keltirilgan fikrlarni kurs ichida aniq va ravon keltirish kerak bo`ladi. Shuningdek, talaba kurs ishida materiallarni tahlil qilishda e`lon qilingan statistik ma`lumotlardan keng foydalanish lozim. Talaba O`zbekiston Respublikasi bo`yisha ma`lumotlarni statistik to`plam va internetning tegishli saytlaridan olib foydalanishi mumkin. Statistik ma`lumotlarni kurs ishi materiallarini keng tahlil qilishda va kurs ishini mazmunli bo`lishida katta ahamiyatga egadir.

### **Kurs ishini yozish tartibi**

Kurs ishining umumiyligi hajmi 30-35 varaq qo`l yozmadan kam bo`lmasligi kerak. Ilovalar ko`rsatilgan hajmga kirmaydi. Titul varag`i belgilangan shakl bo`yicha rasmiylashtiriladi (2-ilovaga qarang).

Ishda me`yoriy hujjatlar va orfografik qoidalar bo`yicha qabul qilingan shartli qisqartirishlar kiritish ruxsat beriladi. Masalan: y.-yil, yy.-yillar, m.s.- ming so`m, mln. s. – million so`m, mak.-maksimal va boshqalar. Lekin “Neft va gaz konlarini ishga tushirish va ulardan foydalanish” ta`lim yo`nalishi bo`yicha kurs ishi yozilar ekan texnikaviy terminlar va so`zlarda qisqartma so`zlarni kamroq ishlatish tavsiya beriladi.

Shuningdek, ba`zi bir so`z birikmalarini kurs ishida qayta-qayta kelishi ko`zda tutilsa, ushbu so`z birikmalarini birinchi yozilishida to`liq yozish kerak va so`z birikmasi tugashi bilan qovus ochib ushbu so`z birikmasini qisqartma ko`rinishini keltirish kerak. So`ng, ushbu so`z birikmasi qaytarilsa, qisqartma ko`rinishini yozish mumkin. Masalan, ochiq aktsiyadorlik jamiyat (OAJ), unitar Shu`ba korxonasi (USHK), qo`shma korxona (QK) va boshqalar.

Mundarija kurs ishi tuzilishini belgilab beruvchi birlamchi qism bo`lib, kurs ishini boshlanish qismida keltiriladi va unda kurs ishi tarkibida bo`lishi kerak bo`lgan qismlar

ko`rsatiladi. Ya`ni kirish, nazariy qism, hisob qismi, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati va ilovalar ko`rsatiladi.

Shunday qilib, talaba neft va neft mahsulotlarini saqlashdagi yo`qotilishlar bo`yicha mavzu tanladi. Masalan, uning to`liq nomi quyidagicha: - “Neftning bug`lanishi tufayli uglevodorod yo`qotilishini hisoblash”. Talaba ushbu mavzu bo`yicha reja tuzish uchun avvalom bor ushbu mavzuga mos adabiyotlarni o`rganish kerak. Masalan, ushbu mavzu bo`yicha quyidagicha reja tuzilishi mumkin.

## REJA

### Kirish

#### Nazariy qism:

1. Tayyor neft va tabiiy gaz mahsulotlariga qo`yiladigan talabalar.
2. Konlarda neft va gazni yig`ish va tayyorlash
3. Neft va gazni tayyorlash asbob-uskunalar

#### Hisob qismi:

1. Yo`qotilishlar bo`yisha umumiyl tushuncha.
2. Neftni rezervuarlarda saqlashda uglevodorodning yo`qotilishini hisoblash.
3. Rezervuarga ortishda uglevodorodning yo`qotilishini aniqlash.

### Xulosa

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati

Ushbu tuzilgan reja bo`yisha kurs ishini yozish tartibi tushintirib beriladi.

**Kirish qismi** bu kurs ishining boshlang`ich qismi bo`lib, ishning asosiy ma`nosini bayon qiladi. Unda kurs ishi mavzusining dolzarbliligi asoslanadi, izlanishning maqsadi va vazifalari, izlanish ob`ekti, predmeti hamda mavzuning ahamiyati va mohiyati bo`yicha to`xtaladi. Shu bilan birga kurs ishi yozish uchun asos bo`lgan amaliy ma`lumotlar manbalari aks ettiriladi.

Mavzuning dozarbligi yoritish albatta barcha ilmiy ishlarda majburiy talab etiladi. Mavzuning dozarbligida muallif mavzuni tanlagan ekan, uning ilmiy salohiyati va professional tayyorgarligi albatta bu mavzuni ma`nosini tuShunib yetishi va uni zamon talabiga mosligini baholay olishi kerak. Dolzarblikni yoritishda asossiz gaplar yozilmasligi kerak. Mavzuning dolzarbliligining asosiy omillarini to`liq bir betda ko`rsatish yetarli bo`ladi.

Mavzuning dolzarbligini asoslashda O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov asarlaridan, ma`ruzalaridan mavzuga tegishli bo`lgan iqtiboslar keltirish mumkin.

Dolzarbliligi ochib berilgandan so`ng, tadqiqotning maqsadidan kelib chiqib, ushbu maqsadga erishish uchun aniq vazifalarni (3-5 ta vazifalarni) hal qilib olish kerak bo`ladi.

Bular odatda quyidagicha ifodalananadi:

- o`rganish;
- ochish;
- tasvirlash;
- belgilash;
- aniqlash;
- uslubiy ishlab chiqish;
- tayyorlash.

Ifodalangan bu vazifalarni chuqurroq tahlil qilib yozish kerak.

Tadqiqotning ob`ekti va predmeti kirish qismning muhim elementi ekanligini ifodalaydi.

Shuningdek, tadiqotning uslubiy ko`rsatmasi kirish qismida muhim elementlardan biri bo`lib, qaysiki amaliy materiallarni tahlil qilishda va ishning asosiy maqsadni ochib berishda xizmat qiladi. Shu bilan birga, mahalliy va xorijiy olimlarning ushbu mavzu bo`yicha olib borgan ishlarini ko`rsatish kerak. Kirish qismini ko`pi bilan 2-3 varaq hajmda yozish tavsiya etiladi.

Kirish qismdan so`ng, nazariy qism keladi, ya`ni u bir nechta savollardan iborat bo`lib, bunda asosan ushbu mavzuni asosiy mohiyati to`liq batafsil ochib beriladi.

**Nazariy qismida** ishning hamma savollari ochib beriladi. Bunda mavzu bo`yicha mavjud muammolar aniqlanadi va ushbu muammolarni bartarf etish yo`llari izlab topiladi.

Kurs ishining har bir bo`limi muvofiq asoslar, qarorlar va xulosalar bilan yoritiladi. Kurs ishida, ilgari bajarilgan mustaqil ishlarning natijalari yoki boshqa mualliflarning (ilmiy ma`ruzalar va maqolalari, hisob-grafika ishlari va loyihalari, albatta, nomlari ko`rsatilgan holda) ishlari aks ettirilishi yoki ulardan foydalanish mumkin.

**Birinchi savolda** mavzuning nazariy jihatlari yoritiladi. Mavzuning mazmuni, mohiyati, ahamiyati yoritiladi, mavzuga oid asosiy darsliklar va o`quv qo`llanmalarida keltirilgan nazariy fikrlarning qiyosiyligi tahlili amalga oshirilishi mumkin. Neft va gazni konda yig`ish, tayyorlash va uzatish uzuksiz jarayon bo`lib, bunda quduqdan chiqqan mahsulotni ist`emolshiga jo`natishdan oldin davlat standartlari talablariga mos holga keltirish kerak bo`ladi.

Neft yer ostidan chiqayotganida o`z tarkibida har xil tuzlar, tog` zinsining mayda zarrashalari, tabiiy gazlar va suvni birga olib chiqadi. Shuning uchun neft quduqdan chiqqanidan keyin konning o`zida maxsus tayyorgarlikdan o`tkazib tayyor mahsulot holiga keltirilishi kerak.

Tayyor neft mahsuloti davlat standarti bo`yisha ma`lum bir talablarga javob berishi kerak.

**Ikkinci savolda** mavzuga oid amaliyat holati tahlilini amalga oshirish va tahlil natijalariga asoslangan holda tegishli xulosalar shakllantirishdan iboratdir. Konlarda neft va gazni yig`ish tizimi quduqdan to`neft yoki gazni tayyorlash qurilmalarigacha bo`lgan quvurlar, o`lchov asboblari va yig`ish punktlarini o`z ichiga oladi.

Neftni quduqlardan yig`ish va tayyorlashning bir necha tizimlari mavjud.

Ushbu savolini ko`pi bilan 10-12 varaq hajmda yozish tavsiya etiladi.

**Ushinchchi savolda** neft va gazni konlarda tayyorlash uchun har xil turdag'i asbob - uskunalar ishlataladi. Bu asbob-uskunalar neftdan erigan gazni to`liq ajratib olish, neftni qatlam suvlaridan to`liq tozalash, neft tarkibidagi tuzlarni yuvish va qum zarrashalarini ajratib olish uchun xizmat qiladi.

Bu asbob-uskunalarga ajratkich, tindirgich, qizdirgich, sovutgich, aralashtirgich, elektrodegidrator, saqlagich va boshqa Shu kabilalar kiradi. Ushbu savolni ko`pi bilan 8-10 varaq hajmda yozish tavsiya etiladi.

**Hisob qismi.** Neft va gaz uglevodorodlarning uyumdan iste`molchigacha bo`lgan yo`ldagi barcha yo`qotishlarni ikki toifaga ajratish mumkin: yer bag`ridagi yo`qotilish va yer ustidagi yo`qotilish.

Neft konlarida uglevodorodlarning yo`qotishiga ularni qazib olishda quduqdan to`neftgaz va suvni yig`ish hamda tayyorlash markazi shaxobqhalarigacha harakatlanishiga, Shuningdek, qurilmalardagi yo`qotishlar kiradi. Bu yo`qotishlarni ikki guruhga ajratish mumkin: uglevodorodlarning quduqdan gazni yig`ish tarmog`igacha va uyumdan chiqishdagi yo`qotilishi.

Kurs ishini bajarishda uglevodorodlarning faqat bug`lanishdagi yo`qotishini ko`rib chiqamiz.

**Xulosa qismida** mavzuni o`rganish davomida talaba tomonidan amalga oshirilgan tahlil jarayonida shakllantirilgan xulosalar aks ettiriladi. Mavzuga oid zamонави асрларда байон etilgan taddiq etilayotgan mavzuni takomillashtirish yuzasidan takliflar keltirib, Shunga asosan talab o`z fikrini bayon etadi. Xulosa qismini ko`pi bilan 2-3 varaq hajmda yozish tavsiya etiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar** – bu kitob (garslik, o`quv qo`llanma, uslubiy qo`llanma), jurnal, tezislardan to`plami, huquqiy me`yoriy hujjatlar va internet saytlarining asosiy ma`lumot ko`rsatikchilari (chiqqan joyi va yili, nashriyot va boshqalar) ro`yxatidir. Barcha ilmiy ishlarda, Shuningdek, kurs ishida ham foydalanilgan ma`lumotlar manbai va adabiyotlar

ro'yxatini keltirish majburiy shartlardan biridir. Foydalanilgan adabiyotlar qismini ko'pi bilan 2-3 varaq hajmda keltirish tavsiya etiladi.

### **Kurs ishini rasmiylashtirishning umumiylabslari**

Kurs ishi berilgan topshiriq asosida shaxsan talaba tomonidan bajariladi.

Talaba ish muallifi tanlangan qarorning to'g'rilingiga va uning topshiriqqa muvofiqligiga, kurs ishida ko'shirmashilik holatining yo'qligiga javob beradi.

Kurs ishi ta'lim standartlarida talab etilganidek, tartibli rasmiylashtirilgan va xatosiz, aniq va tuShunarli tilda yozilgan bo'lishi kerak. Kurs ishi yozishda tuzilgan matnda "men" so'zi o'rniga "biz" so'zini yozish tavsiya etiladi.

Kurs ishi qo'l yozma tarzida rasmiylashtirilgan bo'lishi shart. Kurs ishi A4 o'lshamdagi oq qog'ozning bir tomonida, ko'k rangli rushkada yozilishi talab qilinadi, boshqa rang (qora, qizil, yashil va boshqalar)agi rushkalarni ishlatalishga yo'l qo'yilmaydi. Bo'limlar, jadvallar, rasmlar raqamini va nomlarini ham boshqa rangli rushkada yozishga yo'l qo'yilmaydi. Ishda keltiriluvshi jadvallar, diagrammalar, rasmlar kompyuterda tayyorlanib, printerda chop etilgan (qog'oz A4 (210 x 297mm) shaklda) holda kiritilishi mumkin. Kurs ishini faqat ayrim hollarda kompyuterda tayyorlanishiga ruxsat beriladi. Kurs ishida tuzatilishlarga ruxsat berilmaydi.

Kafedraning tavsiyasiga binoan kurs ishi shet (ingliz, nemis yoki frantsuz) tilda bajarilishi mumkin. Chet tilda bajarilgan ishga davlat tilidagi annotatsiya ilova etiladi va himoya vaqtida tarjima ta'minlanadi.

Kurs ishini yozishda varaqning chap tarafida 3 sm, pastda 2 sm, tepada 2 sm, o'ngda 1 sm joy qoldirish tavsiya qilinadi, (3-ilovaga qarang) bunda bir varaqda 28-30 qator bo'lishi zarur. Varaq tagiga yo'l-yo'l qog'oz ("zebra") qo'yib yoziladi, varaqning o'ziga matn yozish uchun to'g'ri chiziqlar chizish yoki printerda chiziqlar shop etilgan varaqlarga yozishga yo'l qo'yilmaydi. Kurs ishining barcha betlari titul betidan oxirgi betigacha tartib bilan raqamlanadi. Birinchi bet titul varag'i hisoblanib, unga raqam qo'yilmaydi, keyingi betga "2" raqami qo'yiladi va hokazo. Tartib raqami betning pastki tomonining o'rtasiga qo'yiladi.

Qismlarning nomlanishi bosh harf bilan yoziladi. Qism ishidagi nomlanishlar xatboshidan kichik harflar bilan yoziladi. Asosiy qism ishidagi savollarni sarlavhalarini yozishda bo'g'in ko'chirishga ruxsat berilmaydi. Sarlavha oxirida nuqta qo'yilmaydi. Sarlavhani tagiga chizib yozishga ruxsat etilmaydi. Har bir sarlahadan oldin arab raqami bilan raqamlar qo'yiladi va raqamdan so'ng nuqta qo'yiladi. Agarda savol ichida savollar keltirilsa, masalan, birinchi savol ichida bitta savol "1.1.", ikkita savol bo'lsa "1.2." shaklda yoziladi.

Kirish, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar boshsanishida raqam qo'yilmaydi. Kurs ishining har bir qismi yangi betdan boshsanadi. Kirish, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar va asosiy qism savollari bir xilda varag'ni yuqori qismining o'rtasida yozish tavsiya etiladi.

Illyustratsiya (surat)lar ko'rish uchun qulay tarzda joylashtirilishi kerak. Agar kurs ishini burish lozim bo'lsa, uni soat strelkasi bo'ylab burish kerak. Barcha surat (grafik, shizma, diagramma, fotosurat)lar, "rasm" so'zi va bo'lim bo'yicha ketma-ket arab raqamlari bilan belgilanadi. Ilovalarda keltirilgan suratlar bundan mustasno. Surat raqami bo'lim va surat raqamidan iborat bo'lib, nuqta bilan ajratiladi, masalan "1.2-rasm" va izoh beruvchi yozuvdan pastga yoziladi.

Raqamli materiallar jadval ko'rinishida rasmiylashtirilishi lozim. Har bir jadval sarlavhaga ega bo'lishi kerak. Sarlavha bosh harf bilan boshsanadi. Sarlavhani ostiga chizilmaydi. Jadval sarlavhasi jadval yuqorisida o'rtada yozilishi tavsiya etiladi.

Jadval grafalarining sarlavhalarini bosh harflar bilan, sarlavhachalar esa, agar ular sarlavha bilan bitta gapni tashkil etsa, kichik harflar bilan, agar ular mustaqil bo'lsa, katta harflar bilan boshsanishi kerak. Jadval bosh qismini diagonal bo'yisha bo'lish mumkin emas.

Ko'plab grafalarga ega bo'lgan jadvalni qismlarga bo'lish va bir qismni ikkinshi qismdan keyin joylashtirishga ruxsat etiladi.

Bo`limlar doirasidagi jadvallar izchil, ketma-ket arab raqamlari bilan belgilanadi. Masalan: “1-jadval”, “2-jadval” va h.

Agar kurs ishida bitta jadval bo`lsa, u raqamlanmaydi va “jadval” so`zi yozilmaydi.

Jadvalning biror qismi boshqa betga o`tganda, “jadval” so`zi va uning tartib raqami bir marta jadvalning birinchi qismi ustida ko`rsatilib, qolgan qismlar ustiga “davomi” degan so`z yoziladi.

Illyustratsiyalarga qilingan havolalar sarlavhaning oxirgi so`ziga qo`yiladi. Matnda barcha jadvallarga havola berilishi kerak.

Har bir ilova yangi betning o`ng yuqori burshagida “Ilova” so`zi bilan boshlanadi. Agar kurs ishida bittadan ko`p ilova bo`lsa, ular ketma-ket arab raqamlari bilan belgilanadi. Masalan, “1-ilova”, “2-ilova” va h.

Ilovalarni alohida rasmiylashtirganda, titul varag`ida kurs ishi mavzusining nomi ostida katta harflar bilan “ILOVALAR” so`zi yoziladi.

Kurs ishida foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatini 4-ilovaga muvofiq rasmiylashtiriladi. Kurs ishi mavzusi bo`yisha asosan so`nggi 10 yil ichida nashr qilingan adabiyotlardan foydalanish tavsiya etiladi.

### **Kurs ishini himoya qilish**

Dekanat tomonidan kafedra bilan kelishilgan holda kurs ishlarini topshirish va himoya qilish reja jadvali ishlab chiqiladi va kurs ishini topshirish va himoya qilish muddatlari kafedra mudiri tomonidan o`rnatilgan tartibda amalga oshiriladi.

Talaba tayyor bo`lgan kurs ishini “Neft va gaz konlarini ishga tushirish va ulardan foydalanish” kafedrasi kotibasiga topshiriladi. Kotiba ushbu kurs ishini ro`yxatga olish kitobida ro`yxatdan o`tkazib, kurs ishi titul varag`iga ro`yxatdan o`tkazilgan sana va ro`yxat tartib raqamini yozadi. So`ng ilmiy rahbariga topshiriladi. Ilmiy rahbar kurs ishini ro`yxatdan o`tgan sanadan boshlab bir hafta ishida, ilmiy rahbar kurs ishi talab darazasida bajarilganligiga ishonsh bildirgandan so`ng, ishni o`z taqrizi bilan birga kafedraga taqdim etadi. Ilmiy rahabar tomonidan taqdim qilingan taqrizda talabaning faolligi, mavuzning dolzarbligi, maqsadi va vazifasi, qabul qilingan qarorlardagi yangiliklari, keltirgan ma`lumotlarni tahlili, chiqarilgan xulosa va takliflarning asosligi va kurs ishining boshqa izobiy tomonlari tavsiflanadi. Shu bilan birga, xato va kamshiliklari ham ko`rsatiladi. Natijada, taqriz oxirida xulosa qilinadi, ya`ni kurs ishi himoya qo`yilishi yoki qo`yilmasligi ko`rsatib o`tiladi.

Kurs ishida qo`pol bo`lmagan xato kamshiliklar bo`lsa, himoyaga tavsiya etilgan bo`lsa, talaba kurs ishida ko`rsatilgan xato kamshiliklarni asoslash yoki to`g`rilash uchun kurs ishi himoyasigacha tayyorlanish kerak. Agarda kurs ishida xato kamshiliklar ko`p bo`lsa, ularni bartaraf etgandan so`ng, himoyaga tavsiya etilishi ko`rsatilgan bo`lsa, u holda xato kamshiliklar bartaraf etilgandan so`ng, ikkinshi marta yana himoyaga tavsiya etish taqriz yoziladi.

Agarda talab sababsiz ravishda kurs ishini o`z vaqtida topshirmasa, kamchiliklar to`liq bartaraf etilmasa u holda ilmiy rahbar kurs ishi himoyaga qo`yilmaydi deb yozib xulosa beradi.

Kotiba taqriz yozilgan kurs ishini topshirilgan kun bilan ro`yxatdan o`tkazib qo`yish kerak. Kurs ishilarini ro`yxatga olish kitobida har bir guruhlarni alohida betda rasimiylashtirish tavsiya etiladi.

Kurs ishini himoya qilish kuni va himoyada qatnaShuvshi komissiya tarkibi kafedra majlisida belgilab beriladi. Kurs ishi himoyasida qatnaShuvshi komissiya tarkibi 3-5 ta a`zodan iborat bo`ladi. Kurs ishini himoyasida albatta komissiya tarkibidan kamida 3 ta a`zosi bo`lishi talab etiladi.

Har bir talaba uchun kurs ishi himoyasi 15-20 minut (10 munitgacha talaba ma`ruzasi, 5-10 munitgacha savol-javob) davom etadi. Talab ma`ruzasida qisqasha mavzu to`g`risida

tushuncha berishi, ya`ni mavzuning dolzarbliji, muammosi, xulosa va taklif haqida to`xtalishi kerak. Shuningdek, taqrizda ko`rsatilgan kamshiliklar haqida to`xtalish kerak.

Himoyadan so`ng, komissiya a`zolari yopiq majlis o`tkazib, talabalarning ishini baholash qarorini qabul qiladi.

Komissiya a`zolari quydagisha qarorini qabul qilishi mumkin:

- kurs ishini himoya qilganligi bildiruvshi baho qo`yilishi mumkin;
- himoyaga kiritilmagan bo`lishi mumkin;
- himoyaga kelmadi bo`lishi mumkin;
- himoyada qoniqarsiz baho olgan bo`lishi mumkin;
- qayta himoya qilish uchun muddat berishi mumkin;
- boshqa mavjud qayta ishlab himoya qilish tavsya qilinishi mumkin.

Uzrli sabab bilan kurs ishini belgilangan muddatda himoya qilmagan talabalarga dekanning ruxsat bilan, komissiyasining ishi yakunlanishiga qadar, boshqa muddatlarda himoya qilishga ruxsat beriladi.

Kurs ishini bajarish uchun quyidagi namunaviy mavzularni ko`rib chiqamiz.

### **1-mavzu: “Neftning bug`lanishi tufayli uglevodorod yo`qotilishini hisoblash”.**

#### **REJA**

##### **Kirish**

##### **Nazariy qism:**

1. Tayyor neft va tabiiy gaz mahsulotlariga qo`yiladigan talabalar.
2. Konlarda neft va gazni yig`ish va tayyorlash
3. Neft va gazni tayyorlash asbob-uskunalar

##### **Hisob qismi:**

1. Yo`qotilishlar bo`yisha umumiy tuShuncha.
2. Neftni rezervuarlarda saqlashda uglevodorodning yo`qotilishini hisoblash.
3. Rezervuarga ortishda uglevodorodning yo`qotilishini aniqlash.

##### **Xulosa**

##### **Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati**

#### **Kirish**

O`zbekiston o`z Mustaqilligini qo`lga kiritgash, mamlakatimizdagi boshqa tarmoqlar qatori neft va gaz sanoati tarmoqlari ham jadal sur`atlar bilan rivojlantirila boshlandi.

Haqiqatdan ham, neft va gaz sanoati korxonalarini boshqarish tizimini o`zgartirilishi, Milliy xolding kompaniyasining tuzilishi, ma`muriy – buyruqbozlik tizimidan bozor iqtisodiyotiga o`tish jarayonining sakrashlarsiz o`tishini ta`minlaydi. Ya`ni Respublikamiz Prezidenti 1992 yilda belgilab bergen tuzilmaviy boshqaruv vazifalarini bajarishga qaratilgan shora-tadbirlarni amalga oshirish bilan birgalikda olib borilishiga erishildi.

Bugungi kunda neft, gaz va gazzkondensat mahsulotlariga bo`lgan talabni ochib ketganligi sababli hamda aholini toza gaz bilan ta`minlash, transport vositalarini yoqilg`i resurslari bilan ta`minlash uchun geologik qidiruv ishlarini kushaytirish, yangi maydonlarni oshish, konlarni ishga tushirish, eski konlarni yangi texnika va texnologiyalar bilan jihozlash hamda konda qazib olinayotgan quduq mahsulotlarini jo`natishga sifatli tayyorlash zarurdir.

Neft va gazni konda yig`ish, tayyorlash va uzatish uzlusiz jarayon bo`lib, bunda quduqdan chiqqan mahsulotni iste`molchiga jo`natishdan oldin davlat standartlari talablariga mos holga keltirish kerak bo`ladi.

Neft er ostidan chiqayotganida o`z tarkibida har xil tuzlar, tog` jinsining mayda zarrashalari, tabiiy gazlar va suvni birga olib chiqadi. Shuning uchun neft quduqdan chiqqanidan keyin konning o`zida maxsus tayyorgarlikdan o`tkazilib tayyor mahsulot holiga keltirilishi kerak.

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasida ishlatilayotgan neft konlarining aksariyat qismida suv haydash usuli qo'llanilmoqda. Shu sababli ko'p xollarda koni ishlatishning dastlabki davridan boshlab neft bilan birga yo'ldosh suv xam qazib olinadi. Neft, gaz va suvning kondagi kommunikatsiyalarda harakati jarayonida emulsiya paydo bo'ladi.

Neft bilan birga olinadigan yo'ldosh suvlar va ularda erigan tuzlar (ayniqsa, xloridli tuzlar) quvur – uzatkichlar, rezervuarlar va neftni qayta ishlash zavodlari uskunalarini zanglatib emirilishiga sabab bo'ladi. Shuning uchun ham konda neftni tayyorlash tizimi neft konlarini ishlatish texnologiyasining asosiy elementi bo'lib hisoblanadi.

Konda neft va gazni tayyorlash jarayoni quduq mahsulotini o'lshash, yig'ish, ajratish, neftni suvsizlantirish, tuzsizlantirish, stabillashtirish va mexanik zarrashalardan ajratish bilan bog`liq.

Konda neftni tayyorlash masalasini hal qilish maqsadida konda murakkab muxandiClik inshootlari ko'rildi. Neft, gaz va suvni yig'ish va tayyorlash tizimi neft, gaz va suvning fizikaviy xossalari, texnologik jarayonlarni hisoblash, jihozlarni tanlashni asoslash va ularni ishlatish maromini belgilash bo'yisha bilimga ega bo'lishni talab qiladi.

## 1. Nazariy qism

### 1.1. Tayyor neft va tabiiy gaz mahsulotlariga qo'yiladigan talablar

Neft tabiiy aralashma bo'lib, asosan karbonsuvchillardan tashkil topgan bo'ladi. Uning tarkibida karbon 84 - 86 %, vodorod 11 - 14 % ni tashkil qilishi mumkin. Bu asosiy ikki elementdan tashqari neft tarkibida kislrodi, oltingugurt, azot bo'lishi mumkin. Shuningdek, juda oz miqdorda (mikrokompontent holatda) xlor, yod, fosfor, margumush, kaliy, natriy, kaltsiy, magniy ham bo'lishi mumkin.

Umumiyl holda neft tarkibidagi karbonsuvchillar  $C_nN_{2n+2}$  ifoda orqali aniqlanadigan metan gomologlari qatoridan iborat. Neftning tarkibidagi karbonsuvchillar uchta katta sinfga bo'linadi: alkanlar ( $C_nN_{2n+2}$ ), polimetilen yoki naftenli karbonsuvchillar ( $C_nN_{2n}$ ) va aromatik karbonsuvchillar. Neft tarkibiga kiruvshi karbonsuvchillardan  $C_8H_{18}$  dan  $C_{17}H_{36}$  gachasi suyuq holatda va  $C_{18}H_{38}$  dan  $C_{56}H_{114}$  gachasi qattiq holatda bo'ladi. Qattiq holatdagi karbonsuvchillarni asosan parafin - tserezin moddalari tashkil qiladi.

Karbonsuvchil bo'limgan moddalar neft tarkibida kislrodi, oltingugurt, azot birikmalari (oksid) holida yoki metalloorganik birikmalar holida uchrashi mumkin.

Neft tarkibida yuqorida aytib o'tilgan moddalar yoki birikmalardan tashqari merkaptanlar, mum va asfalten moddalari ham mavjud.

Merkaptanlar ( $RSH$ ) tuzilishi va tarkibiga qarab spirlarga o'xshash. Merkaptanlarning asosiysi etilmekrant va uning gomologlari neft tarkibida oddiy sharoitlarda suyuq holda, metilmekrant  $CH_3SH$  esa gaz holda bo'ladi. Qatlam suvlari tarkibidagi ishqorlar yoki oksidlar bilan merkaptanlar reaksiyaga kirishib, juda o'tkir va tez zanglatuvshi merkaptidlarni hosil qiladi.

Asfalt - mum aralashmalar ba'zan neft tarkibining 40% ini molekulyar organik birikmalardan iborat bo'lib, tarkibida uglerod, vodorod, kislrodi, oltingugurt va azotdan tashkil topgan. Bu aralashmalar ko'proq neytral mumlardan tashkil topgan bo'lib, oddiy holatda suyuq yoki yarim suyuq holatda bo'ladi. Rangi to'q sariqdan jigarranggacha o'zgarib, zichligi 1000 - 1070 kg/m<sup>3</sup> tashkil qiladi. Rangining to'q bo'lishi asosan neytral mumlar ko'pligidan dalolat berib turadi. Neytral mumlar juda yaxshi adsorbsiyalanadi va natijada asfalten holatiga keladi.

Parafinlarga karbonsuvchillarning  $C_{18}H_{38}$  dan  $C_{35}H_{72}$  gacha bo'lgan qismi kiradi. Ularning erish harorati 27 - 71°C ni tashkil etadi. Parafinlar neft harakatlanayotgan vaqtida, termodinamik sharoitlar o'zgarishi natijasida, mayda plastiksimon kristall holdagi tasmachalar hosil qiladi. Bu tasmachalar o'zaro birlashib har xil tugunchalar hosil qilishi mumkin. Bu jarayonlar natijasida parafin moddalari neftdan ajralib chiqqa boshlaydi. Ayniqsa,

ajralib chiqish jarayoni neft qudug'i ichida yoki yig'uvchi quvurlar ichida kuchayadi va natijada quvurlarning ichki yuzasiga parafin moddalari yopishib qolib, neft harakatini qiyinlashtirib, oqibat natijada, umuman to'xtatib qo'yishi mumkin. Parafinlar neft tarkibida 1,5 - 2,0 % bo'lsa, quvurlar ishida ajralib chiqishi boshlanadi, ayniqsa bu jarayon neft haroratining pasayishi va undan erigan gazlarning ajralib chiqishi bilan keskin tezlashadi.

Neft tarkibidagi tserezinlarga karbonsuvchil qatoridagi eng og'ir birikmalar, ya'ni  $C_{36}H_{74}$  dan yuqoridagilari kiradi. Serezinlarning erish harorati 65 - 88°C ni tashkil qiladi. Parafinlarga nisbatan serezinlarning zichligi va qovushqoqligi ancha kattaroq. Serezinlarning kristallanish jarayoni juda kichik ignasimon kristall zanjirlardan boshlanadi. Ammo bu ignasimon kristallar bir - biri bilan o'zaro birlashmaganligi tufayli, qotib qoluvchi moddalar hosil qilmaydi va neft harakatiga sezilarli ta'sir ko'rsatmaydi.

Neftning tarkibida, qatlam holatda albatta qandaydir miqdorda erigan gaz bo'ladi. Neft harakatga kelgandan keyin va ayniqsa, quduq ichiga kirgandan keyin, erigan gaz ajralib chiqa boshlaydi.

Neft tarkibidagi oltingugurt, mum va parafin miqdoriga qarab, quyidagi tasnifga ega:

a) oltingugurt bo'yicha:

- kam oltingugurtli, bunda oltingugurt miqdori (hajm bo'yisha) 0,5 % gacha bo'lishi mumkin;

- oltingugurtli, bunda oltingugurt miqdori 0,5 + 2,0 % gacha bo'lishi mumkin;

- ko'p oltingugurtli, bunda oltingugurt miqdori 2,0 % dan undagi bo'lishi mumkin.

b) mum miqdori bo'yicha:

- kam mumli, bunda mum miqdori (hajm bo'yicha) 5 % gacha bo'lishi mumkin;

- mumli, bunda mum miqdori 5 - 15 % gacha bo'lishi mumkin;

- ko'p mumli, bunda mum miqdori 15 % dan yuqori bo'lishi mumkin.

v) parafin bo'yicha:

- kam parafinli, bunda parafin miqdori (hajm bo'yisha) 1,5 % gacha bo'lishi mumkin;

- parafinli, bunda parafin miqdori 1,5 - 6,0 % gacha bo'lishi mumkin;

- ko'p parafinli, bunda parafin miqdori 6 % dan yuqori bo'lishi mumkin;

Neftning bu tasnididan tashqari davlat standartlari bo'yicha ush xil turkumi (kategoriya) mavjud. Bu turkumlar neft tarkibida suv, mexanik aralashmalar miqdoriga qarab ajratilgan.

Konlardagi neftni tayyorlash, tozalash, tindirish va uzoqqa jo'natish asbob - uskunalarining quvvati, ularning soni, Shuningdek, kerakli bo'lgan har xil kimyoviy moddalar yuqorida keltirilgan tasnif bo'yicha davlat tomonidan ajratib beriladi. Bu asbob - uskunalar quvvatiga qarab, katta mablag' talab qiladi (ba'zan esa shet ellardan valyuta hisobiga sotib olinadi), Shuning uchun kondagi neft tarkibini puxta o'rganib, keltirilgan tasnif bo'yicha aniq bilib, faqat Shundan so'ng kerakli asbob - uskunalar tanlanadi.

Neft er ostidan chiqayotganida o'z tarkibida turli xil tuzlar, mexanik zarrashalar, tabiiy gazlar va yo'ldosh suvlarni olib chiqadi. Shuning uchun neft quduqdan chiqqanidan keyin konning o'zida maxsus tayyorgarlikdan o'tkazilib tayyor mahsulot holiga keltirilishi lozim.

Tayyor neft mahsuloti davlat standarti bo'yicha ma'lum talablarga javob berishi kerak. Neftni konda tayyorgarlik darazasiga ko'ra ush guruxga bo'lish mumkin. Ana Shu guruxlarning tayyorgarlik darazasiga qo'yiladigan talablar 1.1-jadvalda keltirilgan.

Tayyor neft tarkibidagi oltingugurning massa miqdori bo'yicha quyidagi sinflarga bo'linadi:

4. kam oltingugurtli – 0,60 % gacha;
5. oltingugurtli – 0,61 dan 1,80 % gacha;
6. yuqori oltingugurtli – 1,80 % dan yuqori.

## Tayyor neft mahsulotining fizik ko`rsatkichlari

## 1.1-jadval

Ko`rsatkichlar	Guruxlar		
	1	2	3
<b>1.Xlor tuzlarining miqdori mg/dm<sup>3</sup> dan oshmasligi kerak</b>	<b>100</b>	<b>300</b>	<b>900</b>
<b>2.Suvning massa miqdori % dan oshmasligi kerak</b>	<b>0,5</b>	<b>1,0</b>	<b>1,0</b>
<b>3.Tog` zinsi zarrachalari % dan oshmasligi kerak</b>	<b>0,05</b>	<b>0,05</b>	<b>0,05</b>
<b>4.Bug`ning to`yinganlik bosimi kPa (mm.simob ust.) dan oshmasligi kerak</b>	<b>66,7</b>	<b>66,7</b>	<b>66,7</b>
	<b>(500)</b>	<b>(500)</b>	<b>(500)</b>

Shuningdek tayyor neft 20°C dagi zichligi bo`yicha xam quyidagi uch sinfga bo`linadi:

4. engil – 850 kg/m<sup>3</sup> gacha;
5. o`rtacha – 851 dan 885 kg/m<sup>3</sup> gacha;
6. og`ir – 885 kg/m<sup>3</sup> dan yuqori.

Kondan qazib olinayotgan tabiiy gazlar tarkibida qattiq zarrashalar (qum, korroziya mahsulotlari), og`ir uglevodorodlar (kondensatlar), suv bug`i, vodorodsulfid, is gazi va inert gazlar uchraydi.

Gaz tarkibida mexanik qo`shimshalarning bo`lishi gaz bilan o`zaro ta`sirda bo`lgan quvurni, kompressorning metall qismlarini va boshqa jihozlarni errozik emirilishiga olib keladi.

Bundan tashqari, mexanik qo`shimshalar quvurga o`rnatalgan armaturalarni, o`lshash asboblarini ifloslantirib ishdan chiqaradi, hamda quvurni ma`lum qismlarda yig`ilib qolib, uni qirqim yuzasini kamaytiradi. Bu o`z navbatida gazning o`tkazuvchanlik qobiliyatini kamaytiradi.

Gaz tarkibida og`ir uglevodorod (kondensatlar) ning bo`lishi quvurning past joylarida suyuq holatga o`tib yig`iladi va quvurning o`tkazuvchanligini yomonlashtiradi, hamda quvurni zanglashiga olib keladi.

Gaz tarkibidagi namliklar, ma`lum sharoitda gaz aralashmasi bilan qorsimon ko`rinishdagi gaz gidratlarini hosil qiladi, quvurning o`tkazuvchanligini yomonlashtiradi, hatto butunlay o`tkazmaydigan qilib qo`yib avariya holatlarini sodir qilishi mumkin. Masalan:



Gaz tarkibidagi vodorodsulfid zararli qo`shimsha bo`lib, uning havodagi miqdori 0,01 ml.gr/l dan ortiq bo`lganda ish zonalarini uchun juda xavfli hisoblanadi. Gaz tarkibida uning bo`lishi metall va jihozlarni zanglashini tezlashtiradi va avariya holatlarini ko`paytiradi.

Olinayotgan gaz tarkibida is gazini bo`lishi yonish issiqligini kamaytiradi.

Jo`natishga tayyorlangan gazning tarkibi quyidagi davlat standarti talablariga javob berishi kerak (GOST 5140-83)

5. 1m<sup>3</sup> gazdagagi mexanik qo`shimchalarni og`irligi 0,003 gr (0,3m<sup>2</sup>) dan ortiq bo`lmasligi;
6. 1m<sup>3</sup> gazdagagi vodorodsulfidning og`irligi 0,2m<sup>2</sup> dan ortiq bo`lmasligi;
7. hajm bo`yicha kislородining hajmiy ulushi 1% dan ortiq bo`lmasligi;
8. namlik bo`yicha, gazning Shudring nuqtasi yozda 0°C, qishda -5 °C dan katta bo`lmasligi kerak (o`rtasha iqlimli joylarda). Sovuq joylarda: yozda - 10°C, qishda -20 °C dan katta bo`lmasligi kerak.

## 1.2. Konlarda neft va gazni yig`ish va tayyorlash

Neft quduqlari mahsuloti neft, gaz va mineralashgan qatlama suvlarining aralashmasini namoyon qiladi. Ko`pinsha neft va suv tabiiy aralashish natijasida emulsiyani hosil qiladi. Bundan tashqari gaz quduqlari mahsuloti tarkibida gazdan tashqari suyuq fazalar tomchi ko`rinishida va suv bug`lari bo`lishi mumkin. Shuningdek quduq mahsuloti tarkibida

gaz va suyuqlikdan tashqari turli xil mexanik aralashmalar: qum va gil zarralari hamda neft tarkibidan ajraladigan qattiq uglevodorodlar – parafinlar bo`ladi. Shu sababli neft va gazni yig`ish va jo`natishga tayyorlash hamda quduqdan chiqayotgan mahsulotni o`lshash uchun kon xududida quvurlar, apparatlar va qurilmalar sistemasi ko`riladi.

Konda neft va gazni yig`ish tizimi quduqdan to neft yoki gazni tayyorlash qurilmalarigacha bulgan quvurlar, o`lshov asboblari va yig`ish punktlarini o`z ichiga oladi.

Quduqlardan kelayotgan neftni yig`ish va tayyorlashning bir necha tizimlari mavjud:

- 1. Tazyiqli Baronyan–Vezirov yig`ish tizimi.**
- 2. Grozniy neft institutining yig`ish tizimi**
- 3. Yig`ishning tazyiqli Giprovostok tizimi**

Yuqorida kurib chiqilgan neft yig`ish, tayyorlash va uzatish tizimlari ma`lum bir shart – sharoitlarga (quduqlarni ishlatish usuli va quduq usti bosimi), Shuningdek geografik xududlarga, bu xududlarning geografik muhitning tabiiy sharoitlari (o`rmonzorlar, botqoqliklar, doimiy muzlik va x.k.) ga mo`ljallanib yaratilgan.

Bulardan tashqari, har qanday shart-sharoitlarga mo`ljallangan neft yig`ish, tayyorlash va uzatish universal tizimining kondan olinayotgan mahsulotni (neft, gaz kondensat) to`lik bir-biridan ajratib olish, tayyorlashning texnologik jarayonidagi yo`qotishlarni minimumga olib kelish va tayyorlash jarayonlarini to`liq avtomatlashtirish yoki kompyuter orqali boshqarishgacha imkoniyati mavjud.

Gaz konlarini ishlatish amaliyotida gazni yig`ishning quyidagi asosiy tizimlari qo`llaniladi:

- chiziqli;
- nurli;
- halqali.

Gaz koni juda katta maydonni egallagan va quduqlar soni ko`p bo`lgan holatlarda yuqorida sanab o`tilgan gazni yig`ish tizimlari aralash holatda qo`llanilishi mumkin, masalan to`g`ri chiziqli va nurli yoki halqali va to`g`ri chiziqli. Barcha yig`ish tizimlarida gaz yig`ish kollektoriga nafaqat aloxida quduqlar, balki quduqlar guruxi guruxiy yig`uv qurilmalari orqali ulanishi mumkin. Guruxiy yig`ish tizimining ustunligi Shundaki, gaz yig`uv kollektorlariga bir emas, bir gurux quduqlarni ularash mumkinligi, gazni o`lshash va nazorat qilish va gaz yig`ish uchun kam quvur sarflash imkonini beradi. Gaz yig`ish tizimining asosiy elementi bo`lib, shleyflar, yig`uvchi kollektorlar, gaz yig`uv va o`lshov punktlari kiradi. Gaz yig`ish tarmoqlarining elementlari barcha gaz yig`ish tizimlari uchun umumiy hisoblanadi. Agar konda bir nechta qatlama va har xil bosimli quduqlar mayjud bo`lsa, bunday holatlarda bir nechta gaz yig`ish tarmog`i orqali gazni aloxida yig`ish usulidan foydalaniladi.

Quduqdan chiqayotgan gaz yig`ish tarmoqlari va kollektorlar orqali gaz yig`ish punkti (GSP) va nazorat-taqsimlash punkti (KRP) ga yig`iladi. Bu erda gazning bosimini o`zgartirish va nazorat qilish ishlari xam amalga oshiriladi. Bir qator gaz bosimi past xollarda gaz kompressor stantsiyasiga uzatiladi, u erda kerakli bosimgacha siqilib katta bosimli tizimga o`tkaziladi.

Kon gazlari GSP va KRP larda yig`iladi.

GSP va KRP larda quyidagi jihozlar o`rnataladi:

6. Ajratgichlar – qattiq yoki suyuq qismlardan tozalash uchun. Ajratgichlar soni hisob-kitoblar orqali aniqlanadi, biroq ular kamida ikkita bo`lishi lozim, biri buzilganda ikkinshisi ishlashi kerak. Har qaysi ajratgich suv, kondensat va turli zarrashalarni chiqarib tashlovshi qurilmalar, shuningdek ishchi bosimdan 10-15% katta bo`lgan ehtiyyot klapanlar bilan ta`minlangan bo`lishi kerak.

7. Nazorat o`lshov asboblari. Bu asboblarga termometrlar, manometrlar, sarf o`lshagishlar (rasxodomerlar) kiradi.

8. «O'zidan oldin» va «o'zidan keyin» printsiplarida ishlaydigan bosim boshqargichlari (regulyatorlari).

9. Metanolli qurilmalar - gaz quvurlarida gidrat hosil bo'l shini oldini olish va hosil bo'l gian gidrat tiqinlarini bartaraf qilish uchun o'rnatiladi.

Maxsus hid beruvshi moslamalar - qurilma va quvurlarda utechka yuz berganda darhol bilish uchun qo'llaniladi.

### **1.3. Neft va gazni tayyorlash asbob-uskunalar**

Neftni yig'ish va tayyorlash tizimi ulushiga konni jihozlash harajatlarining 50% ga yaqinrog'i to'g'ri keladi. Bu tizimlar ulkan va metall talabchandir.

Neft va gazni konlarda tayyorlash uchun har xil turdag'i asbob – uskunalar ishlatiladi. Bu asbob – uskunalar neftdan erigan gazni to'liq ajratib olish, neftni qatlam suvlaridan to'liq tozalash, neft tarkibidagi tuzlarni yuvish va qum zarrashalarini ajratib olish uchun xizmat qiladi.

Bu asbob – uskunalarga ajratgich, tindirgich, qizdirgich,sovutgich, aralashtirgich, elektrodegidrator, saqlagich va boshqalar kiradi.

Ajratgichlar turli ko'rinishda ishlab chiqiladi va quyidagi ishlarni bajaradi:

6. neftda erigan gazni ajratib oladi;
7. neft – gaz oqimining aralashishini kamaytiradi va Shu bilan gidravlik qarshiliklarni pasaytiradi;
8. neft – gaz aralashmasi harakatidan hosil bo'l gian ko'piklarni yo'qotadi;
9. neftdan suvni ajratib oladi;
10. oqim harakatining nomuntazamligini yo'qotadi;
11. mahsulotni o'lshaydi;

Ajratgichlarning quyidagi tasnifi mavjud:

A) ishlatilish maqsadi bo'yicha:

- o'lshovshi – ajratuvshi

- ajratuvshi;

B) geometrik shakli bo'yicha:

- tsilindrik;

- sharsimon;

V) o'rnatilishiga qarab;

- tik, - qiya, - yotiq;

G) ajratish uchun asosiy ta'sir etuvchi kushlar bo'yicha:

- gravitatsiya, - markazdan qochuvchi; - inertsiya kuchlari;

D) ishlatish bosimi bo'yicha:

- yuqori bosimli (6.4–2.5 MPa),

- o'rta bosimli (2.5–0.6 MPa),

- past bosimli (0.6–0.1 MPa),

- vakuumli;

E) ulangan quduqlar soni bo'yicha:

- bitta quduq uchun;

- quduqlar guruxi uchun;

J) ajratadigan fazalar bo'yicha:

- ikki fazali (gaz - neft);

- ush fazali (gaz – neft - suv).

Emulsiyani muvozanat holatida yoki laminar oqimda neft va suvg'a ajratuvchi qurilma tindirgich deyiladi.

Neftgaz qazib oluvchi korxonalarda ko`pinsha gorizontal tindirgichlar qo`llaniladi. Aralashmani tindirish natijasida ikki qavat tindirilgan fazalar hosil bo`ladi. Hali tindirilib ulgurilmagan aralashma ularning orasida joylashadi.

Tindirgichlarning asosiy vazifasi neft emulsiyalarini qizdirgichdan chiqqan oqimini qabul qilib, undan suvni ajralib chiqishini ta`minlashdir.

Neftdan suvning ajralib chiqishi har ikkala suyuqliklar zishliklari orasidagi tafovut hisobiga bo`ladi. Tindirgichning ostki qismida suv yig`iladi va suv yuzasiga neft ajralib chiqadi. Tindirgichning ostiga qum zarrashalari ham o`tirib qoladi. Tindirgichdan suv chiqarib yuborilayotganda qum zarrashalari ham suv bilan birga chiqib ketadi va maxsus tozalagishda suvdan ajratib olinadi.

Hozirgi vaqtida neft va gaz qazib oluvchi korxonalarda tindirgichlarning har xil geometrik shaklini ushratish mumkin: gorizontal, vertikal va sferik. Bu qurilmalarning samaradorligi quyidagilarga bog`liq:

- 3) geometrik shakliga;
- 4) fazoviy joylashishiga (gorizontal, vertikal);
- 5) isitilgan mahsulotni kiritish usuliga;
- 6) isitilgan mahsulotni tindirgichga uzatishdan oldin tayyorlashga.

Qizdirgichlar va sovutgichlar ko`proq gaz tayyorlashda ishlatiladi. Ular gazdag'i kondensatni ajratib olish va gazni me`yoriy holatga keltirish uchun xizmat qiladi.

Aralashtirgichda neft ShuShuk suv bilan aralashtirilib, uning tarkibidagi tuzlar yuviladi.

Elektrodegidorlar neft bilan birga emulsiya holida chiqqan qatlama suvlarini ajratib olish uchun xizmat qiladi. Emulsiyani parchalash (yoki suvni ajratib olish) maxsus elektrodlarga elektr quvvati yuborilishi natijasida suv tomchilari bir – biri bilan birlashib ketadi va sekin – asta elektrodegidor tagiga ajralib chiqadi.

Emulsiya holatidagi neft – suv aralashmasini parchalash uchun deemulsattsya apparatlaridan ham foydalilanadi. Bu apparatlarda maxsus reagentlar – deemulgatorlardan foydalanilgan holda emulsiyalar parshalanadi.

Saqlagichlar tayyor neft mahsulotini vaqtinchalik yig`ish uchun omborxona sifatida qo`llaniladi.

Neft konlarida odatda 100, 200, 300, 400, 700, 1000, 2000, 3000, 5000m<sup>3</sup> hajmdagi saqlagichlar ishlatiladi. Temir yo`l neft quyish estakadasiga qarashli omborxonalarda 7500 va 10000m<sup>3</sup> li saqlagichlar ham qurilishi mumkin.

## 2. Hisob qismi.

### “Neftning bug`lanishi tufayli uglevodorod yo`qotilishini hisoblash”.

#### 2.1. Yo`qotilishlar bo`yisha umumiylashuncha.

Neft va gaz uglevodorodlarining uyumdan iste`molchigacha bo`lgan yo`ldagi barcha yo`qotishlarni ikki toifaga ajratish mumkin: er bag`ridagi yo`qotish va er ustidagi yo`qotish.

Har bir holatdagi yo`qotish alohida mustaqil hal qilinadi. Hozirda qayta ishslash va realizatsiya qilishdagi yo`qotishlar to`liq o`rganilgan. Neft konlari va er bag`ri uchun bu masalalar quyidagi darajada hal etilgan.

Neft konlarida uglevodorodlarning yo`qotilishiga ularni qazib olishda quduqdan to neftgaz va suvni yig`ish hamda tayyorlash markazi shaxobchalarigacha harakatlanishiga, shuningdek, qurilmalardagi yo`qotilishlar kiradi. Bu yo`qotishlarni ikki guruhga ajratish mumkin: uglevodorodlarning quduqdan gazni yig`ish tarmog`igacha va uyumdan chiqishdagi yo`qotishi.

Birinchi guruh yo`qotishlar manbaiga neft va gazokondensatning bug`lanishi, konda neftni qayta ishslashdagi texnologik chiqindilar kiradi.

Ikkinski guruh yo'qotishlar manbaiga esa ishlatish quduqlarini sinov-qidiruv, o'zlashtirish va tadqiqotlash, quduqdagi baxtsizlik va ular asoratlari, konstruktsiyalarning germetik emasligi kiradi.

Bu yerda, biz, uglevodorodlarning faqat bug'lanishdagi yo'qotilishini ko'rib chiqamiz.

Neftning bug'lanishi deganda unda erigan engil uglevodorod molekulalarini gaz holatiga o'tishi natijasida ajralish jarayoni tushuniladi.

Kinematik nazariyaga muvofiq molekulalarning sirtki qatlidanajralishi va gaz fazasiga o'tishi uchun quyidagi shart bajarilishi kerak, ya'ni:

$$\frac{mV}{2} \geq E_k,$$

bu erda,  $E_k$  - molekulalarning sirtki qatlidanajralish energiyasi;

$m$  - molekulyar massasi;

$V$ - komponent molekulalarining neft sirtidagi normal tezligi.

Neft sirtidagi qatlidanajralish molekulalarning ajratilishi neftning qovushqoqligiga va neft-gaz shegarasidagi sirt tarangligiga bog'liq.

Neft bug'lanishidagi barcha jarayonlar quyidagilardan iborat: a) neftdan uglevodorod molekulalarining ajralishi; b) engil molekulalarning gaz fazasida tarqalishi (diffuziya, konvektsiya); v) bir qism engil molekulalarning neftda qayta harakati (sirtga urilish natijasidagi kondensatsiya).

Neft harorati qancha yuqori bo'lsa, molekulalarning o'rtasha harakat tezligi Shunshalik yuqori bo'ladi. Bundan, tabiiyki, haroratning oshirilishi neftning bug'lanishini oshirar ekan.

Kondagi rezervuarlarda neftning bug'lanish jarayoni bilan bir vaqtida gazning ajralishi (separatsiya) jarayoni ham boradi. Bug'lanish va ajralish jarayonining qo'shilishi kondagi rezervuarlarning ishidagi alohida ishslashini talab qiladi.

Neftning bug'lanishi tufayli uni yig'ish va qayta ishslashda neftning hammasi emas, balki unda kam miqdorda yig'ilgan dastlabki qismi (metan, etan, propan) bug'lanadi. Uning yig'ilishi qatlidanagi neftda 7 dan 22% gacha va ba'zan yuqori, atmosfera bosimiga yaqin bosimda gaz ajratib olingan neftlarda esa - 5 - 9%ga teng.

## 2. Neftni rezervuarlarda saqlashda uglevodorodning yo'qotilishini hisoblash

Xom - ashyo rezervuarining ishchi sikli bir necha holatdan iborat:

- a) rezervuarga neftni ortish (quyish);
- b) neftning rezervarda saqlanishi;
- v) rezervuarni bo'shatish (to'kish);
- g) yukni kutish.

## 3. Rezervuarga ortishda uglevodorodning yo'qotilishini aniqlash

Rezervuarga ortishda «nafas olish» klapanidan chiqadigan uglevodorodlar miqdori rezervuar hajmi  $V_r$  ga, ortish koeffitsienti  $K$  ga, neft bug'i sirtidagi harorat sharoitida to'yingan bosimi  $\bar{P}_3$  ga, to'siqining mutlaq sozlash bosimi  $\bar{P}_{\Delta}$  ga, vakuum to'siqi bosimi  $\bar{P}_e$  ga va boshqa omillarga bog'liq. Uni quyidagi tenglamadananiqlash mumkin:

$$V_{II} = 0,0043 \bar{P}_S \frac{\bar{P}_B - \bar{P}_S}{\bar{P}_{\Delta} - \bar{P}_S} \cdot K \cdot V_p \text{ m}^3 \text{ suyuqlik.} \quad (1)$$

**Masala:** Rezervuardan chiquvchi uglevodor miqdorini aniqlang: rezervuar hajmi 2000  $\text{m}^3$ , unga neftni ortishdagi o'rtasha haroratda to'yingan bug'ning mutlaq bosimi  $\bar{P}_S = 0,0595$

Mpa, rezervuarning yuklash koeffitsienti  $K=0,8$ , himoyalovshi to`siqning boshqarishi  $24 \cdot 10^{-5}$  MPa bosimga va  $20 \cdot 10^{-5}$  MPa vakuumga to`g`rilangan.

### **Eshish.**

To`siqning mutlaq bosimi  $R_D = 0,1 + 0,00024 = 0,1002$  MPa; Vakuumda  $R_v = 0,1 - 0,002 = 0,0998$  MPa.

To`siqdan chiquvchi uglevodorod miqdori:

$$V_n = 0,043 \cdot 0,0595 \frac{0,098 - 0,0595}{0,1002 - 0,0595} \cdot 0,8 \cdot 2000 = 4,2 \text{ m}^3$$

Rezervuarga tushgan neftga nisbatan:

$$\frac{V_r \cdot 100}{V \rho \cdot K} = \frac{4,20 \cdot 100}{2000 \cdot 0,8} = 0,26\%$$

Demak, rezervuarga yuklashdagi engil uglevodorodlarning umumiyo yo`qotilishi uning hajmiga, himoya to`sig`ining ishchi bosimga va gaz muhitining hajmiga bog`liq.

## **Xulosa**

O`zbekiston neft va gaz sanoati ayni kunda mamlakat iqtisodiyotining eng yirik tarmog`i hisoblanadi va energetikaning muhim asosini tashkil etadi. Shuning uchun neft va gaz sanoatini rivojlantirishga katta e`tibor berilmoqda.

Prezident I.A.Karimovning “Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kushli fuqarolik jamiyatini barpo etish – ustivor maqsadimizdir” va “Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir” mavzusidagi ma`ruzasidan kelib chiqib, quyidagi vazifalarni amalga oshirish zarurdir.

Jahon moliyaviy – iqtisodiy inqirozi hali beri davom etayotgan og`ir bir sharoitda iqtisodiyotimizning yanada barqaror rivojlanishini ta`minlash, uni diverifikasiya va modernizatsiya qilish, ishlab chiqarishni texnik qayta jihozlash borasidagi ishlarni izshil davom ettirishimiz zarur.

## **Foydalilanigan adabiyotlar**

1. B.SH.Akramov, O.G` Hayitov, B. Turaev “Konlarda neft, gaz va suvni yig`ish va tayyorlash”. Toshkent, 2003y.
2. Akramov B.SH. Sidiqjo`jaev R.K. Neft va gaz ishi TashDTU, T. 2003y.
3. Agzamov A.X, Hayitov O.G` MutaxassiClikka kirish. ToshDTU, T. 2003 y.
4. Lutoshkin G.S. Sbor i podgotovka nefti, gaza i vodы. M.: Nedra, 1979g.
5. N.M.Avlayarov. “Konlarda neft, gaz va suvlarni yig`ish va tayyorlash” fanidan ma`ruza matnlari to`plami. Qarshi 2010 y.

## **2-mavzu: Neft emulsiyasini isitishning issiqlik hisobi**

### **REJA**

#### **Kirish**

#### **Nazariy qism:**

1. Emulsiyalar to`g`risida umumiy tushunchalar.
2. Neft emulsiyalarining fizik – kimyoiy xossalari.
3. Neft emulsiyalarining mustahkamligi va eskirishi.

#### **Hisob qismi**

1. Neft va emulsiyani isitish uchun kerak bo`lgan issiqlik miqdorini aniqlash.
2. Blokli deemulsatorning issiqlik hisobi.

#### **Xulosa.**

#### **Foydalilanigan adabiyotlar ro`yxati**

## **Kirish**

O'zbekiston Respublikasi neft va gaz sanoati ayni kunda mamlakat iqtisodiyotining eng yirik tarmog'i hisoblanadi va va energetikaning muhim asosini tashkil etadi.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng neft-gaz sanoati yagona tarmoqqa birlashtirildi. O'zbekiston Respublikasi prezidenti I.A.Karimovning 1992 yil 8 iyundagi farmoni bilan "Neft va gaz" kontserni barpo etildi. Respublikamiz davlat iqtisodiyoti poydevorini mustahkamlash uchun yoqilg'i energetika sanoatini rivojlantirib, iqtisodiy mustaqillikka erishish maqsadida ishlab chiqarish tarmoqlari ixtisoClashtirilib, 1993 yilda tashkil etilgan "O'zbekneftgaz" milliy korporatsiya respublikamiz Prezidentining 1998 yil 11 dekabrda UP-2154 sonli farmoni hamda Vazirlar mahkamasining qaroriga muvofiq "O'zbekneftgaz" milliy xolding kompaniyasiga aylantirildi.

Bugungi kunda neft, gaz va gazkondensat mahsulotlariga bo'lgan talabni ochib ketganligi sababli hamda aholini toza gaz bilan ta'minlash, transport vositalarini yoqilg'i resurslari bilan ta'minlash uchun geologik qidiruv ishlarini kushaytirish, yangi maydonlarni oshish, konlarni ishga tushirish, eski konlarni yangi texnika va texnologiyalar bilan jihozlash hamda konda qazib olinayotgan quduq mahsulotlarini jo'natishga sifatlari tayyorlash zarurdir.

Neft va gazni konda yig'ish, tayyorlash va uzatish uzlusiz jarayon bo'lib, bunda quduqdan chiqqan mahsulotni iste'molshiga jo'natishdan oldin davlat standartlari talablariga mos holga keltirish kerak bo'ladi.

Neft er ostidan chiqayotganida o'z tarkibida har xil tuzlar, tog' jinsining mayda zarrashalari, tabiiy gazlar va suvni birga olib chiqadi. Shuning uchun neft quduqdan chiqqanidan keyin konning o'zida maxsus tayyorgarlikdan o'tkazilib tayyor mahsulot holiga keltirilishi kerak.

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasida ishlatilayotgan neft konlarining aksariyat qismida suv haydash usuli qo'llanilmoqda. Shu sababli ko'p xollarda koni ishlatishning dastlabki davridan boshlab neft bilan birga yo'ldosh suv xam qazib olinadi. Neft, gaz va suvning kondagi kommunikatsiyalarda harakati jarayonida emulsiya paydo bo'ladi.

Neft bilan birga olinadigan yo'ldosh suvlar va ularda erigan tuzlar (ayniqsa, xloridli tuzlar) quvur – uzatkichlar, rezervuarlar va neftni qayta ishlash zavodlari uskunalarini zanglatib emirilishiga sabab bo'ladi. Shuning uchun ham konda neftni tayyorlash tizimi neft konlarini ishlatish texnologiyasining asosiy elementi bo'lib hisoblanadi.

Konda neft va gazni tayyorlash jarayoni quduq mahsulotini o'lshash, yig'ish, ajratish, neftni suvsizlantirish, tuzsizlantirish, stabillashtirish va mexanik zarrashalardan ajratish bilan bog`liq.

Konda neftni tayyorlash masalasini hal qilish maqsadida konda murakkab muxandislik inshootlari ko'rildi. Neft, gaz va suvni yig'ish va tayyorlash tizimi neft, gaz va suvning fizikaviy xossalari, texnologik jarayonlarni hisoblash, jihozlarni tanlashni asoslash va ularni ishlatish maromini belgilash bo'yisha bilimga ega bo'lishni talab qiladi.

### **1. Nazariy qism**

#### **1.1. Emulsiyalar to'g'risida umumiyyatli tushunchalar.**

Neft emulsiyalari deganda mayda dispers holatidagi neft va qatlama suvlarining mexanik aralashmasi tushuniladi. Konni ishlatish jarayonida neft va suvning o'zaro miqdoriy nisbati o'zgarib turganligi sababli, neft emulsiyalarining xususiyatlari ham keng miqyosda o'zgarib turishi mumkin.

Qatlamda va quduq tubida neft emulsiyalari bo'lmaydi. Emulsiyalar quduq tanasida hosil bo'lib, ularning hosil bo'lish tezligi nasosli, kompressorli va favvora quduqlarida har xil bo'ladi.

Neftni Shuqurlik nasoslari yordamida qazib olishda, emulsiyaning hosil bo'lishiga quyidagi omillar ta'sir qiladi: plunjerning harakat uzunligi; qabul qiluvshi va tashlama klapanlarning o'lshamlari; nasosda gazning mavjudligi.

Favvora va kompressor quduqlarida bosimning pasayishi va neftdan gazning tez ajralishi natijasida suyuqliklarning tez aralashishi kuzatiladi. Eng mustahkam emulsiyalar neft olishning kompressorli usulida, ishchi agent sifatida havo ishlatalganda hosil bo'ladi. Buning sababi neft tarkibidagi naften kiClotalar havo kislorodilari bilan oksidlanib, samarali emulgatorlarga aylanadilar.

Neft emulsiyalarida 2 xil faza mavjud: ichki va tashqi. Bir suyuqlik ikkinshi suyuqlik ishida tomchilar ko'rinishida joylashadi. Tomchilar ko'rinishidagi suyuqlik dispers faza (ichki) deyiladi. Tomchilarni o'rabi turuvshi muhit dispersion muhit (tashqi) deb yuritiladi.

Dispers faza va dispersion muhitning xarakteriga qarab to'g'ri ko'rinishdagi va teskari ko'rinishdagi emulsiyalar turlanadi.

To'g'ri ko'rinishdagi emulsiyalarda neft suvda tomchilar sifatida mavjud bo'ladi va bu emulsiyalar neft – suv emulsiyalarini (NS) deb ataladi.

Teskari ko'rinishdagi emulsiyalarda suv neftda tomchilar sifatida mavjud bo'ladi va bu emulsiyalar suv – neft emulsiyalarini (SN) deb ataladi.

Konlarda emulsiyalar tarkibida qancha suv borligi to'g'risida ularning rangiga qarab baho beriladi. Masalan: emulsiya tarkibida 10% suv bo'lsa, uning rangi toza suvsiz neft rangida bo'ladi; 15 – 20 % suv bo'lsa – emulsiyaning rangi jigar rangdan sariq ranggacha o'zgaradi; 25 % suv bo'lsa – emulsiya sariq rangda bo'ladi va x.k.

## **1.2. Neft emulsiyalarining fizik – kimyoviy xossalari.**

Neft emulsiyalarini quyidagi asosiy fizik – kimyoviy xossalari bilan harakterlanadilar: dispersliligi, qovushqoqligi, zichligi, elektr xususiyatlari.

### Emulsiyalar dispersliligi.

Disperslilik emulsiyalarning xossalari belgilovshi asosiy tavsifdir. Dispers faza tomchilari kattaligi 0,1 – 100 mk gacha bo'ladi. Bir xil diametrlı tomchilardan tashkil topgan dispers tizimlar – monodispers, har xil diametrlı tomchilardan tashkil topgan dispers tizimlar – polidispers tizimlar deyiladi. Neft emulsiyalarini har xil o'lshamdagি zarrashalardan tashkil topganligi uchun polidispers tizimlar turiga kiradi.

Dispers tizimning solishtirma yuzasi  $S_{sol}$  quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$S_{co,i} = \frac{S}{V} = \frac{\pi \cdot d^2}{\pi \cdot d^3} = \frac{6}{d}$$

$S$  - jami fazalar orasidagi yuza;

$V$  - jami dispers fazalar hajmi;

### Emulsiyalarning qovushqoqligi

Emulsiyalarning qovushqoqligi neft va suv qovushqoqlarning yig'indisiga teng emas:

$$\mu_e \neq \mu_n + \mu_s$$

Shu bilan birga u quyidagi asosiy omillarga bog'liq: nefting qovushqoqligiga; emulsiyani hosil qiladigan haroratga; neft tarkibidagi suvning miqdoriga; dispersion muhitdagi dispers faza tomchilarining diametriga.

Neft emulsiyalarining qovushqoqligini faqat laboratoriya sharoitida turli viskozimetrlar yordamida aniqlash mumkin.

### Emulsiyalarning zichligi.

Emulsiyani tashkil qiluvshi neft va qatlama suvini zichligini va ularning foiz tarkibini bilgan holda emulsiyaning zichligini hisoblash mumkin.

$$\rho_s = \frac{1}{\frac{0,01q}{\rho_c} + \frac{1-0,01q}{\rho_H}}$$

Bu erda:  $\rho$ ,  $\rho_c$ ,  $\rho_H$  - emulsiya, suv, neftning zishliklari;

q - emulsiyadagi suv va erigan tuzlarning tortilgan foizi;

q - quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$q = \frac{q_0}{1 - 0,01x}$$

$q_0$  - emulsiya tarkibidagi toza suv miqdori;

x - suv tarkibidagi erigan tuzlar miqdori, %;

### Emulsiyaning elektrik xossalari.

Toza holda olingan neft va suv yaxshi dielektriklar hisoblanadilar. Shuning uchun suv tarkibida oz miqdorda bo`lsa ham erigan tuzlar yoki kislotalar ushrasa, uning elektr o`tkazuvshanligi bir necha o`n marta oshadi. Bundan Shuni xulosa qilish mumkinki, emulsiyalar elektr o`tkazuvshanligiga ularning tarkibidagi suvning miqdori bilan birlgilidir. Shu suvda erigan tuz va kislotalar miqdori ham ta`sir ko`rsatadi.

NS emulsiyalarida tashqi faza – suv hisoblanadi va ular xohlagan vaqt suv bilan birikishi mumkin, hamda yuqori elektr o`tkazuvchanligiga ega bo`ladi.

SN emulsiyalarida neft–tashqi faza hisoblanadi va ular uglevodorodli suyuqliklar bilan birikishi mumkin va kichik o`tkazuvchanlikka ega bo`ladi.

Toza neft va suv yaxshi dielektrik hisoblanadi. Neftning o`tkazuvchanligi –  $10^{-10}$  dan  $10^{-15}$  ga, suvniki  $10^{-7}$  dan  $10^{-8}$  gacha o`zgarishi mumkin.

Tajribalardan ma`lumki, elektr maydoniga joylashtirilgan neft emulsiyalarida suv tomchilari uning kush shizig`i bo`ylab joylashadi, bu esa emulsiyalarining elektr o`tkazuvchanligini tez oshib ketishiga olib keladi. Chunki suv tomchilari neft tomchilariga nisbatan 40 marta yuqori elektr o`tkazuvchanlikka ega.

### **1.3. Neft emulsiyalarining mustahkamligi va eskirishi.**

Neft emulsiyalarining eng asosiy ko`rsatkichlaridan biri ularning mustahkamligidir, ya`ni ma`lum bir vaqt ishida neft va suvga parshalanib ketmasligi.

Neft emulsiyalarining mustahkamligiga quyidagi omillar katta ta`sir o`tkazadi:

1. tizimning dispersliligi;
2. fazalar tutash yuzasida himoya qobig`ini hosil qiluvshi emulgatorlarning fizik – kimyoviy xossalari;
3. aralashayotgan suyuqliklarning harorati va x.k.

Mana shu omillarga qisqasha to`xtab o`tamiz:

1. Dispersliligi bo`yicha neft emulsiyalarini:

- mayda disperslik – suv tomchilari o`lshami 0.2 – 20 mk;
- o`rta disperslik – suv tomchilari o`lshami 20 – 50 mk;
- dag`al disperslik – suv tomchilari o`lshami 50 – 100 mk.

Emulsiyaning dispersliligi qancha baland bo`lsa, ya`ni ichki fazaning tomchilari qancha kichkina bo`lsa, emulsiya shuncha mustahkam bo`ladi.

2. Emulsiyaning mustahkamligiga tomchilar yuzasida adsorbsion himoya qobig`ini hosil qiluvshi emulgator deb nomlanuvshi, barqarorlashtiruvshi moddalar katta ta`sir o`tkazadi. Adsorbsion qobiqlarni hosil qilishda sirt faolligi katta bo`lgan moddalar (asfalten, naften, parafin, vanadiy, nikel, litiy, temir, titan kabi metallar kompleksi) va mayda disperslik neorganik moddalar (loy, qum va tog` jinClaridan tashkil topgan) ishtirot etadi.

Neft emulsiyalarining mustahkamligi (SN) aralashayotgan suyuqliklarning haroratiga bog`liq. Bu harorat qancha past bo`lsa, emulsiya Shunsha mustahkam bo`ladi. Emulsiyaning temperaturasi ko`tarilsa, adsorbsion qobiqning mustahkamligi 0 gacha pasayadi, natijada suv tomchilarining qo`shilib ketishi sodir bo`ladi va emulsiya parshalanib ketadi.

## 2. Hisob qismi.

### 2.1. Neft va emulsiyani isitish uchun kerak bo`lgan issiqlik miqdorini aniqlash

Neft emulsiyasini parchalashning nisbatan keng tarqalgan usullaridan biri bu issiqlikdan foydalanishdir. Emulsiyani isitish bir necha usullarda amalga oshiriladi: olov yoki bug`ni quvur tanasi orqali, bug`ni suyuqlikka uzlusiz kirib borishi va h.k.

Nisbatan samarali maxsus deemulsator-issitkishda olov bilan isitish hisoblanadi. Isitish uchun kerak bo`lgan issiqlik miqdori quyidagi tenglamaga ko`ra aniqlanadi

$$Q = [(1-n_v)G_j S_n(t_2-t_1) + n_v G_j S_v(t_2-t_1)] * K, \quad (1)$$

Bu erda:  $Q$  -  $G_j$  massali neft emulsiyasini isitish uchun zarur bo`lgan issiqlik miqdori;  $G_j$  - neft emulsiyaning massani;  $n_v$  - suvning neft emulsiyadagi ulushi, ulushda;  $S_n, S_v$  - neft va suvning issiqlik sig`imi;  $t_1, t_2$  - suyuqlikning boshlang`ish va oxirgi harorati, grad.;  $K$  - atrof muhitda issiqlik yo`qotilishini hisobga oluvchi koeffitsient.

(1) tenglama o`ng qismining birinchi bo`lagi suvsiz neftni isitish uchun kerak bo`lgan issiqlik miqdorini, ikkinshi bo`lagi esa yo`ldosh suvni isitishni ifodalaydi.

Neftning issiqlik sig`imi uning zichligi va tarkibiga bog`liq. Uni taxminan ushbu tenglamaga ko`ra aniqlash mumkin ( $\text{kJ}/(\text{kg}\cdot\text{k})$ )

$$C_n = \frac{4,1865}{\sqrt{\rho_n}} (0,403 + 0,00081t_c) \quad (2)$$

bu erda  $\rho_n$  -  $15^{\circ}\text{C}$  dagi neft zichligi;

$$t_{\text{yr}} - \text{emulsiyani qizdirishning o`rtasha xarorati } t_{\text{yr}} = \frac{t_1 + t_2}{2}$$

$0^{\circ}\text{C}$  dan  $40^{\circ}\text{C}$  gacha oraliqda suvning issiqlik sig`imini Rotuga muvofiq ushbu tenglamaga ko`ra aniqlash mumkin ( $\text{kJ}/(\text{kg}\cdot\text{k})$ )

$$S_v = [1,0066 - 0,0005696t_s + 0,8742 * 10^{-5}t_{\text{yr}}^2] * 4,1865 \quad (3)$$

Qatlam suvlarining issiqlik sig`imi uning tarkibiga bog`liq. Uni hisoblashlarda  $S_v = 4,212 \text{ kJ/Skg}\cdot\text{K}$  ga teng deb qabul qilish mumkin.

Neftni deemulsatsiyalash harorati oralig`ida suvning issiqlik sig`imi neftning issiqlik sig`imidan ikki marta katta. Shuning uchun issiqlikni tejash maqsadida emulsiyani qizdirishdan avval undan erkin suv iloji borisha yo`qotiladi. Bunda neftni isitadigan issiqlikdan ko`proq foydalaniladi.

Emulsiyani isitish uchun zarur bo`lgan umumiy issiqlik miqdorini bilishda qizdirgich - deemulsatordagi siqilgan yo`ldosh gaz hajmni hisoblash qiyin emas.

### Blokli deemulsatorning issiqlik hisobi.

**Topshiriq.** Suvlanganligi 20% bo`lgan neft emulsiyasi 3000 t/kun sarf bilan blokli deemulsatorda isitildi. YOqilg`i sifatida issiqlik qobiliyati 41865 kJ/kg bo`lgan yo`ldosh gazdan foydalanildi. Emulsiyaning boshlang`ish harorati  $15^{\circ}\text{C}$  ni, maqbul harorati esa  $70^{\circ}\text{C}$  ni tashkil etdi. Neftning  $15^{\circ}\text{S}$  dagi zichligi  $850 \text{ kg/m}^3$ .

Quyidagilarni hisoblash kerak:

- 1) issiqlik sarfi;
- 2) neftni deemulsatsiyalanish haroratigacha isitish uchun kerak bo`ladigan gaz sarfi;
- 3) kerakli isitish sirti.

**Eshish:** Emulsiyani  $t_1$  dan  $t_2$  gacha isitish uchun kerak bo`ladigan issiqlik sarfi quyidagi tenglamadan aniqlanadi:

$$Q = [G_{\text{sc}}(1-h_e)C_n(t_2-t_1) + h_e G_{\text{sc}} C_e(t_2-t_1)] \cdot K \quad (4)$$

bu tenglama xuddi (1) tenglamadek ifodalangan.

$$\text{O`rtasha xaroratni aniqlaymiz: } t_{\text{o`r}} = \frac{t_1 + t_2}{2} = \frac{10 + 70}{2} = 40^{\circ}\text{C}$$

Neftning issiqlik sig`imi:

$$C_n = \frac{4,1865}{\sqrt{\rho_n}} (0,403 + 0,00081 t_{yp}) = \frac{4,1865}{\sqrt{0,850}} (0,403 + 0,00081 \cdot 40) = 1,980 \kappa K / (\kappa \cdot \kappa).$$

Suvning issiqlik sig`imi:

$$C_e = [1,006 - 0,0005696 t_{yp} + 0,874 \cdot 10^{-5} t_{yp}^2] \cdot 4,1865 = [1,0066 - 0,0005696 \cdot 40 + 0,874 \cdot 10^{-5} \cdot 40^2]$$

$4,1865 = 4,20 \text{ kJ/(kg}\cdot\text{k)} "K"\text{ ni } 1,15 \text{ ga teng deb qabul qilamiz.}$

Issiqlik sarfi:

$$Q = [G_j(1-n_v)S_n(t_2-t_1) + n_v G_j S_v(t_2-t_1)] \cdot K = [3000 \cdot 10^{-3} \cdot 0,8 \cdot 1,980 (70-10) + 0,2 \cdot 3000 \cdot 10^3 \cdot 4,20 \\ (70-10)] \cdot 1,15 = 50,2 \cdot 10^7 \text{ kJ.}$$

Issiqlik quvvati:

$$q = \frac{Q}{24 * 3600} = \frac{50,2 * 10^7}{24 * 3600} = 5560 \text{ kVt.}$$

Issiqlik sarfini aniqlaymiz:

$$G = \frac{Q}{C} = \frac{5560}{41865} = 0,133 \text{ kg/s} \quad (5)$$

Tenglamada issiqlik sarfi kJ/s da, C esa kJ/kg berilganda.

Isitish sirti quyidagi formulaga ko`ra aniqlanadi

$$F = \frac{Q}{q_n} \quad (6)$$

$q_n$  - isitish qurilmasi quvurining o`rtasha issiqlik kushlanishi. Neftni bug`lanishsiz isitishda po`lat quvurning ruxsat etilgan issiqlik kushlanishi  $q_n = 167460 \text{ kkal}/(\text{m}^2 \cdot \text{K})$ .

Demak, bizning hol uchun isitish sirti

$$F = \frac{Q}{q_n} = \frac{5560 * 3600}{167460} = 112 \text{ m}^2 \text{ ga teng.}$$

### Xulosa

Tabiiy foydali qazilmalar ishida neft insoniyatning texnik taraqqiyotida muhim o`rin egallaydi.

Neft – qimmatbaho tabiiy qazilmadir. Hozirgi zamonaviy ishlab chiqarish va energetikani neftsiz tasavvur qilib bo`lmaydi. Neftdan avtomobil va reaktiv aviatsiya uchun yoqilg`ilar – benzin, kerosin, dizel yoqilg`ilari, Shu bilan birga mazut va boshqa ko`rinishdagi yoqilg`ilar olinadi.

Yonib issiqlik ajratish bo`yisha neft hamma ma`lum tabiiy qazilmalardan ustun turadi. Zamonaviy texnika olamida uning ahamiyati nafaqat bu noyob energetik xususiyatlari bilan aniqlanadi.

Neft – bu bir butun rivojlanayotgan kimyo sohasining organik sintez, plastmassa ishlab chiqarishda, sun`iy tola, kauShuk va boshqa ko`p narsalar ishlab chiqarishda juda ahamiyatli kimyoviy xom – ashyodir. Hozirgi vaqtida neft va neft mahsulotlaridan foydalanmaydigan hesh bir sanoat sohasi yo`q.

Neft konini ishlatalishda, neft bilan birga qatlama suvlarining jadal sur`atda kelish davri boshlanadi. Bunda bir – birida erimaydigan va mayda dispers holatida bo`ladigan, o`zida

mexanik neft aralashmasini va minerallashgan qatlam suvlarini mujassam etgan neft emulsiyasi hosil bo`ladi.

Neft emulsiyasining yuzaga kelishi va mustahkamligi asosan neft – suv aralashmasining harakat tezligiga, fazalar ( neft va suv ) nisbatiga, Shu fazalarning fizik – kimyoviy xossalari va rejim haroratiga binoan aniqlanadi.

Neft emulsiyasining quvur orqali harakati davomida korroziyani keltirib chiqaradi. Shu sababli neft tarkibidagi suvni ajratib olish muhim ahamiyatga ega. Bu konda neftni sifatli tayyorlashga bog`liqdir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. B.SH.Akramov, O.G` Hayitov, B. Turaev “Konlarda neft, gaz va suvni yig`ish va tayyorlash”. Toshkent, 2003y.
2. Akramov B.SH. Sidiqjo`jaev R.K. Neft va gaz ishi TashDTU, T. 2003y.
3. Agzamov A.X, Hayitov O.G` MutaxassiClikka kirish. ToshDTU, T. 2003 y.
4. Lutoshkin G.S. Sbor i podgotovka nefti, gaza i vodы. M.: Nedra, 1979g.
5. N.M.Avlayarov. “Konlarda neft, gaz va suvlarni yig`ish va tayyorlash” fanidan ma`ruza matnlari to`plami. Qarshi 2010 y.

**«Quduq mahsulotini yig`ish va uzatish» fanidan kurs ishlari mavzulari namunalari**

1. Neft va yo`ldosh gazning fizik xossalari hisoblash.
2. Neftdagagi yo`ldosh gazlar tarkibidagi og`ir uglevodorodlarni hisoblash.
3. Neftni gazdan azratish jarayonining hisobi.
4. Gazneft azratgishlarining mahsulorligini hisoblash.
5. Kondagi yig`uvchi quvur uzatgishlarini hisoblash.
6. Yig`uvchi neft quvurining uzunligi bo`yisha neft harorati taqsimoti hisobi.
7. Neftning bug`lanishi tufayli uglevodorod yo`qotilishini hisoblash.
8. Issiqlik almashinish uskunalarining g`isobi.
9. Neft emulsiyasini isitishning issiqlik hisobi.

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM  
VAZIRLIGI**

**QARSHI MUXANDICLIK IQTISODIYOT INSTITUTI**

**“NEFT VA GAZ KONLARINI ISHGA TUSHIRISH VA ULARDAN  
FOYDALANISH” KAFEDRASI**

**“Quduq mahsulotini yig`ish va uzatish” fanidan**

**“Neftning bug`lanishi tufayli uglevodorod  
yo`qotilishini hisoblash” mavzusida**

# KURS ISHI


**Bajardi:**

3- kurs NGI-307 guruhi  
talabasi F.K.Odilov

**Ilmiy rahbar:**

“NGKITvaUF” kafedrası  
kat.o`q. N.M.Avlayarov

Shap-3sm, past-2 sm, yuqori-2 sm, o`ng-1 sm



### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. B.SH.Akramov, O.G` Hayitov, B. Turaev “Konlarda neft, gaz va suvni yig`ish va tayyorlash”. Toshkent, 2003y.
2. Akramov B.SH. Sidiqjo`jaev R.K. Neft va gaz ishi TashDTU, T. 2003y.
3. Agzamov A.X, Hayitov O.G` . Mutaxassislikka kirish. ToshDTU, T. 2003 y.
4. Lutoshkin G.S. Sbor i podgotovka nefti, gaza i vodы. M.: Nedra, 1979g.
5. N.M.Avlayarov. “Konlarda neft, gaz va suvlarni yig`ish va tayyorlash” fanidan ma`ruza matnlari to`plami. Qarshi 2010 y.

## **Adabiyotlar ro‘yxati**

1. Г.С.Лутошкин. Сбор и подготовка нефти, газа и воды к транспорту. М: Недра 1972.
2. Г.С.Лутошкин. Сбор и подготовка нефти, газа и воды к транспорту. М: Недра 1974.
3. B.SH.Akramov, O.G.Xayitov neft va gaz maxsulotlarini yig’ish va tayyorlash. Toshkent. «Ilm Ziyo». 2003.
4. Z.S.Ibroximov. Neft va gaz soxalarining ruscha-uzbekcha atamalar lug’ati. Toshkent. «Nur». 1992.
5. А.С.Смирнов. Сбор и подготовка нефтяного газа на промыслах. М, Недра 1971.
6. А.С. Смирнов. Сбор и подготовка нефтяного газа на промыслах. М, недра 1971.
7. К.С. Каспарянц. Промысловая подготовка нефти и газа. М: Недра, 1973.
8. В.А. Еронини и др. Поддержание пластового давления на нефтяных месторождениях. М: Недра, 1973.
9. [www.google.uz](http://www.google.uz).

# Baholash mezonlari

## REYTING BALLAR HISOBI JADVALI

Maksimal ball – 100

Saralash ball - 55

Nº	Nazorat turi	Nazorat soni	Bir nazorat uchun ajratilgan ball	Maksimal ball
<b>Joriy nazorat (50 ball)</b>				
1.	Amaliy mashg'ulot topshiriqlarini bajargani uchun va interaktiv usullarda qatnashganligi uchun	12	3	36
2	a) referat tayyorlagani va topshirgani b) mustaqil ish topshiriqlari bo'yicha og'zaki so'rov	1 5	4 2	4 10
	<b>JN bo'yicha jami:</b>	<b>xx</b>	<b>xx</b>	<b>50</b>
	<b>Oraliq nazorat</b>	<b>1</b>	<b>20</b>	<b>20</b>
	<b>Yakuniy nazorat</b>	<b>1</b>	<b>30</b>	<b>30</b>
	<b>Jami:</b>	<b>xx</b>	<b>xx</b>	<b>100</b>

## 2.6. Joriy nazorat bo'yicha baholash mezonlari

Nº	Nazorat turi	Ball
1.	<b>Amaliy mashg'ulot topshiriqlarini bajargani uchun:</b> - berilgan topshiriqni to'liq, aniq bajargani, topshiriq mazmunini to'liq tushunib yetgani va tushuntira olgani uchun; - berilgan topshiriqni bajargani, topshiriq mazmunini tushunib yetgani va tushuntira olgani, topshiriqni bajarishda ayrim kichik kamchiliklarga yo'l qo'ygani uchun; - berilgan topshiriqni bajargani, topshiriq mazmunini tushunib yetgani, topshiriqni bajarishda ayrim kamchiliklarga yo'l qo'ygani uchun; - amaliy mashg'ulot topshiriqlarini bajarmaslik (yoki mashg'ulotga qatnashmaslik).	3 2 1 0
2.	<b>Referat tayyorlagani va himoya qilgani uchun:</b> - mavzu bo'yicha referat tayyorlash, uni yuqori saviyada himoya qila olish, keltirilgan ma'lumotlarni mushohada qilish va tushuntirib berish, berilgan savollarga to'liq javob bera olish, xulosa berish va mustaqil fikrlay olish; - mavzu bo'yicha referat tayyorlash, uni yuqori saviyada himoya qila olish, keltirilgan ma'lumotlarni mushohada qilish va tushuntirib berish, berilgan savollarga to'liq javob bera olish; - mavzu bo'yicha referat tayyorlash, uni himoya qila olish, ma'lumotlar kiritish va savollarga javob berishga harakat qilish; - mavzu bo'yicha referat tayyorlash, uni himoya qilishga harakat qilish, savollarga javob berishda kamchiliklarga yo'l qo'yish; - Referatni chala tayyorlash yoki umuman tayyorlamaslik.	4 3 2 1 0
3.	<b>Mustaqil ish topshiriqlari bo'yicha og'zaki so'rov uchun:</b> - mustaqil ish mavzusini to'liq o'zlashtirishi, mustaqil fikrlay olishi, mavzu bo'yicha o'z takliflarini bera olishi, adabiyotlarni bilish, mavzuni boshqa mavzular bilan o'zviy bog'lay olishi, javob berishda internet ma'lumotlaridan foydalanish; - mustaqil ish mavzusi bo'yicha o'z takliflarini bera olishi, adabiyotlarni bilishi, javob berishda internet ma'lumotlaridan kam holatda foydalanish; - mustaqil ishni o'zlashtira olmaganligi va javob bera olmasligi;	2 1 0

## 2.7. ON bo'yicha baholash mezonlari

ON ma'ruza mashg'ulotlari materiallari bo'yicha o'tkaziladi. Bir semestrda 1 ta ON yozma ish yoki test sinovi shaklida o'tkaziladi. Baholash bali fan bo'yicha belgilangan umumiy ballning 20 % ini , ya'ni 20 ballni tashkil etadi.

ON test sinovi shaklida o'tkazilsa, talabaga 20 ta test savoldan iborat variant beriladi va har bir to'g'ri javob 1(bir) ball bilan baholanadi.

Yozma ishni o‘tkazishda 4 ta savoldan iborat variantlar beriladi. Variant savollariga mustaqil ish mavzulariga oid savollar ham kiritiladi. “Yozma ish” ni baholashda 1- jadvalda keltirilgan baholash mezonlaridan foydalaniladi.

1-jadval

Baholash tartibi	Baholash mezonlari	ball
Variantda 4 ta savol bo‘lib, har bir savol alohida baholanadi ba bir savol uchun maksimal 5 ball beriladi.	-javobning to‘g’riliqi va to‘liqligi , javob berishga ijodiy yondashish, javobni yoritishda tayanch tushunchalardan foydalanganlik va ularning mazmunini to‘g’ri yoritish, javob hajmini me'yordaligi,tushinarli husnixat; - javobning to‘g’riliqi va to‘liqligi , javob berishga ijodiy yondashish, javobni yoritishda tayanch tushunchalardan foydalanganlik va ularning mazmunini to‘g’ri yoritish, javob hajmini me'yorda emasligi; --javobning to‘g’riliqi va to‘liqligi , javob berishga ijodiy yondashish, javobni yoritishda tayanch tushunchalardan foydalanganlik va ularning mazmunini to‘g’ri yoritishda noaniqlik, javob hajmini me'yorda emasligi; -javobning to‘g’riliqi, ammo javobni yoritishda tayanch tushunchalardan foydalanganmaslik va javob hajmini me'yorda emasligi; -javobning qisman to‘g’riliqi, ammo javobni yoritishda tayanch tushunchalardan foydalanganmaslik va javob hajmini me'yorda emasligi; -javobning noto‘g’riliqi yoki yo’qligi	5 4 3 2 1 0

## 2.8. YaN bo‘yicha baholash mezonlari

1) Agar YAN test sinovi shaklida otkazilsa, talabalarga 30 ta savoldan iborat test variantlari beriladi va har bir to‘g’ri javob 1 (bir) bilan baholanadi;

2) Agar YAN yozma ishshaklida o‘tkazilsa, u holda talabalarga 5 ta savoldan iborat variantlar beriladi. “Yozma ish” ni baholashda 2- jadvalda keltirilgan baholash mezonlaridan foydalaniladi.

2-jadval

Baholash tartibi	Baholash mezonlari	ball
Har bir variantda 5 ta savol bo‘lib, har bir savol alohida bahola nadi va bir savolga maksimal 6 ball btriladi.	-javobning to‘g’riliqi va to‘liqligi , javob berishga ijodiy yondashish, javobni yoritishda tayanch tushunchalardan foydalanganlik va ularning mazmunini to‘g’ri yoritish, javob hajmini me'yordaligi,tushinarli husnixat; -javobning to‘g’riliqi va to‘liqligi , javob berishga ijodiy yondashish, javobni yoritishda tayanch tushunchalardan foydalanganlik va ularning mazmunini to‘g’ri yoritish, javob hajmini me'yorda emasligi; -javobning to‘g’riliqi va to‘liqligi , javob berishga ijodiy yondashish, javobni yoritishda tayanch tushunchalardan foydalanganlik va ularning mazmunini to‘g’ri yoritishda noaniqlik, javob hajmini me'yorda emasligi; -javobning to‘g’riliqi, ammo javobni yoritishda tayanch tushunchalardan foydalanganmaslik va javob hajmini me'yorda emasligi; -javobning qisman to‘g’riliqi, tushinarli husnixat,ammo javobni yoritishda tayanch tushunchalardan foydalanganmaslik va javob hajmini me'yorda emasligi; -javobning qisman to‘g’riliqi, ammo javobni yoritishda tayanch tushunchalardan foydalanganmaslik va javob hajmini me'yorda emasligi; -javobning noto‘g’riliqi yoki yo’qligi	6 5 4 3 2 1 0

Talabaning fan bo'yicha bir semestr dagi reytingi quyidagicha aniqlanadi.

$$R_t = V \times O' / 100;$$

bu erda:  $V$  – semestrda fanga ajratilgan umumiy o'quv yuklamasi (soatlarda);  
 $O'$  – fan bo'yicha o'zlashtirish darajasi (ballarda).

Masalan: Fanga ajratilgan umumiy soat  $V=104$ , talabaning to'plagan bali  $O'=72$  bo'lsa,  
uning reytinggi  $R_t = 104 \times 72 / 100 = 74,88$

# **Normativ hujjatlar**

## **O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING TA'LIM TO'G'RISIDA QONUNI**

- I. Umumiy qoidalar (1-8-moddalar)
- II. Ta'lismiz tizimi va turlari (9-19-moddalar)
- III. Ta'lismiz jarayoni qatnashchilarini ijtimoiy ximoya qilish (20-24-moddalar)
- IV. Ta'lismiz tizimini boshqarish (25-29-moddalar)
- V. Yakunlovchi xulosalar (30-34-moddalar)

### **I. UMUMIY QOIDALAR**

- 1-modda. Ushbu Qonunning maqsadi
- 2-modda. Ta'lismiz to'g'risidagi qonun xujjatlari
- 3-modda. Ta'lismiz soxasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari
- 4-modda. Bilim olish xuquqi
- 5-modda. Pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish xuquqi
- 6-modda. Ta'lismiz muassasasining xuquqiy maqomi
- 7-modda. Davlat ta'lismiz standartlari
- 8-modda. Ta'lismiz berish tili

#### **1-modda. Ushbu Qonunning maqsadi**

Ushbu Qonun fuqarolarga ta'lismiz, tarbiya berish, kasb-xunar o'rgatishning xuquqiy asoslarini belgilaydi xamda xar kimning bilim olishdan iborat konstitutsiyaviy xuquqini ta'minlashga qaratilgan.

#### **2-modda. Ta'lismiz to'g'risidagi qonun xujjatlari**

Ta'lismiz to'g'risidagi qonun xujjatlari ushbu Qonundan xamda boshqa qonun xujjatlardan iborat.

Qoraqalpog'iston Respublikasida ta'lismiz soxasidagi munosabatlar Qoraqalpog'iston Respublikasining qonun xujjatlari bilan xam tartibga solinadi.

Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida ta'lismiz to'g'risidagi qonun xujjatlardidan o'zgacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnomada qoidalar qo'llaniladi.

#### **3-modda. Ta'lismiz soxasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari**

Ta'lismiz O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy taraqqiyoti soxasida ustuvor deb e'lon qilinadi.

Ta'lismiz soxasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:  
ta'lismiz va tarbiyaning insonparvar, demokratik xarakterda ekanligi;  
ta'lismizning uzuksizligi va izchilligi;  
umumiy o'rta, shuningdek o'rta maxsus, kasb-xunar ta'lismizning majburiyligi;  
o'rta maxsus, kasb-xunar ta'lismiz yo'nalishini: akademik litseyda yoki kasb-xunar kollejida o'qishni tanlashning ixtiyoriyligi;  
ta'lismiz tizimining dunyoviy xarakterda ekanligi;  
davlat ta'lismiz standartlari doirasida ta'lismiz olishning xamma uchun ochiqligi;  
ta'lismiz dasturlarini tanlashga yagona va tabaqalashtirilgan yondashuv;  
bilimli bo'lishni va iste'dodni rag'batlantirish;  
ta'lismiz davlat va jamoat boshqaruvini uyg'unlashtirish.

#### **4-modda. Bilim olish xuquqi**

Jinsi, tili, yoshi, irqiy, milliy mansubligi, e'tiqodi, dinga munosabati, ijtimoiy kelib chiqishi, xizmat turi, ijtimoiy mavqeい, turar joyi, O'zbekiston Respublikasi xududida qancha vaqt yashayotganligidan qat'i nazar, xar kimga bilim olishda teng xuquqlar kafolatlanadi.

Bilim olish xuquqi:

davlat va nodavlat ta'lim muassasalarini rivojlantirish;  
ishlab chiqarishdan ajralgan va ajralmagan xolda ta'lim olishni tashkil etish;  
ta'lim va kadrlar tayyorlash davlat dasturlari asosida bepul o'qitish, shuningdek ta'lim muassasalarida shartnomada asosida to'lov evaziga kasb-xunar o'rgatish;

barcha turdag'i ta'lim muassasalarining bitiruvchilari keyingi bosqichdagi o'quv yurtlariga kirishda teng xuquqlarga ega bo'lishi;

oilada yoki o'zi mustaqil ravishda bilim olgan fuqarolarga akkreditatsiyadan o'tgan ta'lim muassasalarida eksternat tartibida attestatsiyadan o'tish xuquqini berish orqali ta'minlanadi.

Boshqa davlatlarning fuqarolari O'zbekiston Respublikasida xalqaro shartnomalarga muvofiq bilim olish xuquqiga ega.

Respublikada istiqomat qilayotgan fuqaroligi bo'lмагan shaxslar bilim olishda O'zbekiston Respublikasi fuqarolari bilan teng xuquqlarga ega.

#### **5-modda. Pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish xuquqi**

Tegishli ma'lumoti, kasb tayyorgarligi bor va yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo'lgan shaxslar pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish xuquqiga ega.

Pedagog xodimlarni oliy o'quv yurtlariga ishga qabul qilish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi tasdiqlagan Nizomga muvofiq tanlov asosida amalga oshiriladi.

Pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish sud xukmiga asosan man etilgan shaxslarning ta'lim muassasalarida bu faoliyat bilan shug'ullanishiga yo'l qo'yilmaydi.

#### **6-modda. Ta'lim muassasasining xuquqiy maqomi**

Ta'lim muassasasini akkreditatsiyalash vakolatli davlat organi tomonidan attestatsiyaga asosan amalga oshiriladi.

Ta'lim muassasasi yuridik shaxs bo'lib, qonun xujjalarda belgilangan tartibda barpo etiladi. Nodavlat ta'lim muassasasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi belgilagan tartibda davlat akkreditatsiyasidan o'tgan paytdan boshlab yuridik shaxs xuquqlari va ta'lim faoliyati bilan shug'ullanish xuquqiga ega bo'ladi.

Ta'lim muassasasi qonun xujjalarda muvofiq ishlab chiqilgan ustav asosida faoliyat ko'rsatadi.

Ta'lim muassasasi attestatsiya natijalariga binoan davlat akkreditatsiyasidan maxrum etilishi mumkin.

Ta'lim muassasalari o'quv-tarbiya majmuilariga xamda o'quv-ilmiy-ishlab chiqarish birlashmalari va uyushmalariga birlashishga xaqli.

Ta'lim muassasalari ustavda belgilangan vazifalariga muvofiq pulli ta'lim xizmatlari ko'rsatish, shuningdek tadbirkorlik faoliyatining boshqa turlari bilan shug'ullanishga xaqli.

#### **7-modda. Davlat ta'lim standartlari**

Davlat ta'lim standartlari umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-xunar va oliy ta'lim mazmuniga xamda sifatiga qo'yiladigan talablarni belgilaydi.

Davlat ta'lim standartlarini bajarish O'zbekiston Respublikasining barcha ta'lim muassasalari uchun majburiydir.

#### **8-modda. Ta'lim berish tili**

Ta'lim muassasalarida ta'lim berish tilidan foydalanish tartibi Davlat tili xaqidagi O'zbekiston Respublikasi Qonuni bilan tartibga solinadi.

### **II. TA'LIM TIZIMI VA TURLARI**

9-modda. Ta'lim tizimi

10-modda. Ta'lim turlari

11-modda. Maktabgacha ta'lim

12-modda. Umumiy o'rta ta'lim

13-modda. O'rta maxsus, kasb-xunar ta'limi

14-modda. Oliy ta'lim

15-modda. Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim

16-modda. Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash

17-modda. Maktabdan tashqari ta'lim

18-modda. Oiladagi ta'lim va mustaqil ravishda ta'lim olish

19-modda. Ta'lim to‘g‘risidagi xujjatlar

#### **9-modda. Ta'lim tizimi**

O‘zbekiston Respublikasining ta'lim tizimi quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

davlat standartlariga muvofiq ta'lim dasturlarini amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim muassasalari;

ta'lim tizimining faoliyat ko‘rsatishi va rivojlanishini ta'minlash uchun zarur bo‘lgan tadqiqot ishlarini bajaruvchi ilmiy-pedagogik muassasalar;

ta'lim soxasidagi davlat boshqaruv organlari, shuningdek ularga qarashli korxonalar, muassasalar va tashkilotlar.

O‘zbekiston Respublikasining ta'lim tizimi yagona va uzlucksizdir.

#### **10-modda. Ta'lim turlari**

O‘zbekiston Respublikasida ta'lim quyidagi turlarda amalga oshiriladi:

maktabgacha ta'lim; umumiy o‘rta ta'lim; o‘rta maxsus, kasb-xunar ta'limi; oliy ta'lim; oliy o‘quv yurtidan keyingi ta'lim; kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash; maktabdan tashqari ta'lim.

#### **11-modda. Maktabgacha ta'lim**

Maktabgacha ta'lim bola shaxsini sog‘lom va yetuk, maktabda o‘qishga tayyorlangan tarzda shakllantirish maqsadini ko‘zlaydi. Bu ta'lim olti-yetti yoshgacha oilada, bolalar bog‘chasida va mulk shaklidan qat‘i nazar, boshqa ta'lim muassasalarida olib boriladi.

#### **12-modda. Umumiy o‘rta ta'lim**

Umumiy o‘rta ta'lim bosqichlari quyidagicha:

boshlang‘ich ta'lim (I-IV sinflar);

umumiy o‘rta ta'lim (I-IX sinflar).

Boshlang‘ich ta'lim umumiy o‘rta ta'lim olish uchun zarur bo‘lgan savodxonlik, bilim va ko‘nikma asoslarini shakllantirishga qaratilgandir. Maktabning birinchi sinfiga bolalar olti-yetti yoshidan qabul qilinadi.

Umumiy o‘rta ta'lim bilimlarning zarur hajmini beradi, mustaqil fikrslash, tashkilotchilik qobiliyati va amaliy tajriba ko‘nikmalarini rivojlantiradi, dastlabki tarzda kasbga yo‘naltirishga va ta'limning navbatdagi bosqichini tanlashga yordam beradi.

Bolalarning qobiliyati, iste’dodini rivojlantirish uchun ixtisoslashtirilgan maktablar tashkil etilishi mumkin.

#### **13-modda. O‘rta maxsus, kasb-xunar ta'limi**

O‘rta maxsus, kasb-xunar ta'lim olish maqsadida xar kim umumiy o‘rta ta'lim asosida akademik litseyda yoki kasb-xunar kollejida o‘qishning yo‘nalishini ixtiyoriy ravishda tanlash xuquqiga ega.

Akademik litseylar va kasb-xunar kollejlari egallangan kasb-xunar bo‘yicha ishslash xuquqini beradigan xamda bunday ish yoki ta'limni navbatdagi bosqichda davom ettirish uchun asos bo‘ladigan o‘rta maxsus, kasb-xunar ta'limi beradi.

Akademik litsey o‘quvchilarining intellektual qobiliyatlarini jadal o‘stirishni, ularning chuqur, tabaqa lashtirilgan va kasb-xunarga yo‘naltirilgan bilim olishlarini ta’minkaydigan uch yillik o‘rta maxsus o‘quv yurtidir.

Kasb-xunar kolleji o‘quvchilarining kasb-xunarga moyilligi, maxorat va malakasini chuqur rivojlantirishni, tanlangan kasblar bo‘yicha bir yoki bir necha ixtisos olishni ta’minkaydigan uch yillik o‘rta kasb-xunar o‘quv yurtidir.

#### **14-modda. Oliy ta'lim**

Oliy ta'lim yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashni ta‘minlaydi.

Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash oliy o‘quv yurtlarida (universitetlar, akademiyalar, institutlar va oliy maktabning boshqa ta'lim muassasalarida) o‘rta maxsus kasb-xunar ta'limi asosida amalga oshiriladi.

Oliy ta'lif ikki bosqichga: davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi oliy ma'lumot to'g'risidagi xujjatlar bilan dalillanuvchi bakalavriat va magistraturaga ega.

Bakalavriat oliy ta'lif yo'nalişlaridan biri bo'yicha puxta bilim beradigan, o'qish muddati kamida to'rt yil bo'lgan tayanch oliy ta'lifdir.

Magistratura aniq mutaxassislik bo'yicha bakalavriat negizida kamida ikki yil davom etadigan oliy ta'lifdir.

Fuqarolar ikkinchi va undan keyingi oliy ma'lumotni shartnoma asosida olishga xaqlidirlar.

### **15-modda. Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lif**

Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lif jamiyatning ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlarga bo'lgan extiyojlarini ta'minlashga qaratilgandir. Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lif oliy o'quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot muassasalarida (aspirantura, adyunktura, doktorantura, mustaqil tadqiqotchilik) olinishi mumkin.

Ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlash, ilmiy darajalar va unvonlar berish tartibi qonun xujjatlarida belgilanadi.

### **16-modda. Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash**

Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash kasb bilimlari va ko'nikmalarini chuqurlashtirish xamda yangilashni ta'minlaydi.

Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi tomonidan belgilanadi.

### **17-modda. Maktabdan tashqari ta'lif**

Bolalar va o'smirlarning yakka tartibdagi extiyojlarini qondirish, ularning bo'sh vaqtini va dam olishini tashkil etish uchun davlat organlari, jamoat birlashmalari, shuningdek boshqa yuridik va jismoniy shaxslar madaniy-estetik, ilmiy, texnikaviy, sport va boshqa yo'nalishlarda maktabdan tashqari ta'lif muassasalarini tashkil etishlari mumkin.

Maktabdan tashqari ta'lif muassasalariga bolalar, o'smirlar ijodiyoti saroylari, uylari, klublari va markazlari, bolalar-o'smirlar sport maktablari, san'at maktablari, musiqa maktablari, studiyalar, kutubxonalar, sog'lomlashtirish muassasalarini va boshqa muassasalar kiradi.

Maktabdan tashqari ta'lif muassasalarining faoliyat ko'rsatish tartibi qonun xujjatlarida belgilab qo'yiladi.

### **18-modda. Oiladagi ta'lif va mustaqil ravishda ta'lif olish**

Davlat oilada ta'lif olishga va mustaqil ravishda ta'lif olishga ko'maklashadi. Bolalarni oilada o'qitish va mustaqil ravishda ta'lif olish tegishli ta'lif muassasalarining dasturlari bo'yicha amalga oshiriladi. Ta'lif oluvchilarga vakolatli davlat muassasalarini tomonidan uslubiy, maslaxat va boshqa yo'sinda yordam ko'rsatiladi.

### **19-modda. Ta'lif to'g'risidagi xujjatlar**

Akkreditatsiya qilingan ta'lif muassasalarining bitiruvchilariga davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi ma'lumot to'g'risidagi xujjat (shaxodatnomma, diplom, sertifikat, guvoxnama) beriladi. Davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi ma'lumot to'g'risidagi xujjat oilada ta'lif olgan yoki mustaqil ravishda bilim olgan va akkreditatsiya qilingan ta'lif muassasalarining tegishli ta'lif dasturlari bo'yicha ekstern tartibida imtixonlar topshirigan shaxslarga xam beriladi, davlat ta'lif muassasalarida o'qitilishi shart bo'lgan va ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi tomonidan belgilab qo'yiladigan mutaxassisliklar bundan mustasno.

Oliy ma'lumot to'g'risidagi diplomga o'zlashtirilgan fanlar ro'yxati, ularning hajmlari va fanlarga qo'yilgan baxolar yozilgan varaqalar qilinadi.

Dissertatsiya ximoya qilgan shaxslarga belgilangan tartibda fan nomzodi yoki fan doktori ilmiy darajasi beriladi va davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi diplom topshiriladi.

Davlat ta’lim standartlariga mos kelgan taqdirda O’zbekiston Respublikasi bilan xorijiy davlatlarning xukumatlari o’rtasidagi ikki tomonlama bitimlar asosida xar ikki tomonning ma’lumot to‘g‘risidagi xujjatlari belgilangan tartibda o‘zaro tan olinishi mumkin.

Tegishli bosqichdagi ta’limni tugallamagan shaxslarga belgilangan namunadagi ma’lumotnomha beriladi.

Davlat tasdiqlagan namunadagi ma’lumot to‘g‘risidagi xujjat navbatdagi bosqich ta’lim muassasalarida ta’lim olishni davom ettirish yoki tegishli ixtisoslik bo‘yicha ishlash xuquqini beradi.

### **III. TA’LIM JARAYONI QATNASHCHILARINI IJTIMOIY HIMoya QILISH**

**20-modda. Ta’lim oluvchilarini ijtimoiy ximoya qilish**

**21-modda. Ta’lim muassasalari xodimlarini ijtimoiy ximoya qilish**

**22-modda. Yetim bolalarni va ota-onalarining yoki boshqa qonuniy vakillarining vasiyligisiz qolgan bolalarni o‘qitish**

**23-modda. Jismoniy yoki ruxiy rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar va o‘smirlarni o‘qitish**

**24-modda. Ijtimoiy yordamga va tiklanishga muxtoj bo‘lgan shaxslar uchun o‘quv-tarbiya muassasalari**

#### **20-modda. Ta’lim oluvchilarini ijtimoiy himoya qilish**

Ta’lim muassasasida ta’lim oluvchilar qonun xujjatlari va normativ xujjatlarga muvofiq imtiyozlar, stipendiya va yotoqxonada joy bilan ta’minlanadi.

#### **21-modda. Ta’lim muassasalari xodimlarini ijtimoiy himoya qilish**

Ta’lim muassasalari xodimlariga ish vaqtining qisqartirilgan muddati belgilanadi, xaqi to‘lanadigan yillik uzaytirilgan ta’tillar xamda qonun xujjatlari nazarda tutilgan imtiyozlar beriladi.

Ta’lim muassasalari ish xaqiga mo‘ljallangan mavjud mablag‘lar doirasida mustaqil ravishda stavkalar, mansab okladlariga tabaqlashtirilgan ustama belgilashga xamda mexnatga xaq to‘lash va uni rag‘batlantirishning turli shakllarini qo‘llashga xaqli.

#### **22-modda. Yetim bolalarni va ota-onalarining yoki boshqa qonuniy vakillarining vasiyligisiz qolgan bolalarni o‘qitish**

Yetim bolalarni va ota-onalarining yoki boshqa qonuniy vakillarining vasiyligisiz qolgan bolalarni o‘qitish va ularni boqish davlatning to‘la ta’minoti asosida qonun xujjatlari belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

#### **23-modda. Jismoniy yoki ruxiy rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar va o‘smirlarni o‘qitish**

Jismoniy yoki ruxiy rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan, shuningdek uzoq vaqt davolanishga muxtoj bo‘lgan bolalar va o‘smirlarni o‘qitish, ularni tarbiyalash xamda davolash uchun ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari tashkil etiladi. Bolalar va o‘smirlarni ushbu ta’lim muassasalariga yuborish va ulardan chiqarish ota-onalarining yoki boshqa qonuniy vakillarining roziligi bilan psixologik-tibbiy-pedagogik komissiyaning xulosasiga binoan amalga oshiriladi.

Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalarining o‘quvchilari qisman yoki to‘la davlat ta’minotida bo‘ladi.

#### **24-modda. Ijtimoiy yordamga va tiklanishga muxtoj bo‘lgan shaxslar uchun o‘quv-tarbiya muassasalari**

Aloxida sharoitlarda tarbiyalanish va o‘qishga muxtoj bo‘lgan bolalar va o‘spirinlar uchun ularning bilim olishi, kasb tayyoragarligi va ijtimoiy tiklanishini ta’minkaydigan ixtisoslashtirilgan o‘quv-tarbiya muassasalari tashkil etiladi.

Ozodlikdan maxrum qilish tariqasidagi jazoni o‘tash muassasalarida saqlanayotgan shaxslarning ta’lim olishi va mustaqil bilim olishi uchun qonun xujjatlari belgilangan tartibda sharoitlar yaratiladi.

#### **IV. TA'LIM TIZIMINI BOSHQARISH**

25-modda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining ta'lif soxasidagi vakolatlari

26-modda. Ta'lifni boshqarish bo'yicha maxsus vakolat berilgan davlat organlarining xuquq doirasi

27-modda. Maxalliy davlat xokimiyati organlarining ta'lif soxasidagi vakolatlari

28-modda. Ta'lif muassasasini boshqarish

29-modda. Ta'lif soxasidagi davlat boshqaruvi organlari bilan nodavlat ta'lif muassasalari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar

#### **25-modda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining ta'lif soxasidagi vakolatlari**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining ta'lif soxasidagi vakolatlariga quyidagilar kiradi:

ta'lif soxasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish;

ta'lif soxasidagi davlat boshqaruvi organlariga raxbarlik qilish;

ta'lifni rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish;

ta'lif muassasalarini tashkil etish, qayta tashkil etish va tugatish tartibini belgilash;

ta'lif muassasalarini akkreditatsiyadan, pedagog, ilmiy kadrlarni attestatsiyadan o'tkazish tartibini belgilash;

boshqa davlatlarning ta'lif muassasalariga O'zbekiston Respublikasining xududida ta'lif faoliyati bilan shug'ullanish xuquqini beruvchi ruxsatnomalar berish;

qonun xujjalariiga muvofiq xorijiy davlatlarning ta'lif to'g'risidagi xujjalarni tan olish va xujjalarning ekvivalent ekanligini qayd etish tartibini belgilash;

davlat ta'lif standartlarini tasdiqlash;

davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi ma'lumot to'g'risidagi xujjalarni tasdiqlash va ularni berish tartibini belgilash;

davlat grantlari miqdori va ta'lif muassasalariga qabul qilish tartibini belgilash;

davlat oliy ta'lif muassasasining rektorlarini tayinlash;

ta'lif oluvchilarni akkreditatsiya qilingan bir ta'lif muassasasidan boshqasiga o'tkazish tartibini belgilash;

qonun xujjalariiga muvofiq boshqa vakolatlar.

#### **26-modda. Ta'lifni boshqarish bo'yicha maxsus vakolat berilgan davlat organlarining xuquq doirasiga quyidagilar kiradi:**

Ta'lifni boshqarish bo'yicha maxsus vakolat berilgan davlat organlarining xuquq doirasiga quyidagilar kiradi:

ta'lif soxasida yagona davlat siyosatini ro'yobga chiqarish;

ta'lif muassasalari faoliyatini muvofiqlashtirish va uslub masalalarida ularga raxbarlik qilish;

davlat ta'lif standartlari, mutaxassislarining bilim saviyasi va kasb tayyorgarligiga bo'lgan talablar bajarilishini ta'minlash;

o'qitishning ilg'or shakllari va yangi pedagogik texnologiyalarni, ta'lifning texnik va axborot vositalarini o'quv jarayoniga joriy etish;

o'quv va o'quv-uslubiyat adabiyotlarini nashr etishni tashkil qilish;

ta'lif oluvchilarning yakuniy davlat attestatsiyasi va davlat ta'lif muassasalarida eksternat to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash;

davlat oliy ta'lif muassasasining rektorini tayinlash to'g'risida Vazirlar Maxkamasiga takliflar kiritish;

pedagog xodimlarni tayyorlashni, ularning malakasini oshirishni va qayta tayyorlashni tashkil etish;

qonun xujjalariiga muvofiq boshqa vakolatlar.

#### **27-modda. Maxalliy davlat xokimiyati organlarining ta'lif soxasidagi vakolatlari**

Mahalliy davlat hokimiyati organlari:  
ta'lim muassasalari faoliyatining mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish extiyojlariga muvofiqligini ta'minlaydilar;  
ta'lim muassasalarini tashkil etadilar, qayta tashkil etadilar va tugatadilar, (respublika tasarrufida bo'lgan muassasalar bundan mustasno), ularning ustavlarini ro'yxatga oladilar;  
o'z xududlaridagi ta'lim muassasalarini vakolat doirasida moliyalash miqdorlarini va imtiyozlarni belgilaydilar;  
ta'lim sifati va darajasiga, shuningdek pedagog xodimlarning kasb faoliyatiga bo'lган davlat talablariga rioya etilishini ta'minlaydilar;  
qonun xujjalari muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshiradilar.

### **28-modda. Ta'lim muassasasini boshqarish**

Ta'lim muassasasini uning raxbari boshqaradi.

Ta'lim muassasalarida qonun xujjalari muvofiq faoliyat ko'rsatadigan jamoat boshqaruvi organlari tashkil etilishi mumkin.

### **29-modda. Ta'lim soxasidagi davlat boshqaruvi organlari bilan nodavlat ta'lim muassasalari o'rjisidagi o'zaro munosabatlar**

Ta'lim soxasidagi davlat boshqaruvi organlari nodavlat ta'lim muassasalarida ta'lim to'g'risidagi qonun xujjalari rioya etilishini nazorat qiladi.

Nodavlat ta'lim muassasalari ta'lim to'g'risidagi qonun xujjalari buzgan taqdirda, akkreditatsiya qilgan organlar ularning faoliyatini qonun xujjalari muvofiq to'xtatib qo'yishga xaqli.

Nodavlat ta'lim muassasalariga qabul davlat o'quv yurtlari uchun belgilangan tartibda va muddatlarda amalga oshiriladi.

## **V. YAKUNLOVCHI XULOSALAR**

30-modda. Ota-onalar yoki qonuniy vakillarning vazifalari

31-modda. Ta'limni moliyalash

32-modda. Ta'limni rivojlantirish fondlari

33-modda. Xalqaro xamkorlik

34-modda. Ta'lim to'g'risidagi qonun xujjalari buzganlik uchun javobgarlik

### **30-modda. Ota-onalar yoki qonuniy vakillarning vazifalari**

Voyaga yetmagan bolalarning ota-onalari yoki qonuniy vakillari bolaning qonuniy xuquqlari va manfaatlarini ximoya qilishlari shart xamda ularning tarbiyasi, maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-xunar ta'limi olishlari uchun javobgardirlar.

### **31-modda. Ta'limni moliyalash**

Davlat ta'lim muassasalarini moliyalash respublika va maxalliy budgetlar mablag'lari, shuningdek budgetdan tashqari mablag'lar hisobidan amalga oshiriladi.

### **32-modda. Ta'limni rivojlantirish fondlari**

Ta'limni rivojlantirish fondlari qonun xujjalari belgilangan tartibda yuridik va jismoniy shaxslarning, shu jumladan, chet ellik yuridik va jismoniy shaxslarning ixtiyoriy badallari hisobidan tashkil etilishi mumkin.

### **33-modda. Xalqaro hamkorlik**

Ta'lim muassasalari ta'lim muammolari yuzasidan xalqaro xamkorlikda ishtirok etadilar, chet davlatlarning tegishli o'quv yurtlari bilan bevosita aloqalar o'rnatish, qonun hujjalari belgilangan tartibda ular bilan qo'shma o'quv yurtlari tashkil etish xuquqiga ega.

### **34-modda. Ta'lim to'g'risidagi qonun hujjalari buzganlik uchun javobgarlik**

Ta'lim to'g'risidagi qonun hujjalari buzishda aybdor bo'lgan shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.



## MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT

Avlayarova Nargiza Maxmudovna 1973 yilda tug'ilgan. Millati o'zbek. 1979 -1990 yillarda o'rta maktabda o'qidi. 1990-1995 yillar TDTU Qarshi filiali talabasi. 1995-1996 yillarda Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti "Neft va gaz ish" kafedrasi stajyor o'qituvchisi. 1996-2009 yillarda Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti "Neft va gaz ish" kafedrasi assistenti. 2009-2010 yillarda Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti "Neft va gaz ish" kafedrasi katta o'qituvchisi. 2011yildan hozirgi kungacha Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti "Neft va gaz konlarini ishga tushirish va ulardan foydalanish" kafedrasida katta o'qituvchi bo'lib ishlab kelmoqda